

KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2024-yil, 3-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lif
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dessertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani
Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri mualif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 5.05.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Daminova Sh.F. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishirishda ertaklarning o'rni.....	3
Soliyev N.S. Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstrukturlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari	7
Xudaberdiyeva X.K. Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	11
Abdutfattoxova M.B. Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "ustoz shogird" an'analarining metodologik asoslari	15
Baxritdinova G.E. Ilk yoshdagagi nutq nuqsoniga ega bolalarni oilada tarbiyalash	19
Suleymanova M.P. Tarbiya darslarida o'quvchilarini mustaqil fikrashga o'rgatishning nazariy-amaliy asoslari	23
Нурбоев Ш. Алномиш достонини ўрганишда фанлараро боғлиқлик тамоили	27
Zaripov M.S. Uzoqni o'ylab qo'yilgan qadam	31
Нумонжонова Ф. Сибборд - новая технология в дошкольной образовательной организации	35
G'ayirova G.N. Egra va egma xalqaro baholash dasturlari	38
Чернова Н.В. Лингвокультурная специфика фразеологизмов в процессе преподавания русского языка	41
Soliyev I.S., Nuriddinova M.Sh. O'quvchilarning dars jarayonlarida jismoniy toliqishlarini oldini oluvchi interaktiv metodlar	47
Бекмуратов А. Akmeologik ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда прогнозлаши компетенциясини rivojlantirishi	51
Uzoqboev X.B. Raqamli ta'lif resurslarini 4-sinf o'quvchilari uchun tabiiy fanlar bo'yicha o'quv jarayoniga integratsiya qilish	55
Ismoilov T.I. Pedagogik o'yinlar bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish vositasiga sifatida	59
Mamatkulova N.B. Interfaol o'qitish metodlari nutq madaniyatini rivojlantirish vositasiga sifatida	63
Xalmuratova Sh.B. Bo'lajak o'qituvchilarning riskologik madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	67
Gafurova D.S. Maktabgacha ta'lifda steam ta'limi asosida tadqiqot faoliyatini tashkil etish usullari	71
Xodjanov A.R. Oliy ta'lif muassasalarida talabalarning jismoniy tarbiysi	77
Abdullahayeva L.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga kompleks tayyorlashda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning o'rni	81
Masharipova M.I., Matyusupov q.Sh. Shaxmat o'yinini o'rganish jarayonida boshlang'ich makkab yoshidagi bolalarning xotira va mantiqiy fikrashni rivojlantirish	85
Abdullahayeva N.O'. Eshitishda nuqsonida bo'lgan shaxslar uchun imoishsha tillarning geneologik, morfologik tasniflari	92
Xolmatova G.O. 5-6 Yoshdagagi bolalarning psixologik va aqliy rivojlanishiga noyo'ya ta'sir etuvchi omillar	95
Normatova M.K. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashning nazariy asoslari	99
Akramova X.S. Aqli zaif o'quvchilar mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ...	103
Boltayeva R.A. Kimyo fanini individual yondashuv asosida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari	107
Kenjayev Sh. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi	111
Qirg'izov I. Onalar allasi – inson kamoloti omili sifatida	119
Fayzullayeva M.N. Sintaktik aloqa vositasiga bo'lishga xoslangan birliklar tahlili	123
Usmonov A.N. Maktab ta'limi jarayonida deviant xulqli o'quvchilarni mehnat vositasida tarbiyalash imkoniyatlari	129
Radjabov B.Sh., Murodillayeva n.B. Oliy ta'lif muassasalarida matematik fanlarni modulli o'qitish texnologiyalari	133
Yakubova M.A. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish texnologiyasi.....	138



Gaynazarova G.A., Kasimova D.B. Oliy ta'limda individual ta'limni tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari	142
Toshmurodov D.A. Integrativ yondashuv asosida biokimyo fanini xorijiy tajribalar asosida o'qitish metodikasi	147
Бекбергенова Г.С. Хукуқ таълимида матнли ўқув материалларининг визуал-методик таъминотини шакллантиришда график органайзерлардан фойдаланиши	150
Xummamatova K.X. Interfaol o'qitish metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish	154
Quziyev S.I. "Turistik maqsadlar uchun ingliz tili" (etp) gidlar faoliyati: ehtiyojlar va muammolar	162
Raimov G'.F. Fizikadan algebraik va geometrik masalalarni yechish metodikasi takomillashtirish	171
Mamatkulova K.A. Pedagog xodimlar kasbiy faolligini oshirishda ta'lim muassasasi menejerining vazifalari	177
Abdullaeva G.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali va izohli o'qishga o'rgatish komponentlari	181
Mamajonova K.A. "Maktab – kasb-hunar maktabi – korxona" ta'lim integratsiyasi bosqichlari	187
Mo'yдинова D.Q. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisida kasb madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	191
Parpiyev O.O. Fikrni yozma ifodalashda pragmatik yondashuv	196
Qurbanov P.S. Masofaviy ta'lim tizimining interfaol metodlari va uning natijalarini informatika fani misolida o'rganish	202
Adilov P.A., Isoqjonova M.M. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	208
Madraximov Sh.Sh., Madraximov M.A. Informatika ta'limida samr texnologiyasidan foydalanish	213
Ummatova M.A., Sulaymonov M. Ko'phadlar mavzusini o'qitishda fanlararo aloqadorlik -ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida ...	217
Yuldashev N.A. Implementing an Automatic Question Generation System for Learning Management Systems Using Artificial Intelligence (AI) and Natural Language Processing (NLP)	227
Zaripova A.Sh. Talabalarining o'qitish strategiyasini rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar (geografiya sohasiga oid terminlar misolida).....	231
Ихласова И. Интернет ва ижтимоий тармокларнинг оилавий муносабатларга таъсири	235

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI

DAMINOVA SHOXISTA FARXODOVNA

**Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang'ich
yo'nalishlarida masofaviy ta'lif kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lif tarbiyasida, ularni estetik jihatdan tarbiyalash, badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ertaklarning o'rni va ahamiyatini, shuningdek, bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlar hamda shakllarini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, ertak, illyustrasiya, aqliy, axloqiy-estetik.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение сказки в обучении дошкольников, их эстетическом воспитании, приобщении к художественной литературе, а также особенности и формы детской литературы.

Ключевые слова: художественный образ, художественная литература, фольклор, сказка, иллюстрация, интеллектуальное, нравственно-эстетическое.

Abstract. This article analyzes the role and importance of fairy tales in the education of children of preschool age, their aesthetic education, introduction to fiction, as well as the unique features and forms of children's literature.

Key words: artistic image, fiction, folklore, fairy tale, illustration, intellectual, moral-aesthetic.

KIRISH

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rinni tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtida u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G.Belinskiy: "Bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi. Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi" - degan edi.[1]. Badiiy adabiyotning qimmati bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidadir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-

harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi.[2] Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ertaklarning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalarini ko'rsatadi. Badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'limgan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Badiiy so'zga muhabbatni ilk

yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog‘chadan mактабга ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevадиган bo‘lib qолади. Xalq og‘zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shиqlarning ko‘plari uzoq o‘tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan tur mush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarniyengadigandovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo‘lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg‘anchiqlikka, makr-xiyлага nisbatan murosasiz bo‘lishga majbur etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she’r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she’rlari, topishmoqlar, masallar kiradi. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko‘p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan histuyg‘ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba’zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o‘tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o‘z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) aytا bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she’r, hikoya, ertak) lozim. Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o‘qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani

diqqat bilan ko‘zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog‘cha bolalarda kitobga bo‘lgan qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o‘rtoqlashish istagi va ko‘nikmasini tarbiyalashi lozim.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo‘lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya’ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o‘zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko‘rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim. Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o‘qib beradigan ertaklarni tavsiya ro‘yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his-tuyg‘u va xulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o‘zaro munosabatlarini, o‘yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir ertakni tevarak-atrofdaga ma’lum hodisalar bilan bog‘lash va o‘sha vaqtadagina o‘qib berish lozim, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog‘liq mavzuni o‘qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtida ham bunday kitob o‘qishni o‘tkazish lozim. Tarbiyachi ertak tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so‘zлari ko‘p bo‘lgани uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan ertaklarni o‘qimagan ma’qul. Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg‘ulotlar g‘oyat osoyishta sharoit yaratishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg‘itmasligi lozim. Mashg‘ulotlarni tez uyuştirish, uni

bolalar adabiyotiga xos sog'lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o'tkazish kerak.

Ba'zan tarbiyachi muqaddima so'zida asarning nomi, muallifning ismi, mavzuni ma'lum qiladi. Masalan, «Bugun men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan «Aqli qiz qanday qilib qizg'anchiq boyni aldagani»ni o'qib beraman. Mashg'ulotni muqaddima suhbati bilan boshlash mumkin. Masalan, S.Y.Marshakning «O'n ikki oy» ertagini o'qib berishdan oldin:[3]

Tarbiyachi: Bolalar, bir yilda necha oy borligini bilasizlarmi?

Bolalar yoki tarbiyachi: O'n ikki oy.

Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi? Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo'lsa, ularning javoblarini tuzatadi.

Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hali hech qachon fevral yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o'tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hech qachon bir-biri bilan uchrashmaydi.

– bir qiz bir vaqtning o'zida o'n ikki oyning hammasini ko'rganligi haqida hikoya qiladi. Bu qanday bo'lgan? Mana bunday Keyin tarbiyachi kitobdan o'qiy boshlaydi. Ertak o'qib bo'lingach, qizcha bir vaqtning o'zida birdaniga o'n ikki oyni qanday ko'rganligi, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam bergenligi va boshqalar haqida suhbati o'tkazgan ma'qul. Ayniqsa, axloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo'lgan kitoblarni o'qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi.

Axloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda axloqiy sifatlar, xulq-atvorning ijobiylarini tarkib toptirishga yordam beradi. Sh.Sa'dullaning «Injiq qizcha», L.N. Tolstoyning «Danak», V. Oseyevaning «Sehrli so'z» degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi. Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning

g'oyaviy mazmunini tushunib olishlaridir. [4] Bunda muqaddima suhbati katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi. Masalan, maktabga tayyorlov guruhida Sh.Sa'dullaning «Injiq qiz»[5] she'rini o'qib berishdan oldin tarbiyachi bolalarga bunday savol beradi: «Bolalar, yaxshilab o'ylang va aytинг: qanday qiz haqida – yaxshi qiz va qanday qiz to'g'risida – yomon deyishadi?». Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar kimning yaxshi qiz, kimning yomon qiz deyilishini to'g'ri aytингlar. Hozir men sizlarga Gulbodom degan qiz haqida yozilagan she'rni o'qib beraman. Sizlar yaxshilab eshititing va keyin menga Gulbodomni yaxshi qiz deyish mumkin-munkin emasligini aytasiz. Bu she'r «Injiq qiz» deb ataladi. She'rni shoир Shukur Sa'dulla yozgan. Shundan so'ng tarbiyachi she'rni o'qiy boshlaydi. Axloqiy-estetik mazmundagi kitobni o'qishdan oldin o'tkaziladigan muqaddima suhbati qisqa bo'lishi – 3-5 daqiqadan oshmasligi va albatta bolalar tajribasi bilan bog'lanishi kerak («Kimni biz yaxshi qiz deymiz?» -bu savol bolalar tajribasiga va kitob mazmuniga qaratilgan). Axloqiy-epik mazmundagi kitoblar o'qib bo'lingandan keyin ham suhbat o'tkazishni talab etadi. Bunday suhbatlarda juda ko'p savol va tushuntirishlar bo'lmasisligi lozim, chunki bolalar kitobni o'qish paytidayoq qahramonlar xatti - harakatlarining mohiyatini chuqur anglab oladilar. O'qilgan asar haqida o'tkaziladigan suhbatlarda bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish va bolalarning qahramon va uning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini aytishlariga erishish lozim. Sh. Sa'dullaning she'rini o'qigandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga injiq qizning xulq-atvorini baholashga ko'maklashadigan savollar berish kerak.

Tarbiyachi: Gulbodomni yaxshi qiz deb bo‘ladimi? Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Nima uchun? Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Siz bunday qiz bilan do‘sit bo‘lishni istarmidingiz? Nega?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomni uchratsangiz unga nima degan bo‘lar edingiz? Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomga onangizga qanday g‘amxo‘rlik qilishingiz va yordam

berishingiz haqida nimalarni aytib berar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Xulosa qilib aytganda, bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo‘libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo‘lga qo‘yish g‘oyat muhimki, u bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash imkonini berishi kerak.



Foydalilanigan adabiyotlar:



1. Jo‘raqulov R. To’xtayeva Sh. “Maktabgacha ta’llim muassasalarilarning kichik guruqlarida bolalar nutqini o’stirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” Samarqand, 1991 yil. 17 b.
2. M.Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklori” O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti T.: — 2006 yil.
3. A.Ahrorqulov, A.Rahmonqulov., “Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari” uslubiy ko‘rsatma F., – 2012 yil
4. Jahon xalq ertalkari Sharq. T.: 2022 yil.
5. M.Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklori” O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti T.: — 2006 yil.
6. Internet ma‘lumotlari.

RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SOLIYEV NODIRJON SODIRJON O‘G‘LI
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda talabalarning murrakab vaziyatlarda optimal qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: loyihalash-konstruktorlik kompetensiya, muhandislar, raqamli texnologiyalar, ta’lim, innovatsiya.

Аннотация. Данная статья рассматривает значимость совершенствования методические аспекты развития проектно-конструкторских компетенций у будущих инженеров на основе цифровых технологий. Обоснованы методы развития способности студентов принимать оптимальные решения в сложных ситуациях при подготовке будущих инженеров.

Ключевые слова. проектно-конструкторские компетенции, инженеры, цифровые технологии, образование, инновации.

Annotation. This article examines the importance of improving the methodological aspects of developing design competencies among future engineers based on digital technologies. Methods for developing students' ability to make optimal decisions in difficult situations when training future engineers are substantiated.

Key words: design competencies, engineers, digital technologies, education, innovation.

KIRISH. Bo‘lajak muhandislarni ta’limi rivojlanishining hozirgibosqichiningo‘zigaxos xususiyati raqamlashtirish ta’sirining keskin o‘sishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tahlilar shuni ko‘rsatyaptiki, yaqin kelajakda bo‘lajak muhandislarga qo‘yiladigan talablardan biri ularda raqamli kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zarurati. Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy muhandislarda ham matematik usullar, ham raqamli texnologiyalari usullari va vositalaridan foydalanish bilanuzviybog‘liqdir. Muhandislar texnik ob’ektlarning modellarini qurish va tadqiq qilish, texnik qurilmalarning hisob-kitoblari bilan shug‘ullanishlari kerak, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy yetish bilan raqamli vositalarining jadal rivojlanishi hisoblash matematikasi va dasturlashni ilmiy va amaliy muhandislik

muammolarini hal qilishda eng maqbul vositasi bo‘lib qolyapti. Masalan, V.N.Babich, A.G.Kremlevning ishlarida me’moriy ob’ektning axborot va matematik modelini tuzishda me’moriy loyihada zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish haqida ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. I.M.Stolbova va boshqa mualliflarning ishlarida qurilish sohasida qurilish ob’ektlarini axborot modellashtirish (Building information modeling) texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, yangi yondashuvlarni aniqlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash haqida fikr yuritilgan.

Loyihalash faoliyatining natijasi: matn, chizma, grafik, hisoblash, kompyuter modeli va boshqalar. Muhandisning konstruktorlik faoliyati – ma’lum standart va yangi (ixtiro qilingan) elementlarga asoslangan texnik

tizimning loyihasini ishlab chiqish jarayoni. Loyihalash-konstrukturlik faoliyatining natijasi - maketlar, prototiplar, kompyuter modellari va boshqalar[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. “Loyihalash-konstrukturlik kompetentsiyasi” tushunchasining mohiyatini “kompetentlik” umumiy tushunchasi orqali olib berish maqsadga muvofiqdir. Biz I.L. Dulchayeva, V.N. Pustovoitov, A.V. Xutorskoy[2], kompetentsiyaning integral dinamik sifat xususiyatini ta’kidlaydi, bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan amaldagi me’yorlarga muvofiq ma’lum bir sohada faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradi, shuningdek, Yu.G.Tatura bu faoliyat muvaffaqiyatlari bo‘lishi kerakligiga e’tibor qaratgan[3]. Chunki insonning muvaffaqiyatlari faoliyatga yo‘naltirilganligi kelajakdagi kasbiy faoliyatida shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Raqamli texnologiyalarni mavjud an’anaviy va innovatsion o‘qitish amaliyotiga integratsiyalashuvi raqamlari ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Shu munosabat bilan, bo‘lajak muhandislarning raqamlari kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun axborot va matematik modellashtirish vositalaridan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqishda, bo‘lajak muhandislarni axborot-matematik tayyorlashni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan maqbul usullarini izlash dolzarbdir.

Hozirgi vaqtida bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda innovatsion elektron ta’lim texnologiyalarini an’anaviy o‘quv jarayoni bilan birlashtirgan gibrid (aralash) ta’lim texnologiyasi keng tarqaldi. Raqamlashtirish muammosi mahaliy va xorijiy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda muhokama qilinadigan eng dolzarb mavzulardan biridir. Shu munosabat bilan butun dunyoda muhandislik ta’limini tashkil etishga yangi yondashuvlarni ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunday yondashuvdan biri CDIO (Conceive-Design-Implement-Operate). CDIO (tasavvur qilish-loyihalash-amalga oshirish-ishlash/ixtiro qilish-ishlab chiqish-amalga oshirish-boshqarish) - yangi avlod muhandislarini tayyorlash uchun innovatsion ta’lim muhitining asosiy printsipi. CDIO maqsadi: muhandis-bu dunyonи yaxshi tomonga o‘zgartirishga qodir shaxs.

Bu muhandislik ta’limida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan xalqaro loyihadir. Yangi yondashuv o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirishni, shuningdek muammoli va loyiha asosida o‘qitish tizimini joriy yetishni o‘z ichiga oladi. Loyihaning maqsadi talabalarga haqiqiy tizimlar, jarayonlar va mahsulotlarning hayot aylanishi kontekstida ta’lim berishdir.

Ushbu loyiha keng tarqalgan bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab muhandislik fanlari sohasidagi ta’lim dasturlarini qamrab oladi. Loyihaning maqsadi talabalarni "4P" modeliga muvofiq muhandislik faoliyatini rivojlantirishga asoslangan holda: Conceiving – rejalashtirish, Designing - loyihalash, Implementing - ishlab chiqarish, amalga oshirish, Operating - real tizimlar, jarayonlar va mahsulotlar xalqaro miqyosda bozor. CDIO falsafasi muhandislik ta’limi kontekstini belgilaydi, unda texnik bilimlarni va boshqa ko‘nikmalarni o‘rganish, mashq qilish va rivojlantirish amalga oshiriladigan madaniy makonni shakllantiradi.

Bo‘lajak muhandislarning loyihalash-konstrukturlik kompetentsiyalarini raqamlari texnologiyalar vositasida rivojlantirish muammosi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda tizimli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot davomida bo‘lajak muhandislarni loyihalash-konstrukturlik kompetentsiyalarini raqamlari texnologiyalar vositasida rivojlanishiga ta’sir etuvchi shart-sharoitlarining quyidagi omillari aniqlandi:

Moddiy-texnik baza (binolar, ma’ruza va amaliy mashg‘ulot xonalari, ustaxonalari, laboratoriyalari, o‘quv jihozlari, axborot

texnologiyalari: kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, virtual laboratoriya, televizorlar (audio, video), proyektorlar, mikrofonlar, ovoz uzatish qurilmalari, internet tarmoqlari va boshqalar).

O'quv-metodik ta'minoti (davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari, o'quv rejalar, fan dasturlari, fan sillabuslari, o'quv darsliklari, o'quv qo'llanmalari, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, xorijiy adabiytlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihamalar va boshqalar).

Professor-o'qituvchi tarkibining salohiyati (professor, fan nomzodlari, o'qituvchilar, kabinet mudirlari va laboratoriya mudirlari).

Ta'lim-tarbiya jarayoning ijodiy muxitini shakllanganligi (rahbar va ishchi hodimlarning hamda professor-o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatlari mazmuni, maqsadlar birligi va boshqalar).

Diagnostik vositalarini kompetensiyalirni baholashga qaratilganligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bo'lajak muhandislarning loyihamash-konstrukturlik kompetensiyalarini rivojlantirishda texnik ta'minoti(moddiy-texnik baza: qurilmalar va agregatlar, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar, kompyuterlar), metodik ta'minoti (o'quv dasturlari, o'quv rejalar, fan dasturlari, fan sillabuslari, o'quv darsliklari, o'quv qo'llanmalari, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, xorijiy adabiytlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihamalar) ta'lim vositalari sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga bo'lajak muhandislarning loyihamash-konstrukturlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari sifatida ishtirok etuvchi sub'ektlar (o'qituvchilar, malaka ustalari, texnik xodimlar va boshqalar)ning xatti harakati, yurish-turishi, muomalasi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy faolligi va boshqalar; ta'lim muassasasida qaror topgan shaxslararo munosabat mazmuni; axborot vositalarining bo'lajak muhandislarning loyihamash-konstrukturlik kompetensiyalarini

shakllantirishga ko'rsatayotgan ta'siri va ishtiroti kabilarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda bo'lajak muhandislarni tayyorlashda talabalarning murakkab vaziyatlarda optimal qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday qarorlarni qabul qilishda ulardan kasbiy bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish talab etiladi. Bunga erishish uchun ulardan axborotlar bilan ishslash, istalgan fanlar bo'yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo'lishlari hamda bilimlarini tizimlashtirish(fanlararo o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka erishish) talab etiladi.

Muhandislarni tayyorlash jarayonining sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikka erishishning yangi shakllarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu o'rinda fundamental, xusan, texnik bilimlarni o'zlashtirishda fanlararo uyg'unlikni ta'minlash masalasini tahlil etish uchun ularning metodologik asoslari borasida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Texnik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar bilan o'zaro aloqasi ko'p qirrali muammodir. Shu bois mazkur muammoga nazariy, metodologik va amaliy jihatdan yondashish taqozo etiladi.

Turli yo'nalishlarga taalluqli bilimlar asoslarini uyg'unlashtirish ularning fan, ta'lim, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish hamda iqtisodiyot sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlarning ijtimoiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratadi. O'z navbatida, texnik bilimlar bo'lajak mutaxassisda qat'iyatlilik, puxta rejlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni baholay olish, vaziyatga oqilona yondashish kabi sifatlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega. Bu ko'p jihatdan sub'ektning ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik yo'nalgaligi, shuningdek, jamiyat hayotiga tobora chuqur singib borayotgan texnika taraqqiyoti bilan bog'liq.

XULOSA. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, texnik mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'limni raqamlashtirishning amaliy jarayoni

allaqachon boshlangan va bu tez orada ijobjiy natijalar beradi. Bo‘lajak muhandislar mustaqil keng fikrlashga ega bo‘lishlari

va loyiha ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishlari zarur ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Н. Солиев. Понятия проектно-конструкторских компетенций у будущих инженеров на основе цифровых технологий. Профессиональная образования. 2023 г. т. 7. Стр 9
2. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Москва: Издательство «Эйдос»; Издательство Института образования человека, 2013. 73 с.
3. Татур Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования. Москва, 2004. 18 с.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

XUDAYBERDIYEVA XURIYAT KARIMBERDIYEVNA
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxasislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya: Maqlada yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning kundan-kunga dolzarblashib borayotganligi, ta’lim tizimiga innovatsiyalarni tadbiq etish, yoshlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyalash, innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishda o‘qituvchining roli, darslarning sifat va samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrashga o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish kabi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim, jamiyat, shaxs, tarbiya, fan, ijtimoiy taraqqiyot, interfaol, ma’naviyat, madaniyat, fikr, tushuncha, tafakkur, faoliik, kreativlik.

Аннотация: В статье инновации, реализуемые в сфере образования в нашей стране, с каждым днем становятся все более актуальными, внедрение инноваций в систему образования, воспитание молодежи на основе современных инновационных технологий, роль учителя в применении инновационных технологий в образовательном процессе констатируются качество уроков и такие идеи, как использование интерактивных методов в повышении эффективности, обучении студентов самостоятельно и свободно мыслить.

Ключевые слова: инновация, образование, общество, личность, образование, наука, социальное развитие, интерактив, духовность, культура, мысль, понимание, мышление, деятельность, творчество.

Abstract: In the article, the innovations implemented in the field of education in our country are becoming more relevant day by day, the implementation of innovations in the education system, the education of young people based on modern innovative technologies, the role of the teacher in the application of innovative technologies in the educational process, the quality of lessons and ideas such as the use of interactive methods in increasing the efficiency, teaching students to think independently and freely are stated.

Key words: innovation, education, society, personality, education, science, social development, interactive, spirituality, culture, thought, understanding, thinking, activity, creativity.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida keying yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatishdan iborat. Manashu jarayonda ta’limning barcha bo‘g‘inlariga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning chuqur anglab yetish, har bir innovatsiyaga nisbatan ta’lim oluvchida erkin ijodiy tafakkurni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yurtimizda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlarning tub zamirida yangicha fikrash, yangicha ishslash, ijodiy yondashish kabilarni o‘z ichiga qamrab olgan

innovatsion faoliyatni talab etmoqda. Xo‘sh bugungi kundagi mazmun-mohiyatini qanday tahlil etish mumkin. “Innovatsiya- bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”[1.88]. Shu boisdan ham jamiyatda bugungi kun o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida o‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilarini innovatsion usullardan foydalangan holda bir vaqtning o‘zida ham serqirra bilim, ham yaxshi tarbiya asoslari, ham yuksak ijod namunalari bilan tanishtirib borish, shuning bilan birga ularning jismonan

chiniqishlariga turtki bo‘lishlari lozim.

Mamlakatimizda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi To‘g‘risida”gi Farmonida maktab ta’limini rivojlantirishga oid bir qator maqsadlar belgilangan bulub, unda 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish maqsadida: milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashqdaftarlari, o‘qituvchi metodikakitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish; milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish; umumta’lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish[2] kabi ustivor vazifalar belgilan. “Biz maktab muommosiga bиринчи darajali masala, deb qarashni davom ettirishimiz lozim. Maktab-faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalakdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur”[3.214]. Bunday vazifani bajarish uchun ta’lim tizimiga har bir pedagog yangicha yondashmog‘i lozim.

Pedagog o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo‘laolish, dars o‘tishning zamonaviy usullarini o‘rganish va o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llay olishi kerak. Pedagog o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etishda: ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat

qilish; o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlariga muvofiq sifatli o‘tkazishi; o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi; voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi; ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjalariiga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi[4] talab etiladi.

Shuning uchun ham pedagog dars mashg‘ulotlarini zamonaviy o‘qitish uslublari ya’ni interfaol uslublardan foydalanishi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlarolibkirishinita’minkaydi. Interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo‘lib, o‘quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi va faol ishtirokidagi ta’lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda o‘qitishning interfaol uslublari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rnii qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib

keladi.

Jismoniy tarbiya darsida xokkey(o‘yini) dan foydalanish.

Trening maqsadi: o‘quvchilarni o‘yin elementi orqali savol tuzishga, savollarga javob berishga, ularda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini mustaqil, mantiqan og‘zaki bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, turli mavzulardagi bilimlarini kengaytirish, notiqlik san’ati elementlari bilan tanishtirish, yakka, guruhda ishlashga imkoniyat yaratish.

Treningdan kutiladigan natija: o‘quvchilar turli mavzulardagi axborotlar bilan tanishadilar, savol tuzish va javob berishga o‘rganadilar. O‘z fikrlarini bayon etishga, ko‘p axborot, ma’lumotlardan xabardor bo‘lish kerakligi, mustaqil ravishda savollar tuzish, yoki ularni topishga qiziqish uyg‘onadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi. O‘qituvchi o‘quvchilarga mashg‘ulotni o‘tkazish tartibini tushuntirishdan boshlaydi, so‘ngra o‘quvchilarni xohishlariga ko‘ra (yoki simvol (turli belgi)lar, yoki rasmlar, yoki raqamlar yozilgan qog‘ozlar, rangli qog‘ozlar yordamida) 4 ta guruhga bo‘ladi: 2 ta guruh 6 kishidan iborat, qolganlari esa teng ikkiga bo‘linadi. O‘qituvchi sport musobaqalaridan “Xokkey” o‘yini va uning o‘yin qoidalari bilan o‘quvchilarni tanishtiradi va 6 kishilik guruhlarni sport jamoasi sifatida quyidagi rollarga bo‘ladi: 3 kishi “markaziy hujumchi” (MH), 2 kishi “himoyachi” (H), 1 kishi “darvozabon” (D). Ularni shu tartibda joylashtirilgan stullarga o‘tirishni taklif etadi: birinchi qatorda - “markaziy hujumchilar” (3 kishi), ikkinchi qatorda (ular orqasida) - “himoyachilar” (2 kishi), uchinchi qatorda (ular orqasida) “darvozabon” (1 kishi). Bu jamoaning qarshisiga xuddi shu tartibda ikkinchi jamoa joylashadi. Qolgan o‘quvchilar jamoalar joylashgan maydonning ikki tomoniga “ishqibozlar” va

“zaxira o‘yinchilar” sifatida joylashadilar. Tomonlarning biri bir jamoani, ikkinchisi esa ikkinchi jamoani o‘yin davomida qo‘llab-quvvatlab turadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib joylashtirib bo‘lgach, har bir jamoa o‘ziga kapitan saylab olishini iltimos qiladi va mashg‘ulotning asosiy qismiga o‘tib, o‘yin tartibini tushuntiradi.

Jamoalar bir-birlariga bugungi mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ajratilgan vaqt davomida 3 tadan savol, ishqibozlar esa “raqib” jamoa a’zolariga bittadan savol tayyorlaydilar. Savollar ochiq (izohli javobni talab etuvchi) yoki yopiq savollar (aniq javobni talab etuvchi) bo‘lishini o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘yin boshlanishi oldidan kelishib oladi. Savollar tayyor bo‘lgach, o‘yin boshlanishi haqida bong uriladi (yoki signal bosiladi) va jamoalar qo‘liga kichik koptok beriladi. O‘yin davomida bu koptok o‘yinchilar qo‘lidan qo‘lga o‘tib turadi. O‘qituvchi bu o‘yinda “hakam” rolida bo‘lishi mumkin.

Uyin qoidasi quyidagicha: sudya avval “qura” tashlab, qaysi jamoa birinchi boshlashini aniqlab oladi, boshlovchi jamoaga o‘yin koptogini beradi.

O‘yining birinchi taymi boshlanadi va bunda birinchi bo‘lib o‘yin boshlagan jamoaning “markaziy hujumchi”lari, ikkinchi jamoaning “markaziy hujumchilari”ga savol beradilar, o‘ylab ko‘rish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. “Raqib” jamoaning “markaziy hujumchilari” savolga javob berishsa, sudya g‘oliblikni ularga berib hisobni 1:0 deb e’lon qiladi, bu holda ikkinchi jamoaga shu tartibda o‘yinni davom ettirishga imkon beriladi, agar jamoaning “markaziy hujumchilari” 3 daqiqa davomida javob bera olmasalar, qo‘llaridagi koptokchani orqada o‘tirgan “himoyachi”larga berishadi, ularning o‘ylab ko‘rishlari uchun hakam 2 daqiqa vaqt beradi. “Himoyachi”lar savolga javob berishsa, bu

jamoa g‘oliblikni oladi va o‘yinni ikkinchi jamoa xuddi shu kabi davom ettiradi, agar javob berisha olmasa, ular koptokchani orqada o‘tirgan “darvozabon”ga berishadi. Hakam “darvozabon”ni o‘ylab ko‘rishi uchun bir daqiqa vaqt beradi, agar u javob bera olsa, jamoa g‘oliblikni qo‘lga kiritadi, ikkinchi jamoaga yangi o‘yin boshlashga ruxsat beriladi, javob bera olmasa jamoa mag‘lub deb topiladi, lekin jamoa o‘zining “ishqibozlar”idan yordam olishi mumkin, “ishqibozlar” javobi to‘g‘ri bo‘lsa jamoa g‘oliblikni qo‘lga kiritishi mumkin, u holda ikkinchi jamoa o‘yinni davom ettirishi mumkin, agar shunda ham javob topilmasa, ikkinchi jamoa o‘yinni yangidan yuqori tartibda davom ettiradi. Umuman olganda, har gal jamoa a’zolari savolga javob berishda qiynalib qolsalar o‘z “ishqibozlar”idan yordam olishlari mumkin yoki jamoa a’zolaridan biri o‘yinchisi sifatida darajasi past bo‘lsa, jamoa kapitani “zaxira o‘yinchilar” bilan almashtirishi mumkin. Hakam o‘yin davomida ajratilgan vaqtini to‘g‘ri bajarilishini nazorat qilib boradi, vaqt chegarasidan chiqib ketishga yo‘l qo‘ymaydi. O‘yinda “markaziy hujumchilar”ning bir-birlariga bergen savollari qanday natija berishidan qatiy nazar, o‘yinning ikkinchi taymi boshlanadi. O‘yinning ikkinchi taymi “himoyachilar”ning savollaridan boshlanadi va birinchi taymda

o‘tkazilgan o‘yin tartibi kabi davom ettiriladi. Savollarni javobini o‘ylab ko‘rish uchun yuqoridagi kabi “markaziy hujumchilar”ga 3 daqiqa, “himoyachilar”ga 2 daqiqa, “darvozabon” uchun 1 daqiqa ajratiladi. Ikkinchi taym tugagach, o‘yinning uchinchi taymi boshlanadi. O‘yinning uchinchi taymi “darvozabon”larning bir- birlariga beradigan savollaridan boshlanadi, uning davomi 1-2-taymdagi tartib asosida o‘tkaziladi. O‘yinning 4-5-taymlari “ishqibozlar”ning bir-birlariga yoki “raqib” jamoaga savol berishlari bilan davom ettirilishi mumkin.

Jamoalarning tayyorlagan savollari tugagach, o‘yin to‘xtatiladi va umumiy hisob e’lon qilinib, g‘olib jamoaga minnatdorchilik bildiriladi yoki sovg‘a beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan o‘yin haqidagi fikrlarini aniqlaydi va o‘z fikrlarini bildirgan holda mashg‘ulotni tugatadi.

Xulosaqilibaytihmumkinki, o‘qituvchiva o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida o‘quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv fanini o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini, shuningdek hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etaolishini hisobga olish kerak. Shundagina, zarur kafolatlangan natijaga erishish mumkin.



Foydalilanigan adabiyotlar:



- Mirziyoyev Sh.M Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O‘zbekiston 2-jild 2018 y.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
- Mirziyoyev Sh.M Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2022 y.
- O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil 1-fevralda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901 sonli Qonuni.
- Ishmuhammedov R, Yuldashev M Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2017 y.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA "USTOZ SHOGIRD" AN'ANALARINING METODOLOGIK ASOSLARI

ABDUFATTOXOVA MAVZUNABEGIM BAXTIYOR QIZI
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI 1-bosqich tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Maqlolada umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Ustoz shogird" an'analarini metodologik asoslashning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, maktabda uzoq yillar mobaynida ishlab kelgan tajribali ustozlar va ilm dargoxini bitirib maktab ostonasiga ilk qadamini qo'yan ustozlar orasidagi munosabatlarning to'g'ri shakllanishi uchun qanday yo'nalishdardan foydalanish kerakligi haqida alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar. An'ana, maktab, ustoz shogird, metod, munosabat, meros qadriyat

Аннотация: В статье освещаются особенности методологического обоснования традиции "учитель-ученик" в общеобразовательных учреждениях среднего общего образования. Отдельно будет рассказано о том, какую направленность следует использовать для правильного формирования взаимоотношений между опытными наставниками, проработавшими в школе долгие годы, и теми, кто, окончив вуз, сделал первый шаг к порогу школы.

Ключевые слова. Традиция, школа, учитель ученик, метод, отношение, наследие ценность

Annotation: The article highlights the peculiarities of the methodological justification of the traditions of the "master disciple" in general secondary educational institutions. Also, a special mention is made in the school of what direction to use for the correct formation of relations between experienced teachers who have been working for many years and teachers who have taken their first step on the threshold of school by graduating from the dargoh of science.

Key words. Tradition, school, teacher disciple, method, attitude, heritage value

Yangi Ozbekistonning bugungi kunida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash borasida ulkan tadbirlar shakllanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining oliy ta'lif tizimida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari samaradorligini oshirish, bu borada o'zbek xalqi orasida ming yillab e'zozlanib kelinayotgan "Ustoz va shogird" milliy an'anasingning o'ta muhim mezonlaridan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbek xalqining qadim ajdodlari tomonidan meros bo'lib qolgan madaniy, ma'naviy, moddiy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an'analarini ham kiritish joiz. "Ustoz-shogird" an'anasi azal-azaldan aziz qadriyat sifatida mamlakatni

yuksaltirishda alohida o'ringa ega bo'lgan asriy merosdir. Zero, "Ustoz -shogird" an'anasi turkiy xalqlar qadimiy madaniyati sifatida jahon taraqqiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So'g'diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Farobi, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobi, Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalardek jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Ular o'z xalqining baxtsaodati, madaniyati uchun jisman va ma'nani kurashdilar.

Mamlakatimiz oliy ta'lif muassasalarida milliy qadriyatimiz sifatida qadimdan

rivojlanib kelgan “Ustoz-shogird” an'anasi asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sohasini rivojlantirish yo'lida barcha pedagog-xodimlar o'z texnologiyasiga ega. Tajribaga tayangan holda “Ustoz-shogird” an'anasi ta'lim muassasalarimizda soha rivojini ta'minlanishida quyidagi mezonlarga asoslanib faoliyat yuritmoqda:

- * Hamkorlik tamoyili
- * Tizimlilik tamoyili
- * Ixtiyoriylik tamoyili
- * Maqsadni aniqligi

“Ustoz-shogird” an'analaritajribasita'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalarini rivojlantirib, shakllantirib boruvchi an'anadir.

* “Ustoz-shogird” tizimi bilimlarni o'zlashtirish, kasbga tayyorgarlik va ishlab chiqarish munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini shakllantirish jarayoni.

* “Ustoz-shogird” tizimi oliy o'quv yurtlarida bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy va professional yordam va qo'llab-quvvatlash maktabi.

* “Ustoz-shogird” tizimi oliy o'quv yurtlarida bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda boshqaruvdir.

Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallahib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an'analaridan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o'z ifodasini

topdi.

Bugungi kunda biz ulkan pedagogik merosga egamiz. Hamkorlik pedagogikasi bu merosda “Ustoz-shogird” an'anasi ko'rinishida ifodalangan. Unga ko'ra, ustoz shogirdiga kuchaytirilgan tarzda ta'lim va tarbiya beradi. Tarixdan ma'lumki bu jarayonda ota-onas yoki katta yoshli oila a'zolari ta'lim jarayoniga aralashmagan. Natijada, ustoz va shogird o'rtasida o'zaro ishonch va sadoqat tarkib topgan. Shu sababli manbalarda ustoz va shogirdga nisbatan bir talay talablar qo'yilgan.

Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o'qituvchi-tarbiyachi mahorati, ustoz-shogird an'analariga ham alohida o'rin berilgan.

Abu Nasr Farobiy ustoz-murabbiyga shunday talab qo'yadi: “Ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanlik qilmasligi lozim”. Chunki ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbatan nafratuyg'otadi, ustoz juda ham yumshoq ko'ngil bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va hattoki u beradigan bilimdan sovib qolishi mumkin.

O'zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri, ulug' olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining siymolaridan biri Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi, ularga munosabat masalalariga keng o'rin beriladi.

Navoiy bilimlarni tinmay uzluksiz ravishda o'rganish zarurligi, buning uchun esa maktab yoki madrasaga borib, shogird tushib ta'lim olish kerakligini uqtiradi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zları ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutassib johil domullalarni tanqid qiladi va o'qituvchi o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Masalan, Navoiy “Maxbub ul

qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘ta qattiqqo‘lligi, johilligi va ta’magirligini qoralaydi, kezi kelganda ustozlik mehnatining og‘irligi, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi.

“Ular ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o‘rgatadi. Darhaqiqat muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko‘p, agar shogird ulg‘aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham, o‘z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Xozirgi kunda ham o‘qituvchi, murabbiylarga hurmat bilan qarash lozimligi talab qilinadi. Albatta, bunda o‘qituvchining o‘zi ham jamiyatda qanday muhim vazifani bajarish lozimligini tushunib olishi va o‘z qadr-qimmatini anglashi zarur. Shu bilan birga, hozirgi kunda zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarni bilishi va ongli tarzda unga rioya qilishi kerak. O‘qituvchilar, ya’ni ustoz-murabbiylarning o‘rnı jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z o‘quvchilarini sevishi, ularga g‘amxo‘rlik qilishi va o‘zi ham namuna ko‘rsatishi lozim. Ayniqsa, ustoz-shogird an’analariga rioya qilinsa, oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida inson faoliyati obyekt-subyekt munosabatida amalga oshadi. Ta’lim-tarbiyada obyekt-subyekt munosabatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati hamda tarbiyalanuvchining psixologik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olishda subyektning obyektga ta’siri kuchayadi va tarbiyaviy munosabat amalga oshadi.

Shundan kelib chiqib, tarbiyalanuvchining faolligi, uning o‘z-o‘zini tarbiyalashi o‘z xatti-harakatini nazorat

qilish (o‘z faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirish) va tarbiyachiga ishonishiga ham bog‘liq.

Tarbiyalanuvchi (obyekt)ning o‘qishda, jamoat ishlarida faolligi tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Tarbiyalanuvchi va tarbiyachining faolligi va o‘zaro ishonchi, ular o‘rtasidagi hurmat hamda hamfikrlilikni mustahkamlaydi. Bu esa pedagogik hamkorlikning asosiy maqsadidir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar hamkorlikdagi pedagogik faoliyatga kirishar ekanlar, mavjud munosabatlar va pedagogik faoliyat me’yorlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda darsliklarda mazkur maqsadga yo‘naltirilgan jarayonni tashkil etish uchun didaktik mashqlar va topshiriqlarning yetarli emasligini ta’kidlaydilar. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar pedagogik jarayonga ijodiy tarzda yondashgan holda mashqlar va topshiriqlarni tanlashlari va o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llashlari zarur. Mavjud qiyinchiliklarni o‘qituvchi o‘quvchilarni birgalikda faoliyat ko‘rsatishga undash orqali o‘zaro hamkorlik muhitiga olib kirish bilan bartaraf etishi lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi rivojining hozirgi bosqichida hamkorlik pedagogikasi muhim o‘rin tutadi. Pedagog olimlar hamkorlik pedagogikasiga “Ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro mulokotiga asoslangan shaklda ta’lim berishga yunaltirilgan ijodiy faoliyat jarayonidir”, deya ta’rif berishadi. Bu muloqotda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘zaro mas’uliyat sezadi, tomonlarning hamkorligi ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchining hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etishga oid faoliyati birinchi navbatda o‘quvchilarning jamoada asosiy qadriyat sifatida o‘zlarini

namoyon qilishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish yo'llari va usullarini izlashga qaratilishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilar shaxsiga ziyon yetkazmaslik, ular ruhiyatiga shikast ko'rsatmaslik, ularga

ijobiy ta'sir ko'rsatish, zarur maslahatlar berish, bir o'quvchini ikkinchisi bilan qiyoslamaslik, shaxsiyatiga to'g'ri baho bera olish, o'quvchi rivojlanishining istiqbollarini aniq tasavvur eta olish kabilar o'ta muhim.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Faxriddin, Rizouddin ibn. Ilmning o'n to'rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018. – 88 b.
2. Ron J. Aql vitaminlari. – Toshkent: FUTURE-BOOKS, 2021. – 383 b.
3. To'raev B. Uchinchi muallim – O'zbekiston falsafasi yutuqlarini targ'ib qilgan vakil // https://uza.uz/uz/posts/uchinchi-muallim-ozbekistonfalsafasi-yutuqlarini-targib-qilgan-vakil_332585.
4. Tursun, Ahmad Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – 55 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. – 456 b.

ILK YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARНИ OILADA TARBIYALASH

BAXRITDINOVA GULANDOM ERKIN QIZI.
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti,
Maxsus-pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchi

Anotatsiya : Ushbu maqolada ilk yoshdagi nuqsonli bolalarni oilada tarbiyalash va ularni nuqsonlarini bartaraf etish masalalari haqida va oilaga sharoitga bolani moslashtirish kabi jarayonlar haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : ilk yoshdagi nuqsonli bola, oila, muhit, sharoit , tarbiya.

Annotation: This article describes the issues of bringing up children with disabilities in the family and eliminating their disabilities, as well as processes such as adapting the child to the family environment.

Key words: child with a disability of the first age, family, environment, conditions, upbringing.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы воспитания детей-инвалидов в семье и устранения их недостатков, а также такие процессы, как адаптация ребенка к семейной среде.

Ключевые слова: ребенок-инвалид первого возраста, семья, среда, условия, воспитание.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish, o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, yangi pedagogik texnalogiyalarni ta’limga joriy etish, yosh avlodning yosh hususiyati, bilish faoliyati, tafakkuri, iqtidorini nazarda tutgan holda ta’lim -tarbiya berish, davlat dasturlari, ta’limning davlat me’yorlariga mos bo‘lgan bilim va malakalarni shakllantirishga imkoniyat yaratdi, har bir fuqaroga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsyasining 29- moddasida ifoda etilgan “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligiga egadir”, 41-moddasida ifoda etilgan “Har kim bilim olish huquqiga egadir, bepul umumiy ta’lim davlat tomonidan kafolatlanadi” degan huquqidan to‘la foydalanish imkoniyatini berdi, mamlakatimizda uzlucksiz ta’lim tizimi joriy etildi[1].

Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda har tomonlama yetuk, ma’naviyatlari barkamol avlodni tarbiyalshga qaratilgan zamonaviy Maktabgacha ta’lim tashkilotini tashkil qilish bo‘yicha juda ko‘p chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Xusan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 9 -sentabrda qabul qilingan PQ-3261-sonli Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida “Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega”[2] ekanligi aytib o‘tilgan.

Tilshunoslikda oila nutqi ustida izlanish olib borish katta qiziqish uyg‘otadi, chunki shaxsning asosiy shakllanishi oilada sodir bo‘ladi, tilning ijtimoiylashuv jarayoni

ham aynan oilada boshlanadi: ona tilini o'rganish, nutq muloqotining asosiy ko'nikmalari shakllanadi. Oilaviy nutq orqali biz birgalikda yashaydigan, qon-qarindoshlik munosabatida bo'lgan yoki qarindoshlik munosabatlariga kirisha boshlagan odamlarning oilaviy ichki suhbat nutqini tushunamiz.

Ota-onalar yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi boshqa oila a'zolari nuqsonli bolaning uyida bo'lgan vaqtida defektalogik ishining davomchilari sanalib uning rahbarligi ostida ta'lim-tarbiya borasidagi kelgusi barcha ishlar uchun zamin hozirlaydilar. Bolaning kompensator xususiyatga ega bo'lganligiga tayangan holda so'zlashuv nutqini rivojlantirish hamda kommunikativ malakalarini shakllantirish bo'yicha ishlar tashxis qo'yilgan ilk kunlardan boshlanishi samarali natija beradi. Uy sharoitida bola lug'atining boyishiga, so'zlashuv nutqi to'g'ri, talaffuz malakalarining shakllanishi, bilim va tushunchalarining kengayishida turlituman tabiiy holatlarni yuzaga keltiradi. Agar nogiron bola mustaqil ravishda nutqni egallamagan bo'lsa muloqotda nutq qanday yordam berishini ko'rsatish juda foydalidir. Shuning uchun dastlabki ayrim topshiriqlarni tushunib bajarishga o'rgatish lozim. Masalan, "tur", "o'tir", "ber", "onangni oldiga bor", "olib kel", "ko'rsat" kabi buyruqlar normal tengdoshi yoki yaqinlaridan biriga berilib, ularning ushbu topshiriqlarida xos hatti-xarakatlari kuzatiladi.

Shundan so'ng ushbu vazifani bajarish nogiron boladan talab qilinadi. Ushbu mashqlar bola tomonidan to'liq ravishda o'zlashyirgunga qadar takrorlanib tuzilishi lozim. Bola o'ziga qaratilgan so'zlar ma'nosiga tushuniyotganiga ishonchhosil qilgach, ushbu so'zlar qog'ozga yozib

ko'rinarli joyga o'sib qo'yiladi. Natijada atrofdagilar bolaga qaysi so'zlar bilan murojaat etish mumkinligini bilib oladilar. Asta-sekin so'z birikmalarni turli pridmetlar nomlaridan foydalangan holda tuzish mumkin. "ber", "olib kel", "ko'rsat", "olib bor" so'zlaridan foydalanib, bolaga atrofini o'rab turgan ko'pgina pridmetlarni bildiruvchi: "mashinani ber", "ruchkani ber" "daftarini ber" topshiriqlari beriladi. [5]

Bola topshiriqlarni bajarish jarayonida zaruriy pridmetlar nomlarini o'zlashtirish boradi. Predmetlarning aynano'zi bo'limgan holda ularning rasmlardan foydalanish mumkin. [4] Ushbu so'zlar ma'nosini bola tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilishini nazarda tutgan holda bu mashqlar turli holatlarda bir necha bor takrorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola u yoki bu so'zlarni tushuna boshlagach ulardan jonli muloqotda foydalanish: "ko'rsat", "qani", so'zlardan kitobchalarni ko'rishda "olib kel", "olib bor" so'zlaridan uy topshiriqlarni bajarishda, ovqat tayyorlashda, o'yin vaqtida foydalanish mumkin. [5]

Zamonaviy jamiyatda oila muammolariga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortdi. Mazkur holat onalik va bolalik muammosi, noto'liq oilalar sonining ortishi, psixojismoniy jihatdan rivojlanish nuqsonlariga ega bolalar sonining jadal ravishda ortib borayotgani, yetim bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash muammolari, zamonaviy insonning hissiy-ma'naviy olamining murakkablashib borayotgani singari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muammolari bilan shartlanadi.

So'nggi o'n yilliklarda jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar oilaviy munosabatlarning deformatsiyasiga sabab bo'lib, uning ijtimoiy ta'siri sifatini

pasaytirib, oilaning tarbiyaviy salohiyatini susaytirdi. Oilalarga har tomonlama ko'mak berish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini takomillashtirish va bolalar tarbiyasi jarayonida oila bilan integratsiyaning yangi yondashuvlarini shakllantirish zaruriyati yuzaga keldi.

M.M.Semago oilani quyidagi holatlar xos bo'lgan tizim sifatida tahlil etadi:

- 1) oila murakkab ichki qurilmaga, o'zining psixologik tuzilmasiga ega;
- 2) oilaviy tizim bir butun sifatida unga mansub individlarda "tizimli sifatlar" ni hosil qiladi;
- 3) oilaviy tizim noadditivlik sifatlariga ega, ya'ni, uning tarkibiga kiruvchi individlar yig'indisi hisoblanmaydi;
- 4) oilaviy tizimning har bir elementi boshqa elementlarga ta'sir etadi, va o'zi ham ular ta'siri ostida bo'ladi;
- 5) oilaviy tizim o'zini-o'zi boshqarish xususiyatiga ega[6].

Bizning tadqiqotimiz uchun V.V.Tacheva tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaga bo'lgan zamonaviy yondashuv tavsifi ayniqsa muhim hisoblanadi. Muallif oilani avvaldan bola tarbiyasi va ta'limi uchun imkon qadar qulay sharoitlarni yaratishda potensial imkoniyatlarga ega reabilitatsion tizimi sifatida tahlil qiladi [7]. V.V.Tkachevaning ta'rifiga ko'ra, oila bola ijtimoiy-madaniy statusida tizim hosil qiluvchi determinant hisoblanadi va bolaning keyingi psixojismoniy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beradi. Oilaning ichki muhit muallif tomonidan korreksion muhit sifatida tahlil etilib, mazkur muhit o'zining ta'siri orqali bolani rivojlantiradi, unda shaxsning ijobjiy ahloqiy sifatlarini, olamga bo'lgan mehrli munosabatini shakllantiradi[4].

Oilada nosog'lom bolaning dunyoga

kelishi uzoq muddatli ta'sirga ega ruhiyatni jarohatlovchi omil hisoblanadi. Ota-onalar yordamga muhtoj, ojiz bo'lib, ularning holatini V.V.Tkacheva "ichki" (psixologik) va "tashqi" (ijtimoiy) "boshi berk ko'cha" sifatida tavsiflaydi.

Muallif ichki oilaviy munosabatlar va otaonalarda ijtimoiy muloqotlar deformasiyasining 3 darajasini ajratadi:

1. Psixologik daraja: rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning dunyoga kelishi uning ota-onalari tomonidan fojea sifatida qabul qilinadi. Uzoq muddat davom etuvchi stress holati ota-onalarning ruhiyatiga kuchli deformasiyalovchi ta'sirni ko'rsatadi va oilaning turmush tarzini keskin o'zgartirishning dastlabki shartiga aylanadi.

2. Ijtimoiy daraja: nosog'lom bolaning dunyoga kelishi va salomatligining holati keyinchalik turmush o'rtoqlar o'rtasidagi tuyg'ularning chinakamligini, nosog'lom bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning samimiyligini tekshirish uchun sinov bo'ladi. Bolaning holati va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, shaxsiy qarashlarga asoslanib, oila muloqotni amalga oshirishni chegaralashi yoki muloqotga kam kirishishi, qarindoshlari va yaqinlari bilan munosabatlarni chegaralashi mumkin.

3. Somatik daraja: bola parvarishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan uzoq muddatli ruhiy jarohatlar va jismoniy jihatdan zo'riqish ota-onalarning, ayniqsa, onalarning organizmi va ruhiyati uchun psixogen va somatogen omil hisoblanadi. Psixopatogen holat qanchalik uzoq davom esa, ya'ni bola ulg'ayib borgani sari, ba'zi onalar sog'ligidagi o'zgarishlar shunchalik namoyon bo'lib boraveradi[9]. Oilada nosog'lom bolaning dunyoga kelishi holatiga tayyor bo'lmagan ota-onalar ularga har tomonlama tibbiy, psixologik va

pedagogik yordamni ko'rsatishga muhtoj bo'ladilar

Nutqidan nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus mактабгача та'lim muassasalarining asosiy vazifasi alohida yordamga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish ulardagi barcha a'zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy jarayonlarni, ayniqsa, xotira va diqqat jarayonlarini ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda mustaqil mamlakatimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarni, barkamollikka hamda axloqiy odat va fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun atrof-olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish va uni anglashni shakllantirish zurur.

Maktabgacha tarbiya muassasasida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, bolaning to'g'ri muomalaga kirishishi, shaxslararo munosabatko'rishi shihtiyoqini orttirish, bilish

jarayonini rivojlantirish, samaradorligini oshirish maqsadida nafaqat tevarak-atrof obyektlari ustida oddiy kuzatishlar (mushohadalar) uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish, shuningdek, diqqat va xotira jarayonlari orqali tevarak-atrof obyektlarini o'rganishda olgan bilim, orttirgan ko'nikma va malakalarni mehnat faoliyatiga yo'naltirish, shuningdek, ularning jismoniy ehtiyojlarini qondira olish motivlarini shakllantirish, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish yoki yengillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq o'stirishda xotira va uning turlari samaradorligini oshirish va faoliyat turlari orqali bolalarni shunchaki kuzatmasliklari, balki predmetlarni, ularning qismlari, elementlarini ko'rib, jarayonlar, hodisalarini idrok eta borib, ular to'g'risida mulohaza yuritishlari talab etiladi



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi VII Bob 29 moddasi va IX bob 41 moddasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 9- sentabrda qabul qilingan PQ-3261- sonli.
3. Dehqanova, M. (2023). The first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. Science and innovation, 2(B2), 55-58.
4. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. Central Asian journal of social sciences and history, 4(1), 101-105.
5. Baxritdinova G E "Mujassam nuqsonli bolalarning kelib chiqishi va ijtimoiy hayotga moslashishi" International scientific journal " Interpretation and researches" volume 2 issue 2(24), 54-59
6. Носкова Л.П., ComnoBa Н.Д. Дошкольное воспитание аномальных детей // Дефектология. 1995. - №1.
7. Nurmuhammedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. diss.avtopef. - T.: TDPU, 2005.

TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

SULEYMANOVA MANSURA POLATOVNA

Nukus innovatsion instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk allomalarining va taddiqotchi olimlarning aqliy tarbiya, tafakkur va mustaqil fikrlash haqidagi qarashlari, ularning ushbu tushunchaga bergan ta'riflari, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlashning mohiyati va tarkibiy qismlari, psixologik xususiyatlari ochib beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda Tarbiya fanining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: shaxs, tarbiya, milliy tarbiya, aqliy tarbiya, tafakkur, mustaqil fikrlash, motiv, bilim, dunyoqarash, Tarbiya fani, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, muammoli ta'lif.

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды великих учёных и учёных-исследователей на интеллектуальное образование, мышление и самостоятельное мышление, их определения этого понятия, а также теоретические основы развития самостоятельного мышления учащихся. При этом раскрываются сущность и компоненты, психологические особенности самостоятельного мышления. Рассмотрено значение предмет Этики в формировании и развитии самостоятельного мышления учащихся младших классов.

Ключевые слова: личность, воспитание, национальное воспитание, интеллектуальное воспитание, мышление, самостоятельное мышление, мотив, знания, мировоззрение, предмет Этика, критическое мышление, творческое мышление, проблемное образование.

Abstract. This article analyzes the views of great scholars and research scientists on intellectual education, thinking and independent thinking, their definitions of this concept, and the theoretical basis of developing students' independent thinking. At the same time, the essence and components of independent thinking, psychological features are revealed. The importance of Ethics in the formation and development of independent thinking of elementary school students is considered.

Key words: personality, education, national etiquette, intellectual etiquette, thinking, independent thinking, motive, knowledge, worldview, subject, Ethics, critical thinking, creative thinking, problem-based education.

Kirish. Insoniyatning va jamiyatning rivojlanishida tarbiyaning o'mi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyat a'zosi bo'lgan har bir insonning tarbiyasizligi atrof-muhitga qay darajada salbiy ta'sir ko'rsatsa, yaxshi tarbiyaga ega insonlar uning rivojlanishiga shunchalik hissa qo'shadi.

Bugungi kunda yurtimizda umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarini tarbiyalash me'zonlariga katta talablar qo'yilmoqda. Shaxsning tarbiyasiga bevosita aloqador bo'lgan umuminsoniy fazilatlarni, qadiriyatlarni va yuksak ma'naviyatni chuqur singdirish, yosh avlodni millati, dini va Vataniga sodiq inson sifatida tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"[1]gi Qonuni, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya"[2]si, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[3]gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiyl o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"[4] gi Qarori jamiyatimizga barkamol shaxsni tarbiyalab berish vazifasini ilgari suradi.

Shu bilan bir qatorda, Tarbiya darsligida berilgan topshiriqlar asosida o'quvchilarning

ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, mustaqil fikrlashga va izlanishga o‘rganadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqolada tadqiqotimiz predmeti sifatida Tarbiya darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish jarayonini belgilash bilan bir qatorda, sharq allomalarining va olimlarning ushbu mavzu yuzasidan ishlab chiqqan ilmiy tadqiqotlarini va qarashlarini o‘rganib chiqishga harakat qildik.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy tafakkur xususiyatlari, mustaqil fikr yuritish nazariyasiga katta hissa qo‘shti. Uning ta’limotiga ko‘ra, inson tafakkur orqali materiyaning umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini anglaydi, har tomonlama bilimga ega bo‘ladi va natijada mustaqil fikrlashga qodir bo‘ladi. Olim aql quvvatining eng asosiy vazifalaridan biri mantiqiy mustaqil fikrlash deb hisoblaydi. Shu tariqa Farobiy insonning mustqil fikrlashi – uning muhim fazilati ekanligini isbotlaydi.

Voiz Al-Koshify bolaga talim-tarbiya berishda ularning aqliy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Alloma bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda oila va tashqi muhit katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.

Haqiqatdan ham, insonning dunyoqarashining shakllanishida, mustaqil fikr egasi bo‘lishida aqliy tarbiyaning o‘rnini beqiyos. Chunki, aqliy tarbiya shaxsga bilim berish, uning tafakkurini, aqliy qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi va uning natijasida mustaqil fikr, shaxsiy dunyoqarash paydo bo‘ladi.

Mirzo Ulug‘bek ham yosh avlodni aqliy va ma’rifiy tarbiyalashga, ularga dunyoviy bilimlar berishga da’vat etdi. Yosh avlodning yetuk tafakkur va fikr sohibi bo‘lishi faqat madaniyat va rivojlangan fanga bog‘liq ekanligini ta’kidladi.

Abdulla Avloniy ham insonning aqliy kamoloti, o‘tkir zehn va fikr egasi bo‘lishi ilm olishga bog‘liq deb, aqliy tarbiyaga alohida to‘xtalib o‘tgan [7].

U.V.Ulienkovning fikricha, mustaqil fikrlash – bu shaxsning individual psixologik xususiyatlarining majmuasi bo‘lib, bu jarayon uning bilimlarni ijodiy qayta ishlashga tayyorligini belgilab beradi [8].

Pedagog N.A.Polovnikova, mustaqil fikrlashni shaxsning motivatsion, mazmunli va texnik jihatlarini o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishish istagi va qobiliyati bilan tavsiflangan sifati deb ta’kidlaydi. Bu jarayon shaxsda motivlar va bilimlarni egallash usullari mayjud bo‘lganida amalga oshadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mustaqil fikrlash – nostonart qarorlarni qabul qilishni talab qiladigan vaziyatlarda ham o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish, o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga olgan shaxsning yetakchi fazilatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mustaqil fikrlash – o‘quvchining aqliy qobiliyati bo‘lib, mustaqil bilim olishga qaratilgan, muammolarni hal qilishning ma’lum bir usulini tanlash va amalga oshirishni ta’minlovchi jarayon. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchisini rivojlanayotgan shaxs sifatida belgilaydi va ularning ehtiyojlarini, motivlarini, kognitiv xususiyatlarini aks ettiradi. Bularning barchasi talim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Bola hayotida boshlang‘ich maktab yoshi ta’lim faoliyati yetakchi o‘rinni egallovchi davr. Olim L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, maktab yoshidagi asosiy o‘zgarishlar – aqliy jarayonlarni anglash va o‘zlashtirish bo‘lib, bularning barchasi ta’limga bog‘liq [9].

Biz Tarbiya darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda har hil turdagи topshiriqlar,

didaktik o‘yinlar va muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natija beradi deb hisoblaymiz. Bu vositalar asosida o‘quvchilar mustaqil fikr yuritishni, vaziyatdan chiqib ketishni, ma’suliyatli bo‘lishni o‘rganishadi va mustaqil fikrlashning quyidagi psixologik komponentlari shakllanadi:

- muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallash;
- aqliy faoliyat bilan shug‘illanish;
- izlanuvchanlik;
- o‘z-o‘zini tartibga solish, ixtiyoriy harakat qilish va diqqatni jamlash.

Yuqoridagi komponentlarni to‘laqonli shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish esa har tomonlama talim jarayonining samarali tashkil etilishiga bog‘liqdir.

Tahlil va natijalar. Umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o‘qitishga quyidagicha talablar belgilab qo‘yilgan:

maktablarda Tarbiya fanini o‘qitishning har bir bosqichi ma’naviy-axloqiy, tafakkur, fuqaroviyl, huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik va estetik tarbiya turlarini qamrab olishi lozim;

har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilar tarbiyasida oilaning mакtab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash;

o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining ko‘p asrlar davomida

avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish [4].

O‘quvchilarning fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, ularning ongiga oilaviy qadriyatlarni singdirish, madaniy qadriyatlarni va emotsiyonal intellektni shakllantirish Tarbiya fanining maqsadlari hisoblanadi.

Yangi avlod darsliklari, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan Tarbiya darsligi o‘quvchilarga milliy tarbiya berish bilan bir qatorda dunyo standartlariga javob beradigan mavzularni va texnologiyalarni qamrab olgan. Darslikdagi mavzularni o‘zlashtirish va topshiriqlarni bajarish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi kengayadi, tanqidiy, kreativ va mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Shu tariqa ularda mustaqil fikrlashning quyidagi belgilari shakllanadi va rivojlanadi:

mustaqil fikrlash istagi va qobiliyati, notanish vaziyatlarda harakat qilish va eng to‘g‘ri yo‘lni toppish,

bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqish va ularni qanday egallash kerakligini tushunish istagi,

vaziyatga tanqidiy yondashish, mustaqil fikrlashga o‘rganish.

M.I.Maxmutov mustaqil fikrlashning ko‘rsatkishi sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: turli manbalardan mustaqil ravishda yangi bilimlar olish, natijada yangi ko‘nikmalarni hosil qilish va ularni amaliyotda qo‘llay bilish [5].

Xulosa va takliflar. Mustaqil fikrlash shaxsning intellektual qobiliyati bo‘lishi bilan bir qatorda, mustaqil bilim olishga qaratilgan, muammolarni hal qilishning ma’lum bir usulini tanlash va amalga oshirishni ta’minlovchi jarayon. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish orqali ularning ehtiyojlarini, motivlarini, kognitiv

xususiyatlarini shakllantiramiz. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yosh avlodning keng dunyoqarash sohiblari sifatida shakllanishida, mustaqil fikr egasi bo‘lishida aqliy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Aqliy tarbiya esa shaxsga bilim berish, uning tafakkurini, aqliy qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori
5. Менчинская Н. А. Краткий обзор состояния проблемы неуспеваемости школьников.// Психологические проблемы неуспеваемости школьников. М.: Педагогика, 1971. С. 8-31
6. Минић Весна Љ. Педагошки аспекти агресивности у основној школи. Универзитет у Приштини – Косовској Митровици Учитељски факултет у Призрену – Лепосавићу. Зборник радова Учитељског факултета, 13, 2019, стр. 63-77
7. Olloqulova F.U. Sharq mutafakkirlarining tarbiya borasidagi qarashlari. Problems and scientific solutions <https://doi.org/10.5281/zenodo.7495186>
8. Рајчевић, Петар Ђ. Повезивање знања у осмишљену целину. Универзитет у Приштини – Косовској Митровици. Учитељски факултет у Призрену –Лепосавићу. Зборник радова Учитељског факултета, 13, 2019, стр. 79-95.
9. Выготский Л. С. Мысление и речь. СПб.: Речь. 2017. 361 с.

АЛПОМИШ ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШДА ФАНЛАРАРО БОҒЛИҚЛИК ТАМОЙИЛИ

НУРБОЕВ ШИРИНБЕК
ЖДПУ

Аннотация: Мақолада асосан Алпомиш достонини ўрганишда адабиёт фанининг бошқа фанлар масалан, топоника, этнография, зоология, лингвистика ва маданиятшунослик билан боғлиқлик жиҳатлари ёритилган. Шунингдек, ўқувчиларнинг достон матни билан танишиши ва таҳлил қилиши орқали муайян тушунчаларни ўзлаштириб олишларига тегишли тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: достон, образ, илмий, қалмоқ, элат, антропоним, топоним, эвфемик, атоқли от, турдош от.

Annotation: The article focuses on the Alpomish saga. In the study, aspects of the relationship between literature science and other disciplines, such as toponics, ethnography, zoology, linguistics and cultural studies, are highlighted. Also, recommendations are given for students to learn certain concepts by getting to know and analyzing the text of the epic.

Key words: epic, image, scientific, kalamak, elat, anthroponym, toponym, euphemism, common noun, similar noun.

Аннотация: В статье по исследованию эпоса об Алпомише основное внимание уделяется освещению аспектов взаимоотношения литературоведении с другими дисциплинами, такими как топоника, этнография, зоология, языкоzнание и культурология. Также даются рекомендации учащимся по усвоению отдельных понятий путем знакомства и анализа текста эпоса.

Ключевые слова: эпос, образ, научный, калмок, элат, антропоним, топоним, эвфемизм, нарицательное, однородное существительное.

Дастлаб топоника, этнонимика, зоология фанлари билан боғлиқ жиҳатларига, сўнгра лингвистика, маданиятшунослик ва бошыя фанлар билан боғлиқ ўринларни қисқача кузатамиз. “Алпомиш” достонини мутолаа қилган ҳар бир ўқувчи эпосда учрайдиган жой номлари билан яқиндан танишиадилар. Хусусан, Аму, Ойкўл (Ойнали кўли, Ойна кўл) Арпали кўли, Кўкқамиш кўли, Бобир кўли, Олотоғ, Асқар тоғ, Шакаман тоғи, Зил тоғи, Боботоғ, Қофотон тоғи, Тойчахон мамлакати, Чилбир чўли, Туркмистон, Шахристон, Чорсу, Регистон, Астракон, Чин-Мочин, Газира, Тошкент, Макка Муаззам, Шаҳимардон, Самарқанд, Мадина, Машриқ, Бойсун топонимик номлар достонда қайт этилиши баробарида қадимги номлар сифатида бугунги ўқувчиларга бой тарихий маълумот беради. Қолаверса, тарих ва топонимика каби фанларига алоқадор

бўлган дастлабки тарихий ва топонимик илмий тушунчаларни ўзлаштиришга имконият яратилади.

Илмий анъаналарга кўра, этнонимларга инсонларнинг алоҳида гурухини ифодаловчи халқ, уруғ, элат, миллат номлари киритилади. Достонда учрайдиган этнонимлар: халқ номлари (ўзбек, ўзбак), қалмоқ, қозоқ, хитойчалар) ва уруғ-элат номлари (қўнғирот эли, кашал эли, Бойсун-Қўнғирот элати) ҳақидаги маълумотлар ҳар ўқувчининг ўзлигини таниш, бошқа халқ-элатлар билан яхши муносабатларда бўлиш руҳида тарбиялашга хизмат қилади. Достонда кўп тилга олинган этнонимларнинг этимологияси ҳақида ўқитувчи томонидан синф ўқувчиларига бироз илмий тушунчалар берилса, айни муддао бўлади. Масалан, “қалмоқ” атамаси ҳақида сўз юритганда, мазкур атама мўғулча “халимаг” – аралаш-қуралаш маъносини

билдиради, деган мулоҳазани айтгани маъқул. Достонда “қозоқ” атамаси атиги бир марта учрайди. “Алпомиш: Қизи жувонларни ҳайдаб ўтарман / Чўри қилиб қозоқлорга сотарман”, дейди. Тарихдан маълумки қозоқлар ўзбек ва қалмоқларга азалий қўшини бўлган. Шу боисдан мазкур эпос дастлаб Ўзбекистонда яратилганлиги ва версия-вариант асосида бошқа худудларга тарқалганигидан далолат беради.

Мазкур достонни ўрганишга бағишиланган дарсда ўқувчи асар билан танишиш ва уни таҳлил қилиш орқали зоология фанига дахлдор илмий тушунчаларни ҳам эгаллади. Масалан, достон матнида учрадиган ҳайвон ва паррандаларнинг номлари – зоонимлар (Бойчибор – Алпомишнинг оти, Торлонбий-Бойчиборнинг энаси, Кўкдўнан-Кўкалдошнинг оти, Олатой-Кайқубот чопоннинг оти, Бойқадам, Изиқути – Барчинойнинг итлари, Семурғ, Қийғир, Лочин, Хабарчи ғоз, Қарчигай, Суқсур, қарға каби) лар шулар жумласига киради. Ушбу мулоҳазаларнинг тасдиғини “Алпомиш” достони сюжетининг эпик тасвирларида кўплаб кузатиш мумкин. Масалан: Алпомиш етти йил зинданда ётиб, чоҳдан қутилиб, ёвларни енгиб ўзи туғилиб ўсган маконига қайтганида уни биринчи бўлиб Бойчиборнинг энаси – Торлон бия кутиб олади: “Торлон бия Бойчиборнинг энаси Чиборнинг довушини тўқайда билди, Банди кетган Чибор эсига келди, ҳайвонзод кишинади, йўлларга кирди”.

Ижодкор халқимиз орасида ит азалдан вафодорлик, садоқат тимсоли тушунчалари билан тасвирланади, бирор хавф-хатарни олдиндан сеза оладиган, хушёр; айни пайтда эгаси (хўжайини)ни зарур пайтда ҳимоя қиласидиган қўриқчи сифатида қадрланади. “Алпомиш”да Бойқадам, Изиқути номлардаги итлар ана шундай хусусиятларга эга бўлган жониворлар – зоонимлар саналади.

Улар биринчилардан бўлиб Алпиларнинг энаси – шум ниятли Сурхайл Мастон кампирнинг хатти-ҳаракатини пайқайди:

“Бойларнинг молин бож қип олайн, Бебош бўп кетмасин бойни кўрайин. Бир озироқ чиқим солиб келайин, Ёмонини бориб тергаб келайин” деган мақсадни энг аввало бояги итлари пайқайди, натижада, бу итлар “мазгили Чилбир”-га келган Сурхайл Мастонга қарши чиқади, унга қақшатқич зарбалар беради:

Яқинлади Бойсарининг уйига,
Бораётган шундайин айёр эди,
Бойсарида тўққиз кўппак бор эди,
Кўппаклари бу айёрни кўради,
Чопиб келиб бул ўртага олади,
Хар қайси ҳар ёқдан тортиб талади,
Айиқдай чинқириб кампир қулади,
Бойқадами эмчагидан олади,
Изиқкути қовуққа чанг солади,
Айиқдай чинқириб кампир қулади,
Тўққиз кўппак ўртага оп талади....

Мазкур достонни ўрганишга бағишиланган дарсда ўқувчи асар билан танишиши ва уни таҳлил қилиш орқали лингвистика (тилишунослик) фанига алоқадор дастлабки илмий тушунчаларни ҳам эгаллаш имконияти бор. Бу ўринда биргина антропонимлар яъни шахс номларини олайлик. Достон матни бўйича олиб борилган ва аниқланган статистика маълумотларнинг кўрсатишича, достонда жами 149 та атоқли от бўлиб, шундан 38 таси шахслар, яни киши исмлари саналади. Мазкур антропонимлар бир вақтда ва бир худудда яшаган ҳамда турли даврларда, хилма-хил худудда яшаган кишилар (эпик қаҳрамонлар)нинг атоқли оти бўлиб улар бир биридан фарқланадилар бундай фарқланишларни қуйидаги таснифда кузатамиз:

- а) бир вақда, бир худудда яшаган шахс-эпик қаҳрамон номлари (Алпомиш, Қалдирғоч, Барчин, Бойсари);
- б) бир вақтда, аммо бошқа худудда яшаган эпик қаҳрамон номлари (Тавка ойим ва Қалдирғочойим, Бойбўри, Коражон, Кўкаман, Кўкалдош, Ойқашқалар, Давонбий, Бойбўри, Ёдгор);
- в) турли даврларда ва бошқа худудларда

яшаган шахс отлари (Рустами Достон, Хўжа Хофиз Шерозий, Софи Оллаёр, Ҳазрат Али, Искандар, Фозил шоир Йўлдош ўғли);

Лингвистикада, хусусан, атамашунослик тарихидан шу нарса аёнки, номлар инсонларнинг орзу-умиди, энг яхши фазилатлари ва фантазияси асосида қўйилади. Лекин, шунга қарамасдан қўпгина номлар хилма-хил сабабларга кўра кайта тобулаштирилади ва натижада янги-янги эфемик номлар ҳосил қилинади. Айни ҳол инсонларнинг кундалик турмушидаги ўзаро муносабатларида ва айниқса халқ достонларида ҳам кузатилади. “Алпомиш достони”да ҳам эфемиклаштирилган номлар, масалан, хоним, хонтўрам, полвон, бий бобомнин гули, тўрам, каби эфемик мурожаатлар ҳам анча фаол қўлланилган. Барчин тилидан айтилган қуйидаги мурожаатларга – шеърий парчаларга эътибор қиласиз:

Хоним келса, сендей қалмоқ ўлмайми,
Холинг билиб тўғри юрсанг бўлмайми,
Ёки:
Чакасда шунқорим бордир,
Элда зўра борим бордир,
Қаторда норим бордир,
Чилла кирганда маст бўлган
Хатанг бошинурган,
Не зўрларнинг додин берган,
Кўнғиротда қайсарим бордир.

Кўрамизки, дастлабки шеърий парчада бешиккери қилинган эпик қаҳрамон (Барчин) ўз ёрининг исмини айтмасдан тобулаштириш орқали “хоним” эфемасини Алпомиш номи ўрнида қўллаган. Кейинги мисраларда Барчин ўз ёрини таъриф тавсиф қилиш учун яна эфемик асосга таянади. “Ёrim бор” деган тушунчани мумкин қадар юмшатиб, айни вактда улуғлаб (элда зўраборим), қўкларга кўтариб ва мақтаб (не зўрларнинг додини берган) ифода этганлигини кузатамиз. Бу тарздаги эфемик мурожаатларнинг ижтимоий– маънавий асослари борки, уларнинг бир қисми миллий қадрятларимизнинг мазмун-моҳиятига бориб тақалади. Шарқ аёллари ўртасида, хусусан,

миллатимиз маънавиятида аёл киши турмуш ўртоғининг номини айтмаслик, унинг ўрнига бирор эфемик мурожаатдан фойдаланиш русми-одати қатъий муҳрланиб қолган. Халқимизнинг юксак маънавиятини ва маънавий меросини кўз-кўз қиласиган “Алпомиш” достонида ҳам Барчиной нутқида “Чокаста шунқорим”, “Элда зўраборим”, “қатордаги норим”, “қўнғиротда қайсарим” каби эфемик бирикмалар бўлажак ёри (Алпомиш)га нисбатан қўлланган. Умуман, достонда эр тушунчасини ифодаловчи 20 тадан ортиқ эфемалар учрайдики, уларнинг ичидаги бегим, тўрам сўзлари ихчам, гўзал ва айни вактда дамда адабий тилга мос, хамма учун тушунарли тарзда қўлланган.

Достоннинг қуйидаги мисраларида Барчиной онаси Алпомиш номини тўғридан тўғри айтмаганлиги ва муайян тарзда тобулаштирганини кўрамиз:

Қозонда қайнаётган ширбоз гўшт эмас,
Тўрда ўтирган қизнинг боши бўш эмас,
Кизим домат бобосининг улига

Мол бергани Бойсун Кўнғирот элида...

Учар қушдан ўтар бул минган оти,

Мингни кесар, қўлда кесар пўлати...

Кўрса душманларнинг қолмас тоқати,

Асли ўзи кўнғирод элининг бекзоди.

Шул қизимнинг бул аташкан домати,

Шул бўлади бир юртнинг валломати

Бу шеърий парчаларнинг дастлабки икки мисрасидаги боши бўш бирикмаси мазмунига кўра эрга тегмаган ибораси билан синоним ҳисобланади. Эрга тегмаган ифодасида “қўполлик” прагматик семаси мавжуд бўлиб, боши бўш иборасининг эфемик восита сифатида қўлланишида миллатимизга хос ва қадриятимизга мос андиша, уятчанлик каби хислатлар кўзга ташланган. “Алпомиш”да ҳам бу иборадан Барчинга келган совчиларга жавоб беришда эпик қаҳрамон жуда ўринли фойдалана олишган. Масалан, “Ўзбакларнинг яхши қизи бўлса, боши бўшми, дейин, аввал сўрайин” каби мурожаат нутқидан шуни англаш мумкинки, совчилар аввал совчи бўлиб борилаётган



қизнинг боши бўшми? деган нияти ифодаланган. Бу ўринда достонни ўрганишга киришган ҳар бир ўқувчи учун иборанинг маъноси ҳеч бир қийинчиликсиз тушунилади ва бунга жавобан боши бўш эмас, яъни, Барчин Бойсун – Кўнғирот элида домат бобосининг ўғли Алпомишга унаштирилган, деган асосий ҳукм – хулоса билан танишади.

Кўринадики, мазкур достонни ўрганишга бағишлиланган дарсда ўқувчи асар билан танишиш ва уни таҳлил қилиш орқали тарих, топонимика, этнография, зоология, лингвистика, маданиятшунослик, қадрият-

шунослик каби фанларга алоқадор бўлган дастлабки илмий тушунчалар берилади. Демак, ўқувчиларнинг илмий таффаккурини фақат адабиёт дарсликларидағи назарий маълумотлар билан бирга, фанларро боғланиш орқали ҳам шакллантириш ва маънавий-ахлоқий дунёқарашини кенгайтириш мумкин. Буларнинг ҳаммаси ўз навбатида уларнинг замон талабларига жавоб берадиган, юксак маънавиятли инсон сифатида тарбияланишига мустаҳкам пойдевор бўла олади.



Фойдананилган адабиётлар:



1. Халқ оғзаки ижоди /”Алпомиш” достонлари туркумидан.
2. “Зукко китобхон”нашиёти Тошкент 2022й

UZOQNI O'YLAB QO'YILGAN QADAM.

ZARIPOV MUHIDDIN SIROJIDDINOVICH
Sirdaryo kasb-hunar maktabi direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 5 fevralda ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar bo'yicha olib borilayorgan ishlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'limgilchilik, tizimi, Loyiha ofisi.

Mamlakatimizda ta'limgilchilik sohasidagi davlat siyosati uzlucksiz ta'limgilchilik tizimi prinsipiiga asoslangan. Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida boshqa sohalar qatori ta'limgilchilik tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Uzoqni o'ylab qo'yilgan ilk qadam prezidentimizning Oliy Majlisga Murijaatnomasida 2020 / 2021 o'quv yilida belgilab berilgan vazifalarda o'z aksini topgan. Unga ko'ra yangi o'quv yildan boshlab mamlakatimizda kasblar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish, yurtimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Shunga ko'ra mehnat bozori, professional ta'limgilchilik, kasbga o'qitish va o'rgatish tizimining uyg'unlashuvini aks etgan rivojlangan davlatlarning malaka tizimi yurtimizda joriy etilmoqda. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Vatan taqdirini yoshlari tarbiyasi hal qiladi".

Shu kunga qadar yangi Ozbekistonda pedagog maqomini yuksakka ko'tarish, uning huquq va majburiyatlarining qonuniy asoslarini yaratish asosiy maqsadlardan biri bo'lib keldi. Jumladan, "Pedagogning maqomi to'g'risida" gi qonun, "uzluksiz ta'limgilchilik tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" gi qonunlarni ishlab chiqilishi, "O'zbekiston Respublikasining uzlucksiz ta'limgilchilik va tarbiya

sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" ning yaratilishi bunga misol bo'la oladi.

Barchaga ma'lumki, O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangan. Hozirgi kunda aholi turmushi uchun munosib sharoitlar yaratish, ta'limgilchilik, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo'yicha barcha chora – tadbirlar ko'rilmoxda. Joriy yilning 5 fevral kuni prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda muammolar tahlil qilinib, uzoqni o'ylab qo'yiladigan qadamlar, ya'ni joriy yilga vazifalar belgilandi.

Mamlakatimiz kelajagi, barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Prezident Shavkat Mirziyoyev oxirgi 7 yilda yangi maktablar qurilib,

qo'shimcha 700 mingta o'quvchi o'rni yaratilganligi, maktabgacha qamrov 27 foizdan 74 foizga yetganligi, oliy o'quv yurtlari soni 200 tadan oshib, qamrovi 42 foizga yetganligi haqida to'xtalib o'tdi. Ta'limgilchilik va tibbiyotda xususiy sektorga keng yo'l ochilishi ta'limgilchilik sohasida sifatga intilish paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Yig'ilishda ta'limgilchilik sohasidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida katta ilmiy – amaliy tajribasi bor mutaxassislar jamlangan "Ta'limgilchilik sohasidagi loyihibar markazi" Loyiha ofisi tashkil etilishi aytib o'tildi. Mazkur ofis ta'limgilchilik rivojlantirish

respublika ilmiy – metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarni xalqaro standartlar asosida yangilab, o'quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) ni bosqichma – bosqich joriy etilishini yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi.

Yoshlar maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab katta hayotga qadam qo'ysa, o'z yo'lini topib oladi. Ana shu maqsadda 50 ta kasb – hunar ro'yxati tuzilib, ular bo'yicha o'quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Chunki, qo'lida hunari kasbi borlar davlatga va jamiyatga foyda beradi. Ishi va qo'lida hunari yo'q kishining insonlar oldida qadr – qiymati yo'q. Yuqorida belgilab berilgan vazifalar nafaqat mehnat bozori, balki xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizning mutaxassis sifatida mavqeini, xalqaro talablarga mosligini, xorijda va nufuzli mamlakatlarda mehnat qila olishi va munosib ish haqiga ega bo'la olishini

ham nazarda tutgan holda belgilab berilgandir. Yoshlarimizning ko'pchiligi

xorijda qurilish, obodonlashtirish, qishloq xo'jaligi kabi yuqori malaka talab qilmaydigan og'ir ishlarda kam ish haqiga ham ishlamoqda.

Shavkat Mirziyoyev professional ta'limda ma'sul idoralar ko'paygani uchun rivojlanish bo'lmayotganligini ta'kidladi. Avvalo ish beruvchi va texnikumlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurdir.

Davlat rahbari "Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygochlari ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblanmaydi. Ayrimlarda darslik va adabiyotlar yetishmaydi, bori ham bugungi talablarga javob bermaydi" -dedi.

Ish beruvchi bilan professional va oliy ta'limni bog'lovchi uzviy tizimni

joriy etish maqsadida endilikda kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirish

Respublika kengashi hamda Mehnat bozori tadqiqotlari instituti ta'lim sohasidagi Loyiha ofisiga biriktirildi. Talab yuqori bo'lgan 100 ta kasb standarti Germaniya, Shvetsariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida

yangilanib, professional ta'lim ustozlariga yangi standartlar bo'yicha o'qitish talabi qo'yilishi aytib o'tildi.

Shuningdek, professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilar sonini oshirish ta'kidlangan edi.

Maktabimizda 2023-2024 o'quv yilida 11 ta kasb bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tash maqsadida 20 ta korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzildi. Bular jumlasiga, Wang DA Grup-O'zbekiston Xitoy qoshma korxonasi, Mega Luks MCHJ Peng Sheng-Ozbekiston Xitoy qo'shma korxonasi, "General Avto MB" kabilar kiradi. Hozirgi kunda 4 ta : tikuvchilik, avtomobil dvigatellarini ta'mirlash, raqamli axborotni qayta ishlash ustasi, payvandlash yo'nalishlaridagi guruh o'quvchilari dual ta'lim tizimida o'qitilmoqda.

Kasb hunar maktabimizda aholining bo'sh qolgan qatlami, ya'ni ish bilan band bo'lмаган ayollar va yoshlar uchun mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan "Akfa" rom ishlab chiqarish, ayollar va erkaklar sartaroshi, shinomontaj chilangari kabi 18 ta kasblar bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilgan bo'lib, yoshlarning ish bilan bandligi ta'minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida oliygoh, texnikum va kollejni bir-biriga bog'lash shartlari va tartibini ishlab chiqish vazifasini topshirdi. 2024 yilning mart oyida xorijdagi hamkasblarning ta'lim sohasida olib borayotgan ishlarini o'rganish maqsadida Fransiya davlatida boldim. Bu sohada tashkil etilgan ishlarini yaqindan o'rgandim. 13-18 aprel kunlari Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida Yevropa Ittifoqining Markaziy

Osiyoda salohiyatli yoshlar uchun muloqat va amaliy harakatlar (DARYA) loyihasi doirasida “SCAFFOLD” mintaqaviy o’quv seminari bo’lib o’tdi. Mazkur seminarda maktabimiz direktor o’rnbosari Maxsatilla Tadjixanov ham ishtirok etdi.O’rganishlar muassasamizning istiqbolli rejasini tuzishda asqotadi deb o’ylayman.

Prezidentimiz O’zbekiston yoshlari forumidagi nutqida ”Qanchalik qiyin bo’lmashin, biz yoshlar tarbiyasi bo’yicha o’zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg’unchi va zararli g’oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik, istemolchilik kayfiyatidan asrashimiz zarur” deb aytib o’tgan.

Yig’ilishda maktablardagi tarbiya va ma’naviyat masalasiga alohida to’xtalib, o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda huquqbazarlikka qarshi “imunitet” hosil qilish zarurligini ta’kidlandi.

Bu borada maktabimizda juda ko’p ishlar amalga oshirilmoqda.Masalan,

Ta'llimga kompetensiyaviy yondashuv talabi o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi. Kompetensiya tushunchasi lotincha “competentia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, izohli lug‘atda “qonunan ega”, “haqdor” degan ma’noni anglatadi, umumiste’moldakengishlatiladigan “qobiliyat”, “ko‘nikma,” “iqtidor” tushunchalariga yaqin turadi [2]. O.I.Okulovskiy kompetensiyalar va kompetensiyali ta’lim xususida fikr yuritib, “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga assoslangan holda muayyan yo‘nalishda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish ko‘nikmasi” ekanligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

A.V.Xutorskiyning kompetensiya haqidagi fikri diqqatga sazovor. Olim kompetensiyani “predmet va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sifatlari (bilim, qobiliyat, ko‘nikma va malaka, faoliyat usullari) majmuasi bo‘lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta’sir ko‘rsatish demak”, - deb tariflaydi.

“Rus tilining izohli lug‘ati”da S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedovalar quyidagicha ta’rif keltiradilar: “kompetensiya – bu ma’lum shaxsning yetarli darajada xabardor bo‘lgan savollari doirasi” [3].

I.A.Zimnyaya kompetentlilikni “insonning ijtimoiy-kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar hamda insonning aqliy va shaxs xususiyatlariga asoslangan tajriba” [4] deb belgilaydi, “kompetensiya” tushunchasiga esa, “qo‘llanilmagan”, “yashirin”, “potensial” zaxira deb qaraydi.

Pedagog olimlarning fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda, ushbu atama quyidagicha izohlandi: kommunikativ kompetensiya – “shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimi. Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so‘zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, etika va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatni qabul qilgan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo‘lish usullari orqali ifodalanadi” .

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Kompetentlik atamasi esa, muayyan turdagи kompetensiyaga ega, izlanishga layoqatli, o‘z sohasini biladigan, uni boshqalarga taqdim etishni o‘rinlatadigan “mahorat sohibi” ma’nolarini beradi. Tilimizdagi “ep” (eplilik), “uddaburonlik” kabi tushunchalarni bu so‘zga ma’nodosh sifatida qo‘llanishini qayd etmoq



darkor. Muayyan hunar, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ularni hayotning turli vaziyatlarda qo‘llay olgan kishilarga nisbatan “epli” sifati (e’tirofi) qo‘llanadi.

Xalqimiz orasida alqov bilan aytildigan “Epli kelin – sepli kelin” maqoli ham notanish muhit va sharoitda bilganlariga tayanib, har ishni hammaga manzur tarzda o‘rinlatadigan, vaziyat taqozo qilganda ijodiy yondashib yaratuvchanlik salohiyatini ko‘rsata olgan, ya’ni hayotiy kompetensiyaga ega kelinlarga nisbatan qo‘llanadi. Yevropa ilm-fanida, xususan, rus pedagogikasida kompetensiya va kompetentlik muammosi bizga nisbatan ancha keng o‘rganilganligi kuzatiladi. Mazkur muammo yurtimizda asosan xorijiy tillarni o‘qitish bilan bog‘liq u qadar ko‘p bo‘lmagan tadqiqot ishlarida yoki umummetodik va o‘qitish texnologiyalari bilan bog‘liq izlanishlarda ishlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ona tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv muammosiga bag‘ishlangan ishlar juda oz, hatto maqolalar ham kam. Bu borada atoqli tilshunos olim A.Nurmonov va G.Ziyodullaevalarning maqolasini alohida diqqatga sazovor [5].

Dunyo mamlakatlarida umumta’lim maktabi o‘qituvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarda umumiylilik, o‘xshashlik kuzatilsa-da, aynan bir xil emas. Ba’zi olimlar uch bosqichli kompetensiya (umumiyl (tayanch) kompetensiya, umumiyl predmetli kompetensiya, predmetli kompetensiya)ni e’tirof etadilar.

Oxirgi kompetensiya oldingi ikki kompetensiyaga nisbatan xususiy sanaladi. Britaniya maktablarida oltita tayanch kompetensiyalar asos sifatida olingan.

Ularni shartli ravishda bir nechta guruhlarga birlashtirish mumkin. “Asosiy kompetensiyalar: muloqotga kirishish; hisob-kitoblar yuritish; axborot savodxonligi; Keng ko‘lamli tayanch kompetensiyalar; boshqalar bilan ishlay olish; bilim olish va takomillashish malakasi; turli masala va muammolarni yechish ko‘nikmasi”.

O‘zbekistonda boshqa fanlarda

bo‘lgani kabi ona tili uchun tayanch va fanga oid umumiyl kompetensiyalar tizimida kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari belgilangan. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarga ona tili fani orqali singdiriladi.

Zikr qilingan A.Nurmonov va G.Ziyodullaevalarning maqolasida kompetensiyaviy ta’lim konsepsiysi til ta’limi oldiga o‘quvchilarda nutqiy, lingvistik, kreativ va pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zlashi qayd etilgan. Bular xususiy xarakterdagи predmetli kompetensiyalar sirasiga kiradi.

Albatta, bunday yondashuv bilish paradigmasini inkor etmaydi, chunki har qanday amaliy faoliyat ibtidosi bilim. Faqat bu yondashuv uni muammoli vaziyatlarda qo‘llay olish paradigmasiga bo‘ysunadigan orqa rejadagi paradigma maqomiga tushiradi. Tasavvur qilaylik, bir odamning mashinasi bor. Bu odam mashinaning ichki va tashqi tuzilishi, qismlari va ularning vazifalarini, yo‘lqoidalarini bilsa-yu, lekin unda mashina haydash amaliyoti bo‘lmasa, avtoulov borligining kishiga qanday foydasi bor? Xuddi shu kabi ta’lim jarayonida o‘quvchi fanlardagi qonun, qoida, ta’riflarni yodlagani holda ularni qachon, qaerda va qaytarzda qo‘llashni bilmasa, hayotda o‘z o‘rnida ishlata olmaydi va asta-sekin xotirasidan ham ko‘tarilib ketadi.

Boshqa predmetlar qatori ona tili uchun fanga oid umumiyl kompetensiyalar tizimida, avvalo, “kommunikativ kompetensiya” tilga olinadi. Bu “kompetensiya ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishnazaratutadi”. “Kommunikativ kompetentlilik “tug‘ma qobiliyat bo‘lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir.

Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi".

Insonfaoliyatning sub'ektisifatidato 'laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiyaning ahamiyati haqida tadqiqotchi L.P.Grimak shunday yozadi: "insonning inson bo'lishining yana bir sababi shundaki, u o'ziga o'xshaganlar bilan faol muloqotda bo'lgan..., tug'ilishining ilk kunlaridan boshlab insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lish...".

Til dastlabki o'rinda, avvalo, so'zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Shu asosda nutq ijodkori bilan bog'liq tomonlarini o'rganish muhim. Negaki, "biror bir tilda so'zlash oddiygina ushbu tildagi gaplarni tuzishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki shu yo'sinda ma'lum turdag'i ijtimoiy faoliyat ijrosi".

V.V.Shaxovskiyning fikricha "turli so'zlovchilar qo'llaydigan emotiv nutqiy tuzilmalarining mazmun va ifodasi muloqotdoshlarning hissiyotlilik ifodasiga bo'lgan ehtiyoji, maqsadi bilan bog'liq. Bu ehtiyoj so'zlovchining voqelikka munosabati, uni idrok etish maqsadi bilan belgilanadi".

Tilshunos U.Rahimov o'z maqolasida kommunikativ muloqot va lingvistik kompetensiya ijtimoiy munosabat omili ta'sirida boyib borishi va kompetentlikning rivojlanib borishiga bir necha omillar ta'sir qilishi haqida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan .

L.Xell va D.Zigler kompetentlilikni "psixosotsiologik sifat bo'lib, kuch va ishonchni bildiruvchi, o'z ishining muvaffaqiyatli va foydali ekanligidan kelib chiqqan tuyg'u bo'lib, insonga uning atrofidagilari bilan hamkorlikda samarali harakat qilishi mumkinligini anglatadi", deb ta'riflangan.

Pragmalingvistikaning amerikalik yirik vakili X. Grays qarashiga ko'ra kommunikativ faoliyat o'zaro hamkorlik asosida tashkil qilinadi. Hamkorlik hosil bo'lishi uchun axborot almashinuvida to'rtta: miqdor, sifat, mavzuga oidlik, muomala tarzi tamoyillariga

amal qilinadi. Pragmatik maqsadga ko'ra, tarbiyalanuvchilar uchun miqdor tamoyili olinayotgan yoki uzatilayotgan ma'lumot, axborotning miqdorini belgilash (ba'zan chegaralash)ni bildiradi. Bunda kommunikant va kommunikat uchun almashuvdagi axborot talab darajasida bo'lishi, shuningdek, ehtiyojdan ortiqcha ma'lumotni olish (berish)ga urinmaslik talab qilinadi.

NATIJALAR

Muloqotda, xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, me'yorni bilmaslik yoki unutish fikr almashinuv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavhumlikka sabab bo'ladigan qisqalik tushunmovchilikka olib borsa, axborot uzatishda ko'p so'zlilik fikr tarqoqligiga sabab bo'ladi. Axborotlar bilan ishslash pragmatik kompetensiyasida sifat tamoyili alohida o'rin tutadi. Bunda o'quvchilar ma'lumotlarning haqqoniyligiga erishish bilan bog'liq layoqatga ega bo'lishlari diqqat markaziga qo'yiladi. Yolg'on axborotlardan qocha bilish, ularning domiga tushib qolmaslik, haqiqati, to'g'riliqi aniq bo'lмаган axborotlarni uzatishdan vaqtida voz kecha bilish mazkur tamoyil shartlari sanaladi. Qolaversa, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini ko'rsatuvchi mezon hamdir. Ongli fuqaro o'ziga yetgan axborotning haqqoniyligiga mas'ulligini his qiladi, yolg'on va gumonli axborotlar tarqalishini oldini oladi. Mavzuga oidlik tamoyili kommunikatsiya jarayoni ishtirokchilarini mavzu ob'ekti doirasidan chiqmaslikka da'vat etadi. Bu tamoyilga rioya qilmaslik birinchi va ikkinchi tamoyillardan chekinishga olib kelishi mumkinligi hayotda ko'p kuzatiladi. Telefonda so'zlashish, internet orqali yozishmalarda mazkur tamoyilga rioya qilish kommunikant, avvalo, o'zini, qolaversa, suhbatdoshini hurmat qilishini namoyon qiladi. Kommunikant va kommunikat vaqtining qadrlanishi yuksak madaniyat belgisi sanaladi. Albatta, bir-biridan uzoqda bo'lgan oila a'zolari, yaqin do'stlar yoki sevishganlarning media muloqotini har doim ham miqdor, sifat va mavzu qoliplariga solishni birday talab qilolmaymiz. Faqat bunda u yoki



bu tomonning (yoki ikkalasining ham) muloqot sharoiti kommunakatsiya shartini belgilab beradi. Suhbatdoshlar qanchalar vaqtি bemałol bo‘lmasin, yolg‘iz qolish imkonи bo‘lmagan jamoat joylarida yuqoridagi tamoyillar izmida bo‘ladilar. Avtobusda, metroda, kutish joylari yoki shu kabi yerlarda kishining o‘zini tutishi, media vositalaridan boshqalarga malol kelmaydigan holda foydalanishi uning ma’naviy qiyofasini ko‘rcatadi. Ularga rioya qilmagan hollarida sotsium sifatida kishi muloqotning axloqiy pragmatikasini o‘zlashtirmagan hisoblanadi. Axborotlar, media vositalar bilan ishlash asosida muloqot tarzi (uslubi) tamoyili ham uning relevantlik (o‘rinli, jo‘yali bo‘lish) xarakter kasb etishida muhim o‘rni bor. Kommunikatsiya jarayonining ishtirokchilari so‘zlashuv yoki yozishmalarida fikr ifodalashda

aniqlikka va muloqotni hisobga olgan holda tushunarli uslubga intilishlari bu tamoyilning asosini tashkil qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida ta’kidlangan o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarning multimediali ilovalari boshlang‘ich sinflarda “O‘qish” o‘quv fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishida ko‘maklashishga, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitishga xizmat qiladigan qo‘srimcha materiallarga ega bo‘lgan interfaol elektron axborot-ta’lim resursi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu multimediali ilovalarda matn ustida ishlashga ham alohida e’tibor qaratilishi ahamiyatga molik.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Makulova B. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishning mazmuni va uni tashkil etish. Ped.fan. nomz. diss.avtoref. – T.: 2014. – B. – 12.
2. Ganieva B.I. Kutubxonalarda o‘quvchilar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari. Ped.fan.nomz.diss. –T.:2018. –161 b.
3. Orlova E.A. Recommendations for increasing the level of reading competence within the framework of the National Program for the Support and Development of Reading. – M.: MTsBS, 2018. – 29 p.
4. Matveeva E.I., Patrikeeva I.E. An activity-based approach to teaching in primary school: a literary reading lesson. – Vita-Press, 2016. – 550 p.

SHAXMAT O'YININI O'RGANISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH MAK TAB YOSHIDAGI BOLALAR Ning XOTIRA VA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**MASHARIPOVA MUYASSAR ISCHANOVNA - Urganch davlat
universiteti dotsenti**

**MATYUSUPOV QAHRAMON SHERIPBAYEVICH - 13.00.04 –
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi”
mutaxassisligi mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya. Ushbu ishda shaxmat o'yinini o'rganish jarayonida boshlang'ich mak tab yoshidagi bolalarning xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlanirishiga hissa qo'shadigan psixologik va pedagogik sharoitlar o'rganildi va ular asosida eksperimental rivojlanish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: 10 so'zni yodlash, mantiqiy fikrlash, eslab qolish, Operativ xotira, ko'r-ko'rona yurish.

Abstract. In this work, the psychological and pedagogical conditions that contribute to the development of memory and logical thinking of children of primary school age during the learning of the chess game were studied, and an experimental development technology was developed based on them.

Keywords: memorizing 10 words, logical thinking, remembering, working memory, blind walking.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qaroriga shaxmatni yanada rivojlanirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida:

O'zbekiston shaxmat maktabini yaratish maqsadida: "Maktabda shaxmat" loyihasini amalga oshirish, uning doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun shaxmatga o'qitish tizimini yanada rivojlanirish orqali qamrovni yilma-yil oshirib borish, o'quvchilar va maktablar o'rtasida turnirlar o'tkazish; bolalar va o'smirlarning shaxmat bilan shug'ullanishga qiziqishini oshirish, uni ommaviylashtirish, bu borada ta'lim muassasalari, mahalla va tashkilotlarda shaxmat bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgust,PQ-347-sonli qarorida va 30-iyun - yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional shaxmatga jalg qilish, nufuzli xalqaro shaxmat musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallash, jahon standartlariga mos keladigan shaxmat infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, Shaxmatni 2025-yilgacha rivojlanirish davlat dasturini izchil amalga oshirish maqsadida bir nechta vazifalar belgilandi.

"Ba'zi bir pedagoglar bolaning intellektual rivojlanishida shaxmatning foydasi katta, deyishadi. U iqtidorni rivojlanirishga ta'sir qiladimi?" — Kubalik ajoyib grossmeyster Hose Raul Kapablanka shunday degan edi: "Shaxmat — shunchaki o'yin emas. Bu vaqt o'tkazishning ma'lum



darajada badiiylik va ilmiylikka asoslangan intellektual foydali usuli. Jismoniy mukammallik uchun sport qanchalik muhim bo'lsa, aqliy salohiyat uchun shaxmat shunchalik muhimdir. U insonlarga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni rivojlanirish va aqlni mashq qildirishning qiziqarli hamda qulay yo'lidir". Bu ajoyib qadimiy o'yin insonga katta quvonch bag'ishlash bilan birga aqliy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxmat kishi dunyoqarashini kengaytirib, uni o'ylashga, fikrlashga, eslab qolishga, taqqoslashga, kelajakni oldindan ko'ra olish va xulosa qilishga o'rgatadi. Shuningdek, shaxmat o'ynagan odamda e'tibor, qat'iyat, iroda, o'z-o'ziga tanqid va mustaqil xulosa qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Mavzuning dolzarbliji. Shaxmatni intellektual sport turi sifatida keng yoritish hamda targ'ib qilish ishlarini tashkillashtirish, shuningdek, shaxmat bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining xalqaro shaxmat musobaqalarida ishtirop etishini ta'minlash.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida intellektual salohiyatning yuqori darjasini yuqori bo'lgan malakali mutaxassislar tobora ko'proq talab etiladi, ularning asoslari maktab rivojlanish davrida belgilanadi.

Intellektual rivojlanish muammosiga psixologik va pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish, birinchi navbatda, ta'lim mavzularining taqdimoti mazmuni va mantig'iga bog'liqligini ko'rsatdi.

Yosh avlodning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan turli xil mavzular orasida, bizning fikrimizcha, shaxmat o'yinini o'rganish alohida o'rinn tutishi kerak. Dunyoning ayrim mamlakatlarida, shu jumladan maktab kurslarida shaxmat bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi va ushbu o'yinning yuqori salohiyatini ishtiropchilarining intellektual va shaxsiy rivojlanishi vositasi sifatida tan oladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi

bolalarning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadigan psixologik va pedagogik sharoitlarni o'rganish va ular asosida eksperimental rivojlanish texnologiyasini ishlab chiqish eng qimmatli sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hayotning zamonaviy ritmida odam tez-tez aniq konsestratsiyani va ob'ektlarni yodlashni talab qiladigan vaziyatga duch keladi. Insonning xotirasi uning kasbiy faoliyati, o'qitish, ta'llim va shaxsning har tomonlama rivojlanishi muvaffaqiyati bilan bog'liq. Xotira insonning asosiy psixofiziologik xususiyatlaridan biri hisoblanadi, bunda uning aqliy xususiyatlari ham, yuqori nerv faoliyatining fiziologik xususiyatlari ham ishtirop etadi.

Xotira rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bu boshlang'ich maktab yoshidir. Aynan shu davrda xotira, ta'lim jarayoni ta'sirida o'qituvchining eng katta e'tiborini oladi.

Mavzuning dolzarbliji bugungi kunda kichik yoshdag'i o'quvchilarining xotirasini rivojlanirish muammosi mavjudligi bilan bog'liq. Xotira shaxsning ruhiy hayotining eng muhim belgilovchi xususiyatidir.

Xotira inson hayotining eng muhim qismi bo'lib, xotira rivojlanishining eng muhim davri - boshlang'ich maktab yoshi. Aynan shu davr xotirani yanada to'laqonli shakllantirish va kelajakda uni takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Yosh o'quvchi uchun xotiraning ahamiyati shundan iboratki, har bir keyingi maktab kursi ilgari olingan bilimlarni qo'llash asosida o'tmishning kengaytirilgan va murakkab versiyasidir.

Boshlang'ich maktabda xotirani rivojlanirish muammosi pedagogika, psixologiya, fiziologiya, metodologiya va boshqalar kabi fanlarning olimlari tomonidan yoritilgan. Kichik yoshdag'i maktab o'quvchilarining xotirasini rivojlanirishga

xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida alohida e'tibor berilgan. Bu mavzuni yoritgan bir qator olimlardan K. Byuler, L.S. Vygotskiy, P. Janet, A.N. Leontiev, A.R. Luriya, P. Maklakov, S.L. Rubinshteyn, I.P. Pavlov, G. Ebbingshauzen. Ammo zamonaviy fanda xotiraning yagona nazariyasi hali mavjud emas. Shu munosabat bilan boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyati jarayonida xotira rivojlanishining xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Xotira jarayonlari insonga turli bilim va ko'nikmalarini o'rgatishning muhim sharti hisoblanadi [6]. Bundan tashqari, aksariyat hollarda ixtiyoriy xotira haqiqatan ham insonning intellektual faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u o'sishning dastlabki bosqichida - bolalikda ham rivojlanishda sezilarli sakrashga olib keladi.

Xotirani hayot tajribasini qabul qilish, saqlash va takrorlash qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Xulq-atvorning tug'ma va orttirilgan mexanizmlari turli xil instinktlar, shaxsiy hayot jarayonida singdirilgan, meros qilib olingan yoki orttirilgan tajribadan boshqa narsa emas. Bunday tajribani doimiy ravishda yangilab turmasa, uni mos sharoitlarda ko'paytirmasa, tirik organizmlar hozirgi tez o'zgaruvchan hayot hodisalariga moslasha olmaydi.

Psixologiya fanida xotira odatda bir necha turlarga bo'linadi. Har bir tasnif ma'lum bir atributga asoslanadi, masalan: xotira hajmi, xotirani saqlash muddati, analizatorlar va boshqalar. Eng dolzarb tasniflardan biri vaqt bo'yicha tasniflashdir: qisqa muddatli, uzoq muddatli, ishchi xotira [7]. Xotira turlarining har biri bir-biridan ba'zi farqlarga ega, bu ularni inson uchun muayyan vaziyatlarda eng muhim qiladi.

Qisqa muddatli xotira dastlabki bir necha soniyalarda tegishli bo'lgan ma'lumotlar miqdorini saqlaydi. Eng muhim holatlarda qisqa muddatli xotira 20 soniyagacha oshishi

mumkin [8]. Boshqacha qilib aytganda: qisqa muddatli xotira - bu ob'ektlar yoki hodisalarning asosiy idroki, ob'ektlarning "fotosurati". Kelajakda olingen ma'lumotlar miya faoliyatini qayta ishslashga o'tadi, u erda xotiraning yangi turi - uzoq muddatli xotiraga ega bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshi esda saqlash va ko'paytirish qobiliyatining intensiv rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Leontiev A.N. nuqtai nazaridan, kichik yoshdagi o'quvchilar ko'proq rivojlangan vizual-majoziy xotiraga ega (aniq ma'lumotlar, hodisalar, shaxslar, narsalar, faktlar). Shu bilan birga, o'quv jarayonida og'zaki-mantiqiy xotiraning yanada murakkab shakllarini (ta'riflar, tavsiflar, tushuntirishlar) rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Shunday qilib, biz ushbu davrda xotira aniq kognitiv xususiyatga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin. Boshlang'ich maktab yoshida mnemonik vazifani anglash sifat jihatidan o'zgaradi, shuningdek, yodlash texnikasi shakllanadi. Kichik o'quvchining beixtiyor xotirasi asta-sekin o'zboshimchalik xususiyatlariga ega bo'lib, ongli ravishda tartibga solinadigan va vositachi bo'ladi.

Boshqa pedagogik psixolog L.S. Vygotskiy o'yindan ta'lim faoliyatiga o'tgandan keyin kichik maktab o'quvchilarida xotira xususiyatlarining o'zgarishini tasvirlaydi. Har bir kurs bilan diqqatni jamlash qobiliyati ortadi, xotira miqdori ham uning imkoniyatlarini oshiradi. [5]

NATIJALAR

O'quvchilarning boshlang'ich mакtabga o'tishidan keyin yana bir xususiyat o'zini namoyon qiladi - uzoq muddatli xotira.

Bu ishni yozish jarayonida xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning umumiylazariy jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan asarlar tahlil qilindi. Bu usul shaxmatda o'quv va o'quv jarayonini qurishning asosiy



uslubiy yondashuvlarini aniqlash uchun ishlatalgan[1].

Keyinchalik pedagogik kuzatuv o'tkazdik, unda 20 nafar boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar ishtirot etdi.

Pedagogik kuzatish 2023-yil sentabrdan 2023-yil dekabr oyigacha bo'lib o'tdi. Pedagogik kuzatishni o'tkazish uchun tegishli bayonnomma tuzdik, unda natijalar eksperiment boshlanishidan oldin va uni yakunlashda qayd etildi.

Birinchi bosqichda bolalarda aqliy fazilatlarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun dastlabki test amalga oshirildi.

Ikkinci bosqichda seksiyaviy dastur tizimli ravishda amalga oshirildi.

Uchinchi (yakuniy) - yakuniy test (sinov) o'tkazildi.

Xotira va mantiqning rivojlanish darjasini bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun turli usullar, testlar, tahlil va boshqalar qo'llanilishi mumkin. Masalan, xotiraning har xil turlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun testlar va boshqalar.

Shaxmatchining fikrlash va xotirasini o'rganish uchun faoliyat turiga ixtisoslashgan test usuli ishlab chiqilgan.

Xotirani o'rgatish uchun quyidagi mashqlar qo'llaniladi:



1. Joylashtirish mashqi. Donalar dastlab doskaga joylashtiriladi.

Biz ko'rgazmali shaxmat taxtasida oz sonli donalardan boshlaymiz. Eslab qolish vazifasida foydalilanigan o'yin pozitsiyalari turli shaxmat manbalaridan oqlar bilan harakatlanish uchun taxminan 35 ta yurishdan so'ng master o'yinlaridan olingan. Shaxmat donalar "sokin" edi (ya'ni almashinuvlar ketma-ketligining o'rtaida emas edi).

- Birinchi bosqich. Doskada 6 ta donadan iborat o'yin pozitsiyasidan boshlaymiz. O'quvchiga tanishuv va yodlash uchun 2 daqqa beriladi. Donalar olib tashlanganidan keyin, donalarni joylashtirish uchun 2 daqiqalik

tanaffus amalga oshiriladi. O'quvchilar o'zlarining dastlabki pozitsiyalarini tiklash vazifasini bajargandan so'ng.

- Ikkinci bosqich. Xuddi shu mashq. Biz donalar sonini va tanaffus vaqtini oshiramiz. Test namunasi (1-rasmida ko'rsatilgan)




2. Doskaga qaramasdan 40 ta yurish .[2]

Doskaga bir xil rangdagi to'rtta figurani qo'ying. Shu bilan birga, murabbiy harakatlarni buyuradi va bola figuralarni ongida ko'r-ko'rona harakatga keltiradi, ularning nomlarini daftarga yozadi:

Yozuv usuli bo'yicha variantlarni hisoblash jarayonini tahlil qilish asosida shaxmatchilarning professional operativ xotirasining tavsifi bo'sh OPS (оперативно памяти шахматистов) testini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bunday topshiriqlar matematik va statistik ishlov berish va natijalarni ob'ektiv baholash uchun yetarli

bo'lgan materialni olish imkoniyatini beradi.



Rag'batlantiruvchi material bilan test namunasi (2-rasmida ko'rsatilgan) - sub'ektning kutilayotgan javobi qavs ichida ko'rsatilgan:

1. e3 (g5)
2. g2 (f2)
3. d5 (e6)
4. f5 (d4)
5. c3 (e3)
6. g4 (g2)
7. d6 (f5)
8. c5 (c3)
9. f3 (d5)

Sinov jarayoni quyidagicha bo'ladi: eksperimentator figura harakatlanishi kerak bo'lgan maydonni va sub'ekt harakatlanishi mumkin bo'lgan maydonni nomlaydi. Shunday qilib, mavzu ketma-ket taqdim etilgan stimullarni o'zgartirish sharti bilan xotirada raqamlar kombinatsiyasi tasvirini saqlab qolishni tasdiqlaydi.

Ushbu test natijalarini baholash samaradorlik mezonlarini E (to'g'ri javoblar sonini n test vaqtiga nisbati t) va xato javoblar soniga qarab aniqlangan A aniqligi yoki nosozliklar n1.

$$E = \frac{n}{t};$$

$$A = \frac{n}{n + n_1}.$$

3. Xotiraning rivojlanish darajasini o'n so'zni yodlash texnikasi yordamida o'rganish mumkin. O'n so'zni yodlashning tavsiya etilgan texnikasi A. R. Luriya[3] tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagi xotira jarayonlarini o'rganish imkonini beradi:

yodlash, saqlash va ko'paytirish. U xotira holatini va ixtiyoriy diqqatning rivojlanish darajasini baholash uchun amalda qo'llanilishi mumkin.

Mana so'zlar to'plami:

1. Stol, suv, mushuk, o'rmon, non, birodar, qo'ziqorin, deraza, asal, uy.
2. Tutun, tush, to'p, paxmoq, qo'ng'iroq, buta, soat, muz, tun, dum.

Topshiriqni bajarish tartibi: mavzuga ko'rsatma beriladi: "Men hozir 10 ta so'zni o'qiyman. Sizning vazifangiz diqqat bilan tinglashdir. Men o'qishni tugatgandan so'ng, siz aniq eslab qolgan so'zlarni har qanday o'zboshimchalik bilan takrorlashingiz kerak. So'zlar sekin va aniq o'qiladi. Sinov protokolida har bir taqdimotdan keyin so'zlarni takrorlash tartibi va to'g'riliги xoch yoki raqam bilan belgilanadi. (So'zlarni takrorlash tartibi materialni eslab qolish usulini tahlil qilishda ma'lumotli bo'lishi mumkin.)

Ba'zi hollarda, yodlangan materialni eslab qolishni o'rganish uchun mavzuga so'zlarni bir soat yoki hatto ertasi kuni takrorlash so'raladi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish quyidagicha amalga oshiriladi. Har bir taqdimotdan keyin takrorlangan so'zlearning umumiyligi sonini hisoblash asosida grafik tuziladi: takrorlashlar soni gorizontal ravishda, to'g'ri takrorlangan so'zlar soni esa vertikal ravishda belgilanadi. Avvalo, tadqiqot natijalarini sifatli baholash muhim ahamiyatga ega: metodologiyani amalga oshirish tabiatiga ko'ra, yodlash, ko'paytirish va saqlash xususiyatlarini, shuningdek, insonning charchashini baholash mumkin.

Psixologiyada fikrlash ob'ektni tez va aniq idrok etish qobiliyatiga, yuzaga kelgan vaziyatni tezda baholash, qaror qabul qilish va o'yin xatti-harakatlarining strategiyasi va taktikasini o'zgartirish qobiliyatiga asoslangan faoliyat sifatida tushuniladi. Doskada doimiy

o'zgaruvchan vaziyatni aqliy ushlab turishda shaxmatda namoyon bo'ladijan xotiradan farqli o'laroq, tafakkur shaxmatchining evristik xarakterdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini belgilaydi.

Bu qobiliyat hisoblash uchun zarur bo'lgan variantlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi va pozitsiyada topilgan strategik yoki taktik g'oyaning spetsifikatsiyasida va harakatni tanlashda namoyon bo'ladi.

4. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi "8 farzin" mashqi qo'llanildi: [4] vazifa - 8 ta farzinni taxtaga qo'yish, ular bir-birlarini "urmasliklari" yoki bir-biridan tahdid qilmasliklari.

Taklif etilayotgan test kontseptsiyasi sanab o'tilgan ba'zi qobiliyatlarning birgalikda namoyon bo'lishini o'z ichiga oladi. Standartlashtirishni osonlashtirish uchun test topshiriqlari o'z raqamlarini qayta guruhlash amalga oshiriladigan vaziyatlarni taqlid qiladi. O'rganish ob'ekti sifatida, asosan, "sxemalarda fikrlash" usulining namoyon bo'lishini talab qiladigan vaziyatlar tanlanadi.

Natijalarni baholash birinchi sinovda bo'lgani kabi bir xil sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Jadval. 2023-yil sentabrdan 2023-yil dekabr oyigacha bo'lgan eksperimental ishlarning umumiy natijalari.

№	Ismi va familiyasi	Donalarni joylashtirish, daqiqa		40 ta yurish, soni		10 ta so'z, soni		“8 farzin”, daqiqa	
		Tadqi qotdan oldin	Tadqi qotdan keyin	Tadqi qotdan oldin	Tadqi qotdan keyin	Tadqi qotdan oldin	Tadqi qotdan keyin	Tadqi qotdan oldin	Tadqi qotdan keyin
1	Ikromov Bekchonboy	6	3	15	29	6	10	13	8
2	Davlatnazarov Shoxruz	7	4	13	26	8	10	14	7
3	Matkarimov Azizbek	8	4	11	23	5	8	15	8
4	Quronboyev Mustafo	7	3	8	20	7	10	12	6
5	Norboyev Shahriyor	9	5	13	27	6	8	18	9
6	Shonazarova Maftuna	6	4	12	25	8	10	14	7
7	Norimonov Jaloladdin	8	4	9	21	7	9	18	10
8	To'htaboyeva Charos	7	3	13	24	5	8	16	9
9	Egamberganov Farruxbek	6	2	10	22	7	10	17	8
10	Muxtorov Bilolxo'ja	8	3	9	20	6	9	16	8
11	Sa'dullayev Kamolbek	7	2	11	23	8	10	17	9
12	Quryozov Javohir	7	2	13	25	5	8	15	7
13	Qudratov Muhammadali	9	5	10	23	6	10	16	8
14	Davronov Abdulaziz	5	1	14	27	7	10	17	7
15	Sheripbayeva Laylo	7	3	8	20	5	8	18	9
16	Shomurodov Doniyor	9	4	11	21	8	10	14	7
17	Otajonov Fazliddin	6	3	13	25	6	10	13	6
18	Madaminov Ibrohim	8	3	12	25	6	9	18	9
19	Ilhomova Zilola	6	3	14	29	8	10	15	7
20	Soliyeva Zulayho	5	1	16	30	7	10	14	7
		7.05	3.15	11.65	24.25	6.55	9.35	15	7.8
		0.96	0.84	1.85	2.55	0.95	0.78	1.6	0.92
	%	55.3%		51.9%		60.7%		48.0%	

1. Shunday qilib, adabiy manbalarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin: shaxmat yosh maktab o‘quvchisida xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir. Psixik jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan barcha o‘quv tsikllarini maqsadli ravishda qurish kerak.

2. Xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni baholashning psixologik-pedagogik vositasi sifatida ham taniqli usullar, ham maxsus ta'lim vazifalari qo'llanilishi mumkin. "Grandmaster" shaxmat klubida ilmiy tadqiqot ishlari natijasida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlanishida ijobiy tendentsiya ko'rsatdi. Bu tadqiqot natijalari, test ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Yaxshilanishlar quyidagi foizlarda ifodalanadi:

- test "8 farzin" - 48,0%;
 - "40 ta harakat" testi - 51,9%;
 - test "10 ta so'z" - 60,7%;
 - "Joylashuvni aniqlash" testi - 55,3%

3. Shaxmat tufayli aql-idrok rivojlanadi, bolalar o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatl bo'lishni o'rganadilar, vaqt bosimi ostida mantiqiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradilar, xotirani mashq qiladilar va diqqatni rivojlantiradilar, chunki shaxmatchi juda ehtiyyotkor bo'lishi va yuzlab harakatlarni, o'yinlar uchun variantlarni yodda tutishi kerak.

Ish jarayonida hozirgi bosqichda kichik o'quvchilar o'rtaida xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning uslubiy yondashuvlari o'rganildi.

Boshlang'ich mактаб yoshidagi bolalarning shaxmat bo'limida sinfda xotira va mantiqiy tafakkur rivojlanishini baholash uchun tanlangan psixologik-pedagogik vositalar va adabiyolardan foydalanildi.

4. Shaxmat o'yinida nafaqat mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirish, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli maktab fanlari bo'yicha ko'rsatkichlari o'sishining barqaror tendentsiyasini qayd etish mumkin.

Foydalaniłgan Adabiyotlar:

1. Ya. A. PONOMAREV "IJOD PSIXOLOGIYASI" "NAUKA> MOSKVA 1976 y.
 2. A.R.Luriya. Psixologik testlar almanaxi. M., 1995, S.92-94.
 3. Darenkov, M. Yu. Shaxmat o'yini asoslari: o'quv qo'llanma / M. Yu. Darenkov, N. N. Xnykin. - Saratov: Sarat. manba, 2014. - 70 b.
 4. Leontiev, A. N. Yodlashning yuqori shakllarini ishlab chiqish. Xotira psixologiyasi: O'quvchi / A. N. Leontiev / ed. Yu.B.Gippenreiter, V.Ya.Romanov. - Moskva: CheRo, 2000. - 436 p.
 5. Vygotskiy, L. S. Xotira va uning bolalik davrida rivojlanishi. Xotira psixologiyasi / L. S. Vygotskiy / ed. Yu. B. Gippenreiter, V. Ya. Romanova // Psixologiyada o'quvchi - Moskva: CheRo, 2002. - 617 p.
 6. Vorobyeva, E. A. Anatomiya va fiziologiya / E. A. Vorobiova. - Moskva: 2007. - 404 p.
 7. Oddiy fiziologiya / ed. K. V. Sudakova. - Moskva: Med. Axborot. Agentlik, 2008. - 94 b.
 8. Rubinshtein, S. L. Umumiy psixologiya asoslari / S. L. Rubinshtein. - Sankt-Peterburg, 2005. - 329 b.

ESHITISHDA NUQSONIDA BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN IMO-ISHORA TILLARNING GENEEOLOGIK, MORFOLOGIK TASNIFLARI

ABDULLAYEVA NARGIZA O'KTAMOVNA

**Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti,
Maxsus-pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchi**

Annotatsiya: Maqlada milliy imo-ishora tillar tarqalishi, jahon imo-ishora tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqishda umumiyl tilshunoslikning vazifasi, tilshunoslikda geneologik tasnif, agglyutinativ imo-ishora, flektiv imo-ishora, tillardagi bunday grammatik ko'rsatkich, tugallanma fleksiya deb yuritilishi. fleksiya ikki xil bo'lishi, tashqi fleksiya va ichki fleksiya haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Etimologiya, O'zbek imo-ishora tilida bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, metofara nima, metonomiya nima, sinekdoxani ta'rifi, vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi.

Аннотация: В статье рассматриваются распространение национальных жестовых языков, классификация мировых жестовых языков, роль общего языкоznания в развитии их психологии, генологическая классификация в языкоznании, агглютинативный жест, флексивный жест, такой грамматический показатель в языках, завершение. перегиб. . Существует два типа сгибаия: внешнее сгибание и внутреннее сгибание.

Ключевые слова: Этимология, однозначные и многозначные слова в узбекском жестовом языке, что такое метафора, что такое метонимия, определение синекдохи, передача смысла по заданию.

Abstract: The article discusses the spread of national sign languages, classification of world sign languages, the role of general linguistics in the development of their psychology, genealogical classification in linguistics, agglutinative gesture, inflectional gesture, such a grammatical indicator in languages, the completion inflection. . There are two types of flexion, external flexion and internal flexion.

Key words: Etymology, single-meaning and polysemous words in Uzbek sign language, what is a metaphor, what is a metonymy, definition of synecdoche, transfer of meaning based on task.

Imo-ishora tillari, odatdagi milliy so'zlashuv tillari singari doimiy ravishda rivojlanib boradi va eshitishida muammolari bo'lgan insonlarning kundalik hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangi so'zlar, iboralar va so'z birikmalarini lug'atiga kiritadi. Dunyoda 300 dan ortiq turli xil imo-ishora tillari mavjud va ularning aksariyati to'liq tabiiy tillar sifatida tan olingan. Shuningdek, xalqaro imo-ishora tili (International sign language, ISL) ham mavjud bo'lib, u turli mamlakatlardagi kar va eshitish qobiliyatini zaif odamlar tomonidan karlar o'rtasidagi xalqaro tadbirdarda va muloqotda qo'llaniladi. Imo ishora tillari dunyoning ko'plab mamlakatlarida huquqiy maqomga ega.

Amalda imo-ishora tilining huquqiy maqomi shuni anglatadiki, barcha muassasalar eshitish qobiliyatida nogironligi bor odamlar uchun surdo tarjima xizmatlarini ko'rsatishi shart. "O'zbekiston Respublikasidanogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi [1] qonunning 22-moddasida imo-ishora tilining cheklangan huquqiy maqomi "shaxslararo aloqa vositasi" sifatida tan olingan

Olimlarning tahmin qilishlaricha, yer yuzida 500 dan ortiq imo-ishora til bor. Bu imo-ishora tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko'ra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Jahon imo-ishora tillarining ko'pchiliginini milliy imo-ishora tillar va xalq imo-ishora

tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila imo-ishora tillari, hatto urug` imo-ishora tillari hisoblanadi.

Milliy imo-ishora tillar o‘zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik xududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba’zi tillar esa juda katta xududlardagi ko‘p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, frantsuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi.

Yer yuzidagi tillarni o‘rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi; bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o‘rganiladi. Shuning uchun ham o‘rganishning bu yo‘li qiyosiy-tarixiy usul deb yuritiladi. Tillarni shu yo‘l bilan o‘rgangan va o‘zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Raskni (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Yakob Grimmni (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokovni (1781-1864) ko‘rsatish lozim.[2]

Imo-ishora tillarning geneologik tasnifi

Geneologik tasnif tilshunoslikda imo-ishora tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo‘lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko‘ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so‘z, undagi tovushlar, o‘zak va qo‘shimchalar) jihatidan yaqinligi, o‘xhashligiga asoslanib guruhlarga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan imo-ishora tillar, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Imo-ishora tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi. Tilshunoslik

tomonidan tekshirib aniqlangan imo-ishora til oilalari quyidagilardan iborat: 1) hind- imo-ishora; 2) evropa imo-ishora tillari; 3) xitoy imo-ishora tili 4) yapon imo-ishora tili; 5) koreys imo-ishora tili va boshqalar.

Bular o‘z navbatida yana shaxobchalarga bo‘linadi.

Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish Evropa imo-ishora tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga ajratiladi:

1. Janubiy amerika imo-ishora tillari.
2. Shimoliy amerika imo-ishora tillari.
3. German imo-ishora tillari.
4. Afrika imo-ishora tillari.

O‘zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub bo‘lib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Ammo o‘zbek imo-ishora tili o‘zbekiston diyorida 18-19 asrlarda rivoj topib boshlagan.

Imo-ishora tillarning morfologik tasnifi

Jahon imo-ishora tillarining morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tizim tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif imo-ishoraning tuzilishidagi o‘zak va qo‘shimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishga asoslanadi.

Bu tasnifga ko‘ra imo-ishora tillarning qarindoshligidan qat’i nazar, so‘zlarning tuzilish turi asos qilib olinadi.

Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari to‘rt guruhga bo‘linadi:

- 1) amorf(so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchasiz) tillar;
- 2) agglyutinativ tillar;
- 3) flektiv tillar ;
- 4) polisintetik tillar.[2]

Amorf imo-ishora tillarning daktilologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi so‘zlar hech qanday so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarsiz, to‘g’ridan-to‘g’ri birikib, bog’lanib keladi. Bunday tillarda grammatik ma’no yordamchi so‘zlar, so‘z tarkibi, muzikal urg‘u va intonatsiya (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatni o‘rnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga xitoy, tibet, birma, vyetnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo‘lgan boshqa

tillar misol bo‘la oladi.

Agglyutinativ imo-ishora tillarda har bir daktiologiyaning grammatik ma’no odatda alohida affiks bilan, ma’lum bir grammatik ko‘rsatkich bilan ifodalanadi. [2].

Agglyutinativ (boshqacha agglyutinatsiya deb ataladi) tillar (lotincha agglutina й re - "yopishmoq" dan) flektiv tillar kabi, ularda so‘zlarining grammatik shakllari morfemalar, affikslar yordamida hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadi, ular ma’lum bir ketma-ketlikda so‘zning ildiziga/o’zagiga biriktirilgan bo‘ladi. Agglyutinativ tillarga koreys, turkiy, fin-ugr, mo‘g‘ul, indoneziya, hind tillari va ko‘plab afrika tillari kiradi. Agglyutinativ tillar inflektiv tillardan, birinchi navbatda, ulardagi morfemalar bir ma’noli bo‘lishi bilan farq qiladi: har bir morfema faqat bitta o‘ziga xos ma’noni ifodalaydi. Shu bilan birga, morfemalar barqaror fonematik tarkibga ega bo‘lib, turli o‘zak va boshqa affiksal morfemalar bilan qo‘shilganda o‘zgarishsiz qoladi.

Flektiv imo-ishora tillarda birdan ortiq grammatik ma’no odatda birgina grammatik dakti ko‘rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, kniga so‘z shakli tarkibidagi –a affaksi (tugallanmasi) uch grammatik ma’noni: 1) jinsn (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (imenitelnuy padej), 3) birlik sonni (edinstvennoe chislo) bildirib kelgan; uchu so‘z shakli tarkibidagi –u affaksi ham uch grammatik ma’noni: 1) aniqlik, xabar maylini;

2) hozirgi zamonni ifodalovchi imo-ishora;

3) 3-shaxs birlikni ko‘rsatish uchun xizmat

gilgan imo-ishora.

Flektiv imo-ishora tillardagi bunday grammatik ko‘rsatkich, tugallanma fleksiya deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil bo‘ladi: tashqi fleksiya va ichki fleksiya.

Tashqi fleksiya so‘z oxiriga qo‘shilib kelsa, ichki fleksiya so‘zning o‘zagida bo‘ladi. Fleksiyaning ikkala turi ham so‘zni grammatik jihatdan o‘zgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga rus tili misol bo‘la oladi: zeml-ya, vod-a, pol-e, oblak-o, lyud-i, voln-ы so‘zlarini oxiridagi unlilar, tugallanmalar so‘zning grammatik ma’nosini ko‘rsatib turadi.[4]

So‘z o‘zagi ichidagi tovushni, unli tovushni o‘zgartirish yo‘li bilan grammatik ma’noni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha woman (ayol) so‘z shakli tarkibidagi a unli birlik sonni, women (ayollar) so‘z shaklidagi e unli ko‘plik sonni ko‘rsatuvchi fleksiyadir. Ammo imo-ishora tilida tovushning o‘zgarishi muhim ahamiyat kasb etmaydi, chunki so‘zlar ishorasi umimiy tarzda ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, biz ushbu maqolada eshitishda nuqsonida bo‘lgan shaxslar uchun imo-ishora tillarning geneologik, morfologik tasniflarini ko‘rib chiqdik. Birinchidan, biz chindan ham imo-ishora tilini rivojlantirmoqchi bo‘lsak, bunday qarorlarni muhokama qilayotganda, eshitish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan odamlarni ular uchun tushunarli muloqot formatlarida xabardor qilishimiz lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (18.11.1991 y. 422-XII-son (Yangi tahriri))/ "O‘zbekiston Respublikasi qonunhujjalario‘plami", 2008 yil, 29-30-son
2. Hamroyev M. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 276 b
3. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish Darslik. - T.: “Yangi asr avlod”, 2009. 256 b
4. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>
5. Abdullayeva N.O’. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda og’zaki nutqni rivojlantirishda arifmetik amallarning ahamiyati KASB-HUNAR TA’LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2023-yil, 6-son

5-6 YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK VA AQLIY RIVOJLANISHIGA NOJO'YA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

XOLMATOVA GULYORA OBIDOVNA
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Fakultetlararo pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtaida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bola shaxsini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi so'z borgan.

Kalit so'zlar: barkamol shaxs, faoliyat, ma'nnaviy salohiyati, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, ijtimoiy muhit, normal rivojlanish, tashqi omillar.

Аннотация: движущими силами развития личности являются противоречия, возникающие между потребностью ребенка и возможностью ее удовлетворения. В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование личности ребенка в дошкольном образовании.

Ключевые слова: гармоничная личность, деятельность, духовный потенциал, целеправленная деятельность, социальная среда, нормальное развитие, внешние факторы.

Abstract: the driving forces of personality development are the contradictions that arise between the child's need and the possibility of satisfying it. This article examines the factors influencing the formation of a child's personality in preschool education.

Keywords: harmonious personality, activity, spiritual potential, purposeful activity, social environment, normal development, external factors.

«Bizning eng katta boyligimiz — bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'nnaviy salohiyatidir». Shavkat Mirziyoyev Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma'nnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishilaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifikat, ma'nnaviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bular esa hamisha bolalar ta'lim-tarbiyasi oldidagi dolzarb yechimtalab muammolardan biridir. Bugun maktabgacha ta'limi oldida ham shu savollar ko'ndalang turibdi. Sababi uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda eng asosiy

fundamental bilimlar shakllantirilishi lozim. Mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun, jumladan, barcha fanlar qatorida Maktabgacha ta'lim - tarbiyani tashkil etish fani bo'yicha ham zamon talabiga javob bera oladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishni taqzo etmoqda. Shu boisdan Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish faniga oid zamonaviy bilimlar tizimini bo'lajak tarbiyachi pedagoglarga o'qitish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda Respublikamizda "Maktabgacha ta'lim konsepsiysi" hamda maktabgacha ta'lim uchun o'quv dasturlari va o'quvmetodik majmualarda bolalarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. MTT tarbiyalanuvchilarining bilish faoliyatlarini

rivojlantirish tarbiyachi pedagoglarning ta’lim tarbiyani samarali tashkil etishlariga bevosa bog‘liqdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish kabi yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur jarayonni tadqiq etish va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan didaktik tizim sifatida ko‘rib chiqishda bolalar aqliy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyachi pedagoglarning ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish va amalga oshirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsad – ta’limning keyingi bosqichida ijodiy va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab berishdan iborat. Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish o‘qitishning maqsad va vazifalari – bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirishga doir bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan talablar, tamoyillar, mazmuni, tarbiya turlari va tarbiyachi shaxsini shakllantirishning pedagogik assoslari kabi masalalar yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017- 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, jismonan sog‘lom ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq, yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida

ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilab berilgan.

Barchamizga ma’lumki inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta’sirlar hamda ichki kuchlar ta’sirida sodir bo’ladi. Tashqi omillarga insonni o’rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o‘yin, mehnat, o‘quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o‘ziga xos bo‘lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo’ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug’ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o’zlashtirib olishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha yoshdagি bola faoliyatida va atrofmuhitni bilish va o’zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi. Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Bugungi maktab yoshidagi bolalardan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o’rtoqlarini tushunish, ular bilan ijobiy hamkorlik aloqalarini o’rnatish talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo‘yayotganida nechog’li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrofolamga moslashish ko‘nikmasi, voqeа-hodisani

mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsiga ta'sir etuvchi omillar – muhit, jamoa va irsiyat bo'lishiga qaramay, bolalar jamoasi eng muhimi sanaladi. Jamoaning shaxsga ta'siri samaradorligi shaxsning jamoadagi kayfiyati bilan belgilanadi. 1- rasm. Jamoada shaxsning rivojlanishiga ta'sirinig asosiy omillari. Bularning hammasi maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishi uning hayotidagi ilk bosqichlaridan o'zining shartihisoblanadi. Bolaning dastlabki ehtiyojlaridan biri bu muloqatga bo'lgan ehtiyojdir. Bu bola hayotining birinchi oyi oxiri va ikkinchi oyi boshlarida odam yuzi yaqinlashganda uning jonlanishi tarzda hosil bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsning o'zini o'zi baholashi shaxs kamolati muhim ko'rsatgichdir. Odamning o'ziga o'zi qanday munosabatda bo'lgan unga atrofdagilarning qanday munosabatdabo'lishiga bog'liqdir. O'zini o'zi baholash, o'zini o'zi jamoadagi o'z faoliyati mavqiyining uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatlarni baholashni o'z ichiga oladi. O'zini –o'zi baholash shaxsning hal qiluvchi xususiyati uning o'zagidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar bilan muloqatida ehtiyoj yetti yoshgacha quyidagi tarizda rivojlanib boradi: 1. Birinchi bosqichda e'tibor va hayri hohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi 2. Ikkinchi bosqichda kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji qo'shiladi. 3. Uchunchi bosqichda avvalgi barcha ehtiyojlariga kattalar tomonidan hurmat qilinishi ehtiyoji qo'shiladi. Jamoaning shaxsga ta'sirini belgilovchi omillar shaxsning faoliyat va o'zaro munosabatlar shaxsning mazkur jamoada himoyalanganligi shaxsning ichki xotirjamligi Maktabgacha yoshdagi bola shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatiga ishtiroki, uning o'zini o'zi boshqarishdagi

intilishi, o'zini o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz, hech nimaga yaramaydigan subekt deb o'ylaydigan odam o'z taqdirini yaxshilash uchun istar istamas kuch g'ayrat sarflaydi. Aksincha o'zlarining yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yaxshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar. O'ziga bo'lgan tuyg'u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakillanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofdagilar bolalarga har doim hurmat bilan munosabatda bo'lishsa, u ham o'zini haqiqiy hurmatga sazovor hisoblay boshlaydi. Aksincha maktabgacha yoshdagi bolaga muntazam iltifotsizlik ko'rsatilsa, asosiy e'tibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda uning o'zi haqida hurmatga sazovor emas, degan xulosa chiqarishdan o'zga imkon qolmaydi. Bunga nisbatan turlicha holat ro'y berishi mumkin: loqaytlik, beodoblik, tajavvuskorlik va boshqalar. O'zini o'zi baholash shakillanib borgan sari, ular atrofdagilarning fikrida va hatto faoliyatining aniq natijalaridan toboro mustaqil bo'la boshlaydi. Barqaror o'zini o'zi baholash shakillanib bo'lishi bilan u o'zini o'zi mustahkamlash tamoiliga ega bo'ladi. U o'zini o'zi yuqori baholashga ham o'zini o'zi past baholashga ham ta'luqlidir. Masalan: ota –ona yoki ulardan birining kamsituvchi munosabati boshqalar ishtirokidagi faoliyat oldida, jumladan imtihon oldida qatiy qo'rquvni shakillantirishi mumkin. U o'quvchi imtihonlarni muvofiqiyatli topshirganda ham uning o'ziga o'zi pas baho berishini o'zgartirmaydi. Uning boshida quyidagi fikr shakillanadi. Odamning o'zini o'zi baholash darjasи u hammaning o'rtasida bildiradigan fikr ham u samimiy ravishda o'zi haqida nimani o'ylashi bilan ham belgilanmaydi, balki u muntazam ravishda nisbatan qanday ravishda harakat

qilishi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagagi bola shaxsini shakllanishida salbiy omillarga ega bo'gan jamoa ta'sir etsa, ushbu jamoaning qadriyatlari va normalarini u o'zining shaxsiy qadriyatlari va normalari

sifatida idrok etadi, uning faol mavqeい ahamiyatli va jozibali bo'lib qoladi. Mana shuning uchun ham jamoaning ruhiy muhiti –bolaning ruhiy sog'lom va ma'naviy faol shaxsning shakllantirishning hal qiluvchi shartidir.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Sh. M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". O'zbekiston -2019y
2. Abramova. G.S. "Prakticheskaya psixologiya". M.: -2001.
3. Adizova.T.M. "Psixokorreksiya" T.: "Iqtisod-moliya" 2006. (58b)
4. Xasanova, G. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.

NUTQ NUQSONIGA EGA BO‘LGAN BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

NORMATובה MAFTUNA KENGASH QIZI
Jizzax davlat pedagogika unversiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti
Maxsus pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq nuqsoniga ega bolalarni matabga tayyorlashning nazariy asoslari, nutq nuqsonlarini yuzaga kelishida ota onaning ro‘li va boshqa omillaning ta’siri, ularni bartaraf etish usullari haqida ma’lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar: Nogironlik, ta’lim, ota-onasi va o‘qituvchilar, pedagogik yondashuvlar, davlat dasturi

Аннотация: В статье представлена информация о теоретических основах подготовки детей с дефектами речи к школе, роли родителей и других факторов в возникновении речевых дефектов, а также методах их устранения.

Ключевые слова: Инвалидность, образование, родители и педагоги, педагогические подходы, государственная программа.

Abstract: This article provides information on the theoretical foundations of preparing children with speech defects for school, the role of parents and other factors in the occurrence of speech defects, and methods of their elimination.

Key words: Disability, education, parents and teachers, pedagogical approaches, state program

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash, xususan, nutqida ogMr nuqsonlari bo‘lgan bolalami matabga tayyorlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqarish”,... 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalami maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025-o‘quv yili yakunigacha 100 foizga yetkazish rejalashtirish”[1] vazifasi sifatida belgilandi. Natijada, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ 4860-son “Alohibda ta’lim

ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari ushbu maqolani yozishda xizmat qiladi.

Respublikamizda bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining turli jihatlari L.R.Muminova, M.Y.Ayupova, X.M.Pulatova, Z.M.Axmedova, Sh.DAripova, Sh.E.Toxtiyarova, S.D.Achilova, M.B.Mamatova; jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish masalalari M.F.Xakimova, V.S.Raxmanova, Z.N.Mamarajabova, D.B.Yakubdjanova, P.M.Po‘latova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuxamedova, M.P.Xamidova, N.Z.Abidova, N.S.Musayeva, M.M.Abdullayeva, L.R.Xayitov, X.S.Raxmonova, M.S.Maxmudovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Hozirgi vaqtida dunyoda insonning yashash muhitidagi salbiy o‘zgarishlar tufayli rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan

bolalar sonining ko‘payishi tendentsiyasi mavjud. Ular orasida aqli, eshitishi va ko‘rishi buzilmagan bo‘lsa-da, nutqning kommunikativ funksiyasi buzilgan bolalar guruhi mavjud. Bu bolalarning ko‘pchiligi o‘rtta maktabga o‘qishga kirishadi, bu yerda ular bir qator ta’lim va shaxsiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. To‘g‘ri, rivojlangan nutq bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishga tayyorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Nutqdagi kamchiliklar akademik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi va bolaning o‘ziga ishonchhsizligini keltirib chiqarishi mumkin va bu juda katta salbiy oqibatlarga olib keladi. Ko‘pgina hollarda, bolalarda u yoki bu darajada nafaqat tovushni talaffuz qilishda, balki leksik tarkibda, nutqning grammatik tuzilishida va fonemik jarayonlarda ham buzilishlar mavjud. Bularning barchasi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini murakkablashtiradi.

A. Anastasi maktabga tayyorgarlik tushunchasini “maktab dasturini o‘zlashtirishning optimal darajasi (rivojlanishi) uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, bilim, qobiliyat, motivatsiya va boshqa xulq-atvor xususiyatlarini o‘zlashtirish”[2] deb ta’riflaydi. Bu holda "boshqa xulq-atvor xususiyatlari" tushunchasi juda keng va cheksiz ko‘p mezonlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

“Maktab yetukligi” yoki “funksional tayyorligi” ko‘pincha umumiylashtirish emas, balki rivojlanishning o‘ziga xos kechikishi bilan belgilanadi va bola nutqni idrok eta oladigan, ma’lumotni analiz va sintez qila oladigan bo‘lsa, tovushlami talaffuz qilishda nuqsonlar bo‘lmasa, bola topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Aniqlangan qaramaqarshilik dissertatsiya tadqiqotining muammosini belgilab berdi: nazariy jihatdan, bolalarning maktabga nutqiy tayyorgarligini shakllantirish nuqtai nazaridan olib boriladigan pedagogik qo‘llab-quwatlash mohiyatini asoslash; amaliy jihatdan, bolalarning maktabga nutqiy tayyorgarligini

shakllantirishga qaratilgan pedagogik qoilab-quvvatlash manbasini aniqlash va aprobatasiyadan o‘tkazish.

Maktabda o‘qishga ijtimoiy tayyorlik - bu bolaning yangi muloqot shakllariga tayyorligi, uning atrofidagi dunyoga va o‘ziga nisbatan yangi munosabat, maktabdagi vaziyat bilan belgilanadi. Tayyorlikning ushbu komponenti bolalarda boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan fazilatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bola maktabga, bolalar umumiylashtirishning shug‘ullanadigan sinfga keladi va u boshqa bolalar bilan munosabatlarni o‘rnatishning juda moslashuvchan usullariga, bolalar jamiyatiga kirishga, boshqalar bilan birgalikda harakat qilish qobiliyatiga, taslim bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. o‘zini himoya qiladi.

Shunday qilib, ushbu komponent bolalarda boshqalar bilan muloqot qilish zarurati, bolalar guruhining qiziqishlari va urfodatlariga bo‘ysunish qobiliyati va maktab o‘quv vaziyatida o‘quvchining rolini engish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Maktabga kirgan bolalar turli xil nutq buzilishlarini boshdan kechirishi mumkin: nutqning kam rivojlanganligi, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish [3].

Nutqning umumiylashtirishning rivojlanmaganligi uchun xarakterli xususiyatlar quyidagilardir: nutqning fonetik-fonematik tomoni, nutqning leksik-grammatik tuzilishi va semantik jihatining buzilishi. Bu, o‘z navbatida, umumiylashtirishning maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini murakkablashtiradi.

Ko‘pincha bolalarda doimiy nutqning kam rivojlanganligi turli nevrologik va psixopatologik sindromlar bilan murakkablashadi va vegetativ funksiyalar azoblanadi. Shuning uchun ular uchun yangi sharoitlarda o‘rganish muammolari sezilarli darajada oshadi. Bunday bolalarda zaif motivatsiya, og‘zaki muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayishi va markaziy psixologik

shakllanishlarni shakllantirishda o‘ziga xoslik, shu jumladan kattalar bilan ixtiyoriy ravishda muloqot qilish qobiliyati pasayadi. [3].

Agar bolalar kattalar nomidan biron bir umumiyl ishni bajarishsa, unda har bir bola sheri giga e’tibor bermasdan, u bilan hamkorlik qilmasdan, hamma narsani o‘z yo‘lida qilishga intiladi.

Bolaning o‘yinda o‘ynaydigan roli bolaning xarakteri va temperamentiga juda bog‘liq. Shuning uchun har bir jamoada “yulduzlar”, “afzal” va “izolyatsiya qilingan” bolalar bo‘ladi [4].

“Qabul qilinmagan” va “izolyatsiya qilingan”lar orasida ko‘pincha muloqot qobiliyatları zaif va bolalar faoliyatining barcha turlarida muvaffaqiyatsizlikka uchrangan bolalar bor. Ularning o‘yin qobiliyatları, qoida tariqasida, yomon rivojlangan, o‘yin tabiatan manipulyatsiya; bu bolalarning tengdoshlari bilan muloqot qilish urinislari muvaffaqiyatga olib kelmaydi va ko‘pincha “qabul qilinmagan” tomonidan tajovuzkorlikning avj olishi bilan yakunlanadi [5].

Umuman olganda, og‘ir nutq patologiyasi bo‘lgan bolalarning kommunikativ imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan. Bu bolalarning aksariyati haddan tashqari qo‘zg‘aluvchanlik bilan ajralib turadi, bu turli xil nevrologik alomatlar bilan bog‘liq va shuning uchun o‘qituvchi tomonidan boshqarilmaydigan o‘yinlar ba’zan juda tartibsiz shakllarni oladi. Ko‘pincha bu toifadagi bolalar hech qanday faoliyat bilan shug‘ullana olmaydilar. bu ularning birgalikdagi faoliyatdagi malakalari yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi [6].

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlami o‘rganish bolalami maktabga nutqiy jihatdan tayyorlash uchun zarur bo‘lgan bir necha asosiy jihatlar mavjud, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Birinchidan, bu tilga ongli lingvistik munosabatni shakllantirish, ya’ni bolalarning

maktabda o‘qishga nutqiy tayyorgarligi uchun zarur bo‘lgan nutqiy ko‘nikma va malakalari to‘plami tayyorlikning kognitiv komponentini rivojlantirish (F.A.Soxin, L.V.Voroshnina, G.Y.Kudrina, A.A.Zrojevskaya, E.M.Strunina, E.A.Federavichen, A.G.Tambovseva, H.A.Kostandyan, G.A.Tumakova, G.P.Belyakova).

Ikkinchidan, bu bolalaming nutqiy bilimlari va ko‘nikmalarini mustaqil va birgalikdagi amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati - tayyorlikning faoliyat komponentini rivojlantirish (T.I.Babayeva va M.R.Lvov).

Uchinchidan, bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadigan o‘quv faoliyati uchun motivatsiyasining mavjudligi va tabiat, ya’ni tayyorlikning motivatsion komponentlarini rivojlantirish (V.G.Aseyev, L.I.Bojovich, V.K.Vilyunas, N.V.Efimova, E.P.Ilin, A.N.Leontyev, M.I.Lisina, V.F.Morgun, Y.Z.Neverovich, N.G.Osuxova, B.A.Sosnovskiy).

O‘rganishning bilish, ijtimoiy motivlari, shuningdek, muvaffaqiyat motivlaridan iborat o‘quv motivatsiyasi xulq-atvor va faoliyatni ixtiyoriy tashkil qilishning zaruriy darajasini ta’minlaydi.[7] Nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalami maktabga nutqiy jihatdan tayyorlash muammosi bo‘yicha O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili bolaning nutqiy tayyorligining kognitiv komponentining mohiyati uning til va nutq hodisalarini anglash, til qobiliyatlarini rivojlantirish, ya’ni fikrni bayon qilish uchun mazkur tilda qabul qilingan qoidalar doirasida va nutqiy vaziyatga mos ravishda yangi fikrlarni tushunish va yaratish imkonini beruvchi nutqiy bilim, ko‘nikma va malakalami jamlanmasidan iboratligi aniqlandi.

Nutq patologiyasi bo‘lgan bolaning maktabda o‘qishga tayyorligi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish ushbu bolalarda yuzaga keladigan quyidagi qiyinchiliklarni aniqladi:

1. Nutqning tovush tomonining shakllanmaganligi. Bolada barcha fonetik

guruhlarning tovushlarining to‘g‘ri, aniqlar ovozli talaffuzi yo‘q.

2. To‘liq shakllanmagan fonemik jarayonlar, ya’ni o‘z ona tili tovushlarini eshitmaydilar, ajratmaydilar, farqlamaydilar.

3. Nutqning tovush tarkibini tovush-harf tahlili va sinteziga tayyor emas.

4. So‘z yasashning turli usullaridan foydalana olmaslik, kamaytiruvchi ma’noli so‘zlarni to‘g‘ri ishlatmaslik, so‘zlarni kerakli shaklda yasashni bilmaslik yoki otlardan sifatdosh yasash.

5. Nutqning grammatik tuzilishining

shakllanmaganligi: bat afsil frazemali nutqni ishlata olmaslik, gaplar bilan ishlay olmaslik; sodda gaplarni to‘g‘ri tuzish, gaplardagi so‘zlarning bog‘lanishini ko‘rish, ikkilamchi va bir hil a‘zolar bilan gaplarni kengaytirish.

Xulosa qilib aytganimizda, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlashda bиринчи navbatda fiziologik jihatlariga hamda psixologik holatiga e’tibor berish zarur. Oг‘ir nutq kamchiliklari bo‘lgan bolalarga korresion logopedik yordam berish tizimini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- Foydalarining adabiyotlari :**

 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
 2. Выготский Л.С. Мышление и речь / Л.С. Выготский.- М.: Лабиринт, 2008. - 352 с.
 3. Пантелеева Л. А. Психологическая готовность к школьному обучению детей с речевыми нарушениями/ Логопед 2004 №4, с.61
 4. Косякова О.О. Логопсихология: учебное пособие / Ольга Олеговна Косякова Ростов-на-Дону: Феникс.2007, 284 с.
 5. Павлова О. С. Нарушение коммуникативного акта у детей с общим недоразвитием речи. М., 1998.
 6. M.Normatova. (2021) Maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchi logopedining o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi. SCIENTIFIC PROGRESS ISSUE 2
 7. M.Normatova. (2023) Dislalik bolalarda tovushlarni korreksiyalash usullari International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 9 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023; 8.2

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR MEHNAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

AKRAMOVA XAFIZA SAMADOVNA

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedra mudiri, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqola Aqli zaif o'quvchilar mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llarining o'ziga xos jihatlari ilmiy yondoshuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaiflik, pedagogik texnologiya, mehnat ko'nikmalar, o'quv jarayon

Аннотация. В данной статье освещены конкретные аспекты способов использования педагогических технологий в формировании трудовых навыков учащихся с задержкой психического развития на основе научных подходов.

Ключевые слова: умственная отсталость, педагогических технологий, рабочие навыки, процесс обучения

Annotation. This article highlights the specific aspects of ways of using pedagogical technologies in the formation of work skills of students with mental retardation based on scientific approaches.

Keyword: mental retardation, information and pedagogical technology, work skills, learning process

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151 sonli qarori, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-tonli qarori, 30 iyun 2017 yil "Respublikada pedagogik texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5099-tonli farmoni ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash. Axborot obektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to'plamidir. Olingan axborotlar belgili, matnlari va grafikli ko'rinishda ifodalanadi. Belgili ko'rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar ko'rinishidan iborat bo'ladi. Undan turli hodisalar haqida murakkab bo'lмаган signallarni uzatish uchun foydalaniladi.

Pedagogik texnologiyalari mohiyatan bilim va til kabi fundamental tushunchalar

chegaralarini kengaytirdi. Tilning muhim funktsiyasi to'g'risidagi tasavvur – uning yordamida bilimlarni egallah va yetkazish – tarixan shakllangan: til – aloqa yoki kommunikatsiyaning o'ziga xos tizimidir. Inson tildan tashqari bilimlarni izlash va egallah, ularni saqlash va yetkazish uchun jamiyat hayotiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatgan qo'shimcha vositalarni izlagan va topib borgan. Yozuv, bosma stanok, telefon, televidenie va nihoyat Internet tarmog'i – bilimlarni yetkazish evolyutsiyasining eng ahamiyatli bosqichlaridir.

Bunda gap ta'lim mazmunini o'zgartirish, axborot madaniyatini egallah - bilimdonlikning oliy ko'rinishi, jumladan, insonning shaxsiy sifatlari va uning kasbiy kompetentligi sifatida tushuniladigan umumiyl madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri haqida bormoqda. Shu bilan birga, "madaniyat" tushunchasi turlicha talqin etilishini eslatib o'tamiz. Ammo barcha farqlari orasida uning eng ahamiyatlilari sifatida "o'tmishe merosiga chuqur, ongli va hurmatli munosabat, u yoki bu hayot sohasidagi haqiqatni ijodiy idrok etish va qayta o'zgartirish qobiliyati" tan olinadi. [1]

Bugungi kunda madaniyat so'zini bunday

tushunish mazmunida o‘qituvchining shaxs sifatida shakllanishi uchun uni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari bilan tanishtirish, haqiqiy axborot madaniyatini egallashi zarur bo‘lib, u unga va uning o‘quvchilariga ta’limning eng asosiy maqsadlaridan biriga erishishga: shaxsning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish orqali insonlar va madaniyatlar dialogidan insonlar jamoalarining o‘zaro boyitilishi va samarali o‘zaro munosabatlariga o‘tishga yo‘l ochadi.

Mehnatni har bir individ uchun ochiq va maqsadga muvofiq faoliyatga cheklovlarini bartaraf etuvchi faoliyat sohasi sifatida tushunish dolzarb hisoblanadi, korreksion imkoniyat va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus ta’lim tizimining mohiyatini aynan shunday mazmunda tushunish lozim. SHu tariqa, ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kognitiv va maxsus singari asosiy kompetentsiyalarni egallah bilan bog‘liq axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan boyitilgan ta’lim mazmuni quyidagi shartlar bajarilganida yanada chuqurroq va onglioq bo‘ladi: [7]

hamkorlikdagi loyihalari, jumladan, telekommunikatsion loyihalarni bajarish imkoniyatiga ko‘ra pedagoglar va o‘quvchilarning kasbiy va umuminsoniy o‘zaro munosabatlari darajasining sezilarli oshirilishi;

an’anaviy kutubxonalar va maktab laboratoriylarining imkoniyatlarini elektron kutubxonalar va virtual laboratoriylardan foydalanish, Internet tarmog‘ining ilmiy, o‘quv va boshqa madaniy hamda ijtimoiy ahamiyatli resurslari hisobiga kengaytirish orqali o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun yangi sifatlari sharoitlarning yuzaga kelishi;

o‘z-o‘zini nazarot qilish va o‘qituvchi bilan qayta aloqani qo‘llab-quvvatlash rivojlangan tizimlari orqali o‘quvchilarning an’anaviy va elektron resurslar bilan mustaqil ishlashlari samaradorligini oshirish.

Sanab o‘tilgan shartlarning bajarilishi ta’limni modernlashtirishlashning asosiy maqsadi – ta’lim sifatini yaxshilash, ta’lim olish

imkoniyatini kengaytirish, alohida shaxsning hamda umuman axborot jamiyatining barkamol rivojlanish ehtiyojlarini ta’minlashga erishishga yordam beradi. Yordamchi maktab internat doirasida korreksion ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Mamlakatimizda umumta’lim maktablarida komp’yuterlar ancha yillardan oldin paydo bo‘lgan. Albatta, pedagogik texnologiyalari imkoniyati cheklangan bolaning kasalligidan xalos etmaydi va shu tufayli yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etmaydi. Ammo unga avval no‘ma’lum bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar, muloqot shakllari, o‘yinlar, uni o‘rab turgan muhitni boshqarishni anglashi orqali uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini uyg‘otadi.

Texnologiya – ta’lim tizimida mualliflik kontseptsiyalarining xilma-xilligi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan tasavvurlar sifatida pedagogiklarning lug‘atda yangi tushunchadir.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda ta’limning turli xil vazifalari va mazmuniga nisbatan texnologiyalarning qo‘llanilishini tizimlashtirishga urinishlar kuzatilmoqda.

Xususan, texnologiya quyidagicha talqin etiladi:[5]

“o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi” (V.P.Bespal’ko);

“ta’limning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayoni tavsifi” (I.P.Volkov);

“san’at, mahorat, malaka, metodlar majmui” (V.M. SHepel’).

Pedagogika fanida texnologiya so‘zi mazmun-mohiyatidan anglanadigan tushunchaga nisbatan yondashuvlarning xilma-xilligi, ta’limning strategik (metodologik, nazariy) muammolarini hamda o‘quv jarayonida sub’ekt-sub’ekt munosabatlari mazmunida (o‘quvchi - o‘qituvchi) bevosita qo‘llaniladigan aniq protsessual[3] xatti-harakatlarni ochib berishi, shuningdek, ularni qo‘llash shakllarining turli xilligi: o‘quv-didaktik, ijtimoiy-pedagogik, psixologik, rehabilitatsion va shu kabi ko‘pgina boshqalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni intensifikasiyalash va faollashtirishni ta'minlaydi:

-o'quvchi shaxsining turiga ko'ra tanladigan turli pedagogik texnologiyalarini qo'llash orqali bilish faoliyatini qo'zg'atuvchilarni aniqlash va foydalanish;

- o'quvchilarning ta'lism yo'nalishini loyihalash va kelgusi aktuallashtirishda faol ishtiroti, bu o'z navbatida, ta'lism jarayonini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qitishning pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llanilishi, tegishli texnologiyalari mavjud ta'lism tizimining ba'zi bir qo'shimcha vositasi bo'lmay, balki mazkur jarayonga asosli va uyg'un integratsiyalarinib, o'qituvchilar va o'quvchilarga yangi imkoniyatlarni ta'minlaganidagina mumkin hisoblanadi. Boshqa tomonidan, zamonaviy texnologiyalar bazasida shakllanayotgan va rivojlanayotgan tashqi axborot muhitiga mavjud ta'lism tizimining yuzaga kelgan o'quv, ilmiy, ma'muriy tuzilmalari integratsiyalash to'g'risida gapirish mumkin va lozimdir.

Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni texnologiya dars jarayonini moslashtirish.[8]

1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar diqqatini tarkqoqligini hisobga olib partada ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak;

2. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tez charchab qolishini hisobga olgan holda, ular harakatda bo'lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish ("daftarlarni yig", "doskani tozala" kabi);

3. Har bir darsda jismoniy daqiqa o'tkazishni unutmaslik;

4. Sinfda yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchini aniqlab, "sinf boshqaruvchisi" (imkoniyati cheklangan o'quvchi) etib tayinlash (bu o'quvchidan o'qituvchi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola bilan ishlayotganda ko'proq foydalanadi);

5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan

bolalarni sinfdagi eng a'luchi o'quvchi bilan birga o'tqazish;

6. Darsda asosiy ko'rgazmallikka taynish;

7. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo'lib berish;

8. Bolani rag'batlantirishni unutmaslik;

9. Usullarning xilma – xilligidan doimiy ravishda foydalanish;

10. O'yin metodlariga maksimal darajada tayanish;

11. Bola topshiriqni bajarayotganda unga qo'shimcha yoki amaliy ko'rsatma ham berish;

12. Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning ham hissasi qo'shiladigan topshiriqlar berish;

13. Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolani nazorat ostiga olish.

Sinf va guruhlarda inklyuziv ta'lism tushunchasini rivojlantirish. Bolalar ongida irqchilik, nogironlik hamda imkoniyatlarkengligi xususida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta'lismning samaradorligini oshirishda juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar haqorati va masxaralanishiga duchor bo'lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulq-atvorni ayrim o'qituvchilarning e'tiborsiz qoldirayotganligidir. Ta'lism-tarbiya samaradorligini oshirish uchun ham barcha maktablarda hamma bolalar uchun teng huquqli, sevimli, do'stona iliq munosabatdagi muhitni yaratish lozim. Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o'z hayotlari va his tuyg'ularini muhokama qila oladigan o'zoro qo'llab – quvvatlovchi va ham jihatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim; o'quvchilar ongiga nogironlik – alohidalik emas, balki kamchilikni majudligi natijasida imkoniyatlar chegaralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qurqish, jirkanish hislarini yuqotishga erishish talab etiladi.

Shu tariqa, pedagogik texnologiyalar u yoki bu yangiliklarga moslashish, ulardan ta'lism sub'ektining sifatli rivojlanishi uchun eng qulayini tanlash imkonini beradi. Shunga ko'ra, maxsus ta'limga intellektida nuqsoni

bo‘lgan bolalar va o‘smlarning tashkiliy ta’lim olish jarayoni insonparvarlik, rivojlantiruvchi vositalar va metodlardan foydalanish orqali qulay pedagogik muhitni tashkil etishga yo‘naltirilgan majmuaviy texnologiyalardan foydalanish uchun modelb sifatida ifodalanadi. Imkoniyati cheklangan insonlarning mehnatiga tizimli yondashuvni ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-internatdagi kasb-hunar ta’limi g‘oyalaridan ko‘ra kengroq tushunishtirish lozim.

Yordamchi yordamchi maktab internatlar va umumta’lim maktablari tizimining bir qismi sifatida rivojlangan. Bu ularning vazifalarini, jumladan, mehnat ta’limi va tarbiyasi vazifalarini yangicha belgilashga imkon berdi. Yordamchi maktab o‘quvchilarni odatiy ishchilar jamoasi sharoitlarida mehnatga tayyorlash yo‘li bilan ularni ijtimoiy reabilitatsiyasi muammolarini amalda yechishga imkon beradigan tarbiyani amalga oshiradi.[7]

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-

internatda o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasining asosiy vazifasi ularni mustaqil mehnatga tayyorlash hisoblanishi sababli, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-internat tarbiyalanuvchilarini ishlab chiqarish mehnatiga muvaffaqiyatli jalb etishni ta’minlovchi o‘quvchilarga muayyan mehnat turi bo‘yicha ma’lum bilimlar tizimini yetkazish va tegishli kasbiy-mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, qator axloqiy, shaxsiy sifatlarni tarbiyalash kabi aniq vazifalar birinchi o‘ringa chiqadi.

Mehnat faoliyati doimo rivojlanadi. Uning har bir tarkibiy komponentlarining yuzaga kelishi malakalar, maqsadni belgilash, motivatsiya, ishni rejalashtirish, natijaga erishish va uni baholashlarni o‘z xususiyatlariga ega. Demak, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni aqli zaif bolalar uchun pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o‘quvchilarni kompyuter texnologiyalari asosida mexnat ko‘nikmalarini shakllantirish. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(16), https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013
2. Акрамова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобщенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций ЖСПИ, извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918
3. Akramova, X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 7(1). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682
4. Акрамова, Х. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций ЖСПИ, 1(12), 1-7. извлечено отhttps://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3182
5. Akramova, X. (2020). Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 7(1). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697
6. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 15(1). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897
7. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o‘quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiyo mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 15(1). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916
8. Haqberdiyev, jamoliddin. (2020). The importance of modern technical devices in the development of hearing. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(64). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183
9. Haqberdiyev, jamoliddin. (2020). Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi masalalari . Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(70). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6303
10. Haqberdiyev, jamoliddin. (2020). The importance of cochlear implant in the educational system of children with hearing disorders . Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(80). izvlecheno от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6742

KIMYO FANINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

BOLTAYEVA RA'NO AMIRILLAYEVNA
Jizzax davlat pedagogika universiteti O'qituvchi.

Annotasiya. Ta'lrim tizimi doimiy ravishda uni tashkillashtirish, metodik izlanuvchanlik va mazmunan takomillashtirishni taqoza qiladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini, fan-texnikaning ta'lrim muassasalarida berilayotgan nazariy bilimlarning amaliy qo'llanilishi orasidagi tafavvutlar talabalarning genetik moyilligi va pedagoglarning samarali yondashuvlarini uyg'unlashtirishni taqoza etmoqda. Bu zarurat talabalarning yashirish va o'zlashtiriladigan iqtidorlari ya'ni, individual ta'lrim trayektoriyasini belgilash bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: individuallashtirish, differensiallash, individuallashtirish ko'rsatkichlari, individual yondashuv.

Аннотация. Система образования постоянно требует совершенствования ее организации, методической исследовательской и содержательной направленности. Различия между социальной активностью молодежи, практическим применением теоретических знаний, передаваемых в научно-технических учебных заведениях, требуют гармонизации генетической предрасположенности учащихся и эффективных подходов педагогов. Эта необходимость обосновывается тем, что учащиеся скрывают и усваивают таланты, то есть определяют индивидуальную образовательную траекторию.

Ключевые слова: индивидуализация, дифференциация, показатели индивидуализации, индивидуальный подход.

Annotation. The education system constantly requires improvement of its organization, methodological research and content orientation. The differences between the social activity of young people and the practical application of theoretical knowledge transmitted in scientific and technical educational institutions require harmonization of the genetic predisposition of students and effective approaches of teachers. This need is justified by the fact that students hide and assimilate talents, that is, they determine an individual educational trajectory.

Keywords: individualization, differentiation, indicators of individualization, individual approach.

Ta'lrim jarayonida individual yondashuv tartibini joriy etish asosida talabaning shaxsiy sifatlari, yetakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga bo'lgan yondashuvni "ichki farqlash" va "individuallashtirish" tushunchalari mohiyatiga moslash masalasi birmuncha og'irroq bo'lsada, samarali va zamonaviy tendensiyalarga mos tushadi. Fikrimizni ilmiy tahlili sifatida ta'lrim jarayonini differensiallash, uzlusiz rivojlanishini ta'minlash ta'lming yakuniy maqsadi va vazifalarini anglaydigan ijodiy yo'naltirilgan shaxsni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Talabalarning faolligini oshirish va o'rganish motivasiyasini

kuchaytirish esa, progressiv pedagogik fikrlashni shakllantiradi[1].

Ta'lmda individuallashtirish va ilmiy xabardorlik ko'nikmalarini shakllantirishda talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishdir eng muhim asoslaridan biridir. Individuallashtirish va differensiasiyaning asosiya maqsadi-bu bolaning individualligini saqlab qolish va yanada rivojlantirish hamda o'ziga xos bo'lgan shaxsni tarbiyalashdan iborat [2].

O'qitishda individual va tabaqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchi talabaning o'sish dinamikasini ko'rishi va



uni hisobga olishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini inobatga olishi, ularning turli guruhlari bilan jamoaviy ishslash imkoniyatlarini vizual ravishda namoyish etish hamda guruhlar bilan ishslash tizimini tanlash imkoniyatini taqdim etish zarur [3].

Kimyo fanini o'qitish, umumta'lim tizimida individuallashtirish, mintaqalashtirish tamoyillarining o'zaro bog'liqlik asoslari, o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda ta'limiy kompetensiyalar yuzasidan H.T.Omonov, N.Azizzo'java, Z.Mamajonova, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarov, E.U.Eshchanov, J.E.Usarov, M.Usmonboyeva, M.B.Xattabovlar va boshqalarning ishlarida aks etgan. Ko'pgina metodistlarning ta'kidlashicha, ta'limni individuallashtirish g'oyasi kimyo ta'limi jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak. O'quv jarayonini tashkil etish nazariyasi va amaliyoti masalalari bo'yicha to'plangan nazariy bilimlarni ilmiy va amaliy jihatdan tushunish, kimyo fanini o'qitishda individual yondashuv har bir talabani ta'limning haqiqiy izlanuvchisiga aylantiradi, deb ta'kidlashga imkon beradi. Albatta, har bir talabada o'ziga xos, individual ta'lim uslubini rivojlantiradi. Bu kimyo fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini amaldagi Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari asosida ta'minlanishini belgilaydi [4; 78-81 b].

Shunday qilib, bilim va ko'nikmalar sifatini oshirish uchun zarur shart sifatida kimyo fanini individuallashtirish g'oyasi zamonaviy kimyo o'qituvchisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu bilan birga, quyidagi qarama-qarshiliklarni ham inobatga olish zarur: 1) o'quvchining kimyoviy bilimlari sifatiga qo'yiladigan talablarning tobora murakkablashib borayotganligi va fanni o'qitish jarayonida o'quvchining individualligini rivojlantirishni o'z ichiga olmaydigan standart usullardan foydalanish[6]; 2) o'quvchilarining yuqori tabiiy qiziqishi va kimyo fanini individuallashtirish jarayoniga yo'naltirilgan maxsus usullarning yo'qligi, ular

faoliyatining individual uslubini rivojlantirish o'rtasida qarama-qarshiliklar keltirib chiqarishi [6]. Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish ilmiy tadqiqotlar va munozaralarini talab qiladi.

"Individuallashtirish ko'rsatkichlari" deganda, o'rganish qobiliyati ya'ni, talabaning qisqa vaqt ichida yuqori o'quv natijasiga erishish qobiliyatini, ishslash faolligi ya'ni, tirishqoqlik, kognitiv qiziqish, axloqiy munosabat, o'rganish istagi va qobiliyati, sog'liq va psixikaning holati, umumiylar jismoniy rivojlanish, o'qitishning oqilona usullariga ega bo'lishi, o'quv faoliyati davomiyligi va intensivligi, o'quv materiallarining aniqligi, to'liqligiga hamda ta'lim oluvchining mustaqil ishni bajarishi nazarda tutiladi [7].

I.E.Unt umumiy ta'lim motivasiyasi fonida o'rganish qobiliyatini, shuningdek, o'rganishni (dasturiy va dasturdan tashqari bilimlar, ko'nikmalar), kognitiv qiziqishni hisobga olishni taklif qiladi. Uning fikricha, ular ko'pincha bolaning o'qishiga, ota-onaning uy sharoitlariga va uning sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin.

Individuall yondashuv ham turlicha talqin qilinadi, bir muncha vaqtgacha bu yondashuv kasallik tufayli uyda o'quvchi bilan ishslashda yoki iqtidorli bolalar bilan ishslash sifatida baholangan. Biroq, barcha o'quvchilar ushbu yondashuvga muhtoj emas: ya'ni fanni o'rganishga qiynaladigan va yuqori darajadagi qobiliyati rivojlangan maktab o'quvchilar, shular jumlasiga kiradi.

Ta'limni individuallashtirishning asosiy maqsadi o'quvchilarining bilimlarida bo'shliqlar paydo bo'lishining oldini olish, har bir o'quvchining maksimal samarali ishslashini ta'minlash, ularning qobiliyatları, moyilligi va qiziqishlarini to'liq safarbar qilishdir [8].

Biroq, oliy ta'lim muassasalarida bu masalaga biroz o'zgacharoq yondashiladi. Birinchi galda talabalarning pedagogik-psixologik portreti ya'ni, ularning genetik va pedagogik: o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish va mayjud imkoniyatlari, tadqiqotchilik ko'nikmalariga egaligi yoki ta'lim xizmatlari

(ishlab chiqarish)ga bo‘lgan imkoniyatlari tashxis qilinadi. O‘tkazilgan diagnostik natijalar asosida yuqoridagi 3 ta yo‘nalishga mos intensiv dasturlar ishlab chiqiladi hamda bu dastur asosidagi ta’lim jarayonini individual yondashuvning birinchi bosqichi sifatida qabul qilish mumkin.

Shu ma’noda I.E.Untning “Ta’limni individuallashtirish tushunchasidan amaliy foydalanishda mutlaq emas, balki nisbiy individuallashtirishdir”, degan fikriga qo‘silish mumkin. Biz fikr yuritayotgan masala kam gap, o‘z fikrini so‘ramasa ichida saqlaydigan, mantiqiy va tahliliy fikrlaydigan talabalar uchun yaratiladigan intensiv dastur haqida boradi. Bu talabalarda ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini shakllantirish kutilgan natijani beradi.

Shuningdek, o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim mazmuni va ta’lim tizimini tashkillashtirish o‘rtasidagi farqni belgilaydi. Birinchisi ta’lim shakllari, usullari va usullarini tanlash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi - o‘quv rejalar, dasturlari, o‘quv adabiyotlarini yaratish va o‘quvchilarga taqdim etiladigan vazifalarni tuzish, uchinchisi esa – tizimda turli xil induallashtirilgan sinflarni shakllantirish iborat.

O‘quv materialini o‘zlashtirishning individual holda mustaqil o‘zlashtirilish jarayonini hisobga olish muhimdir. Muayyan o‘quv elementlarini tezda o‘zlashtirigan holda, o‘quvchilar o‘zlarining imkoniyatlarini qadrlashlariga qarab, bir murakkablik darajasidan boshqasiga, yuqori murakkablik darajasiga o‘tishlari mumkin. Bu o‘rganishni ijobjiy rag‘batlantirish usullaridan biridir. Ya’ni, buni yordam va o‘zaro yordamni tashkil qilish (talaba talabaga ustoz tamoyiliga amal qilish) asosida individuallashtirishda ko‘rish mumkin. Biroq, shaxsiy yondashuvning vazifasi o‘quvchilarning individual tipologik o‘ziga xosliklariga emas, balki shaxsiyat turiga, shaxsni yaxlit idrok etishga yo‘naltirishni talab etadi.

Shunday qilib, zamonaviy ta’limiy

jarayonlarining qayta shakllantirilishi - jamiyatning obyektiv talablariga, maktabning ijtimoiy institut sifatida evolyusiyasi mantig’iga hamda ta’lim oluvchining individual psixologik resurslarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq. Har bir shaxsning huquqlari nuqtai nazaridan ta’lim jarayonida munosib o‘rin egallahiga kafolat berishi hamda uning shakllanish jarayoniga ma’lum bir yo‘nalishda tizimli ta’sir ko‘rsatish kerak bo‘ladi. O‘quv jarayonining bu tizimlaridan bitta elementi sifatida o‘quvchilarning mustaqil bilim egallah ko‘nikmasidir. Birinchi aniq vazifa - murakkabligi keng doirada o‘zgarib turadigan tabaqlashtirilgan vazifalarni yaratish, bu vazifalar talabalarning tayyorgarligini:

-ular bilan eng oddiy operasiyalarni bajarish uchun bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni elementar egallah;

-bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni chuqurroq o‘zlashtirish va ularning asosida yanada rivojlangan operasiyalarni amalga oshirish;

-bilim, ko‘nikma, malaka va tegishli kompetensiyalarni egallah, ular bilan erkin, ijodiy ishlash kabi darajalarga yo‘naltirish mumkin. Vazifalarni ishlab chiqishda o‘quvchilarning an‘anaviy ravishda qoniqarli, o‘rta va faollarga bo‘linishi ushbu toifalarni belgilashga, ularga ma’lum o‘quvchilarni ajratishga yordam beradi va ularni murakkablik darajasida muvofiq ketma-ket ravishda amalga oshirilmaydi. Individual topshiriqlar sinfning umumiy topshirig’iga qo‘sishma sifatida beriladi va mashg’ulotda yoki uyda amalga oshiriladi. Individual topshiriqnning tavsifi darsning maqsadi va mazmuniga bog‘liq holda tanlanadi hamda yuqoridagi barcha shakllarning turli xil kombinasiyalari ko‘rinishida qo‘llanishi mumkin. Individual vazifalar ko‘rib chiqish va kognitiv bo‘lishi mumkin.

Masalan, "Tuzlarning gidrolizlanishi" mavzusi o‘rganayotganda darslikdan ta’riflarni yozish va taklif qilingan moddalar orasidan natriy karbonat, rux xlorid, ammoniy karbonat,

alyuminiy sul'fat, natriy xlorid, kaliy nitrat, qo'rg'oshin nitrat, temir (III) xlorid tuzlari eritmalaridan qaysilari gidrolizga uchrashini va ularni gidrolizlanish reaksiyalarini yozishni taklif etadi. 2-darajadagi tayyorgarlikga ega o'quvchilar uchun tuzlarning suvdasi gidrolizlanishiga asoslanib, ushbu moddalar nima sababli gidrolizga uchrashini tushuntirish taklif etiladi, 3-darajadagi tayyorgarlikga ega o'quvchilar uchun yanada murakkab formulalar – qo'sh, kompleks tuzlar va qo'shaloq tuz gidroliziga oid treaksiya tenglamalarini yozish va tushintirish taklif etiladi.

Individual topshiriqlar kichik tadqiqotlar ko'rinishga ham yega bo'lishi mumkin. Ushbu turdag'i topshiriq kimyoviy eksperiment ko'nikmalarini mustahkamlashda, o'quvchilarning o'r ganilgan masalalar bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirishda qo'llaniladi.

O'qitishga individual yondashuvni amalga oshirish uchun talabalar uchun quyidagi vazifalar turlari taklif etiladi:

- majburiy, o'qituvchi tomonidan taklif etiladi;
- talaba o'qituvchi tomonidan tavsiya

etilgan alternativlarni tanlaydi;

- o'qituvchi tomonidan ixtiyoriy bajarish uchun tavsiya etilgan;

- ixtiyoriy, uning mazmuni talabaning o'zi tomonidan belgilanadi va topiladi.

Shunday qilib, ta'l'm oluvchilarga individual vazifalar darsdan tashqari va uy vazifalari, kichik ilmiy tadqiqot loyixalari ko'rinishga taqdim etilishi mumkin. Shu bilan birga ularning o'qituvchi tomonidan baholashni amalga oshirish uchun talabalar tomonidan individual topshiriqlarning ayrim turlarini va dars bosqichlarida (konsolidasiya, mustaqil ish, tekshirish ishlari) erkin tanlash prinsipidan foydalanishi samarali hisoblanadi.

Talabaning mustaqil o'quv faoliyati mustaqil va kreativ fikrlashga undovchi, tahliliy xulosalar talab qilinadigan darslar va testlarga muvaffaqiyatli tayyorgarlik, maxsus ishlab chiqilgan savol-topshiriqlar, mashqlar va muammoli keyslardan foydalanish ta'l'm jarayonini individuallashtirish, talabalarining individual ta'l'm trayektoriyasini belgilash o'zlarining kelajakdagi o'qitish usullari, ta'l'miy yondashuvlari va hatto o'zlashtirish tezligini tanlashdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ахметов М.А. Индивидуально-ориентированное обучение химии в общеобразовательной школе. Монография: Ульяновск: УИПКПРО, 2009. – 260 с.
2. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. – М.: Педагогика, 1990.- 192 с.
3. Александрова Е.А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий. Дисс. ... докт. пед. наук.- Тюмень, 2006.
4. Богатова И.Б. Применение модульной технологии для изучения органической химии// Вектор науки ТГУ- 2010, № 7(10), с. 78-81.
5. Кирсанов А.А. Индивидуализация учебной деятельности школьников. Казань: Тат. кн. изд-во, 1980. - 207 с.
6. Komilov Q.O', Kurbanova A.Dj. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry//Academic Research in Educational Sciences,2020, №2 (6), Page 436-443.
7. Komilov Q.O', Kurbanova A.Dj. Kimyo mashq'ulotida keys-stadi metodi: salbiy va ijobjiy samaralar/ France international scientific-online conference: "Scientific approach to the modern education system» 2022. part 1, 5th february.
8. Xasanova N.I. Biologiy yo'naliishi talabalariga analitik kimyonlari o'qitishda vaziyatli vazifalardan foydalanish// NamDU ilmiy axborotnomasi-2023,Nº11, 860-864 betlar.

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

SH. KENJAYEV
DOCTOR OF PHILOSOPHY IN PEDAGOGICAL SCIENCES

Annotatsiya. Mazkur maqolada ota-onalarda yoki ota-onalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni markazlarga qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlash tartibi belgilab berilgan hamda inspektor psixologlarning Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishida ularda yuqori mas'uliyat hissini shakllantirish, ekstremal holatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish maqsadida amaldagi qonunchilik, buyruqlar, me'yoriy hujjatlarni to'liq o'rganish va ulardan xizmat faoliyatida to'g'ri foydalanish, vaziyatni tahlil qilib, baholab borishi hamda qasamyodiga sodiq bo'lishi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Voyaga yetmagan, vasiylik va homiylik, nazoratsizlik, huquqbuzarlik, profilaktika.

Abstract. This article defines minors left unattended and neglected by their parents or surrogate parents, living in socially vulnerable families, in need of state and public assistance, identification of neglected and neglected minors, admission to centers, procedure for registration and storage. decisive, and in order to develop among inspector-psychologists a high sense of responsibility for serving the Motherland and the people, making independent decisions in extreme cases, fully studying the current legislation, orders, regulations and their correct use in the service. actions, analysis and assessment of the situation, loyalty to the oath are explained.

Key words: Minors, guardianship and trusteeship, neglect, offenses, prevention.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini asrash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ana shunday yuksak maqsadlarga erishish uchun istiqlol yillardan boshlab, yurtimizda huquq-tartibotni mustahkamlashning muhim bo'g'ini bo'lgan ichki ishlar organlari tizimini chuqur isloq qilish bo'yicha keng ko'lamli, mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qator ijobji ishlar amalga oshirildi hamda amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 aprel kunidagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy choratadbirlar to'g'risida»gi PQ 5050-sont qaroriga

asosan, Ichki ishlar vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining «Xavfsiz ta'lim muassasasi» tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli choralarini nazarda tutuvchi tuman, shahar ichki ishlar organlari tarkibida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimlari joriy etilib, ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiy o'rta ta'lim muassasalari belgilandi.

Inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilish holatlariga murosasiz munosabatda bo'lismi hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash vazifalari yuklatildi. Bugungi kunda yoshlarmizni har tomonlama barkamol

inson bo'lishi uchun asosiy qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: «Har kim ta'lif olish huquqiga ega. Davlat uzlusiz ta'lif tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lif va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiyoq o'rta ta'lif va boshlang'ich professional ta'lif olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lif majburiydir. Maktabgacha ta'lif va tarbiya, umumiyoq o'rta ta'lif davlat nazoratidadir. Ta'lif tashkilotlarida alohida ta'lif ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inkiyuziv ta'lif va tarbiya ta'minlanadi» deb belgilab qo'yilgan bo'lib, voyaga yetmaganlarning ta'lif olish sohasidagi huquqlarini kafolatlaydi. Ta'lif jarayoni voyaga yetmaganlarni intelektual salohiyatini, dunyoqarashini va bilimini shakllantirib, uning jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning aksariyat moddalari voyaga yetmaganlar huquqlari va manfaatlari bilan bog'liq, jumladan konstitutsiyamizning muqaddima qismida ham bunga alohida urg'u qaratiladi, ya'ni, «hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda» degan iboraning keltirilishi konstitutsiya bugungi kun nuqtai nazaridan balki kelajak avlod, ya'ni voyaga yetmaganlar yoshlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda qabul qilinganligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgust kunidagi «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» 490-son Qaroriga asosan, ota-onalik yoki ota-onalik o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratsiz va qarovsiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha

faoliyatni samarali tashkil etish, shuningdek voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, ular faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish tartibi, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni markazga qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlash tartibi belgilab berildi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasining quyidagi asosiy tushunchalari mavjud, ya'ni: voyaga yetmagan – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs; voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarlik profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lif berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbazarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila – ota-onalik yoki ota-onalik o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lif berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulqatvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan

oila; nazoratsiz – ota-oná yoki ota-oná o’rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta’minalash, tarbiyalash va unga ta’lim berish bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarishdan bo’yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan; yakka tartibdagi profilaktika ishi – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o’z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g’ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat; qarovsiz – aniq yashash joyi bo’lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan; g’ayriijtimoiy xatti-harakatlar – voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aqliroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug’ullanishida ifodalanadigan xattiharakatlari, shuningdek o’zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni buzadigan boshqa xatti-harakatlari. Voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g’ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shartsharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; - voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash; - voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik hulq-atvorini shakllantirish; - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish; - voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g’ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga

jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish vazifalari belgilab berilgan.

Voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: - qonuniylik; - insonparvarlik; - tizimlilik; - oilani qo’llab-quvvatlash va u bilan o’zaro hamkorlik qilish; - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashish printsiplari ko’rsatib o’tilgan. Voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi: - voyaga yetmaganlar ishlari bo’yicha idoralararo komissiyalar; - ichki ishlar organlari; - ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalar; - vasiylik va homiylik organlari; - sog’liqni saqlashni boshqarish organlari va sog’liqni saqlash muassasalar; - bandlik va mehnat munosabatlari organlari. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan organ va muassasalar va kolati doirasida voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiradi hamda ushbu yo’nalishda o’zaro hamkorlik qiladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 maydagи «Ixtisoslashtirilgan o’quv-tarbiya muassasalarini faoliyatini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi 4342-sonli Qarori O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida Respublika o’g’il bolalar o’quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o’quv-tarbiya muassasasi jumladan, Respublika qiz bolalar o’quv-tarbiya muassasasi Toshkent viloyati, Chinoz tumani, «Gulzorobod» mahallasi manzilida, Respublika o’g’il bolalar o’quv-tarbiya muassasasi Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, Baxt shahri «Tadbirkor» mahallasi manzilida tashkil etildi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019

yil 17 oktyabrdagi «Respublika o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 880-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi. Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga 14 yoshga to'lgan va 18 yoshdan oshmagan voyaga yetmaganlar joylashtiriladi; Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga quyidagilar joylashtiriladi: - ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmanan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmanan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'liq anglab etishga qodir bo'lmanan; - aybliligi to'g'risidagi masalahalqilinmay turibjinoiy javobgarlikdan ozod qilingan, materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirilgan bo'lsa; Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tariqasidagi majburlov chorasi qo'llanilgan holda jinoiy jazodan ozod qilingan voyaga yetmaganlar; yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay muntazam ravishda huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan voyaga yetmaganlar sud qarori asosida joylashtiriladi. Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazining asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat: - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy, tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; - bolalarning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik moyilliklari, qobiliyatları, qiziqishlari, bolalar hayoti va sog'lig'ini saqlash talablariga muvofiq tarzda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvu va reabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; - voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularni ijtimoiy himoya qilish

va har tomonlama rivojlan- 86 tirishga yordam berishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish. - voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish. Profilaktika inspektori huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish jarayonida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbazarliklar yoki ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'radi. Xizmat jarayonida ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olsak, voyaga yetmaganlarga ijtimoiyhuquqiy yordam ko'rsatish markazlarining roli muhim ahamiyatga ega. Profilaktika inspektori tomonidan quyidagi toifadagi voyaga yetmaganlar aniqlanganda, ularni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish choralarini ko'rildi: - nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar; - ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, etim bolalar va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar; - ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan o'n olti yoshgacha bo'lganlar; - ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmanan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmanan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab etishga qodir bo'lmananlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek ularning shaxsi aniqlanmagan yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlarini ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir

etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa; - ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zлari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa; - o'zining ixtisoslashtirilgano'quv-tarbiyamuassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar; - sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgano'quv-tarbiyamuassasasiga yuborilayotganlar. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishni talab qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, profilaktika inspektori voyaga yetmagan ichki ishlar organlari yoki tayanch 87 punktlariga olib kelishi mumkin, keltirilgan paytdan boshlab, 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnama yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart. Profilaktika inspektori voyaga yetmaganni Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish yuzasidan quyidagi hujjatlar rasmiylashtiradi: - profilaktika inspektori tomonidan vasiylik va homiylik organlari vakillari, psixolog, pedagog ishtirokida amalga oshirilgan suhbatning so'rov bayonnomasi; - yaqin atrofdagi ta'lif muassasalari, mehribonlik uylari va boshqa tashkilotlardan yoki bedarak yo'qolan voyaga yetmaganlar bo'yicha surishtirish ishlari natijalari haqidagi ma'lumotnomasi; - agar ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'limgan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'limgan holda rivojlanishda orqada qolgan voyaga yetmagan bo'lsa tergovchining qarori; - vasiylik va homiylik organlarining

ma'lumotlari; - ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan o'n olti yoshgacha bo'lganlar uchun mahalla fuqarolar yig'inining ma'lumoti va tavsiyasi; - voyaga yetmaganni markazga joylashtirish bo'yicha ichki ishlar organining boshlig'i tomonidan imzolangan iltimosnama. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnama va uni mazkur markazga joylashtirish zarurligini tasdiqlovchi materiallar voyaga yetmagan topilgan joydagi yoxud ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi joylashgan erdag'i jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rnbosari tomonidan yuboriladi. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnama ichki ishlar organi uni taqdim etgan paytdan e'tiboran, 24 soat ichida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi. O'ziga nisbatan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnama ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, prokuror, vasiylik va homiylik organining, ichki ishlar organining vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart. Sudning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda profilaktika inspektori voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish zarurligini asoslab berishi lozim. 88 Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, suda quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi: - iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ijtimoiyhuquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida; - iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida.

Sudyaning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro etilishi lozim. Profilaktika inspektori sudning ajrimi bilan voyaga yetmaganni ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish markaziga olib boradi va markaz xodimlari ishtirokida rasmiylashtirilgan dalolatnoma asosida topshiradi. Voyaga yetmaganlar ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida ularni joylashtirish uchun zarur bo'lган eng kam vaqt davomida, lekin ko'pi bilan o'ttiz kun bo'lishlari mumkin. Istisno hollarda, bu muddat ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi boshlig'i yoki uning o'rnbosarining iltimosnomasiga ko'ra, sudning ajrimi asosida, qonun hujjalarda belgilangan tartibda o'n besh kungacha uzaytirilishi mumkin. Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'limlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: - voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklar sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; - har bir o'quvchi kesimida umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash; - voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish; -

huquqbazarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonunchilik hujjalarda nazarda tutilgan ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida vakolati organlarga yoki voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga taqdimnoma va takliflar kiritish; 89 - voyaga yetmaganlarni markazlarga, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga, respublika o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun taalluqli hujjalarni tayyorlash; - voyaga yetmaganlarni vazirlik va idoralar tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (keyingi o'rnlarda – ta'lim muassasalari)ga joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish; - ichki ishlar organlari tayanch punktlari (mahalla huquq-tartibot maskanlari)ga yoxud fuqarolar yig'inlariga olib kelingan voyaga yetmaganlar bilan profilaktik tadbirlarni tashkil etish; - voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yohud ularning hulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni tashkil etish; - voyaga yetmaganlarning huquqini himoya qilish choralarini ko'rish, shuningdek, ularga oid statistik hisobotlarni yuritish; - etim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, mehribonlik uylari, respublika o'quv-tarbiya muassasalari hamda oilalarga joylashtirishda vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlik qilish; - xorijda ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy

yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning voyaga yetmagan bolalarini O'zbekiston Respublikasiga qaytarish; - voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha bo'limlariga qonunchilik hujjalari muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan; Shuningdek, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalar o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi: - voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish sohasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi, bunda voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qiladi, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholaydi va umumlashtiradi; - huquqbazarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar, sharoitlarni aniqlaydi hamda bartaraf etishga yo'naltirilgan, shu jumladan davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institatlari 90 bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlarning istiqbolli va joriy rejalashtirilishini tashkil etadi; - voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi choratadbirlar samaradorligini oshiradi, kuch va vositalarni oqilona joylashtirish va qayta taqsimlash bo'yicha takliflar taqdim etadi; - davlat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga huquqbazarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish, shu jumladan tegishli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha taqdimnomalar kiritadi; - ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlarga oid

huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida ma'lumot-axborot fondini shakllantirish, statistik hisobotni yuritish chora-tadbirlarida ishtirok etadi. Jumladan, har bir o'quvchi kesimida umumiyo'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilishlarini oldini olish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash, voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarlik sodir etilishini barvaqt oldini olish bilan bir qatorda, qonun buzilishlarga yo'l qo'ymasliklari bo'yicha ham o'z samarasini berishda yaqindan yordam beradi. Qolaversa, sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari o'z vakolatlari doirasida, voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasida sanitariya-gigiena bilimlarini keng yoyishni, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni tashkil etadi, voyaga yetmaganlar o'rtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlik hamda ularning hulqatvoridagi shu bilan bog'liq nuqsonlarning profilaktikasi bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi. Xulosa o'rnida, Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar, ichki ishlar organlari, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari hamda bandlik va mehnat munosabatlari organlarining o'zaro hamkorliklarini kuchaytirishda qulayliklar yaratilishi bilan bir qatorda inspektor psixologlarning voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, huquqbazarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning profilaktikasi bo'yicha kompleks tadbirlarni

ishlab chiqadi, voyaga yetmaganlarning ushbu tadbirlarning bajarilishi ustidan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari nazoratni amalga oshiradi. himoya qilinishini ta'minlaydi, shuningdek



Foydalaniłgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T:O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.;
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-son qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagи «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5050-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5076-son qarori;
8. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYANING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(3), 1313-1317.
9. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIY HIMOYASINING USTUVOR YO'NALISHHLARI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(4), 45-47.
10. Xolnazarova, M. (2022). Factors and socio-psychological causes of behavior deviation in minors. NeuroQuantology, 20(20), 1781.
- Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 91-95.
9. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Xolnazarova, M. X. (2017). Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent-2017 yil.

ONALAR ALLASI – INSON KAMOLOTI OMILI SIFATIDA

IMYAMIN QIRG'IZOV

Farg'ona davlat universiteti san'ashunoslik fakulteti musiqiy ta'lif va madaniyat kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada – “Alla” beshik qo’shig‘i, u xalq og’zaki ijodi namunalarida kuylanganligi, o’zbek xalq ijodiyotida, ko’plab allomalar, olimlarning asarlarining bosh mavzusi o’laroq bola ko’nglining ma’naviy sog’lom va pokiza bo’lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasining mazmun mohiyati, kelb chiqishi shu bilan br qatorda tarixiy taraqqiyoti o’rganilgan.

Аннотация. В данной статье-колыбельная песня “Алла”, исполняемая на образцах устного народного творчества, в узбекском народном творчестве, как главная тема произведений многих ученых и ученых, в становлении души ребенка духовно здоровой и чистой исследуется содержание услышанной во время колыбели Аллы, ее источники, а также ее историческое развитие.

Abstract. In this article – The Cradle Song “Alla”, which is sung in samples of folk oral creativity, in Uzbek folk creativity, many allomas, the essence of the meaning of the allase heard during the cradle in the formation of the child's soul as spiritually healthy and neat, as opposed to the main theme of the works of scientists, kelb output,

Kalit so’zlar: o’zbek xalq ijodiyoti, beshik, ona allasi, ma’naviyat, barkamol, jamiyat, yo’rgak, go’dak, maqol, qo’shiq, ertak

Ключевое слово: узбекское народное творчество, колыбель, Бог матери, духовность, гармония, общество, подгузник, младенец, пословица, песня, сказка

Keyword: Uzbek folk art, cradle, mother alla, spirituality, perfection, society, diaper, baby, proverb, song, fairy tale

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 02.02.2022-yildagi PQ-112-son qarorida belgilangan 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko’nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi”.

Ma’lumki, inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqeal-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar,

ehtiroslar vositasida amalga oshgan.

Keyinchalik his-tuyg‘ularni so’zlar, ohanglar, allalar, raqslardarda ifodalagan

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Sh.Rahmatullaevning "O’zbek tilining etimologik lug‘ati"da "alla"ga shunday izoh berilgan: "Bu ot qadimgi turkiy tildagi "tinchanish" ma’nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so‘zidan o‘sib chiqqan (Devon I, 118); o’zbek tilida "a" unlilari "ä" unlilariga almashgan, "l" undoshi qatlangan: ala-ala › alla › ällä" [1].

Abu Ali ibn Sino o‘zining mashhur «Tib qonunlari» kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati to‘g‘risida shunday yozadi: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo’llamoq



kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil bo‘ladi». Alla — beshik qo‘srig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi... Bunday dilni erklovchi qo‘sriqlar bolaga ham xush yoqqan – ana shu she’riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan bu qo‘sriqni alla qo‘sriqlari deyishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Alla – go‘dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytildigan qo‘sriq. Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami – ma’naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat mavjudligni teran anglashgan. Aytish mumkinki, o‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan [3].

Qadim qadimdan o‘zbek xotin-qizlari, ayollari, onalari o‘ta sabr qanoatli, bardoshli, matonatli, kezi kelganda mard va jasur bo‘lganlar. Turmushning achchiqchuchugi, jabr zulumlarini mardonavor engib o‘tganlar

Ular bor dard-u xasratlarini ochiqdan ochiq oshkor etmasdan, allalar, yallalar qo‘sriq, lapar, o‘lanlarda kuylaganlar. ALLA... alla...bizlarni quloqlarimiz birinchi bo‘lib tinglagen, yaxshilik, ezgulik sari etaklagan, oila, ona yurt, vatanga cheksiz mehrmuhabbat uyg‘otgan birinchi qo‘sriq, onalar qo‘srig‘i, onajonlar qo‘srig‘i. Alla so‘zining tag zamirida ma’nosida Ollox nomi zikr etilgan. Endi e’tiboringizga mana bu allani xavola etamiz [5].

Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg‘usini ko‘ngli bilan his qiladi. Allada onaning mehrmuhabbati bilan birga uning quvonchi, g‘ururi, ayni chog‘da dardi, alami, o‘kinchi, orzu-armonlari ham o‘z ifodasini topishi mumkin.

Ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘sriq, ertak, alla va bolalarga bag‘ishlangan asarlarda o‘z ifodasini topdi

«Bola – ota-oni qo‘lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan holi. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, saodatli bo‘ladi. Ota-onasi hamda odob, ta’limtarbiya bergen ustozlar uning savobiga sherik bo‘ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo‘ladi» [2].

Alla — beshik qo‘srig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish,

uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti Habiba Ohunova ijrosidagi “Alla” qo‘sishig‘ yurtimiz onalarining betakror madhiyasiga aylangan.

Alla aytay, jonio bolam, qulq solgin,
alla

Shirin allam tinglab asta, uxbab qolgin,
alla

Ko‘zlarinka tomgan suvgan hayron
bo‘lma, alla-ya

Baxtimga sen katta bo‘lgan, hazon
bo‘lma, alla

Istiqloling porloq seni, jajjiginam,
alla-ya

Baxtimga sen katta bo‘lgan, hazon
bo‘lma, alla

Sevganimdan yodgorimsan, oltin
qo‘zim, alla-ya

Men sho‘rlikday to‘kilmagin, ko‘rar
ko‘zim, alla

Alla, alla, alla-ya

Alla – go‘dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytiladigan qo‘sinq. Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami ma’naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat

mavjud.Ota-oni borki, farzandining tinch va osuda vatanda sog‘lom o‘sib-ulg‘ayishi, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni egallab, oilasiga, yurtiga tayanch bo‘lishini istaydi [4].

Allalar dastlab har bir ayolning o‘z ohangi o‘z dardi, o‘z yurak nolasi bilan musiqa jo‘rligisiz aytilgan bo‘lsa keyinchalik, bir necha vaqtlardan so‘ng, bizlarni davrimizga kelib ayrim ustoz san’atkorlar, bastakorlar tomonidan allalarga xos musiqalar bastalay boshladilar. Shoirlarimiz alla yo‘nalishiga tushadigan vaznda she’rlar yozdilar. Shunday qilib xalq og‘zaki ijodining yangi yo‘nalishi musiqa jo‘rligida kuylanadigan zamonaviy allalar yaratildi. O‘zbek ustoz san’atkorlari (asosan ayollar va qizlar) ko‘plab musiqa jo‘rligidagi “alla” turkumidagi qo‘sishqlarni ijro etib, Ushbu qo‘sishqlarni O‘zbekiston teleradio kompaniyasi oltin fondiga milliy musiqa merosimizning boyligi sifatida yozib qoldirdilar.Ustoz san’atkorlar: Shirin Azizova, Xabiba Oxunova, Mexri Abdullayeva, Raxima Mazoxidova, Farog‘at Raxmatovalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda biz bilan elkama elka turib o‘z san’at maktablarini, ijro uslublarini,bilimlarini yosh avlodlarga o‘rgatib kelayotgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchilari O‘zbekiston xalq artisti ustoz san’atkor Shafoat Rahmatullayeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xursanoy Umarova, O‘zbekiston xalq artisti Yorqinoy Xotamovalar ham “alla” turkumidagi bir necha qo‘sishqlarni maromiga etkazib ijro etadilar.

XULOSA

Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu

jamiyatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlаримизни o‘zимизга тайanch deb bilamiz”.

Zotan, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va sihat-salomatligiga ustuvor ahamiyat

qaratilishi bugun xalqimiz intilayotgan Uchinchi Renessans – yangi Uyg‘onish davriga qo‘yilajak poydevorning mustahkam bo‘lishi garovidir.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, onalar allasi yoshlаримизning ilmu fanga, ijodu mehnatga rag‘batini oshirishga, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllanishiga, imon-e’tiqodi, milliy g‘ururi hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lib, yangi hayot bunyod etishga ko‘maklashadi.

Foydalaniлган адабиётилар:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild. 11.12.2013. Ziyoruz.uz.
2. Bo‘riev A. O‘zA. Alla milliy tiklanish. <https://uza.uz/posts/283668>
3. Йўлдошева С. Фольклор - этнографик жамоалари услубиёти. – Тошкент, “Наврўз”, 2014.
4. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент, Фан, 1986.
5. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. – Тошкент. 2008 .
6. Юнусов F. Фольклор жамоа ижрочилиги. – Тошкент 2021.
7. Болтабоева У. Сахна нутқи. – Тошкент. 2020.
8. Ражабий Ю. Ўзбек халқ мусиқаси. – Тошкент 1956.

SINTAKTIK ALOQA VOSITASI BO‘LISHGA XOSLANGAN BIRLIKLER TAHLILI

FAYZULLAYEVA MOHINUR NODIRJON QIZI
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek tilida so‘z tarkumlarini sintaktik vazifa bajarishga xoslovchi grammatik shakllarning, xususan, egalik, kelishik, mayl va bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyalarining ilmiy-nazariy tavsiyi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Grammatika, sintaksis, morfologiya, gap bo‘laklari, so‘z tarkumlari, egalik kategoriysi, kelishik kategoriysi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik.

Аннотация. В данной статье дано научно-теоретическое описание грамматических форм, характеризующих синтаксическую функцию групп слов в современном узбекском языке, в частности, категорий владения, согласия, склонения и причастия-инфinitива..

Ключевые слова. Грамматика, синтаксис, морфология, части речи, группы слов, категория владения, категория согласия, синтаксический анализ, специализация, быть-не быть.

Abstract. This article describes the scientific-theoretical description of the grammatical forms characterizing the current Uzbek word groups to perform syntactic tasks, in particular, the categories of possession, agreement, inclination and participle-infinitive.

Keywords. Grammar, syntax, morphology, parts of speech, word groups, category of possession, category of agreement, syntactic analysis, specialization, to be-not to be

Kirish. Tilshunoslikning morfologiya bo‘limi so‘zlarni tarkumlarga ajratib o‘rganadigan bo‘lim hisoblanadi. O‘zbek tilida 12 ta so‘z tarkumi mavjud. Ular uchta katta bo‘limiga ajratish orqali tasnif etiladi: Mustaqil so‘z tarkumlari, yordamchi so‘z tarkumlari, oraliq so‘z tarkumlari (alohida olingan so‘zlar tarkumi). Mazkur guruhlanish so‘zlarning anglatadigan predikativ ma’nosи, so‘roqqa javob bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi bilan xarakterlanadi. Har bir turga kiradigan so‘zshakllarning umumiy hamda xususiy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, birorta vazifa bajarish nuqtayi nazaridan farqlanib qolish holati ham sodir bo‘ladi. Bir so‘z morfologik sathda bitta tarkumga oid bo‘lsa, sintaktik sathda boshqa xususiyatni kasb etishi mumkin. Bu esa ikkala bo‘limning integratsiyasini hosil qiladi, so‘zlarning vazifa imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanligini anglatadi.

So‘z tarkumlarining gap bo‘laklariga ixtisoslashuvi masalasi o‘zbek tilida qadimdan

mavjud bo‘lib, bu so‘zlarni tarkumlarga ajratish nazariyasining ilk davrlariga borib taqaladi. Bugungi kunda ham ushbu aralashuv mavjud bo‘lib, yuqorida keltirilgan so‘z tarkumlarining barchasi ham, o‘z navbatida, sintaktik vazifa bajarishi yoki bajarmasligi mumkin. So‘z tarkumlarining sintaktik vazifa bajarishini quyidagi tartibda belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan so‘z: undov, modal, so‘z-gap.

2. Gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan so‘z: fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh.

3. Sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘z: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.¹

Ma’lum bo‘ladiki, alohida olingan so‘zlar gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular tilshunoslikda gap bo‘laklari bilan aloqaga

1 Zamonaviy o‘zbek tili. / mas’ul muharrir R.Sayfullayeva. – Toshkent, 2008. 522 b. – B.440.

kirishmaydigan birliklar sifatida qaraladi. Chunki ular hech qanday so‘roqqa javob bo‘lmaydi, anglatadigan ma’nosи ham o‘ziga xos.

Mustaqil so‘z turkumlari mustaqil ma’no anglatadi, so‘roqqa javob bo‘ladi va ana shu xusisiyatlaridan kelib chiqib, gap bo‘lagi vazifasini ham bajaradi. So‘z turkumlariga xos bo‘lgan bir qancha kategoriyalar ham mavjudki, ular orqali ma’lum so‘z sintaktik vazifa bajaradi. Egalik kelishik, shaxs-son, zamon, mayl, ko‘plik kabi kategoriyalarning asosiy vazifasi sintaktik kategoriya sifatida namoyon bo‘lishidadir. Quyida har bir kategoriya xos bo‘lgan xususiyatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Egalik kategoriyasi. Shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog‘liqlikda mavjud bo‘luvchi mazkur kategoriya bir vaqtning o‘zida ham shaxsni, ham sonni ifodalarydi. Shaxs-son ma’nosini ifodalashga kishilik olmoshi moslashgan. Egalik kategoriyasi orqali shakllangan sintaktik burtunlik mazmun jihatdan turli-tuman bo‘ladi. Ushbu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noqaniqlik, so‘zning kelishiklar bilan ifodalanishi, so‘zning semantikasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yuragim so‘zshakli matn tarkibida ikki xil ma’noda kelishi mumkin: yuragimni ezdim, yuragingni ezding. Shu sababli ham egalik kategoriyasiga tegishli bo‘lgan sintaktik xususiyati, albatta, so‘zning semantic mohiyati bilan aloqador. Grammatik jihatdan so‘zning sintaktik xususiyati birlamchi bo‘lib u anglatgan ma’nolari yondosh va hamroh ma’nolar hisoblanadi. Bu o‘rinda “shaxs-son” ma’nosи egalik uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial ma’no sanaladi.

Egalik kategoriyasining sintaktik xususiyati ketma-ket kelgan ikki so‘zning biri oldin ifodalagan yoki ifodalamagan mustaqil so‘zga nisbatan aloqa hosil qilishidadir. Bundan tashqari, egalik kategoriyasi qaratqich va bosh kelishiklari bilan uzviy bog‘liqlikda ish olib boradi.egalik qo‘shimchasi bilan shakllangan so‘z qaratqich yoki bosh kelishik shaklida bo‘lishi mumkin:

- Mening uyim, uyning tomi;
- Yoz vaqtি, iyun oyi, ish kuni;

Ba‘zi holatlarda esa bosh kelishik shakli qaratqich kelishigi shaklida ifodalanishi ham mumkin bo‘ladi. Tilshunoslar bu borada quyidagicha tasnifni ilgari surishadi:

Egalik ma’nosи uch xil usul bilan ifodalanadi:

1. Morfologik usul. Bunda egalik ma’nosи egalik shakli bilan ifodalanadi, ammo qaratuvchi so‘z keltirilmaydi: kitobim, o;qiganing, taq-tuqi.

2. Morfologik-sintaktik usul. Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklida bo‘ladi: mening kitobim, sening o‘qiganing, bolg‘aning taq-tuqi, gulning qizili.

3. Sintaktik usul. Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklisiz bo‘ladi: bizning uy, bizning ko‘cha.²

Egalik kategoriyasining sintaktik vazifa bajarishi jarayonida ayrim so‘zlar tarkibida yo‘qolib ketadi, masalan, kechasi, qaysi kabi. U barcha so‘z turkumlari uchun umumiy kategoriya sanaladi. Quyida egalikning bir necha so‘z turkumlarida voqelanishiga misollar keltiramiz:

Egalik kategoriyasining fe’lda voqelanishi. -gan sifatdoshi shaklidagi qurilma bilan birgalikda voqelanadi: Uning degani, bizning kelganimiz, do‘sstarimizning yozganlari; egalikdan oldin -lik substantiv shakl yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish bilan: otaning kelganligini. Bunday so‘zlar, odatda, gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi; ikkinchi qismi harakat nomi bo‘lgan qurilma bilan: Dushman samolyoti o‘q yog‘dirib turishiga qaramasdan, hammasi ro‘yobga chiqishiga, qalb boshqacha hissiyot bilan tepinishiga hayronman. Ushbu jumlada qo‘llanilgan turishig qaramasdan – to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

Egalik kategoriyasining otda voqelanishi. Ot so‘z turkumida egalik qo‘shimchalarining ifodalanishi ikki holatda amalga oshadi.

² Zamonaviy o‘zbek tili. / mas’ul muharrir R.Sayfullayeva. – Toshkent, 2008. 522 b. – B.387.

1. Qo'shimcha bir so'zni boshqa so'zga bog'lashga xizmat qiladi, bu holatda egalik qo'shimchasini olgan so'z o'zidan oldin kelgan so'zda qaratqich kelishigi kelishini talab qiladi, masalan, mening do'stim, uning onasi, bizning uyimiz. Bunday holatda egalik qo'shimchasini olgan so'z gap tarkibida ega yiki kesim bo'lib keladi: Mening husnixatim hammanikidan chiroyli; Bizning maqsadimiz – kelajagi buyuk davlat qurish. 2. Egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigini talab qilmaydi: Ro'dakiy ko'chasi, Urgut tumani, kechasi.

Egalik kategoriyasining sifatda voqelanishi. Egalik qo'shimchalarsi sifatni boshqa so'zga bog'lash, bir holatga mansublik, xoslik ma'nolarini berish uchun ishlataladi. Bunday bog'alish orqali turli-tuman semantic ma'nolar hosil bo'ladi: gullarning chiroylisi, o'quvchilar nodoni. Ega va kesimga xoslanuvchi bunday so'zlar gapning turli o'rinnarida kelishi mumkin, kelishik qo'shimchalarining olishiga qarab gapda ega, kesim, to'ldiruvchi kabi bo'laklar vazifasida keladi.

Egalik kategoriyasining sonda voqelanishi. Bu jarayonda egalik qo'shimchasini olgan so'z qaratqich kelishinini olgan so'z bilan birikadi: kitobning ikkitasi, jamoaning o'ntasi. Ba'zi holatlarda esa chiqqish kelishigidagi so'z bilan kelishi ham mumkin: taomlardan uchtasi, gullardan beshtasi.

Kelishik kategoriyasining sintaktik ahamiyati. Kelishik kategoriyasi morfologiyada ham sintaksisda ham muhim kategoriya bo'lib, uning asosi grammatik vazifasi bir so'zni ikkinchisiga bog'lashdir. Kelishik qo'shimchalari so'zlarni turlash vositasi hisoblanib, ularni gap bo'laklariga xoslovchi asosiy kategoriya sanaladi. O'zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo'lib, quyida ularning har biri sintaktik xusisiyatlariga qisman to'xtalib o'tishga harakat qilinadi.

Bosh kelishik vazifasi. Bosh kelishik shaklidagi so'z gapning tarkibida tobe so'z, istalgan gap b o'lagi, so'z yoki gap kengaytiruvchisi bo'lib kela oladi. Masalan: Ota eng ulug'zotdir; ushbu kelishikning

asosiy sintaktik vazifasi gap tarkibida bir so'zni ikkinchisiga bog'lashdir. Yuqorida kesim vazifasida kelgan bosh kelishikka misol keltirildi va bu misollarni ko'plab davom ettirish mumkin: men – talaba, onam – o'qituvchi. Bir qancha tilshunoslar tomonidan ushbu holatga quyidagicha munosabat beriladi: Kesimda bvosh kelishikni qidirish mantiqsiz, chunki, a) kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab bo'lsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas; a) kelishik kategoriyasi umumturkiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha muistaqlil so'zda kelishikni qidirishga to'g'ri kelgan bo'lar edi; v) kelishik kategoriyasining asosiy mohiyati oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash ekan kesin eng oxirgi so'z bo'lib, undan keyin bog'lanadigan birlik yo'q; g) ayrim tadqiqotlarda bosh kelishik ma'nosini vazifasi kuchsizlanishi aytildi. Aslida bunday kuchsizlanish shu darajadaki, kelishik mohiyati mutlaqo voqelanmaydi. Bu esa pozitsiyada kelishikni qidirmslikni taqozo qiladi.³

Bizningcha, bosh kelishigidagi so'z kesim bo'lib kela oladi. Chunki so'zni kesimlikka xoslovchi shakllar borli, ular belgili va belgisiz shakllarda qo'llanilib, so'zga kesim ifodalaydigan hukmni beradi. Masalan, "Mening ona shahrim – Samarqand" gapida Samarqand so'zi o'rein-joy oti bo'lib, bosh kelishikda ifodalangan. Unda kesimga xos hukm, xoslanish mavjud. Unda -dir kesimlik shakli qo'shilsa ham, qo'shilmasa ham sezilib turadi. shu sabab, bosh kelishikdagi so'z kesim vazifasida kela oladi, deyish mumkin.

Qaratqich kelishigi vazifasi. Ushbu kelishik gapda uch xil shaklda qo'llanadi: daraxtning bargi, mening onam, qoshin qarosi. Qaratqich kelishiga gapda, ko'pincha, aniqlovchining qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: Onamning sochlari silab o'tirsam. Ba'zi hollarda gapning semantikkasidan kelib chiqib, kesim vazifasida kelishiga ham guvoh bo'lamiz, bu badiiy uslubga xos holat: Vatan, to

³ Zamoravii o'zbek tili. / mas'ul muharrir R.Sayfullayeva. – Toshkent, 2008. 400 b.



tanda jonio bor, Seningdirman, seningdirman!

Tushum kelishigi vazifasi. Tushum kelishigidagi so‘zlar, asosan, fe’l so‘z turkumiga bog‘lanadi. Fe’l tushum kelishigining qo‘llanilish-qo‘llanilmashlik holatiga ko‘ra o‘timli/o‘timsiz turlarga bo‘linadi. Tushum kelishigi, ko‘p holatlarda, bosh kelishik bilan o‘rin almashadi, shunday bo‘lsa-da, gapdagi vazifasi o‘zgarmasdan qoladi: Madina asarni o‘qidi – Madina asar o‘qidi.

Gapda tushum kelishigi bilan shakllangan so‘z to‘ldiruvchi vazifasida keladi: Mana, bir umrni yashadim sensiz, qaytmas shodliklarning qaytishin kutib. (Zulfiya) Tushum kelishigining belgili/belgisi qo‘llanilishi uslubiyat bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha, badiiy matnlarda kelishik qo‘srimchasining qisqargan shakli qo‘llanadi.

Jo‘nalish kelishigi vazifasi. Yo‘nalganlik, xoslik va tenglashtirish -ga (-ka, -qa) jo‘nalish kelishik qo‘srimchasinin asosiy mazmijnidir. Jo‘nalish kelishigi gapda hol va to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Bir so‘zni ikkinchi so‘zga vosita ma’nosida bog‘lasa, to‘ldiruvchi: Do‘stimga kitob sovg‘a qildim; o‘rin joyga yo‘nalganlik ma’nosida kelsa, o‘rin holi vazifasida keladi: ukam darsdan chiqib uyga ketadi. Jo‘nalish kelishigi badiiy matnda -g‘a ko‘rinishida ham kelishi mumkin: Oltin qafas ichra, gar qizil gul butsa, bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish. (A.Navoiy)

O‘rin-payt kelishigi. Bir so‘zni keyingi so‘zga hol va to‘ldiruvchi gap bo‘lagi shaklida bog‘lashga xizmat qiladi. -da qo‘srimchasi yo‘nalganlik va o‘rinlashganlik ma’nolarida keladi. Qolaversa, o‘rin-payt kelishigi zamon, makon, vosita, obyekt ma’nolarini ham ifodalaydi. Mana shu mazmuniga ko‘ra so‘zlarni gap bo‘lagiga xoslantiradi. Masalan, Menda imkoniyat yetarli; Uyga mashinada keldim (vosita); men uyg‘organimda, hech kim yo‘q edi (payt). Hammasi muqaddas kitoblarda yozib qo‘yilgan (zamon), ko‘chada yomon odamlar ko‘p deyishadi.(makon).

Chiqish kelishigi vazifasi. -dan affiksiga ega bo‘lgan chiqish kelishiga gap tarkibida hol,

to‘ldiruvchi, ega, kesim vazifalarida keladi. Albatta, gap bo‘laklariga xoslanishda semantik mohiyatdan yiroqlashib bo‘lmaydi. Faqatgina ega va kesim vazifasida kelgan chiqish kelishigining mohiyati yuzga chiqmagandek bo‘ladi. Masalan: Menda bunday narsalardan ko‘p; Kasalligining sababi notozaligidan. Uyalganidan gapira olmadi; Otamdan qolgan eng buyuk xazina – tarbiya!

Unutmaslik kerakki, chiqish kelishiga, ba’zi o‘rinlarda, tushum kelishigi bilan o‘rin almashishi mumkin. Bu holat semantikada namoyon bo‘ladi: oshdan yeng – oshni yeng, choydan iching – choyni iching. Bunday vaziyatda gapning ma’nosig aalohida e’tibor berish kerak. Birinchi gapda butunning qismi, ikkinchisida butunning hammasi tushuniladi. Shunga qarab, gapdagi vazifasi ham o‘zgarib boraveradi.

Kesimlik kategoriyasi. O‘zbek tilshunosligida kesimlik kategoriyasi gap ma’lum turkumga doir bo‘lgan so‘zlarni gap bo‘lagi sifatida shakllantiradi. Asosiy xususiyati shundaki, u so‘zni kesimga xoslaydi. Kesimlik kategoriyasini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarga quyidagilar kiradi: tasdik/inkor ma’nos;

mayl-munosabat ma’nos;
zamon ma’nos;
shaxs ma’nos;
son ma’nos.

Kesimlik kategoriyasini tashkil qiluvchi birliklarning asosiy vazifasi kesimni shakllantirish hamda uni gapning egasi va xol bilan boglash. Quyida ularning har biriga alohida toxtalib otishga harakat qilamiz.

Tasdik-inkor kategoriyasi kesimdan anglashilgan fikrning tasdik yoki inkorini ifodalaydi. Ushbu kategoriyaga xos semantik mazmunni morfologik bo‘lishli/bo‘lishsizlik bilan o‘zaro farqi va mushtaraklik kasb etishini anglash lozim. Tasdik-inkor ma’nosini ifodalashda bir qancha birliklar ishtirot etadi, tasdiqni ifodalashda nol shakl (tasdiq), inkorni ifodalashda esa -ma bolishsizlik shakli, emas, na yordamchi, yo‘q mustaqil so‘zi (inkor)

ishtirok etadi. Misol: Erta tongdan yomg'ir yog'a boshladi. (bo'lishli), Onam jahl bilan aytgan sozlarimni hazm qilolmadi (-ma bo'lishsizlik shakli bilan). Na otasi, na onasi uni ko'ndirolmadi. (na yordamchi sozi bilan). Mening sendan hech qanday umidim yo'q (mustaqil so'z bilan).

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini tasdiq-inkor kategoriyasidan farqi mavjud. Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo'lishsizlik shakli bo'lgan -ma ko'rsatkichining o'rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa grammatik shakldek ko'p vazifalidir. U gap kesimi tarkibida gap kesimini shakllantirish vazifasini bajaradi. Mazkur kategoriya birligining qo'llanilishi natijasida so'z kesimga xoslanadi, biroq kelishik va egalik qo'shimchalarining qo'shilishi natijasida boshqa gap bo'lagi vazifasini ham bajarishi mumkin bo'ladi. Misol: Umrim davomida bunday gozallikni kormaganman. (kesim).

Mayl kategoriyasining asosiy vazifasi kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etishdan iborat. Xabar, shart, maqsad va buyruq-istik maylliari orqali sozlar kesimga xoslanadi. Masalan: bordim, boryapman, boraman (xabar mayli); kelsam, kelsang, kelsa, kelsangiz, kelsalaringiz, kelsangizlar (shart mayli); boray, aytgin, kelsin, olaylik (buyruq-istik mayli); olmoqchiman, olmoqchisan, olmoqchi, olmoqchimiz, olmoqchisiz, olmoqchilar (maqsad mayli). Keltirilgan barcha so'zlar gap tarkibida kesim vazifasida keladi.

Zamon kategoriyasi kesimni shakllantirish vositasi sifatida nutq sozlab turilgan vaziyatdan anglashilgan voqelikning unga bolgan munosabatini ifodalash vazifasini bajaradi. Bu holatda uchta zamon munosabati mavjud bolib, ularning har biri kesimlik tarkibida keladi. Jumladan, o'tgan zamon shakli hozirgi ozbek adabiy tilida -di (keldim, kelding, keldi), gan (kelganman, kelgansan, kelgan), -(i)b- (kelibdi, kelibsan, kelibdi); edi/ekan/emish (kelgan

edim, kelayotgan edi, kelgan eding) shakllarida keladi. Hozirgi zamon shakli haraktning nutk momentida yuz berayotganligini, davomiylilikni, tugallanmaganlikni ifodalab yap-, yotib, -yotir, -moqda affikslari bilan keladi. Uslubiyat jihatidan -yapti hozirgi ozbek adabiy tiliga va sozlashuv uslubiga xos, -yotib hamda -yotir qoshimchalari eski ozbek tiliga xos bolgan fellarga qoshilgan holda kesimni hosil qiladi. Kelasi zamon shakli nutk momentidan keyin yuz beruvchi xarakatni ifodalab, -a, -i; (Yaxshi kunlar keladi); -(a)r/ mas (Balki zavod kurish uchun ovora bulishga tugrn kelmas), (Shu atrofda yurgandir, kelib qolar) affikslari orkali ifodalananadi.

Shaxs-son kategoriyasi, bog'lamalar ham kesimlik kategoriyasi sifatida eganing mohiyati va vazifasini aniqlash orqali kesimini shakllantirishda ishtirok etadi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumida ifodalaniishi. Ushbu kategoriya otso'z turkumida qo'llanilganida zamon ko'rinishlarini hosil qiladi. Masalan, hozirgi zamon: talaba+man – Men talabaman. talaba+san – Sen talabasan. talaba+0 – U – talaba (-man, -san, -miz, -0, -lar kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: ishchi emasman, ishchi emassan. Egaga urgu berilganda, kesimlikning barcha ma'nosini nol shakl orqali ifodalananadi); o'tgan zamon: talaba+edik, talaba+edingiz, talaba+edi(lar); kelasi zamon: talaba+bo'l – talaba bo'laman, talaba bo'lasan, talaba bo'ladi. Unutmaslik kerakki, bo'l fe'li otga qo'shilib, uchchala zamonni ham ifodalashi mumkin.

Xullas, ot so'z turkumiga xos so'zlar kesimga bog'lamalar orqali xoslanadi. Boglamaning vazifasi esa kesimlikka moslashmagan so'zlarni yuzaga chiqaradi. Gapda to'liqsiz fe'llar, bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq so'zlar bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining sifat turkumida ifodalaniishi. Kesimlik shakllari sifatga qo'shiulganda ham o'z imkoniyatini to'liq namoyon eta olmaydi. Bu holatda ham uch zamon ko'rinishini hosil qiladi:

Hozirgi zamon: siznfa a'lochisi+man, sinfda a'lochisi+san, sinfda a'lochi+0; o'tgan zamon: sinfda a'lochi+edik, sinfda a'lochi+edingiz, sinfda a'lochi+edi(lar); kelasi zamon: sinfda a'lochi+bo'laman; sinfda a'lochi+bo'lasan, sinfda a'lochi+bo'ladi.

Kesimlik kategoriyasining son turkumida ifodalaniishi. Mazkur holatda ham kesimlik shakli to'liq imkoniyati darajasida ifodalana olmasa-da, zamon shakllarini9 ifodalashini ko'rish mumkin. Masalan, hozirgi zamon: o'qishda birinchisiman, o'qishda birinchisisan, o'qishda birinchisi; o'tgan zamon: ishga kirganlarning birinchissi bo'ldik, ishga kirganlarning birinchisi bo'ldingiz, ishga kirganlardan birinchisi bo'ldi(lar). Kelasi zamon: har ishda birinchi+bo'laman, har ishda birinchi+bo'lasan, har ishda birinchi+bo'ladi.

Tilshunoslikda so'z turkumlarining ko'chishi hodisasi transpozitsiya deb ataladi. Transpozitsiya biror turkumga mansub bo'lgan so'zning o'ziga xos atash hamda grammatic ma'nosini biroz kuchsizlantirib, boshqa bir so'z turkumiga xos bo'lgan semantic, sintaktik belgiga ega bo'l;ishini ta'monlaydi. Tillar nuqati nazaridan qaraydigan bo'lsak, aynan turkey tillarda so'z turkumlarida qat'iy chegara mavjud emas. Har bir so'z turkumlari bir-biri bilan aloqador bo'lib, umumiyl sintaktik butunlikni tashkil etadi.

Mustaqil so'zlar orasidagi o'zaro

munosabat va uning bir-biriga ko'chishi leksema sememasidagi evolyutsion taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko'chishning nutqiy va lisoniy lashgan ko'rinishi farqlanadi. Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalanadi. Masalan, Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil gapida son turkumiga mansub bir so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi, nutqiy hodisa. Lisoniy ko'chishda so'z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi, ya'ni transpozitsiya hodisasi yuz beradi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so'zlar orasida, hatto mustaqil va yordamchi soz orasida ham kuzatiladi. Masalan, o'zbek tili grammatikasida son turkumining tasnifiy belgisi sanalar ekan, predmetning sanog'i, tartibini bildirishi, qancha?, nechta?, nechanchi? So'rog'idan biriga javob bo'lishi, ot turkumiga mansub so'z bilan erkin aloqada bo'lishi va gapda, asosan, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishi ta'kidlab o'tiladi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan har bitta kategoriya ma'lum turkumga doir so'zlarni shakllantirib ularni sintaktik vazifa bajarishga undaydi. Aynan ana shu xususiyatlari uchun ham ularni kesimga xoslovchi birliklar sifatida qaraladi. Bu haqidagi mulohazalarni uzoq davom ettirish mumkin, biroq ishning hajmi bunga to'sqinlik qiladi. Kelgusi tadqiqotlarni ularning batafsilroq tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. E.Fozilov. O'zbek tilining tarixiy morfologiysi. – Toshkent: Fan, 1965. 175 b. – B.9.
2. M.Mirtojiyev. Gap bo'laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. – Toshkent: Universitet, 2008. 208 b. – B.10.
3. Zamoniaviy o'zbek tili. / mas'ul muharrir R.Sayfullayeva. – Toshkent, 2008. 522 b. – B.400.;
4. Ж.Элтазаров. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши./ Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент – 2007. – Б.14.
5. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. т. I-II. М.:Учпедгиз, 1958, с.15;
6. Тошкент, 2008. -176 б; N. Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatisasi (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 228 b. – B. 4.

MAKTAB TA'LIMI JARAYONIDA DEVIANT XULQLI O'QUVCHILARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASH IMKONIYATLARI

USMONOV ABDURASHID NORBO'TAYEVICH.

**Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarning uzlusiz kasbiy rivojlanishi, o'quvchilar orasida uchrayotgan deviant xulqli bolalarni aniqlash va ularni mehnat orqali tarbiyalash, ta'sir etuvchui omillar va muammolar haqida so'z boradi. Xususan, uzlusiz kasbiy rivojlanishda pedagoglarni deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirish, bu borada ularni ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash hamda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili yuzasidan batafsil fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: kasb standarti, kompetensiya, komunikativlik, deviant xulq, kasbiy rivojlanish, shaxsiy resurslar, boshqaruv, ilmiy izlanish, ilmiy tadqiqotlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Ta'lif to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlarda ta'lif va tarbiya jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilingan.

O'quvchilar orasida deviant xulqni oldini olish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi va bugungi kunda sotsiologiya, kriminologiya, pedagogika, psixologiya, psixiatriya, narkologiya, deviantologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning doimiy tadqiqot muammosi hisoblanadi.

Mazkur masala dolzarb ijtimoiy muammo sifatida yoshlar o'rtasida deviant xulqni oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi ijtimoiy dastur ishlab chiqish va bunda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'limiylar va sog'liqni saqlashga doir ustuvor vazifalarni aniq belgilash hamda amalga oshirishni taqazo etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy ta'lif-tarbiyaning tarixiy ildizlari – ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan o'lmas asarlar bizga beba ho manba bo'lib xizmat qiladi. O'rta Osiyoda iqtisodiy fikrlarning shakllanishi buyuk ensiklopedist-allomalar va

mutafakkirlar – Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalarning nomi bilan uzviy bog'liq.

Ular o'z asarlarida mehnatning ijtimoiy taqsimotiga katta o'rin ajratishgan. Forobi boyliklarni insonning ishlab chiqarishda ishtirokiga qarab adolatli taqsimlash tarofdori bo'lgan, urush va qullikni qoralagan, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan¹.

Abu Rayhon Beruniy inson ehtiyojini faqat pul, mol-dunyo bilan emas, balki mehnat, izlanish, yaratish, qurish, bunyod qilish, ilm olish, bilish orqali qondirish lozimligini e'tirof etadi.

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» (Saodatga eltuvchi bilim) asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib shunday yozadi: «Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo'lsa, iqtisodni yaxshi o'zlashtirsa, otonanong yuzi shunchalik yorug' bo'ladi».²

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiyning iqtisodiy g'oyalari uning «Chor devon»

1 Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: «А.Қодирий» нашириёти, 1993 й.

2 Юсуф. Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Т.1992 й.

«Hamsa», «Mahbub ul-qulub», «Vaqfiya», «Munshaot» va boshqa asarlarida o‘z ifodasini topgan³. Uning fikricha, mehnat - jamiyatning asosiy belgisi, uni ishlab chiqaruvchilar rivojlantiradi. Shuning uchun ularga ortiqcha soliqlar solinmasligi, savdo-sotiqning rivojlanishi uchun bozorlardagi mahsulotlar bahosi me’yorida bo‘lishini ta‘minlash lozim. U jamiyat boyligining manbai mehnat deb hisoblaydi va soliqlarni oshirishga qarshi chiqadi, moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash, savdo-sotiqni rivojlantrish tarafdori edi. A.Navoiyning fikricha, adolatli iqtisodiy siyosat feodal jamiyatidagi qiyinchiliklar, ziddiyat va muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining buyuk «Tib qonunlari» asarida iqtisodiy tarbiya haqida so‘z yuritib, bola tarbiyasida mehnatning ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. Barcha boyliklar halol mehnat bilan orttirilishi, otanolar o‘z farzandlarini kasb-hunarga o‘rgatishi va undan olingan daromad orqali halol yashash kerakligini aytadi. «Agar oila boshlig‘i, – deydi Ibn Sino, – tajribasizlik yoki nohaqlik qilsa, u oila a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va uning oqibatida bundan-da yomon natijalar kelib chiqadi». Uning fikricha, bola tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘ysa, oila baxtli bo‘ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning aksariyati jinoyatchilarning shaxsi, dastlab tarbiyasizlik oqibatida shakllanishini ko‘rsatmoqda. Tarbiyasi og’ir o‘quvchi axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj bo‘lgan shaxsdir. Uni axloqan tuzatish va tarbiyalash jinoyatchiga aylanishining oldini olish, shuningdek, jamiyat bilan normal aloqalarini tiklash, unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida

amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan huquqbazarlik va jinoyat qilishga moyil o‘quvchilar mehnatini qayta tiklash muammolarini o‘rganishning nazariy asoslari N.K. Krupskaya mehnat ta’limida; K.D. Ushinskiy mehnatning ijtimoiy tabiat, insonning erkin, ijodiy mehnatida, mehnat maqsadlarida ta’limning maqsadi sifatida uyg‘un rivojlanishi; tuzatuv pedagogikasi qoidalari V.P. Kashchenko; S.T. Shatskiy erkin mehnat to‘g’risidagi, A.S. Makarenko va V.A. Suxomilinskiy jamoada shaxsning ta’lim olishiga bag’ishlangan.

Bolalar va o‘uvchilarning mehnat ta’limi va politexnika ta’limi masalalari bir qator mualliflarning zamonaviy tadqiqotlariga bag’ishlangan: P.R. Atutov, S.I. Batysheva, E.A. Klimov; turli faoliyatlar uchun motivasiyani o‘rganish muammolari – A.A. Reana, K.Zamfir, A.Ye. Golomshtok va boshqalar; jismoniy va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar va o‘quvchilarni reabilitasiya qilish muammolari – Yu.A. Blinkova, S.A. Ignatiyeva, N.K. Gorshunova va boshqalar.

Biroq milliy pedagogika klassifikatsiasi tomonidan amalda tatbiq etilayotgan, mehnat ta’limi va bolalar va o‘quvchilarni tayyorlash bo‘yicha nazariy rivojlanishlarning mavjudligiga qaramasdan, mehnat ta’limi muammozi bo‘yicha zamonaviy nazariy tadqiqotlar, ijtimoiy reabilitasiya markazida xavf ostidagi o‘quvchilarni mehnatni reabilitasiya qilish masalalari mustaqil tadqiqotlar mavzusi emas edi, bu ijtimoiy reabilitasiya markazida xavf ostida bo‘lgan o‘quvchilarning mehnat reabilitasiysi masalasini ko‘rib chiqishga sabab bo‘ladigan pedagogik muammo.

Ushbu masala bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilish, mintaqaviy institatlarda xavf ostidagi o‘quvchilar mehnatini qayta tiklash jarayonini tashkil etish amaliyotini o‘rganish va muammoni pedagogik tushunish bilan quyidagilar orasida bir nechta qarama-qarshiliklar mavjud:

–reabilitasiya jarayonining samaradorligini

³ Алишер Навоий ўн томлик асарлар тўплами. F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2011 йил.

ta'minlaydigan mehnatni, xavf-xatarga chanqoq bo'lgan va noaniq pedagogik sharoitda kompleks reabilitasiya zarurati;

- ijtimoiy reabilitasiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'quvchilar uchun mehnatni reabilitasiya qilish tizimining yo'qligi va xavfli o'quvchilar bilan maqsadli ta'lim va reabilitasiya ishlarini olib borish zarurligi;

- ijtimoiy reabilitasiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'quvchilar mehnatini qayta tiklash amaliyoti va mehnatni reabilitasiya qilish jarayonida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarning ruhiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashi va ko'maklashishining kamligi;

- mehnatni reabilitasiya qilish jarayonida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarga alohida yondashuv va mehnatni reabilitasiya qilishning umumiyligini tarkibi, shakllari va usullarini qo'llashning zaif munosabati.

- mehnatni reabilitasiya qilish jarayonida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarga alohida yondashuv va mehnatni reabilitasiya qilishning umumiyligini tarkibi, shakllari va usullarini qo'llashning zaif munosabati. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy reabilitasiya markazida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarni mehnatni reabilitasiya qilish muammosini ro'yobga chiqaradi: xavf ostidagi o'quvchilarni mehnatni reabilitasiya qilishning strategik maqsadlarini amalga oshirish yo'llari va ularni o'z-o'zini boshqarish. Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va bu muammoning dolzarbligi ilmiy maqola mavzusini tanlashga olib keldi:

«Ijtimoiy reabilitasiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarni mehnatga jalb qilishning pedagogik shartlari».

Ijtimoiy reabilitasiya markazlarida xavfli o'quvchilar mehnatini qayta tiklash muammosini nazariy jihatdan o'rganish ushbu ilmiy maqolaning gipotezasini ishlab chiqishga imkon berdi: erta yoshdagi bolalarni mehnatni qayta tiklash o'quvchilikning jismoniy va ruhiy funksiyalarini qayta tiklash, sotsializasiyaga yordam berish, ularni maxsus tashkil etilgan

pedagogik sharoitlarda munosib ish faoliyatiga jalb qilish orqali amalga oshirishdir.

Mehnatni qayta tiklash quyidagi hollarda samarali bo'ladi:

- ijtimoiy reabilitasiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarning mehnat reabilitasiyasi jarayoniga dastur-diagnostika yondashuvi taqdim etiladi;

- mehnatni reabilitasiya qilishning mazmuni, shakllari va usullarini takomillashtirish;

- mehnatni qayta tiklash jarayonida xavf ostida bo'lgan o'quvchilarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash.

Mehnat vositasida tarbiyalash – hulqida og'ishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishslashning asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy yoshlarning katta qismida ko'pincha ishslashni xohlamaydigan, atrof-muhitga nisbatan iste'molchi munosabatda bo'lish singari ong shakllangan, shuning uchun o'quvchini mehnatga tayyorlash va ularning samarali faoliyati zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu, ayniqsa, tarbiyasi og'ir o'quvchilar uchun muhimdir. Ular uchun, mehnat faoliyati juda ko'p ta'lim va tarbiyaviy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan, shu jumladan, kollektivning shaxsga bevosita ta'sir qilish bilan bog'liq jarayon bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy ehtiyojlarning kengayib borishi o'quvchilarni oila va maktab kabi yetakchi institatlardan begonalashishiga olib keladi.

Yoshlar kattalar bilan yaqin aloqada bo'lishlari kerak, faqat tengdosh bilan aloqa zarur munosabatlarning butun doirasini ta'minlay olmaydi, shuning uchun u ish jarayoni kattalar bilan haqiqiy aloqalar o'rnatish imkoniyatini yaratadi, natijada o'quvchilik davrida ularlarning yashashi uchun ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xatti-harakatlar shakllanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda deviant o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi uchun zarurdir.

Shundayqilib, jamiyatnijitimoiy rivojlanish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning xatti-harakatlariga maqsadli ta’siri bilim faoliyati va shaxsning mehnat faoliyati shakllarini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Deviant xulqli o‘quvchilarni tarbiyalash, muammosining yechimini topish, o‘rganish, tahlil qilish, so‘rovnomalar asosida ehtiyojlarni aniq o‘rganib pedagoglarni malakasini oshirish jarayonida muammolarga yechim topish masalasini ilgari surish bugun muxim muammo sifatida qaralmoqda. O‘quvchilarda har xil yot g’oyalarga yetaklovchi qiziqishlar, xoxish istaklar, ularning tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi omillar mavjud ekani hyech kimga sir emas. Yoshlar o‘rtasida tarbiyaning salbiy qiyofalari, tarbiyasida og’ishishlar, xulq-atvorning meyyordan oshib ketishi, aqliy va

psixologik o‘zgarishlarning nomoyon bo‘lishi kelajak avlod uchun xavf-xatarni oshiradi. Yoshlar o‘rtasidagi tarbiyaning meyyor darajasida bo‘lmasligi va zamon talablariga mos, ota ona orzusidagidek farzand bo‘lish, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z ma’suliyatini chuqur anglab yetmas ekan pedagoglar ushbu muammoni dolzarb muammo sifatida qabul qilish hamda atroficha tahlil qilib, yechimini topish tuzatish masalasi kun tartibidan olinmasligi lozim.

Chunki yoshlarning qobilyati va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hozirgi zamonda jadal suratlar bilan sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, qolaversa mulkchilik shakllari va bozor munosabatlaridan kelib chiquvchi zaruriyatdir. Ana shu xususiyatlarni rivojlanтиrgan holda yoshlarni kelajakda mehnat bozorida raqobatlasha oladigan kadrlar etib tayyorlash mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017.
2. “Ta‘lim to‘g’risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O‘zbekiston, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent: «Adolat» 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017y., 39 – b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kura-shish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi PQ-2833-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 14 mart.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to‘g’risida»gi PF-5106-sonli Farmon. – Toshkent, 2017 yil 5 iyul’
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yetim bolalar va ota-onasining qaramog’idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida»gi Qarori. 2019 yil 11 fevral’. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2019 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi «Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat to‘g’risida»gi Nizom. – Toshkent, 2002 yil 1 avgust.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. BMT Bosh Assambleyasining «Bola huquqlari to‘g’risida»gi Konvensiyasi. – 1989 yil 20 noyabr.
12. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqka moyil o‘quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» nashriyoti. Toshkent. 2017. 320 bet.
13. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: «Ma’naviyat», 2013.
14. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Turopova M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: 2000.
15. Abdullayeva Sh.A., Ro’ziyeva G.A. Deviant xulqli yoshlar bilan profilaktik tadbirlar olib borish yo’llari // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2011. - №3.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MATEMATIK FANLARNI MODULLI O'QITISH TEKNOLOGIYLARI

RADJABOV B. SH.

**ChDPU "Matematika o'qitish metodikasi va geometriya" kafedrasi professori,
t.f.d.,**

MURODILAYEVA N.B.

**ChDPU Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika) mutaxassisligi
2-kurs magistri**

Annotasiya: Ushbu maqolada matematik fanlarni modulli o'qitishga o'tishning dastlabki bosqichlari ko'rsatib berilgan. Modulli metod o'zining strukturaviy tuzilishiga ko'ra asosiy didaktik tamoyillar – ilmiylik, sistemalilik, soddadan murakkabga borish, individuallashtirish va boshqalarni qamrab olgan . Oliy ta'lif muassasalarida matematik fanlarni o'qitishning metodik muammolari va uni modulli tarzda o'qitish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Kaliso'zlar: Modulli o'qitish, matematik model, oliy ta'lif matematikasi.

Modulli metod o'zining strukturaviy tuzilishiga ko'ra asosiy didaktik tamoyillar – ilmiylik, sistemalilik, soddadan murakkabga borish, individuallashtirish va boshqalarni qamrab olgan bo'lib, asosiy metodlardan yesa mavzuning strukturaviy tuzilishiga ko'ra - o'tilgan mavzudagi yangi mavzuga kerak bo'ladigan asosiy qonuniyatlar, faktlar, qoidalar, ta'riflar, mustaxkamlovchi, tasdiqlovchi fikrlar majmuasini, yangi mavzuga o'tish uchun yaroqli bo'lgan va yangi mavzuga uzluksiz o'tishni ta'minlovchi qoida-qonuniyatlarning darajasini ko'tarish, yangi mavzuni bayon qiluvchi asosiy richaglarni ajratish va ularni hammutanosiblikda ishlashini ta'minlovchi hususiyat va sifatlarni yaratish, yangi mavzuni ham sifat ham mazmun jihatdan to'ldirilgan turkumini misol va masalalar bilan to'ldirmasini joriy qilish va yaratish, yangi mavzuni rivojlantirib, kelgusida o'tiladigan mavzu darajasiga yetkazish, shu mavzu darajasida tekshirilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar tekisligini aniqlash, foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, hulosalash kabi bosqichiy bo'laklarning strukturaviy ham mazmuniy tuzilishi va uning amaliy ahamiyatini aniqlab beruvchi modulni

yaratilishi va ketma-ketlikni o'zida aks yetirgan talab va savollarni yaratilishi va ularni o'quvchilar yoshiga, bilim darajasiga, sinfi yoki kursiga qarab tayyorlangan bo'lislighi o'quvchilarga beriladigan bilimlar sistemasini yaratilishiga va undan unumli foydalanishga imkoniyat yaratib beradi [1,2].

Modulda keltirilgan savollar ketma-ketligi quyidagi shartlarni qanoatlantirishi ko'zda tutiladi:

- o'rganilayotgan mavzu asosiy tushunchalarini kiritishga yordam beruvchi avval o'rganilgan tushunchalarni takrorlash;
- yangi mavzu tushunchalari, tasdiqlarini soddadan murakkabga tomon xarakatlanishini ta'minlash;
- tushunchalar orasidagi o'zaro bir tomonlama va ikki tomonlama bog'lanishlarni yoritish;
- nazariy bilimlarning amaliy mohiyatini ochib berish;
- mazkur mavzuning talaba tanlagan kasbini yegallashidagi o'rni va kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini ochib berish;
- mavzuni imkon qadar to'liq qamrab olishilmiy, amaliy, o'z-o'zini nazorat;
- talabalarni nafaqat o'quv qo'llanmalari

balki ilmiy adabiyotlarga ham murojaat yetishga chorlash;

- talabalarni mustaqillikka, izlanuvchanlikka, ijodkorlikka da'vat yetish;

- talabalarda tartibli, sistemalashgan, izchil, muntazam, tabaqalashtirilgan bilimlar olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabalarning mantiqiy og'zaki va yozma nutqini kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirish.

Talabalar tomonidan modulga mustaqil tayyorgarlik ko'rish - modulga aniq javoblar topish, javoblarni tahlil qilish asosida aniq natijalar olishga o'zini tayyorlashi yuqorida qayd qilganimizdek, talabalarda har bir mavzu uchun mustaqil fikrni yuzaga kelishini va o'qituvchining bergen savollariga beriladigan javoblarni ham mantiqiy, ham matematik jihatdan ziyrak va ravon bo'lismeni ta'minlashda yoki shunday tafakkurni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb qiladi [3,4].

Modulli o'qitish metodi o'zining texnologik strukturasiga nisbatan talabada albatta ma'lum bir (10-12) qadamdan keyin mustaqil fikr yuritish sifatini tarbiyalashi bilan birgalikda, ma'lum ma'noda mustaqil ijod namunalarini yaratishda ham muhim ahamiyatga yegadir. Shuning uchun ham har bir modul o'zining strukturaviy tuzilishi bo'yicha qaysidir modulning davomi yoki qaysidir modulning boshlanishi bo'lishi yehtimoldan holi yemas. Bu uzviylik bevosita o'quvchilarda ham uzviylik, sistemalilik, soddadan murakkabga borish va boshqa ayrim sifatlarni tarbiyalaydi-ki, bu sifatlar o'quvchilarda o'ziga hos matematik iroda va qobiliyatni yuzaga keltiradi [3,4].

Matematikani modulli o'qitish texnologiyasining konseptual holatlari quyidagilarni tashkil yetadi:

1. O'quv jarayonini algoritmlash.

2. Modullilik prinsipi ya'ni ta'lim mazmunini tugallangan qismlarga ajratib strukturalash.

3. Tushunishning barcha bosqichlarida tugallanganlik va muvofiqlashganlik.

4. Nazariy materiallarni bloklarda

mustahkamlash.

5. Asosiy qoida-individuallashtirish va tabaqlashtirish.

6. Faoliyatli yondoshuv: faoliyatning barcha tuzilmalarini qo'llash
(maqsadli, rejali, tashkiliy, ishchanlik, natijani nazorat qilish va baholash).

7. Ko'p yoqlamali yondoshuv: talabalarning o'z – o'zini boshqarishi va o'z – o'zini rivojlantirishi.

8. O'qituvchi va talabaning hamkorlik prinsipi.

9. Modulda o'quv materialini deduktiv mantiq asosida berish: umumiylidandan xususiylikka o'tish.

10. Nazariy materialni uzliksiz o'rganish.

11. O'quv axborotini zichlashtirish (umumlashtirish).

Oliy ta'limda 1-kurslarga matematik analiz fanini quyidagi modullarga ajratib o'qitamiz:

1. Haqiqiy sonlar to'plami.

2. Sonli ketma-ketliklar.

3. Funksiya tushunchasi.

4. Funksiyaning limiti.

5. Uzliksiz funksiya va uning xossalari.

6. Asosiy yelementar funksiyalar.

7. Hosila va differensial.

8. Differensial hisobning asosiy teoremlari.

9. Hosila yordamida funksiyani tekshirish.

10. Aniqmas integral.

11. Rasional funksiyalarni integrallash.

12. Sodda irrasional.

13. Aniq integral.

14. Xosmas integral.

15. Aniq integralning tadbiqlari.

Yendi ba'zi bir modullarga doir misollar yechilishini ko'rib chiqamiz:

Aniqmas integral.

$\int (1 + \sqrt{x})^2 dx$ aniqmas integralni hisoblang.

$$\int (1 + \sqrt{x})^2 dx = \int (1 + 2\sqrt{x} + x) dx = x + \frac{4}{3}x^{\frac{3}{2}} + \frac{x^2}{2} + c.$$

Rasional funksiyalarni integrallash.

$\int \frac{dx}{x^2 - 1}$ ni hisoblang.

Integral ostidagi $\frac{1}{x^2 - 1}$ kasrni sodda kasrlarga ajratamiz:

$$\frac{1}{x^2 - 1} = \frac{1}{(x - 1)(x + 1)} = \frac{A}{x - 1} + \frac{B}{x + 1}$$

$$A(x + 1) + B(x - 1) = 1$$

$$Ax + A + Bx - B = 1$$

$$(A + B)x + A - B = 1$$

$$\begin{cases} A + B = 0 \\ A - B = 1 \end{cases}, A = \frac{1}{2}; B = -\frac{1}{2}.$$

$$\frac{1}{x^2 - 1} = \frac{1}{2(x - 1)} - \frac{1}{2(x + 1)}$$

$$\int \frac{dx}{x^2 - 1} = \int \left(\frac{1}{2(x - 1)} - \frac{1}{2(x + 1)} \right) dx = \frac{1}{2} \ln(x - 1) - \frac{1}{2} \ln(x + 1) = \frac{1}{2} \ln \frac{x - 1}{x + 1} + s.$$

Matematik modellashtirish aniq fanlardagi turli amaliy masalalarni yechishda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda. Matematik modellashtirish uslubi masalani xarakterlaydigan u yoki bu kattalikni miqdor jixatdan ifodalash, so'ngra bog'liqdigini o'rGANISH imkoniyatini beradi.

Uslug asosida matematik model tushunchasi yotadi.

Matematik model deb o'rGANILAYOTGAN ob'yektni matematik formula yoki algoritm ko'rinishida ifodalangan xarakteristikalarini orasidagi funksional bog'lanishga aytiladi.

Kompyuter ixtiro yetilganidan so'ng matematik modellashning ahamiyati keskin

oshdi. Murakkab texnik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni yaratish, so'ngra ularni kompyuterlar yordamida tatbiq yetishning xaqiqiy imkoniyati paydo bo'ldi. Yendilikda ob'yekt, ya'ni haqiqiy tizim ustida yemas, balki uni almashtiruvchi matematik model ustida tajriba o'tkazila boshlandi.

Kosmik kemalarning harakat trayektoriyasi, murakkab muhandislik inshootlarini yaratish, transport magistrallarini loyihalash, iqtisodni rivojlantirish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ulkan hisoblashlarning kompyuterda bajarilishi matematik modellash uslubining samaradorligini tasdiqlaydi.

Odatda, matematik model ustida hisoblash



tajribasini o`tkazish haqiqiy ob`yektni tajribada tadqiq yetish mumkin bo`lmagan yoki iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo`lmagan hollarda o`tkaziladi. Bunday hisoblash tajribasining natijalari haqiqiy ob`yekt ustida olib boriladigan tajribaga qaraganda juda aniq yemasligini ham hisobga olish kerak. Lekin shunday misollarni keltirish mumkinki, kompyuterda o`tkazilgan hisoblash tajribasi o`rganilayotgan jarayon yoki hodisa haqidagi ishonchli axborotning yagona manbai bo`lib xizmat qiladi. Masalan, faqat matematik modellashtirish va kompyuterda hisoblash tajribasini o`tkazish yo`li bilan yadroviy urushning iqlimga ta`siri oqibatlarini oldindan aytib berish mumkin. Kompyuter yadro qurolli urushda mutlaq g`olib bo`lmasligini ko`rsatadi. Kompyuterli tajriba yer yuzida bunday urush oqibatida yekologik o`zgarishlar, ya`ni haroratning keskin o`zgarishi, atmosferaning changlanishi, qutblardagi muzliklarning yerishi ro`y berishi, xatto yer o`z o`qidan chiqib ketishi mumkinligini ko`rsatadi.

Matematik modellashda berilgan fizik jarayonlarning matematik ifodalari modellashtiriladi. Matematik model tashqi dunyoning matematik belgilar bilan ifodalangan qandaydir hodisalari sinfining taqribi yavsifidir. Matematik model tashqi dunyon bilish, shuningdek, oldindan aytib berish va boshqarishning kuchli uslubi hisoblanadi. Matematik modelni tahlil qilish o`rganilayotgan hodisaning mohiyatiga singish imkoniyatini beradi. Hodisalarni matematik model yordamida o`rganish to`rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - modelning asosiy ob`yektlarini bog`lovchi qonunlarni ifodalash.

Ikkinci bosqich - modeldagi matematik masalalarni tekshirish.

Uchinchi bosqich - modelning qabul qilingan amaliyot mezonlarini qanoatlantirishini aniqlash. Boshqacha aytganda, modeldan olingan nazariy natijalar bilan olingan ob`yektni

kuzatish natijalari mos kelishi masalasini aniqlash.

To`rtinchi bosqich - o`rganilayotgan hodisa haqidagi ma`lumotlarni jamlash orqali modelning navbatdagi tahlilini o`tkazish va uni rivojlantirish, aniqdashtirish.

Shunday qilib, modellashtirishning asosiy mazmunini ob`yektni dastlabki o`rganish asosida modelni tajriba orqali va (yoki) nazariy tahlil qilish, natijalarni ob`yekt haqidagi ma`lumotlar bilan taqqoslash, modelni tuzatish (takomillashtirish) va shu kabilar tashkil yetadi.

Matematik model tuzish uchun, dastlab masala rasmiylashtiriladi. Masala mazmuniga mos holda zarur belgilar kiritiladi. So`ngra kattaliklar orasida formula yoki algoritm ko`rinishida yozilgan funksional bog`lanish hosil qilinadi.

Aytib o`tilganlarni aniq misolda ko`rib chiqamiz.

O`ylagan sonni topish masalasi (matematik fokus). Talabalarga ixtiyoriy sonni o`ylash va u bilan quyidagi amallarni bajarish talab yetiladi:

1. O`ylagan son beshga ko`paytirlisin.
2. Ko`paytmaga bugungi sanaga mos son (yoki ixtiyoriy boshqa son) qo`shilsin.
3. Hosil bo`lgan yig`indi ikkntirilsin.
4. Natijaga joriy yil soni qo`shilsin.
5. Olib boruvchi biroz vaqtadan so`ng talaba o`ylagan sonni topishi mumkinligini ta`kidlaydi.

Ravshanki, talaba o`ylagan son matematik fokusga mos model yordamida aniqlanadi.

Masalani rasmiylashtiramiz: X - o`quvchi o`ylagan son, U - hisoblash natijasi, N- sana, M - joriy yil.

5. Demak, olib boruvchining ko`rsatmalari:
6. $U = (X^5 + N)^2 + M$ formula orqali ifodalanadi.

Ushbu formula masalaning (matematik fokusning) matematik modeli bo`lib xizmat qiladi va X o`zgaruvchiga nisbatan chiziqli tenglamani ifodalaydi.

Tenlamani yechamiz: $X = (U - (M +$

$2N)/10$ Ushbu formula o`ylangan sonni topish algoritmini ko`rsatadi. Xulosa qilib aytganda modulli o`qitishning maqsadi - ta'lim mazmunida shaxsning individual yehtiyojlariga va yegallangan bilim darajasiga muvofiqlashtirishdan iborat. Modulli ta'lim o`qitish jarayonini sistemali tashkil yetilishiga, o`quv faoliyatini yanada faollashtirishga, o`quv predmeti mazmunini tez va sifatli o`zlashtirib olishga, o`quvchilarda o`z-o`zini nazorat

qilish, baholash va o`z ishini rejalashtirish ko`nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Modulli darslarda o`quv materialining mazmuni bevosita matematik obektlarni o`rganish bilan birga umumiyligi matematik tushunchalarni o`zlashtirishga qaratilishi tufayli o`quvchilarning umummatematik tushunchalarni o`zlashtirishi va matematik obektlarni kengroq tasavvur qilishiga imkon yaratiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



- 1.O.Tolibov, M.Usmonboyeva. "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari". Toshkent. "Fan" nashriyoti. 2006. 283-b
2. S.D.Reznika. (2009) Texnologiya i organizasiya deyatelnosti. Ucheb. Posobiye / - M.: INFRA- M, 2009.- 389 b.
3. Kudryavseva L.D(2001) , Mysli o sovremennoy matematike i yeye izuchenii. Ucheb. Posobiye / . – M.: Nauka, gl.red. fizmat. lit-ry. - 109 b.
4. Aktualnyye problemy prepodavaniya matematiki v texnicheskem VUZe: materialy vtoroy mejvuzovskoy nauchno-metodicheskoy konferensii. – Omsk: Poligraficheskiy sentr KAN, (2012) - 188 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

**YAKUBOVA MANZURA ABDURAXMONOVNA
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, V/B.DOTSENT.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida mashg'ulot jarayonida tarbiyachining multimedya texnologiyasini amaliyatga tadbiq etishga doir uslubiy tavfsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, multimedya texnologiyasi, erkin fikrlash, bolaning tafakkurini rivojlantirish, zamonaviy vositalar, ilmiy salohiyat, individulallik

Аннотация: В статье даны методические рекомендации по внедрению мультимедийных технологий в образовательный процесс в дошкольном образовании.

Ключевые слова: инновации, мультимедийные технологии, свободное мышление, развитие мышления ребенка, современные средства, научный потенциал, индивидуальность.

Annotation: This article provides methodological recommendations for the implementation of multimedia technology in the educational process in preschool education.

Keywords: innovation, multimedia technology, free thinking, development of the child's thinking, modern tools, scientific potential, individuality

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarinishakllantirib, ularnimuntazam ravishda ta'lism jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash Maktabgacha ta'lism tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biridir. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida, o'quv tizimini yangidan isloq qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyatga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o'quv sistemasidagi yangiliklar va yutuqlarni o'rganish xamda ularni mamlakatimizda tadbiq etish hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy -iqtisodiy isloxotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fn yutuqlari va zamonaviy informatsion

kommunikatsion texnologiyalarni inobatga olgan xolda maktabgach ta'lism tizimida ma'nан mukammal va intelektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash- Davlat talablarining maqsadi xisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli qarоридаги maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da ko'zda tutilgan "Sifatli o'quv-metodik va didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mýljallangan bosma materiallarni turli tillarda ishlab chiqishning bozori va turlarini rivojlantirish" bo'limida turli imtiyoz va preferntsiyalarni taqdim qilish orqali xususiy investitsiyalarni keng jalb qilgan holda maktabgacha ta'lism

tashkilotlari uchun o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tajribali pedagoglardan axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish, u xaqida bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Hozirgi davrda hayotimizda ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri "axborot" dir. Bu so'zga biz xar kuni har bir faoliyatimizda duch kelamiz. "Axborot" atamasi (lotincha "Informatsion") xabar, ma'lumot ko'rsatgichlarni majmuasini bildiradi. Axborot-aniq va amalda ishlatiladigan xabardir. Professor A.A. Abduqodirovning ta'kidlashicha: "Axborotning o'zini, biror ob'ekt, atrof muxitning malum bo'lagi yoki malum jarayoni haqidagi aniqsizlik darajasini kamaytiradigan belgilar, parametrlar, tafsilotlar, o'yinlarning majmuasi deyish mumkin" [1,199].

Zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish qiziqtirish juda muxim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridada bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur. Hozirda multimedya texnologiyasi maktabgacha ta'lim muassasalarida uchun yangi texnologiya bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar uchun mo'ljalangan multimedya dasturlari sanoqli. Bugungi kunda A.A. Abduqodirov tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida larida kompyuterli ta'limiy o'yinlar o'tkazishga mo'ljalangan "Asalarilar va gullar"

nomli ishlanma tayyorlaganlar v.h. Shu sababli ham har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi mashg'ulot uchun o'zi multimedya vositalarini tayyorlashi va foydalanishi zarur.

NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqagini inkor etib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyani joriy qilishni innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyaning bolalar jamoasida muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog'liq. Multimedya texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materiallari mashg'ulot jarayonida ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaradorligini oshirishga yordam beradi. Multimedya tushunchasi – turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasini anglatadi.

Multimedya texnologiyalari esa- turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmui xisoblanadi. isoblanadi. Multimedya texnologiyalariga tovushlar, video – elementlarni qayta ishlovchi vositalar, multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafikalar kiradi. Ma'lumot o'mida aytib o'tamiz, 1986 -yilda Amida kompyuterida birinchi marta maxsus rolikda tovush (musiqa) bilan birgalikdagi animatsiya effekti namoyish qilinib, multimediyaning shakllanishi nixoyasiga yetkazildi va bu yig'ilishda tulakonli multimedya texnologiyasi yaratilgani e'tirof etildi. Shunday qilib, 1986- yil rasmiy ravishda multimedya yaratilgan (tug'ilgan) yili xisoblanadi [1,204].

Multimedia texnologiyalaridan oddiy

foydalauvchilar ko'plab maqsadlarda foydalanishi mumkin. Ular quyidagicha:



- O'qitish dasturlarida – bunda o“qitish jarayonida turli rasmlı animatsiyalar, elektron darslik, elektron kitob va elektron o'quv qo'llanmalar bo'lishi mumkin.
- Ensiklopediyalar – bu biror–bir atamani yoki ilovani tushuntirishda turli multimedia ilovalarini qo'llash.
- Ma'lumotnomalar – berilayotgan ma,,lumotni turli shaklda keltirish va tushinishni osonlashtirish.
- Grafik paketlar – turli grafik ilovalar ustida ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar.
- Musiqa tahrirlovchilar – musiqa fayllari ustida turli amallar bajarish.

MUHOKAMA

Maktabgacha talim yoshidagi bolalarning rivojlanishi , ta'lim –tarbiysi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash,ta'lim –tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy xaborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Davlat talablarining eng muxim vazifalaridandir. Bu kabi vazifalardan kelib chiqqan xolda ta'lim tarbiya jarayoniga eng zamonaviy va bola yoshiga mos vositalarni tanlash pedagog xodimlardan bilim va

tajriba talab qilinadi. Bolaning ta'lim olishi va rivojlanishida esa kattalarning ro'li muhim axamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi -o'rgatuvchi, bolalar esa qabul qiluvchi xisoblanadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim va tarbiya berish ham, bilish nazariyasiga asoslanadi, jumladan, uning «jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga va undan amaliyotga» degan qonunini Maktabgacha ta'lim tashkilotlarning kompyuterli ta'lim jarayoniga ham qo'llash mumkin. Mutimedia texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonining zamonaviy vositasi desak mubolag'a bo'lmaydi. "Multimediya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "ko'p va vositachi bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Multimedia texnologiyasini asosiy belgilaridan biri- texnik vositalardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish hisoblanadi [3,1]. Multimedia texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalauvchilariga namoyish qilinadigan vositalarga didaktik materiallar, harflar, rasmlar, chizmalar kabilarni kiritish mumkin. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalarga turlicha psixologik ta'sir ko'rsatadi. Monitor ekranida tasvirni ko'rganda hamda tovushni eshitayotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtida ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtida kabul kilib olinadi. Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'siri katta bo'lib, undan maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega. Bu borada akademik S.S.G'ulomov va boshqalar quyidagilarni ta'kidlaydi: —

Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida kabul qilsa, axborotning xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ga ortadi [2,221-222].

Ta'kidlash mumkinki, multimedia resurslari ta'lim jarayoniga juda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin ushbu resurslarni yaratishga e'tibor bilan yondashish zarur. Ta'lim jarayonida multimedia qanday ishlaydi? Samarali ishlab chiqilgan ta'lim muhiti (shu jumladan, multimediali ta,,lim muhiti) quyidagi 4 ta elementni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Axborotlarni aks ettirish;
2. Ishni nimadan boshlash va qanday davom ettirish bo'yicha qo'llanma;
3. Tushunish va xotirada saqlab qolish uchun mashqlar;
4. O'tilganlarni takrorlash yoki keyingi bosqich (qadam)ga o'tish zarurligini aniqlash uchun o'zini baholash.

XULOSA

Bolalarning o'rganiladigan materialga va kompyuterga qiziqishini orttiradigan o'ziga xos metod multimediyali kompyuter texnologiyasidan foydalanishdir. Multimediya vositalari tarbiyalanuvchining psixikasini rivojlantirish va fikrlash kobiliyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Multimediyali kompyuter texnologiyasidan foydalanishda esa matn bilan tanishish bilan bir qatorda animatsiya xususiyatlarini oshirib, bolaning fikrlash saloxiyatini ham shakllantiriladi. Kompyuterli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri kompyuterni bolalar organizmiga salbiy ta'sir etishidir. Shuning uchun, tarbiyalanuvchilar mashg'ulot mobaynida kompyuterdan uzluksiz 15 daqiqadan ortiq foydalanmasliklari lozim. Bu jarayonda esa bolalarga to'g'ri tushuntirish va qo'yib ko'rsatilayotgan animatsiyani ma'lum muddat dam olgandan keyin davom ettirishimiz mumkinligi xaqida tushuntirishimiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. L.Mirjalolova va boshq. "Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari" moduli bo'yicha o'quv –uslubiy majmua. T.: 2018 y. [1,199, 2,221-222, 3,204]. 257 bet.
2. Mamasoli Jumaboyev. "Bolalar adabiyoti va folklori". O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.2006[3/170]. 215bet
3. М.Усмонова . Уқувчи шахсиға йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
4. М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошлангич таълим ва жисмоний маданият ё'налишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил
5. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишининг афзаликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
6. М.А.Норқўзиева Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюк сиймоларнинг роли Самарқанд 2020
7. Норқўзиева Манзура Абдурахмоновна European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Ensuring professional stability 48-52 б.

OLIY TA'LIMDA INDIVIDUAL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

GULBAXOR ABDULLAYEVNA GAYNAZAROVA

**Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism texnologiyasi" kafedrasi mudiri
(PhD)**

DILRABO BOXODIROVNA KASIMOVA

**Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya. Hozirgi kunda individual ta'lism malakali kadrlar tayyorlash, mustaqil shaxslarni tarbiyalashning eng zamonaviy va samarali usullaridan biri sanaladi. Pedagogik ta'lism traektoriyasi talabaga nafaqat individual o'qish, balki darsdan tashqari izlanish, ijodiy ishlarni rivojlantirish, bo'sh vaqtini unumli tashkil etishga sharoit yaratadi. Shu jihatdan, individual ta'lism traektoriyasini shakllantirish bugungi kunning muhim talabidir. Mazkur maqolada ham oliy ta'lism tizimida individual ta'limni tashkil etishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Dual ta'lism, individual reja, guruhiy mashg'ulotlar, individual ta'lism, didaktik material, ikki tomonlama faoliyat

Bizga ma'lumki, oliy ta'lism tizimida ta'lism turli shakllarda amalga oshiriladi:

1. Kunduzgi
2. Sirtqi
3. Masofaviy ta'lism
4. Dual ta'lism
4. Pullik va bepul
5. Guruh va individual.

Ma'lumki, xozirda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida, maktablarda, turli rivojlanish markazlarida, oliy ta'lism muassasalarda odatda guruhiy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Ushbu yondashuv kadrlarni tezroq tayyorlash imkonini beradi. Bundan tashqari, guruh mashg'ulotlarida talabalar nafaqat o'qituvchining yordami bilan, balki o'zaro bir-birlariga qarab, guruhdoshlarining yutuqlarini hisobga olgan holda ham rivojlanib boradilar. An'anaviy ta'limga ta'limga boshqa komponentlariga, xususan, o'qitish metodikasini kuchaytirish, vositalarni takomillashtirish, shakllarni o'zgartirish, texnologiyalarni takomillashtirish, o'quvchi va yordamchi adabiyotlarni zamonaviy talablarga moslashtirish kabi jihatlarga keng e'tibor qaratildi. Biroq, ta'lism oluvchi

shaxsining talablari, ehtiyojlari, imkoniyatlari yetarli darajada e'tiborga olimmaganligi bois yuqoridagi ta'lism komponentlari o'z samarasini yetarli darajada namoyon qila olmaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lism tizimidagi islohotlar har qachongidan ham shiddatliroq davom etmoqda. Bu islohotlar natijasi talabalardan nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, balki ilmiy sohalarda ham uzlusiz izlanishda bo'lishni taqozo etmoqda. O'zbekiston taraqqiyotining tamal toshi mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham aynan, ilm-fan, ta'lism va tarbiya ekanligi barchamizga ayon. Yangi O'zbekistonda ta'lism tizimini tubdan isloh qilish, kompleks rivojlantirish, malakali va bugungi kun talablariga to'la javob beradigan kadrlarni tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar tegishli tartibda yo'naltirilmoqda.

Dastlab barcha talabalar individual reja bo'yicha o'qishlari mumkinmi? Universitetda individual o'qish uchun ro'yxatdan o'tish asoslari qanday bo'ladi? Bitiruvchi qanday diplom oladi? Universitetda individual o'quv jadvalini tuzish xususiyatlari nimalardan

iborat? Individual ta'limning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud? kabi savollar paydo bo'ladi

Individual ta'limda talaba o'quv dasturini mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida o'zlashtiradi. Bunday mashg'ulotlar o'qituvchi va talaba o'rtasida yaqin aloqada bo'lishni va dars paytida boshqa odamlarning bo'lmasligini talab qiladi.

Individual ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishdagi mazkur kamchilikni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni vositalarning takomillashtirilishi o'sha vositalar xizmat qilishi

lozim bo'lgan ta'lim olushi shaxsining talab va ehtiyojlari, mayllari yetarli darajada e'tiborga olinmagani sababli o'z vazifasini yetarli darajada bajara olmaydi. Bugungi kunda individual ta'lim texnologiyasi Chirchiq davlat pedagogika universitetining asosiy strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilmoqda.

Unga ko'ra, pedagogik va psixologik ta'limda individual yondashuvning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- talabalarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligini ta'minlash, ular uchun maqbul bo'lgan o'qitish metodlaridan foydalanish;
- talabalarning mavjud bilim, malaka, ko'nikma va kompetentsiyalariga, tajribasiga ishonch bildirish;
- ijtimoiy holati, turmush tarzi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zini namoyon qilishiga sharoit yaratish; talabalarning ruhiy holati, emotsiyalari, o'z shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish;
- talabalarning ta'lim olish strategiyasiga xos bo'lgan o'quv ko'nikmalarini maqsadli shakllantirish;
- ta'lim jarayonida professor-o'qituvchi va talaba vazifalarini qayta taqsimlash: professor-o'qituvchining yetakchilik rolini cheklash, unga yordamchi, maslahatchi sifatida qarash.

Demak, individual ta'limda talabalarning

mavjud imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqib o'qitish jarayoni tashkil qilinadi, ularga maksimal darajada ishonch bildiriladi. Individual ta'lim texnologiyasiga asoslangan dars mashg'ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o'quv dasturini ishlab chiqish, talabalarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishdan iborat.

Individual ta'lim texnologiyasiga asoslangan dars mashg'ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o'quv dasturini ishlab chiqish, talabalarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishdan iborat. Individual ta'lim texnologiyasida didaktik materialning turlari o'quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat. Vazifalar mavzu bo'yicha, murakkablik darjasini bo'yicha, foydalanish maqsadi bo'yicha ko'p darajali, tabaqlashtirilgan, individual yondashuv, talaba o'quv faoliyatining yetakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bu yondashuvning markazida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishda erishilganlik darajasini baholash qobiliyati turadi. Professor-o'qituvchi talabalar o'rtasida kartochkalarni tarqatadi, ularning bilish xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib oladi, nafaqat bilim olish darajasini aniqlaydi, balki har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi, faoliyatning shakl va usullarini tanlash orqali uning rivojlanishi uchun eng munosib sharoitni yaratadi. O'qitish metodlari ta'lim texnologiyasi va yondashuviga mos holda tanlanishi maqsadga muvofiq. Aks holda tanlangan metod kutilgan samarani bermaydi. Bu o'suvchi-o'zgaruvchi ko'rsatkich bo'lib, har bir professor-o'qituvchining individual pedagogik manerasidan kelib chiqqan holda tanlanadi.


Individual ta'lim bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyati ta'minlangani uchun ham keng ommalashib ulgurdi.

Individual ta'lim - o'qituvchining

o‘quvchiga pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri. O‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi. Individual ta’lim o‘z navbatida yakka tartibdagi ta’lim bilan tenglashtirish mumkin. Individual ta’lim yo‘nalishining avvalo, o‘quvchi-talabaga har jahbada o‘ziga xos “independent researcher”, ya’ni mustaqil maqomini olishga yo‘l ochadi. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi qadrlash, shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan intilish, talabaning kelajakdagi qiziqish sohasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, talaba yo‘l qo‘ygan xatokamchiliklarini ilmiy rahbari orqali aniqlab olishning sharoitlarini yuzaga chiqaradi.

Ta’lim-tarbiyatagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash, bolaning imkoniyatlarini, har bir shaxsning faolligini ta’minalashdan iborat.

Tadqiqotchi Shaxnoza Muxtarova individual ta’limni ikki tomonlama faoliyat deb izohlaydi. (1-rasm)



1-rasm. Individual ta’lim jarayoni

Individual ta’limni har bir o‘quvchi-talaba bilan alohida-alohida ishslash deb tushunish ham haqiqatdan yiroq emas. Buni mavzularни o‘zlashtira olmagan o‘quvchi yoki talaba bilan qolgan iqtidorli o‘quvchi yoki talaba do‘sti darajasiga yetishish uchun qilgan individual shug‘ullanish deb izohlash mumkin. Yoki imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ham yakka tartibda o‘z uylarida individual dars o‘tish mumkin. Bunda turli xil metodlar orqali individual shug‘ullansa bo‘ladi. Ammo bir

narsani nazardan chetga qoldirmaslik kerakki, individual dars o‘tish jamoaviy holda dars o‘tishni o‘rnini bosa olmaydi. Agar jamoaviy barcha o‘quvchilar bilan dars o‘tilsa, sog‘lom raqobat paydo bo‘ladi, o‘quvchilarning jamoa bilan ishslash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. O‘quvchilarning bir-biridan o‘zishga harakat qilishi, kezi kelganda, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi va yordam berishiga hech nima teng kelmaydi.

Tadqiqotchi M.Durbanova individual

ta’lim texnologiyasini ta’lim oluvchi shaxsining qadr-qimmatini ko’tarishga xizmat qilishini ta’minlagan holda, uning o’ziga bo’lgan ishonchini, bilishga bo’lgan qiziqishi oshirishga, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo’llay olish ko’nikmasini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi M.Omonova “individual ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchi shaxsiga qulay imkoniyatlar yaratish, ta’limning bosh maqsadi - ta’lim oluvchi shaxsini har tomonlama uyg‘un kamol topishini ta’minalashga qaratilgan yondashuvdir. Individual ta’limda talaba shaxsi ta’lim jarayonining markaziga qo’yiladi va ta’lim jarayonining barcha komponentlari uning ta’lim va tarbiya olishiga yo’naltiriladi. Aslida ham, ta’lim jarayonining ustuvor maqsadi ta’lim berish ekan, barcha imkoniyat va vositalarning talaba shaxsinining shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarini oshirishga, bilim, malaka va ko’nikmalarini kompetentsiya darajasiga olib chiqishga yo’naltirish ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi”- deb izohlaydi.

Individual ta’lim texnologiyasiga asoslangan dars mashg’ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o’quv dasturini ishlab chiqish, talabalarga kerakli bilim, ko’nikma va malakalarni o’rgatishdan iborat.

Individual ta’lim texnologiyasida didaktik materialning turlari: o’quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat.

Vazifalar: mavzu bo’yicha, murakkablik darajasi bo’yicha, foydalanish maqsadi bo’yicha ko’p darajali, tabaqalashtirilgan, individual yondashuv, talaba o’quv faoliyatining yetakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bu yondashuvning markazida bilim, ko’nikma, malakalarni o’zlashtirishda erishilganlik darajasini baholash qobiliyati turadi.

Professor-o’qituvchi talabalar o’rtasida kartochkalarni tarqatadi, ularning bilish xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib oladi, nafaqat bilim olish darajasini aniqlaydi, balki

har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi, faoliyatning shakl va usullarini tanlash orqali uning rivojlanishi uchun eng munosib sharoitni yaratadi.

O’qitish metodlari ta’lim texnologiyasi va yondashuviga mos holda tanlanishi maqsadga muvofiq. Aks holda tanlangan metod kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogika fanlari doktori, professor J.O’sarov ilmiy tadqiqotlarida “ta’lim faoliyatini individuallashtirishning eng istiqbolli modellaridan biri — bu ta’lim traektoriyasi hisoblanadi”, deya baholaydi. Olimning fikricha, “ta’lim trayektoriyasi har bir talabaning ta’limda shaxsiy salohiyatini ro’yobga chiqarishning individual shakli bo’lib, ta’lim jarayoni davomida yigit-qizlarning tashkiliy, ijodiy va boshqa shaxsiy qobiliyatlari aniqlanadi hamda shunga mos ravishda yo’naltiriladi. Ya’ni har bir talaba bilan uning qiziqishlari, kasbiy istaklari asosida individual ishlanadi”

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, individual ta’lim traektoriyasi bo’yicha mashg’ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyani talab qiladi. Zamonaviy didaktikada bu muammoni hal qilish uchun odatda ikkita qarama-qarshi usul taklif etiladi, ularning har biri individual yondashuv deb ataladi.

Birinchi usul - tabaqalashtirilgan ta’lim bo’lib, unga ko’ra har bir talabaga individual yondashish, u o’rganayotgan materialni murakkablik, diqqat-e’tibor darajasiga qarab farqlash taklif etiladi. Buning uchun talabalar odatda guruhlarga yoki darajalarga bo’linadi.

Ikkinci usul talaba o’zi o’rganadigan ta’lim sohasiga nisbatan o’z ta’lim yo’lini tanlashini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir talabaga barcha o’quv fanlarini o’zlashtirish uchun o’z ta’lim traektoriyasini yaratish imkoniyati beriladi. Biroq bu usul mamlakatimiz ta’lim muassasalarida kamdan-kam uchraydi. Chunki u tashqaridan qo’yilgan umumiy maqsadlar fonida talabalarning nafaqat individual harakati, balki har birining

turli xil ta'lim modellarini o'ziga xos tarzda va shaxsiy salohiyati bilan bog'liq holda bir vaqtning o'zida ishlab chiqish hamda amalga oshirishni talab qiladi.

Shu bois, yurtimizda birinchi usul — individual ta'lim keng tarqalib, uni amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar ommalashib boryapti. Uning o'ziga xos tomoni, talaba ta'lim jarayoni, grafik holati kabilarni individul tanlab, mavzuni o'zlashtirishda bosqichma-bosqich to'liq mustaqillikka o'tib

boradi. O'qituvchi esa bu jarayonda talabaga maslahatchi sifatida qatnashib, uni yo'naltirib turadi. Talabaga shaxsiy manfaatlari, o'quv faoliyatining xususiyatlari, ta'lim olish usullari, o'quv materialini o'zlashtirish xususiyatlari, o'quv faoliyati turlarini hisobga olgan holda tanlash imkoniyati beriladi. Individual ta'lim traektoriyasini tuzishda eng muhimi ham shu, avvalo, talabaning imkoniyatlari, qobiliyatları, istiqbollari, natijaga erishish uchun bajarmoqchi bo'lgan sa'y-harakatlarini baholashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'sarov J. Individual ta'lim trayektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 23.12.23 y, 267-soni
2. Омонаева М. ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIKPEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2023-yil 2-iyun
3. Jabborova, O. (2023). INDIVIDUAL YONDASHUV TEKNOLOGIYASI MAZMUNI. Academic research in educational sciences, 4(3), 340-348.
4. Gaynazarova, G. A. (2023). Oliy ta'lim tizimida talabalar individual ta'limini tashkil etish muammolari. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 60-64.
5. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 36-40.
6. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.
7. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. Academia Repository, 4(12), 131-135.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOKIMYO FANINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

TOSHMURODOV DOSTONJON ASATULLO O'G'LII
Samarqand davlat tibbiyot universiteti biologik kimyo kafedrasи asisstant

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda fanlararo o'qitishda duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadqiqotlar, biokimyoni o'qitish dasturlarining fanlararo holatlari o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida o'quvchilarning fanlararo o'qitish yondashuviga bol'gan munosabati va tanqidiy fikrplash qobiliyatining ortishi kuzatildi. Buning natejasida integratsiyalashgan biokimyoiy bilimlari kasalikga tashxis qo'yish ko'nkmalari chuquroq hosil bo'ladi

Kalit so'zлari. Biokimyo, fanlararo o'qitish, integratsiya, tibbiyot, vaziyatl masala, o'qitish metodikasi.

Аннотация. В этом исследовании изучались проблемы, с которыми сталкиваются при междисциплинарном обучении, исследования по преодолению этих проблем, а также междисциплинарный характер программ преподавания биохимии. В результате исследования наблюдалось отношение студентов к междисциплинарному подходу обучения и повышение навыков критического мышления. В результате формируются комплексные биохимические знания и навыки диагностики заболеваний.

Ключевые слова. Биохимия, междисциплинарное обучение, интеграция, медицина, ситуационная проблема, методика обучения.

Annotation. This study explored the challenges faced in interdisciplinary teaching, research to overcome these challenges, and the interdisciplinary nature of biochemistry teaching programs. As a result of the research, students' attitude towards the interdisciplinary teaching approach and increased critical thinking skills were observed. As a result, integrated biochemical knowledge and disease diagnosis skills are formed.

Key words: Biochemistry, interdisciplinary teaching, integration, medicine, situational problem, teaching methodology.

Kirish Bugungi kunda ta'lrim tizimlari shaxs ehtiyojlari, texnologiya rivoji va globallashuvga qarab doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar o'z ta'lrim tizimini talabalarning har bir sohada malakali va jihozlangan shaxs sifatida quradilar. Bugungi kunda ta'lrim tizimining eng muhim maqsadlaridan biri sog'liqni saqlash tizimida samarali tibbiyot xodimlarni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan kadrlarning malakasi, o'tiladigan fanlarni xorijiy tajribalar asosida integrativ yondashuv asosida o'qitishning zamon talablariga mos hamda uzlusiz ravishda takomillashtirib borish hozirgi davrning asosiy masalalaridan biridir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrdagi PF-5590-

son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 2017 yil 5 maydag'i PQ-2956 "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 6 maydag'i PQ-4310 "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666 "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlusiz kasbiy rivojlanishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" zamonaviy talablar asosida o'quv mazmunini takomillashtirish hamda ularning fanlarni integrativ yondashuv asosida o'qitish asosiy maqsad ekanligi belgilangan [1]

Darhaqiqat, yangilanib borayotgan



ta'lim tizimini joriy etishda har bir oliv ta'lim tizimidagi o'qituvchilarining o'z faniga, qolaversa, kelajak avlod tarbiyasiga doir kasbiy-metodik kompetentligini takomillashtirishi va ularni o'z pedagogik faoliyatida izchillilik asosida amaliyotda qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning dolzarb talabi sanaladi. Mamlakatimizda tibbiyot oliv ta'lim tashkilotlarida biokimyo fanini o'qitish, metodik sifatini yanada oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasida ko'plab faoliyatlar olib borilmoqda. Shu o'rinda, tibbiyot oliv ta'lim tashkilotlarida biokimyo fanini o'qitish uchun pedagogik va ilmiy bilimlar integratsiyasini ta'minlash zarur. Tibbiyot ta'lim tizimida o'z faoliyatini olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy hamda metodik kompetentliligini rivojlantirish jarayonida ilmiy bilimlar kesimini fanga oid tushunchalar tizimida integratsion jarayonni faollashtirishga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda biokimyo laboratoriylarini yaratish bo'yicha xorijiy yurtlarda bir qator amaliy ishlar bajarilgan. Masalan, Virtual Chemistry laboratory AQSH dagi Carnegie Mellon Universitida tayyorlangan, uni internetdan yoki qolip disklar orqali foydalanish mumkin. Tajribalar ikki o'lchamli grafik modellar yordamida amalga oshiriladi. AQSH Brigham Young Universityda Virtula Chemical Lab CD-ROM da uch o'lchamli grafikda biokimyoviy eksperiment o'tkazish uchun virtual laboratoriylar jamlanmasini taqdim etadi. Oxford University (Buyuk Britaniya) da tajribalarni bajarishning videolavhalarini taqdim etadi.

Tadqiqotchilar N.I.Ayro, T.M.Bondareva, L.N.Saraxovalar o'zlarining tadqiqotlarida biokimyo fanini rivojlanish jarayonida labaratoriya imkoniyatlarini, o'ziga xos xususiyatlari haqida o'z risolalarida bayon etadi

I.V.Nalivaiko ta'kidlashicha: sog'lom turmush tarziga tayyorlashda integrativ-modulli trening: (biokimyo misolida) ishlab

chiqadi. Ushbu integrativ-modulli trening mashg'ulotlari biokimyo faniga doir o'qitish konsepsiysi, metodik tuzilmasi hamda o'qitish usullarini takomillashtirish bilan izohlaydi.


O.Abrorov ta'kidlashicha, tibbiyot oliv ta'lim tashkilotlarida biokimyo alohida o'rin tutadi. Bo'lajak umumamaliyot shifokori patologik jarayon rivojlanishining mexanizmlarini to'liq o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Turli kasalliklar asosida metabolik jarayonlarning buzilishi yotadi.

Tadqiqotchi Mamadaliyeva Z.R. o'zining Tibbiyot oliv ta'lim tashkilotlarida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish nomli ilmiy ishida tibbiyot oliygohlarida biokimyo darsiga oid vertuval laboratoriya dasturi ishlab chiqilgan. Bu dasturdan talabalar darsda va darsdan bo'sh vaqtarda foydalanishi mumkun [8, 91-b].

Ko'p tarmoqli yondashuv - bu turli fanlarning bir-biridan mustaqil ishlashi, ammo umumiyl muammoni hal qilish uchun bir-biri bilan uyg'unlikda hamkorlik qilishidir. Ushbu yondashuvda asosiy narsa fanlarning bir-birining ichida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi va ularning ta'lim sohalari boshqa fan tomonidan toraytirilmasligidir. Tibbiyot oliv ta'lim muosasalarida biokimyo darslari integratsiyalashgan vaziyatli masalaga asoslangan mashg'ulotlarga etibor qarstilmoqda bunda talabaga bironta kasalik beriladi va uni yechimini dars davomida topadi va bularning barcha yechimlari biokimyo kursida o'rgatilib borishi kerak [2, 72-b].

Dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biri hisoblangan Finlyandiyada o'qituvchilar radikal amaliyotni boshlab, o'quv dasturidan turli fanlarni olib tashlab, ta'llimga umuman murojat qila boshladilar. Buning sababi sifatida ular muammoni hal qilishda olingan barcha bilimlarni bir vaqtning o'zida ishlatish kerakligini ta'kidladilar [1, 28-b].

1-rasm. Muammoli vaziyatlarda bilim faoliyatları



Xulosa maqsad tibbiyot oliy talim tashkilotlarida darslarni fanlararo yondashuv bilan chuqur o'rganishdir. biokimyo, farmakalogiya, fizalogiya va fan yo'nalişlarida tahsil olayotgan talabalar turli sohalarga ixtisoslashgan bo'lsalar-da, kundalik hayotdagi

muammoni yechishda mavzular bilan to'liq shug'ullanishlari kerak. Shu nuqtada, kasalikni bir xil muammoni turli fanlarda tahlil qilishlari va fanlararo yondashuvdan foydalangan holda masalani bir butun sifatida ko'rib chiqishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrdagi PF-5590-son, "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni
2. Tashmurodov Dostonjon Asatullo O'g'li. (2024). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR TEACHING BIOCHEMISTRY BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. Current Research Journal of Pedagogics, 5(01), 26–30. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-01-05>
3. Toshmurodov D.A. Biokimyo fanini vaziyatli masalaga asoslangan ta'limdan foydalanib o'qitish imkoniyatlari TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2024/ 1 –SON 70-73
4. Asatullo ug'li, T. D., Uzakovich, J. M., & Kenjayevich, B. A. (2022). Study of Changes in Calciferol in Eggs in Depending on the Season of the Year. Middle European Scientific Bulletin, 24, 310-314.
5. Saidmurodova Z.A., & Toshmurodov D.A. (2021). NUKLEIN KISLOTALAR KIMYOSI, ULARNING TUZILISHI VA AHAMIYATI. Вестник магистратуры, (2-1 (113)), 10-12.
6. Saidmurodova , Z. A., & Toshmurodov , D. (2022). OVQATNING MEXANIK HAZM QILISH JARAYONLAR. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(5), 101–103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1619>
7. Asatullo O'g'li, T. D. (2024, February). CRITERIA AND FACTORS OF TEACHING BIOCHEMISTRY ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 3-6).
8. Sattorova S.X., Q.M.Xolikov "Oliy ta'lif muassasalarida biokimyo faning ilmiy-tadqiqot laboratoriysi" maqolasi Xalq so'zi gazetasi -2023. №1. 10b.
9. Mamadaliyeva Z.R. "Virtual laboratory Information In Education A Specific Factor Of The communication System In Form". Eurasian Scientific Herald Journal. Germany. Ausgabe. – №3, 2022. – pp. 92-95. (13.00.00; №1. 2022).
10. Mamadaliyeva Z.R. "Determination of alanine in bood ona biochemical analyzer by virtual laboratory method". Thematiess Jounal of Chemistry 2022. Impact Factor 7.3 ISSN: 2250-382X -№ 5. -B. 23-27.

ХУҚУҚ ТАЪЛИМИДА МАТНЛИ ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИ-НИНГ ВИЗУАЛ-МЕТОДИК ТАЪМИНОТИНИ ШАКЛАНТИ-РИШДА ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

БЕКБЕРГЕНОВА ГУЛЖАМИЛА САПАРБАЕВНА
Ажиниёз номидаги Нукус ДПИ таянч докторанти

Аннотация. Ўқув ахборотларини визуал шаклда ифодалашда график органайзерлар алоҳида ўрин тутади. Ўз моҳиятига кўра графикили кўринишга эга бўлган интерфаол методларнинг бу тури ўқувчилар томонидан ўқув ахборотларини пухта, тезкор ва самарали ўзлаштириш имкониятини таъминлайди. Мақолада хуқуқ таълимими ташкил қилиш жараёнида матнли ўқув материалларини визуал ифодалаш хусусида сўз юритилади.

Таянч сўзлар: хукуқ, ўқув материали, визуаллик, таъминот, визуал-методик таъминот, график органайзер.

Абстракт. Графические организеры играют особую роль в визуальном представлении учебной информации. Этот вид интерактивных методов, имеющий по своей природе графический вид, обеспечивает возможность тщательного, быстрого и эффективного усвоения обучающимися учебной информации. В статье рассматривается визуальное представление текстовых учебных материалов в процессе организации юридического образования.

Ключевые слова: право, учебный материал, наглядность, обеспечение, наглядно-методическое обеспечение, графический организер.

Abstract. Graphic organizers play a special role in the visual presentation of educational information. This type of interactive methods, which are graphic in nature, provides the opportunity for students thoroughly, to assimilate educational information quickly and effectively. The article examines the visual presentation of textual educational materials in the process of organizing law education.

Key words: law, educational material, visibility, support, visual and methodological support, graphic organizer.

Глобаллашув шароитида катта оқимга эга ахборот майдонида мутахассисликка оид билимларни тезкор эгаллаш, касбий компетентлик сифатларини самарали ўзлаштиришга нисбатан ҳам эҳтиёж юзага келмоқда. Ахборот майдонида янгиланиш жараёни шунчалик кучли бўлиб, маълумотлар жуда тез эскирмоқда. Бу эса ўқитиши жараёнида ўқув ахбороти, маълумотларини изчил янгилаб бориш зарурлиги тақозо этади. Бироқ, айни вақтда таълим амалиёти мазкур усулнинг ҳам самарадорлиги кам бўлаётганини кўрсатмоқда. Хўш, у ҳолда замонавий таълимни ташкил этишда қандай йўл тутиш зарур?

Ўқитиши сифатини яхшилаш, самаралорлигини оширишга доир хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш, шахсий кузатув натижаларини таҳлил қилиш натижасида шундай хуносага келиш мумкин: глобал ахборотлашув шароитида шахс учун фойдали ҳамда амалий қийматга эга замонавий таълимни ташкил қилишнинг энг самарали йўли – ўқувчиларда муайян компетенцияларни ривожлантириш саналади. Бу каби компетенциялар сирасига ўқув материали билан самарали ишлаш, бу жараён муваффақиятини таъминловчи инновацион методлардан хабардор бўлиш ва улардан мақсадли, ўринли фойдаланиш, қисқа муд-

датда пухта ўзлаштиришга эришиш, мұхим ва зарур ахборотларни мустақил излаш, уларни жамлаш, таҳлил қилиш, синтезлаш, саралаш ҳамда тизимлаштириш, шунингдек, самарали ўзлаштиришга оид компетенцияларини киритиш мүмкін.

Үқув ахборотлари билан самарали ишлашда инновацион харakterга эга методлар орасыда график органайзерлар ўзига хос ўрин тутади.

Иқтисодий ривожланган мамлакатларда ўтган асрнинг 60-йилларида таълимнинг турли босқичларида ўқувчилар ҳамда талабаларда билим олишга бўлган қизиқишининг пасайиши, ўқув-билиш фаоллигининг сусайиши кузатилди. Бу эса ўқитиш жараёнини мутлақо янги формат (ўлчам), қўринишда ташкил этиш йўллари, шакллари, методлари ва воситаларини излашга бўлган эҳтиёжни юзага келтирди. Натижа турли мамлакатларда илмий тадқиқот марказлари, таълим муассасаларида мазкур эҳтиёжини қондириш йўлида туркум илмий-тадқиқотлар амалга оширилди. Бу каби тадқиқотларнинг натижаси сифатида муаммоли, ривожлантирувчи, инновацион ва компьютер таълими каби ўқитиш технологиялари [6, – 76-101-б.] асосланди.

Қайд этилган таълим технологияларининг ўқитиш амалиётига татбиқ қилиниши ўқувчи ҳамда талабаларни фаол жалб этиш, уларда ўқув-билиш фаоллигини кескин ошириш имконини берадиган янги педагогик технологияларни асослашга қаратилган илмий изланишлар тўхтамади. Аксинча, тадқиқотлар кўлами кенгайтирилди ва бу чора ўзининг самарасини берди.

2003 йилда АҚШнинг Таълимий тадқиқотлар самарадорлиги ошириш институти негизида фаолият юритадиган “Катталар таълими ва саводхонлик Ассоциацияси” раҳбарлигига амалга оширилган 29 та илмий тадқиқот натижаларини эълон қилинди.

Ушбу тадқиқотларнинг аксариятида график органайзерлар ва уларнинг дидактик имкониятлари, турлари, таълим олувчиларнинг ўқув-билиш фаоллигини оширишга кўрсатадиган таъсири масалалари [9] ўрганилган.

Тадқиқотчи X.К.Боймирзаевнинг қайд этишича, график органайзерлар –график (визуал) кўринишга эга интерфаол методлар бўлиб, улар ёрдамида талабалар ўқув материали ёки унинг муайян қисмiga оид маълумотларни

яхлит ёки қисман кўргазмали тарзда ифодалайди [3, – 56-б.].

Педагогик манбаларда “график органайзер” тушунчасининг моҳиятини ёритишига нисбатан бошқа қарашлар ҳам мавжуд. Хусусан, “билим, тушунча, фикр ёки ғояларни, шунингдек, улар ўртасидаги муносабатларни ифодалаш учун фойдаланиладиган визуал рамзлардан иборат педагогик восита” [5]; “йирик ҳажмдаги ахборотларни мантиқийлик асосда тартиблаштиришнинг тасвирий усули” [5].

График органайзер: график шакл (тасвирий кўриниш)да ахборотнинг тақдим қилиниши бўлиб, у таълим олувчиларда матн билан ишлаш, малакаларини ривожлантиришга хизмат қиласиди, ушбу малака асосида улар асосий ғояни ифодалаш, таянч сўзларни ажратиш, ўрганилаётган матнни муайян таркибий қисмларга бўлиш, ўқув ахборотини иккиласми манба кўриниши (режа, алгоритм, жадвал, схема шакли)га ўтказиш, уни бошқа шаклга айлантириш (формула ёки тенглилка айлантирилган матнни “ўқиши”), матн мазмунидаги баён қилинган ахборотларни визуал кўринишдан вербал ёки, аксинча, вербал шаклдан визуал кўринишга ўтказиш [4].

Таълим жараёнида ўқув материалининг моҳияти, ўқув ахборотларининг харakterиадан келиб чиққан ҳолда ўқувчиларни график органайзерлар билан ишлашга жалб қилиш

улар томонидан академик билимларнинг пухта ўзлаштирилишини таъминлайди. Бинобарин, график органайзер билан ишлаш бир қатор ижобий натижаларга эришиш имконини беради. Чунончи:

хажми катта, мазмунини эса қийин бўлган концепция ёки гояларни алоҳида ва осон бўлган таркибий қисмларга ажратган ҳолда ўқув ахборотини бир қадар осон ўзлаштирилишини таъминловчи визуаллаштириш имконияти юзага келади;

ўкувчиларнинг дарс жараёнидаги фаоллиги ошади;

уларда танқидий ҳамда ижодий фикрлаш, “ақлий хужам”ни амалга ошириш орқали гояларни илгари суриш, уларни тоифалаш ва устувор жиҳатларига қўра муайян тартибда жойлаштириш, рефлексияни амалга ошириш малакаларини ривожлантиради;

ўқув фани бўйича билимларни янгилаш ва мавжуд билимларни янги маълумотлар билан тўлдириш, боғлашга ёрдам беради;

ўз-ўзини ривожлантириш, мустақил билим олиш имкониятини юзага келтиради [10];

ўқув ахборотларини ёдда сақлаш, ўзлаштириш, таҳлил қилиш ёки қўллашда са-

марадорликка эришиш учун уларни қоғоз вараги ёки компьютер экранидаги ёритиши”га ҳамда билимларни ўзлаштириш, мустаҳкамлаш жараёнини осонлаштиришга хизмат қиласи [8].

Электрон манбалардан бирида таълим жараёнида қўллаш мумкин бўлган дидактик характердаги график органайзерларнинг бир неча гурухга ажратиш мумкинлиги кўрсатилган. Улар қўйидаги гурухлардир:

I. “Изчиллик диаграммаси”. Мазкур диаграмма у ёки бу жараён ёки харихий хронологияни ёритувчи босқичларни муайян доира (чегараланган ҳудуд)да визуал шаклда ёритилишини таъминлайди. Диаграммадан ўқув материали асосида қораламалар тайёрлаш, ўқув машғулотининг режасини ишлаб чиқиши, шунингдек, нутқ, маъруза ва ҳисоботларни тайёрлашд фойдаланиш мумкин [4].

Умумий ўрта таълим мактабларининг 11-синфида “Давлат ва хуқук асослари” фанидан “Никоҳ тузиш тартиби ва шартлари” [7, – 15-18-б.] мавзусини ўрганишда “Изчиллик диаграммаси”дан қўйидаги тарзда фойдаланиш мумкин:

Никоҳ тузиш тартиби



II. “Даврий шкала”. Мазкур график органайзер воқелик/жараённинг изчиллигини хронологик тартибда тақдим қиласидиган ин-

терфаол метод саналади. “Давлат ва хуқук асослари” фанини бўйича ўкувчиларга мустақил ишлаш учун ўқув топширикларини

беришда “Даврий шкала” гоафик органайзериdan самарали фойдаланиш мумкин. Масалан, ўқувчилар Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги асосини ташкил этувчи қонун ҳамда кодексларнинг қабул қилинган саналари тўғрисидаги маълумотларни ўрганишда бу методдан фойдаланиши мумкин [4].

Ўқувчиларга Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги асосини ташкил этувчи қонун ҳамда кодекслари қабул қилинган саналар тўғрисидаги маълумотларни хронологик жойлаштиришдан иборат топшириқ берилди.

Тадқиқот жараёнида ўқувчиларнинг “Даврий шкала” билан ишлаши натижасида қўйидаги визуал маълумотлар жамланмасига эга бўлинди:

Ўқувчиларнинг топшириқни бажаришга қаратилган харакатлари қўйидаги қадам (босқич)ларда кечади:

1-қадам. Топшириқ билан танишиш.

2-қадам. Топшириқни бажаришда ўқи-

тубчи томонидан тақдим қилинган “Даврий шкала”нинг андозасидан фойдаланиш.

3-қадам. Зарурият юзага келганда асосий маълумотларни қўшимча ахборотлар билан тўлдириш.

4-қадам. Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги асосини ташкил этувчи қонун ҳамда кодекслари қабул қилинган саналар тўғрисидаги маълумотларни хронологик жойлаштиришдан иборат топшириқни бажариш тартибини белгилаш.

Шундай қилиб, билимларни тезкор ва самарали ўзлаштириш талаб қилинаётган глобал ахборотлашув шароитида ўқув материалларини тақдим этишга нисбатан ижодий ёндашиш мақсадга мувофиқдир. Ўқув материалларини матн шаклида эмас, балки визуал кўринишда тақдим қилиш ёки ўқув топшириклари устида ишлашда ўқувчиларни график органайзерлардан фойдаланишга рафбатлантириш кутилган натижаларга эришишни таъминлайди.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Кодекслари // <https://www.lex.uz/docs/106136>.
2. Ўзбекистон Кодекслари // <https://www.lex.uz/docs/97664>.
3. Боймирзаев Х.К. Инновацион таълим мухитида тарих ўқитиши методикасини такомиллаштириш (“Ўзбекистонда давлатчилик тарихи” фани мисолида): пед.фанл.бўйича фалс.фанл.докт. (PhD) ... дис. – Наманганд: 2022. – 56-б.
4. Графические органайзеры в помощь ученикам и педагогам // <https://edu.mcfr.kz/article/3796-graficheskiy-organayzer-v-pomoshch-uchenikam>.
5. Графические органайзеры // <https://multiurok.ru/files/graficheskie-organaizery-eto-chto-ssylki-na-grafic.html>.
6. Инновацион таълим технологиялари / Н.А.Муслимов, М.Х.Усмонбоева, Д.М.Сайфуров, А.Б.Тўраев. – Т.: “Сано-стандарт” нашриёти, 2015. – 76-101-б.
7. Ismatova N., Karimova O. Davlat va huquq asoslari / O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muas.uchun darslik. Birinchi nashr. – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 14-18-b.
8. Как графические органайзеры помогают организовать себя и свою учебу? // <https://masam.by/graficheskie-organajzery>.
9. Мансурова В.Х. Возможности графических органайзеров в структуризации учебной информации // <https://ru.bilimainasy.kz/возможности-графических-органайзеров>.
10. Полный список наглядных средств визуализации для учителей и студентов // [https://creately.com/blog/ru/диаграммы/полный-список-графических-органайзаторов](https://creately.com/blog/ru/диаграммы/polnyj-spisok-graficheskikh-organizatorov).

INTERFAOL O'QITISH METODLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

K.X.XUMMAMATOVA.
JDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatga tayyorlashda interfaol ta'lif metodlarining tutgan o'rni va ahamiyati hamda ularning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari ulardan pedagogika oliy ta'lif muassasalarida "algebra va sonlar nazariyaschi" fanini o'qitish misolida olib berilgan. SHuningdek interfaol o'qitish tizimining tarkibiy qismlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativ qobiliyat, interfaol o'qitish metodlari, test, bo'lajak o'qituvchi.

Respublikamizda so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarish, pedagogika oliy ta'lif muassasalari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, tabiiy fanlar bo'yicha dual ta'lifni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lif tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'lifni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviyta'lifni yanada rivojlantirish" [1] muhim yo'naliш sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy tayyorgarlik darajasining shaffof va xolis baholashning avtomatlashgan tizimlarini joriy etishning metodik shartsharoitlarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Oliy ta'lif tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to'liq moslashtirishga ko'maklashuvchi zamonaviy ta'lif tizimining asosiy vazifalaridan biri ta'lif oluvchilarda tashabbuskorlik,

mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. SHu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda kasbiy faoliyatga nisbatan interfaol yondashuvni rivojlantirishdan iborat. Jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lif-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalarining, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etib, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoj quydagilar bilan belgilanishini aniqladik: birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lif tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallahdan iborat. Bu esa, o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ qobilyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. ikkinchidan, ta'lif mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'lifga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lif jarayoniga innovatsiyalar kirishining muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va

kreativ faolligi bilan tavsiflanadi. Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyatga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi. Ko'rinish turibdiki, talabalarda kreativ qobiliyatlarни rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarни shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliv ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

T.S.Banina va L.N.Vavilovalar interfaol ta'limning samarali jihatlarini quyidagicha baholaydilar: 1. Interfaol ta'lim talabalardagi bilishjarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни aniq vaziyatlarda qo'llash olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi. 2. Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostonart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. 3. Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozitsyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi [2]. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi turli davrlarda turli mualliflar tomonidan o'rganilgan, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Bunda o'qitishning shakl, metod va vositalarini o'zgartirish, ularni ta'lim oluvchining individual xususiyatlariga moslashtirish, ta'limni maxsus psixologik-didaktik sharoitlarini yaratish masalalari alohida o'rganilgan.

"Interfaol" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "interactive" – birgalikdagi o'zaro harakat degan ma'noni anglatadi [3]. Interfaollik muayyan tartibda kim bilandir o'zaro munosabatga kirishish, muloqot o'rnatishni ifodalaydi. SHuning uchun ham

interfaol o'qitish birinchi navbatda dialogga asoslangan o'quv jarayonini anglatadi. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, talaba bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitishning xarakterli jihatlaridan biri shundan iboratki, bu tizimda o'qituvchi bilan talabaning muntazam tarzda amalgaloshiriladigan birgalikdagi faoliyati muhim o'rin egallaydi. CHunki har bir talabaning o'ziga xos imkoniyatlari va ehtiyojlari mavjud. Interfaol o'qitish jarayonida talabalar jismoniy, ijtimoiy hamda o'rganiladigan ta'lim mazmuni bilan o'zaro munosabatga kirishadilar. Ushbu har uchchala faollik ko'rinishlari rangbarang shakllarda ta'lim jarayonida ishtirot etadi. Jumladan: jismoniy – talabalarning ish o'rinalarini o'zgartiradilar, boshqa joyga o'tiradilar, muloqotga kirishadilar, yozadilar, tinglaydilar, chizadilar, ijodiy faoliyat ko'rsatadilar; ijtimoiy – savollar beradilar, javoblar qaytaradilar, o'zaro fikr almashadilar; bilish – o'qituvchilar bayon etgan fikrlarga o'zgartirishlar kiritadilar, uni to'ldiradilar, o'zları mustaqil tarzda muammolarga echim topadilar.

Interfaol o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: o'quv fanining mazmuni; ta'limiy ta'sirning shakllantirilishi; talabalarning o'quv faoliyati; talabalar o'quv faoliyatining nazorati; talabalar o'quv faoliyati natijalarining bahosi; teskari aloqa kabilar. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ular bir-biridan mustaqil tarzda mavjud bo'la olmaydi. SHuning uchun ham interfaol o'qitishning barcha tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikda tahlil etilishi kerak. Talabalarga nisbatan ta'sirning shakllanishi muayyan o'quv fani doirasidagi nazariy materialar bilan muvofiq tarzda amalgaloshiriladi. Ta'limiy ta'sir yangi o'quv materialining bayoni yordamida vujudga keladi. Bunda amaliy topshiriqlar, mashqlar, misollar, metodik ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, tushuntirishlar, o'rganilayotgan materiallardan olingan

lavhalarning namoyishi katta ahamiyatga ega. Talabalarning o‘quv faoliyati ularning o‘quv materiallarini idrok etishlari, eslashlari, ular ustida fikrlashlari, o‘z bilimlarini amaliy faoliyatlarida qo‘llashlari jarayonida mustahkamlanadi. Interfaol o‘qitish jarayonining o‘ziga xos farqli jihatni bu tizimda talabalarning o‘quv faoliyati o‘z-o‘zidan nazorat qilinishidadir. Nazoratning natijalari talabalar bilim darajasini baholashda hisobga olinadi. SHu asosda teskari aloqa orqali navbatdagi o‘quv faoliyatining samarali amalga oshishiga ta’sir ko‘rsatiladi. SHu tariqa interfaol o‘qitishning boshqa bir farqli jihatni muayyan o‘quv faoliyati jarayonidagi teskari aloqa orqali talabalar faoliyatiga tezkorlik bilan tuzatishlar kiritish imkoniyatining mavjudligida o‘z ifodasini topadi. Bu, birinchi navbatda, aniq bir talabaning bilim darajasi, u yo‘l qo‘ygan xatolar, uning ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq. Ma’lumki, an’anaviy ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchilar har bir talabaning bilish darajalarini nazorat qilish imkoniyati mavjud emas edi. Interfaol o‘qitish jarayoni esa o‘qituvchilarga talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini tezkor boshqarish imkonini beradi. Interfaol o‘qitish jarayonida an’anaviy avtoritar uslub o‘zgaradi. Buning natijasida o‘qituvchilar maslahatchi mavqeini egallaydilar. Bu jarayonning vazifalari esa talabalarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim oluvchilarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun keng yo‘l ochish, muammolarni mustaqil echishlariga imkoniyat berish, yangi ma’lumotlarni to‘plashlari uchun zarur moddiy-texnik bazani vujudga keltirishdan iborat. Interfaol o‘qitish jarayoniga muvofiq keladigan texnologiyalarni qo‘llash orqali ham talabalarni kreativ faollikka undash, o‘qitish jarayonida tashkiliy, mazmun bilan bog‘liq, jarayonli, yo‘naltiluvchi holatlarini ajratish mumkin. Bunday holatlarning har bir muayyan g‘oyalarga muvofiq keladi. O‘quv jarayonining dastlabki jihatini mazmunga asoslangan umumlashmalar, o‘quv materiallarini muvofiqlashtirish, o‘quv

fanlarini integratsiyalash, didaktik birliklarni mustahkamlash kabilar tashkil etadi. Interfaol o‘qitish metodlarning yana bir o‘ziga xos xususiyatlarining tavsifi talabalarning o‘zaro munosabatlarida xayrixohlik, birdamlik, hissiy-ma’naviy umumiylilikni vujudga keltirish bilan tavsiflanadi. Bunda interfaol metodlarni qo‘llash natijasida ta’lim oluvchilar idrok etish jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘lib, ularning tajribasi o‘quv-biluv faoliyatining manbai sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar talabalarga tayyor bilimlarni taqdim etmaydilar, balki ularni mustaqil izlanishga undaydilar. An’anaviy o‘qitishdan farqli tarzda interfaol o‘qitish jarayonida talabalar bilan professoro‘qituvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakatlari o‘zgaradi. Jumladan, professor-o‘qituvchining faolligi talabalar faolligi bilan o‘rin almashadi. Pedagoglarning vazifasi esa talabalarni tashabbuskorlikka undashdan iborat bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilar talabalarga ma’lumotlarni taqdim etuvchi sub’ekt va ularga ko‘maklashuvchi maslahatgo‘y vazifasini bajaradilar. SHuni alohida ta’kidlash kerakki, interaktiv o‘qitish metodlari hech qachon ma’ruza mashg‘ulotlari o‘rnini bosa olmaydi. Biroq ular ma’ruza materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratib, bu jarayonda talabalarda fikr, munosabat, xulqatvor ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan, o‘qitishning interfaol metodlari ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda o‘ziga xos quyidagi ustuvor jihatlarga ega: talabalarda o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqish uyg‘otadi; har bir talabaning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi; har bir talabaning histuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi; talabalarning o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi; talabalarga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi; teskari aloqani amalga oshirish imkonini beradi; talabalarda fikrlar, munosabatlar, kreativ faoliyat tajribalarini shakllantiradi; talabalarda hayotiy-

kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradi; talabalar xulq-atvorining o'zgarishi uchun qulaylik yaratadi. Interfaol jarayonida talabalar o'z imkoniyatlarini to'laligicha namoyon eta oladilar. Ular o'zaro axborotlar almashadilar, muloqotga kirishadilar, qadriyatli yo'nalishlarini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol o'qitish jarayonida talabalar o'zaro hamkorlik jarayonining teng huquqli sub'ektlari sifatida namoyon bo'ladilar. Interfaol o'qitish jarayonida talabalar mustaqil rivojlanish sub'ektlari sifatida faoliyot ko'rsatadilar. Talabalar yangi axborotlarga nisbatan shaxsiy munosabatlarini bildirib, kasbiy tajribalarini boyitishga muvafaq bo'ladilar. Masalan, talabalarda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash jarayonida buni yaqqol ko'rish mumkin. O'z kasbiy tajribalarini oshirish jarayonida talabalarning ichki quvvatlari namoyon bo'ldi. Interfaol o'qitish jarayoni sub'ektlarning teng huquqli dialoglari asosida tashkil topadi. SHuning uchun ham interfaol o'qitish jarayonida faoliyat shakllarini qo'llashda keng ko'lamli improvizatsiya uchun yo'l ochiladi. Interfaol o'qitish jarayonida talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit vujudga keladi. Har bir talabaning ichki quvvatlari ro'yobga chiqishida guruhdagi barcha talabalar muhim o'rin egallaydilar. SHuning uchun ham interaktiv o'qitish jarayonida jamoaviy o'quv jarayonining asosiyligi prinsiplari va tarkibiy qismlari yaqqol namoyon bo'ldi. Interfaol o'qitish jarayoni o'zida har qanday usullar, yo'llar, ularni ishlab chiqish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish va takomillashtirish mexanizmlarini mujassamlashtiradi. SHuning uchun ham mazkur jarayon quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak: a) interfaol ta'lim jarayonini tashkil etish hamda uning sifatini tekshirish va nazorat qilishda talabalarning tavsifnomalari, talablari, ehtiyojlari, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; b) interfaol o'quv jarayonining barcha bosqichlarini amalga oshirishda talabalar va professor-

o'qituvchilarining hamkorligini tashkil etish; v) talabalarning o'zлari uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni egallashlaridagi faoliyotlari, tashabbuskorliklari, ijodkorliklari, yaratuvchiliklarini ta'minlash; g) interfaol o'qitish jarayonini bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatiga imkon qadar yaqinlashtirish; d) interfaol o'quv jarayoni natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarning istiqboldagi kasbiy faoliyatini rivojlantirish; e) talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyat sohasiga xos bo'lgan kompetensiyalarni egallash va o'zlarini mustaqil rivojlantirishlarini ta'minlash kabilari. Ko'plab ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida biz kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan interfaolo'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. O'qitishning interfaol metodlari va texnologiyalari talabalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Jumladan: 1. Interfaol o'qitish jarayonining mazmuni bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy bilimlarni egallash ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi lozim. bunda talabalarning shaxsiy quvvatlari, nuqtai nazarlar, bilim darajalarini aniq hisobga olish talab etiladi. 2. Interfaol o'qitish jarayonida talabalar o'z kuchlariga nisbatan qo'shimcha ishonch hosil qilib, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib, o'z o'quv faolyaitlari uchun mas'uliyat hissiga ega bo'ladilar. 3. Treninglar, ishchan o'yinlar yordamida talabalar muntazam tarzda o'z mavqelarini aniqlashga muvaffaq bo'ladilar. CHunki jamoaviy ish shakli muntazam tarzda o'z mavqeini aniqlash, o'z nuqtai nazarlarini qat'iyat bilan himoya qilishni talab etadi. Buning natijasida guruh a'zolari bilan kelishgan holda umumiy echimlar qabul qilinadi hamda talabalarda yaxlit komanda bo'lib ishslash, bu jarayonda o'z qobiliyatlarini namoyon qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. 4. Interfaol o'qitish jarayonida talabalarning o'zлари mustaqil tarzda kreativ qobiliyatlarini namoyon qiladilar, faol tarzda kasbiy sifatlarni o'zlashtiradilar. 5. Talabalar o'zлари o'zlashtirgan bilimlarni va kasbiy sifatlarni



istiqboldagi faoliyatlarida qo'llash ko'nikmalarini izchil tarzda egallaydilar. 6. Interfaol o'qitish jarayonida vujudga keltiriladigan xayrihoxlik muhiti, o'zaro ishonch hamda hamkorlik talabalarning ijodiy yuksalishlari uchun qulay imkoniyat yaratib, ularning kreativ qobiliyatlarini muntazam rivojlantirishga asos bo'ladi.

Interfaol o'qitish jarayoni talabalar faoliyatini ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tashkil etish imkonini beradi. Jumladan: - tashkiliy yo'nalish: interfaol mashg'ulotlar, treninglar, munozaralar, ishchan o'yinlar, matbuot konferensiyalarini tashkil etish va o'tkazish; faoliyatli yo'nalish: muammolar ustida ishslashning individual usullarini aniqlash, talabalar harakatlarining jadvalini tuzish, talabalarning mustaqil faoliyatlarini yo'lga qo'yish; refleksiya, ya'ni tahliliy yo'nalish: xatolarni tahlil qilish, rejalar va harakatlarga tuzatishlar kiritish kabilar. YUqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, interfaol o'qitish talabalar bilish faoliyatini tashil etish va rivojlantirishning maxsus shaklidir. Bilish jarayonida talabalarning birlashtirilishi faoliyatlar ularning o'quv materiallarini o'zlashtirishga o'z hissalarini qo'shishlariga imkoniyat yaratadi. Ular bir-birlari bilan o'zaro bilimlar, g'oyalar, harakat usullarini almashina boshlaydilar. Bunday o'quv harakatlari o'zaro xayrihoxlik muhitida amalga oshirilib, talabalarning yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltiradi. Natijada ular o'zlarining muloqot ko'nikmalarin rivojlantirishga muvaffaq bo'ladi. Ular jamoada ishslash ko'nikmasini egallaydilar, shu bilan birga o'qitish jarayonida himoyalanganlik hissini tuyib, o'zaro bir-birlarini tushunadilar va shaxsiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Quyida pedagogika oliy ta'lim muassasalari matematika va informatika yo'nalishi 2-kurs talabalar uchun "Algebra va sonlar nazariyasi" fanidan "Bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar" va ularni

yechish usullari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotini interfaol metodlar asosida tashkil etilgan dars namunasini keltiramiz [4].

Guruhda davomat aniqlanadi, amaliy mashg'ulot mavzusi va maqsadi e'lon qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun talabalarni axborotlarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra guruhlarga ajratish lozim bo'ladi. SHu maqsadda talabalarni A-yuqori, B-o'rta va C-past o'zlashtiruvchi talabalar guruhlariga ajratish uchun test topshiriqlari ishlab chiqildi.

Talabalarga testni yechish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. 6-7 ta to'g'ri javob topgan talabalar A guruhga, 4-5 ta to'g'ri javob topgan talabalar B guruhga, 3 va undan kam to'g'ri javob topgan talabalar esa C guruhga kiritiladi. Talabalar bilan maslahatlashgan xolda A guruhga tushgan talabalar ichidan 2 ta talabadan iborat ekspert guruhi saylanadi.

Ekspertlar mashg'ulot davomida: talabalarni tartibga chaqiradilar, sust ishtiroy etayotgan talabalarni faollashtiradilar, talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshiradilar va baholaydilar, zarur bo'lgan vaqtda o'qituvchiga murojaat etadilar.

O'qituvchi ekspertlar bilan talabalar ishlarini kuzatib turadi va ehtiyoj tug'ilgan vaqtida o'z fikrini bildib turadi. Guruhni talabalarning qobiliyatlariga qarab, ya'ni ularning o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga ajratish natijasida darsdan kutilayotgan natija yana ham samaraliroq bo'lishiga erishiladi. Chunki, bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalarni yechish usullaridatanlashvakoeffisientlarnialmashtirish usullari qolgan usullarga qaraganda oson va unda eslab qolish qiyin bo'lga murakkab formulalar yo'q. Bunday tipdagagi misollarni C guruhdagi talabalarga berish ko'proq samara beradi. Eyler teoremasi yordamida va zanjirli kasrlar yordamida yechiladigan bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamarga oid misollarni esa B guruhdagi talabalarga berishni tavsiya etamiz. a ga teskari sinf orqali yechish usiliga doir misollarni esa A guruhdagi talabalar uchun tavsiya etamiz. Sababi, a ga teskari sinf

orgali yechish usulida taqqoslamani yechish algoritmini tuzish va buni boshqa talabalarga tushuntirish talabidan ijodkorlik, mahorat talab qiladi. Darsni bunday tarzda tashkil etish esa darsda har bir talabaga individual hamda differensial yondashishni, darsni yanada samarali bo'lishiga hamda talabalarda o'zidagi bor qobiliyatlarni namoyish qila olishga imkon yaratadi.

1-Topshiriq . ikkinchi shartda 10 ta birinchi darajali bir noma'lumli taqqoslamalar yozilgan slayd ekranga chiqariladi. C guruhdagi talabalarning har biri bu misollardan ixtiyoriy bittadan misolni tanlaydilar va sinash va koeffisientlarni almashtirish usulida yechadilar. Misollar takrorlanmasligi uchun xar bir talaba har xil misolni tanlashini o'qituvchi nazorat qiladi. B guruhdagi talabalar huddi shu misollardan bittadan olishadi va bu misollarni Eyler va Zanjirli kasr yordamida yechishadi. C

- 1.1. $4x = 7 \pmod{3}$;
- 1.2. $13x = 11 \pmod{4}$;
- 1.3. $-8x = 9 \pmod{6}$;
- 1.4. $11x = -32 \pmod{7}$;
- 1.5. $16x = 50 \pmod{3}$;

1-topshiriq uchun misollar.

2-Topshiriq. Ekranga 10 ta birinchi darajali bir noma'lumli taqqoslamalarga oid misollar chiqariladi. Bu shartda har bir guruh birinchi topshiriqda o'zlariga belgilab berilgan yechish usuldan boshqa istalgan usulda taqqoslamani yechishlari kerak bo'ladi. Masalan, C guruh talabalariga sinash va koeffisientlarni almashtirish usuli berilgan edi. Endi ular misollarni Eyler teoremasi, zanjirli kasrlar yoki a ga teskari sinf orqali yechish usullaridan birortasini qo'llab yechishlari kerak. Bu shartda ham misollar takrorlanishining oldini olish uchun har bir talaba alohidadan misol tanlashadi. Topshiriqni bajarish uchun 5-6 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagandan so'ng har bir guruhdan taqdimot uchun talabalar chiqariladi.

guruhdagi talabalar esa a ga teskari sinf orqali yechadilar. Topshiriqni bajarish uchun 5-6 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagandan so'ng har bir guruhdan bittadan talaba taqdimotga chiqadi va misolni ishlanish jarayonini o'quvchilarga tushuntiradi. Misollarni shartlaridan kelib chiqib, C va B guruhlardan ikkitadan talaba chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, jami 5 ta talaba daqdimotga chiqishadi. Har bir taqdimotdan keyin kamchiliklar bo'lsa talabalar bilan muhokama qilinadi, yechish usuli bo'yicha xulosalar beriladi. Taqdimotga chiqqan talabalar 2 ball bilan baholanishadi. Taqdimotga chiqmagan talabalar yechgan misollarni ekspertlar olib tekshirishadi va to'g'ri yechilgan misol 1 ball bilan baholanadi. Ekspertlar misollarni tekshirib bo'lguncha o'qituvchi talabalarga keyingi topshiriq shartlari bilan tanishtiradi.

Yana 5 ta talaba taqdimot uchun chiqishadi. 1-topshiriqda taqdimot qilgan talabalar 2-topshiriqda chiqishmaydi. Har bir taqdimotdan keyin misolni yechish usuli bo'yicha xulosalar keltiriladi. Taqdimotga chiqqan talabalar 2 ball bilan baholanadi va qolgan talabalarning ishlangan misollari ekspertlar tomonidan tekshiriladi va to'g'ri yechilgan misol uchun 1 ball beriladi. Ekspertlar misollarni tekshirib bo'lguncha o'qituvchi talabalarga keyingi topshiriq shartlari bilan tanishtiradi.

3-Topshiriq. Bu shartda har bir guruh a'zosi berilgan misollarni har birini o'ziga qulay usullar bilan yechishi kerak bo'ladi. Ishlangan misollar ekspertlar gurugiga topshirib turiladi. Bu uchun 10 daqiqa ajratiladi. Vaqt tugagandan

- | |
|---|
| 1. $7x \equiv 9 \pmod{11}$
2. $3x \equiv 7 \pmod{13}$
3. $13x = 5 \pmod{17}$
4. $3x = 12 \pmod{7}$
5. $8x = 15 \pmod{19}$ |
|---|

2-topshiriq uchun misollar [5].

so'ng ekspertlar javoblarni yig'ib oladilar va qaysi nechta talaba yechganligini maxsus jadvalga qayd guruhning nechinchi misolini qaysi usul bilan etadilar.

- | |
|--|
| 1. $34x = 7 \pmod{9}$
2. $-7x = 5 \pmod{3}$
3. $26x = 32 \pmod{25}$
4. $41x = 32 \pmod{71}$
5. $34x = 3 \pmod{83}$ |
|--|

3-topshiriq miqollari.

Sinash usuli Misol №	Koeffisientlarni o'zgartirish orqali Misol №	Eyler teoremasi yordamida Misol №	Uzluksiz kasrlar orqali Misol №	Teskari sinf elementi orqali Misol №
Izoh	Izoh	Izoh	Izoh	Izoh
ball	ball	ball	ball	ball


3-jadval. 3-topshiriq javoblar varaqasi.

Dars yakunida ekranga T – jadvali metodi orqali talabalardan o'zlari uchun qulay bo'lgan usul haqida so'raladi. (ilova) Talabalarining misollarni yechishda tanlagan yo'llarining avfzalliklari tomonlarini hamda kamchiliklarini ochib bera olgan talabalarga qo'shimcha 1 ball beriladi. Bir marta muhokamada ishtirok etgan talabadan qayta so'ralmaydi. Chunki ko'proq talaba fikri eshitilib, fikrlarini jamlab, baholab borilishi kerak bo'ladi. Talabalar ballari jadvallarga qayd etib boriladi. Muhokama uchun 10 daqiqa ajratiladi. Bundan maqsad har bir talaba bilan individual suhbatlashish, talabaning mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash, kamchiliklarini tog'rilash, talabani erkin fikrlashga o'rgatish, har bir talabaning individual hususiyatlarini aniqlash, keyingi darsni tashkil etishda kichik

guruhlarni tuzishda bu talabalarning individual hususiyatlarini e'tiborga olish, har bir talabaning qobiliyatiga qarab topshiriqlar tuzishdir.

Dars yakunida ekspertlar tomonidan qo'yilgan baholar va o'qituvchi qo'yanan baholar jamlanadi va talabalar baholari e'lon qilinadi va tizimga qo'yiladi. Uyda mustaqil bajarish uchun topshiriqlarni o'qituvchi belgilab beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda talabalarining o'quv-bilish faoliyiklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalananish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'qitish jarayoni oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchilardan ham zaruriy pedagogik, metodik, psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni



talab etadi. Bunday tayyorgarlikka ega bo'lish orqali professor-o'qituvchilar mashg'ulot uchun qulay bo'lgan interfaol jarayonni tashkil etishga muvaffaq bo'ladilar. YUqorida keltirilgan tahlillar asosida, interfaol o'qitish metodlari quyidagilarni ta'minlashga xizmat qiladi: yuqori darajadagi kasbiy mayllarni hosil qiladi; bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi; talabalarda ijodkorlik va xayolni shakllantiradi; talabalarning muloqotga kirishuvchanligini shakllantiradi; talabalar orasida jamoaviylik ruhini vujudga keltiradi; talabalarning o'ziga xosliklarini qadrlashlariga zamin hozirlaydi;

talabalarning o'zlarini erkin tarzda namoyon qilishlariga xizmat qiladi; talabalarda o'z kasbiy faoliyatlariga urg'u berish ko'nikmasini tarkib toptiradi; talabalarda o'zaro hurmat hissini qaror toptiradi. Bu esa o'z navbatida talabalarni kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga, bo'lajak kasbiy faoliyatga oid nostandard vaziyatlarni modellashtirishga, talabalarni pedagogik jarayonning faol sub'ekti sifatida idrok etishiga, har bir harakati va qarori uchun mas'uliyatni his etish va muvaffaqiyat qozonishga o'rgatadi.



Foydalanilgan adabiyyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sон "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lím-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-sон.
2. Banina T. S., Vavilova L. N. Sovremennye sposoby aktivizatsii obucheniya. — M.: Akademiya, 2008. – 176 s.
3. D.Xidoyatova. - Interfaol metodlar / uslubiy qo'llanma. – Toshkent: «ABU MATBUOTKONSALT», 2015. – 44 b.
4. R.N.Nazarov., B.T.Toshpo'latov., A.D.Do'sumbetov. Algebra va sonlar nazariyasi, II-qism. - T., "O'qituvchi", 1995.
5. D.I.Yunusova., A.S.Yunusov. Algebra va sonlar nazariyasi. Modul texnologiyasi asosida tayyorlangan misol va mashqlar to'plami. - T., "ILM - ZIYO", 2009.
6. K.X.Xummamatova. Ma'ruba mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanish.// "Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning zamonaliv holati va istiqbollari" xalqaro ilmiy-amalij anjuman materiallari. 2023 y, 14 noyabr, Jizzax.

"TURISTIK MAQSADLAR UCHUN INGLIZ TILI" (ETP) GIDLAR FAOLIYATI: EHTIYOJLAR VA MUAMMOLAR

QUZIYEV SARVARBEK ILMIDDINOVICH
Ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Jahon sayyohlik sanoatining jadal rivojlanishi bilan ESPga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish har qachongidan ham zaruriy holatga aylanib bormoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun o'quvchilarning muammolari va ehtiyojlarini tahlil qilish dolzarb bo'lib qoldi. Shu bois mazkur tadqiqot Farg'ona vodiysidagi turli joylarda xizmat qilayotgan 46 nafar turistik gidrlarning ehtiyojlari, vazifalari va muammolarini o'rganishga qaratilgan. Buning uchun so'rovnoma anketadan foydalanildi va ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, gapirish va tinglash eng muhim qobiliyatlar hisoblanib, keying o'rinda o'qish va yozish ekanligi aniqlandi. Ingliz tilining funksiyalariga kelsak, natijalar umumiyl suhbat, savollarga javob berish va muammolarni hal qilish va xizmatlar ko'rsatish eng muhim vazifalar ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, natijalar xorijlik sayyohlarning ingliz tilida juda tez gapirishi Farg'onalik turistik gidrlar uchun eng jiddiy muammo ekanligini ko'rsatdi. Ular duch kelgan boshqa qiyinchiliklar, jumladan, ingliz tili nutqida noto'g'ri foydalanish, so'z boyligining etishmovchiligi va yozish uchun grammatikadan foydalana olmaslik. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turistik gidrlar ingliz tilini bilish, xususan, tinglash, gapirish va o'qish bilan bog'liq muammolarga duch kelishgan. Tavsiyalar va pedagogik yechimlar taklif qilindi.

Kalit so'zlar: ESP, til ko'nikmalari, funksiyalar, muammolar, ehtiyojlarni tahlil qilish, Farg'ona turistik yo'rqnomalari.

KIRISH

Turizm industriyasi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qabul qiluvchi mamlakatlarni xorijiy valyutalar bilan ta'minlashi, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalarida ish o'rinalarini yaratishi va davlat daromadlarini, shu jumladan mehmonxonalar va boshqa turdag'i soliqlar, turistik soliqlar, aeroportdan chiqish soliqlari, daromad solig'i va import bo'yicha bojxona to'lovlarini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun Farg'ona viloyatida ham turizm sohasi kundan-kunga rivojlanib, davlatning keng qamrovli iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Farg'ona sayyohlik maskaniga aylandi va butun dunyodan turistlar tashrif buyurmoqda. Turizm agentliklari bo'limining statistik ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil oxirigacha Farg'ona viloyatidagi sayyohlik ob'yeqtlariga 500 000 ga yaqin sayyoh tashrif buyurgan. Bundan 100 ming nafarga yaqini Osiyodan,

75 000 ga yaqini Yevropadan, qolganlari esa chegaradosh mamlakatlardan kelgan sayyohlardir. Statistik ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, ko'plab sayyohlar ingliz tilida tilida so'zlashuvchilardir. Farg'ona turizm departamenti turli tumanlarda bo'limlarga ega bo'lib, turistlarga turli yo'llar bilan yordam beradi; Tashrif buyuruvchi turistlar muloqot qiladigan lingua franca bu ingliz tilidir. Agar turistik gidrlar va sayyohlar o'rtasida muvaffaqiyatli muloqot bo'lsa, xizmatlardan ko'proq qoniqish paydo bo'ladi va natijada ko'proq sayyohlar keladi. Bu o'rinda ingliz tili xalqaro muloqot til sifatidagi hozirgi mavqeい tufayli, ko'p madaniyatli sayyohlar bilan doimiy ravishda shug'ullanadigan barcha gidrlar uchun bu tilni o'rganish zarur bo'ladi.

1.1. Ehtiyojlar tahlili.

Umuman olganda, Farg'onada sayyohlik gidrlar universitetlarda ingliz tiliga an'anaviy

tarzda o'qitiladi. Shuning uchun rasmiy ehtiyojlarni tahlil qilish va ingliz tilidan chet tili sifatida foydalanishda sayyohlik gidlar duch keladigan muammolarni aniqlash ustida tadqiqot olib boorish dolzarblashdi. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotning maqsadi Farg'ona shahridagi sayyohlik gidlarning ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojlari va muammolarini o'rganish etib tanlandi.

Ehtiyojlarni tahlil qilish ko'p yillar davomida Ingliz tilining ajralmas asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) amaliyotchilari tadqiqotchilari, kurs dizaynerlari, material ishlab chiquvchilar, testerlar, baholovchilar hamda sinf o'qituvchilarid{oimo ehtiyojlartahlili} ustida ish olib borishgan. Umuman olganda, ehtiyojlar deganda turli tushunchalarni anglashimiz mumkin. Robinson ta'kidlaganidek, "ehtiyojlarni tahlil qilish" atamasi "tahlilchilarning mafkuraviy tasavvurlari ta'sirida" bo'lib, bu ehtiyojlar "o'z-o'zidan ob'ektiv haqiqatga ega emas" degan ma'noni anglatadi. Biroq, maqsadga yo'naltirilgan ta'rif sifatida ehtiyojlar "o'quvchining o'qishi yoki til kursining oxirida nima ko'rsatishi kerak bo'lgan ish talablarini" anglatishi mumkin. Bundan tashqari, Bervik ushbu turdag'i ehtiyojlarni "ob'ektiv" deb hisobladi. Richards ma'lumotlarto'plashjarayoni sifatida ehtiyojlarni tahlil qilish "o'quvchilarning ehtiyojlari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun foydalaniladigan protseduralar sifatida" ta'riflanishi mumkinligini ta'kidladi. Xuddi shunday, Nunan (1988) ehtiyojlarni tahlil qilishni "o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'llaniladigan ma'lumotlarni yig'ish usullari va tartiblari" deb talqin qildi. Shu nuqtai nazardan xulosa qilish mumkinki, mahalliy talabalarning ehtiyojlar odadta o'quv materiallariga kiritilmaydi, chunki "ehtiyojlarni tahlil qilish bizning universitetlarimizdagi tadqiqotchilar va til

o'rgatuvchi mutaxassislar tomonidan hali etarlicha e'tiborga olinmagan".

Yuqorida ta'riflarni inobatga olgan holda Farg'ona sharoitida sayyohlik gidlar faoliyatidagi ehtiyojtahlili muloqot jarayonida ingliz tilining o'ziga xos kommunikativ funksiyalariga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Bundan tashqari, farg'onalik sayyohlik gidlar ingliz tilidan turistlar bilan suhbat o'tkazish, ma'lumot berish, xizmatlar ko'rsatish, yordam ko'rsatish, savollarga javob berish, muammolarni hal qilish va hokazolar vositasi sifatida foydalanadilar.

Ehtiyojlarni tahlil qilish bu yerda sayyohlik gidlarning akademik, kasbiy, madaniy va til ma'lumotlari to'g'risida ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi, bu ularning ish jarayonida ularning haqiqiy ehtiyojlariga mos keladigan ESP kursini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar berishdir.

Ehtiyojlarni tahlil qilish va sayyohlik gidlar oldida turgan til to'siqlarini aniqlash tadqiqotning hal qiluvchi asosiy jarayonidir. Bu tilni o'rgatish va o'rganishda o'quv dasturlarini rejalashtirish jarayonining juda muhim qismi hamdir. Shuning uchun, agar ehtiyoj tahlili o'tkazilsa va til to'siqlari aniqlansa, til kursi materiali dolzarb va motivatsion bo'ladi.

1.2 Tadqiqot muammosi

Kommunikativ va lingvistik kompetentsiyalarni rivojlantirish turizm sanoati sohasida ishlaydiganlar uchun kasbiy rivojlanishning zaruriy shartidir. Natijada, turistik gidlarning ingliz tilini, ayniqsa mehmondo'stlik ruhiyatida malakasini oshirish dolzarb talab hisoblanadi. Farg'onada turistik gidlarning ish jarayonida ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, xorijlik sayyohlar bilan real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish zarurati tug'ilganda qanday muammolarga duch kelishini aniqlash bo'yicha juda kam tadqiqotlar amalgalash oshirilgan.

1.3 Tadqiqotning ahamiyati

Turizm sanoati mamlakatiqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu sohaning rivojlanishi til ehtiyojlariga ta'sir qiladi. Misol uchun, mehmonxona xodimlari ingliz tilida so'zlashuvchi mijozlari bilan samarali muloqot qilish uchun albatta ingliz tilini bilishlari kerak. Turizm sanoati uchun esa kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili (EOP) eng muhim masalalardan biridir, chunki har bir individ bilan muloqot qilish bu juda nozik masala, binobarin har bir kishi alohida stereotip hisoblanadi. Farg'onada turizm industriyasini kontekstida ingliz tilini chet til sifatida qayta ko'rib chiqish va kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va ushbu tadqiqot kabi til muammolarini aniqlash manfaatdor tomonlarni til o'quv dasturlari ustida ishslashga undashi mumkin. Bu turistik xodimlarning ehtiyojlarini qondiradi va ingliz tilini chet tili sifatida rivojlantirishga sabab bo'ladi. Chet tilini, ayniqsa ingliz tilini o'zlashtirish turistik gidrlarga turistlar bilan muloqot qilish, ularning madaniy farqlarini tushunish va ish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, Farg'ona sharoitida turistik gidrlar va turizm sanoati uchun ingliz tili bo'yicha tadqiqotlar juda kam uchraydi.

1.4 Tadqiqot savollarri

Ushbu tadqiqot quyidagi tadqiqot savollariga javob berishga qaratilgan:

1) Turistik gidrlar ingliz tilinining qaysi ko'nikmasi ish jarayoni uchun eng muhim deb bilishadi?

2) Turistik gidrlar ish jarayonida ingliz tilining qaysi funksiyalaridan foydalanishlari kerak?

3) Turistik gidrlar ish jarayonida ingliz tilini bilishda qanday muammolarga duch kelishadi: tinglash, gapirish, o'qish va yozish?

4) Umuman turistik gidrlar ish jarayonida qanday muammolarga duch kelishadi?

2. Adabiyotlar sharhi va o'rganilganlik darajasi

Keyingi paytlarda Turizm sohasida ingliz tilini o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ingliz tili xalqaro turizm industriyasida lingua francaga aylandi; shunga qaramay hali ham bu sohada tadqiqotlar kam uchraydi.

Prachanan (2012) ingliz tilidan foydalanish ehtiyojlar, funksiyalari va muammolarini o'rgangan. Turizm sohasida xizmat qilayotgan 40 nafar xodimga anketa tarqatildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gapirish eng muhim mahorat, undan keyin tinglash, o'qish va yozish. "Ingliz tilidan foydalanishda eng muhim uchta vazifa ma'lumot berish, undan keyin xizmatlar ko'rsatish va yordam taklif qilish edi. Ingliz tilidan foydalanish muammolari kiritilgan; maxsus atamali so'z va iboralarni ishlata olmaslik, so'z boyligining yetarli emasligi, grammatika bilimining kamligi" bu turizm shoasi xodimlarining muammoli holati bo'lib chiqdi (117-bet).

Xuddi shunday kontekstda Coskun (2009) ikkinchi kurs turizm talabalarining til bilish darajasini va o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda talabalar ehtiyojlarini o'rgandi. Talabalar Turkiyadagi kasb-hunar maktabida tahsil olayotgan edi. Tadqiqotchi ma'lumotlarni to'plash uchun "ehtiyojlarni tahlil qilish uchun og'zaki suhbat" dan foydalangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, "sinfdagagi ingliz tili darajasi Common European Framework standartlariga muvofiq A2 ni tashkil qiladi va tinglash va gapirish ko'nikmalari o'quv dastur uchun eng zarur ko'nikmalar sifatida qabul qilinadi" (1-bet).

Yuqoridaq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, umuman turistik gidrlarning ehtiyojlarivamuammolarinio'rganishbo'yicha juda kam tadqiqotlar o'tkazilgan. Binobarin, ushbu tadqiqotning mantiqiy maqsadi ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj va turistik gidrlar odatda o'z ishlarida duch keladigan muammolarni aniqlashdir. Farg'onada sayyohlik gidrlarning ingliz tilidagi kommunikativ malakasini oshirish turizm industriyasiga hissa qo'shadi,

degan umiddamiz.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda o'zaro mos keladigan tavsifiy yondashuv qo'llanildi.

3.1 Tadqiqot ishtirokchilar

Ushbu tadqiqotning aholisi Farg'onaning diqqatga sazovor joylarida xizmatko'sratuvchi barcha turistik gidlardan tashkil topgan.

3.2 Tadqiqot namunasi

Tadqiqot namunasi Farg'ona shahridagi 46 nafar turistik gidlarni o'z ichiga oldi.

3.3 Tadqiqot vositasi.

Adabiyotlarni o'rganish asosida tadqiqot vositasi sifatida Farg'onalik sayyohlik gidlarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini, ingliz tilini xorijiy til sifatidagi funksional ehtiyojlarini aniqlash va ingliz tilidan foydalanishda duch keladigan to'siqlarga oydinlik kiritish maqsadida besh balli Likert shkalasi so'rovnomasini ishlab chiqdi.

3.4 Tadqiqot vositasining mosliligi.

Tadqiqot vositasining mosliligini ta'minlash uchun so'rovnama ingliz

tilini chet tili sifatida o'qitish (TEFL) bo'yicha mutaxassislar guruhiga tarqatildi. Mutaxassislar tomonidan anketa savollari tekshirildi. Mutaxassislar anketadagi savollarning moslilagini 90 foiz ovoz bilan yasdiqlashdi.

3.5 Tadqiqot vositasining ishonchliligi

Tadqiqot so'rovnama ishonchliligini o'lhash uchun Crombach Alpha dasturidan foydalanildi va qiymati (0,96)ni tashkil etdi.

Tadqiqotchi barcha so'rovnomalarning to'ldirilganligini tekshirib ko'rdi, so'ngra ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Ijtimoiy fanlar uchun statistik paketdan (SPSS) foydalanildi. Ushbu tadqiqotda quyidagi statistik qurilmalardan foydalanildi:

1) Cronbach Alpha koeffitsienti (yuqorida aytib o'tilganidek).

2) Tadqiqotchi turistik qo'llanmalarning ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojlari va muammolarini quyidagi standartlarga muvofiq tushuntirish uchun 5 balli Likert shkalasidan foydalangan:

A: Ko'nikmalar va funktsional ehtiyojlar

Ko'nikmalar va funktsional ehtiyojlar		
Ko'nikmalar va funktsional ehtiyojlar o'lhash		
1	80% dan ortig'i	juda muhim
2	70-79,9% dan	muhim
3	60-69,9%	kamroq ahamiyatga ega
4	50-59,9%	eng kam ahamiyatga ega
5	50% dan kamroq	unchalik muhim emas

B: Muammolar

1	80% dan ortiq	juda yuqori
2	70-79,9% dan	yuqori
3	60-69,9%	o'rtacha
4	50-59,9%	past
5	50% dan kam,	juda past

4. Tadqiqot muhokamasi va natijalari

Ushbu bo'limda Farg'onada sayyohlik gidlarning ehtiyojlari va turistlar bilan muloqot qilishdagi muammolar statistic natijalari tanishtiriladi. Farg'onalik sayyohlik gidlardan ingliz tilidan foydalanish bo'yicha ularning ehtiyojlari va muammolarini aniqlash so'ralsan. Natijalar quyidagi 1-7-jadvallarda tasvirlangan.

Birinchisi: Birinchi savolga tegishli natijalar

Ushbu tadqiqot quyidagi savolga javob berishga harakat qildi: " Turistik gidlар ingliz tilining qaysi ko'nikmasi ish jarayoni uchun eng muhim deb bilishadi?" Tadqiqotchi 1-jadvalda ko'rsatilganidek, ushbu savolni hal qilish uchun o'rtacha, standart og'ish va foizlardan foydalangan.

	Til ko'nikmalar	Ishtirokchilar	Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	Listening	3.89	0.94	77.83	Muhim
2	Speaking	4.30	0.93	86.09	Juda muhim
3	Reading	3.61	0.99	72.17	Muhim
4	Writing	3.76	0.98	75.22	Muhim
	Umumiy natija	3.89	0.80	77.83	Muhim

1-jadvaldan ko'riniib turibdiki, ko'pchilik turistik gidlarbarcha EFL to'rtta ko'nikmalarini muhim deb baholadilar. Qiziqarli tomoni shundaki, gapirish ko'nikmasi ($M = 4,30, 86,09\%$) eng muhimi deb topilgan, chunki u o'rtacha ko'rsatkich tinglash ko'nikmasi ($M = 3,89, 77,83\%$), va yozish ko'nikmasidan ($M = 3,76, 75,22\%$) ancha yuqori natija ko'rsatdi. Barcha ko'nikmalar orasida o'qish ko'nikmasi ($M = 3,61, 72,17\%$) eng past ahamiyat kasb etdi. Bu shuni ko'rsatadi, ko'pchilik turistik gidlar gapirish ko'nikmasini o'zlashtirishga bo'lган ehtiyoji yuqori ekanligini bildirishgan, chunki ular ish jarayonlarida uning ahamiyatini yuqori

ekanligini his qilishadi. Natijada, turistik gidlar chet ellik sayyohlar bilan muloqot qilish uchun kundalik ishlarida ko'proq ingliz tilida so'zlashish mahoratidan foydalanadilar. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdi, ko'pchilik turizm xodimlari to'rtta ingliz tili ko'nikmalarini, ayniqsa tinglash va gapirishni juda zarur deb hisoblashgan.

Ikkinci: Ikkinci savolga tegishli natijalar

Turistik gidlardan ish joyida ingliz tilining qanday funksiyalaridan foydalanish kerakligi so'ralganda, natjalarni 2-jadvalda ko'rsatilganidek baholadilar.

No	Muloqot funksiyalari	(M) Ishtirokchilar	(SD) Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	Umumiy suhbat	4.56	0.68	91.2	Juda muhim
2	Malumot berish	3.84	1.09	76.8	Muhim
3	Xizmat ko'rsatish	4.06	1.08	81.2	Juda muhim
4	Yosrdan taklif etish	3.76	1.11	75.2	Muhim
5	Ma'lumot so'rash	3.86	1.10	77.2	Muhim
6	Muammolar so'rash va hal etish	4.10	0.99	82	Juda muhim
	Umumiy natija	4.03	0.70	80.6	Juda muhim

Jadval 2. Ingliz tili muloqot funksiyalarining o'rtachalari, SDlari va foizlari

2-jadvalda ko'rsatilganidek, turistik deb hisoblangan to'rtinchi til funksiyasi yo'riqnomalarga ko'ra, eng ko'p talab qilinadigan ingliz tili funksiyalari umumiy suhbat ($M = 4,56, 91,2\%$), savollarga javob berish va muammolarni hal qilish ($M = 4,10, 82\%$) va xizmatlar ko'rsatish ($M = 4,06, 81,2\%$). Turistik gidlar uchun zarur qilishdir ($M = 3,76, 75,2\%$). Umumiy ballga kelsak ($M = 4,03, 80,6\%$) turistik gidlarning javoblari asosida o'rtachasi deb topildi.

2-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, turistik gidlar turistlar bilan umumiy suhbatda, chet elliklarga xizmat ko‘rsatishda, ziyorat yoki boshqa yo‘nalishlarda uchrashganda savollarga javob berish va muammolarni hal qilishda ingliz tilidan foydalanadilar. Ingliz tilining ushbu kommunikativ funktsiyalari turizm sanoatida juda muhim va turistik

gidlardan yuqori malakali va tilni yaxshi bilishni talab qiladi.

Uchinchi: Uchinchi savol bilan bog'liq natijalar

Turistik gidlar ish joyida ingliz tilini bilishda qanday muammolarga duch kelishadi: tinglash, gapirish, o'qish va yozish? Natijalar quyidagi 3, 4, 5 va 6-jadvallarda tasvirlangan.

No	Tinglash ko‘nikmasidagi muammolar	(M) Ishtirokchilar	(SD) Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	Turistlarning o‘ta tez gapirishi	4.13	0.90	82.6	Juda yuqori
2	Ayrim so‘zlarni ma’nosini tushuna olmaslik	3.67	1.05	73.4	Yuqori
3	Ingliz tilini tinglash imkoniyati kamligi	3.65	1.21	73	Yuqori
4	Ayrim so‘zlarni talafuzini anglamaslik	3.45	1.16	69	O’rtacha
	Umumiy natija	3.72	0.91	74.4	Yuqori

3-jadval Turistlarning tinglash malakasidagi muammolarning o‘rtacha, SD va foiz nisbati

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, chet ellik sayyoohlarning ingliz tilida juda tez gapirishi Farg‘onalik turistik gidlar uchun eng jiddiy muammo ($M = 4,13, 82,6\%$). Holbuki, xorijiy aksentlarni tushuna olmaslik eng kam muammoli soha sifatida qayd etilgan ($M = 3,45, 69\%$). Umumiy ballga kelsak, o’rtacha ($M = 3,72, 74,4\%$) belgilandi. Hozirda talim tizimida tinglash ko‘nikmasi mifik tab va universitetlarda biroz e’tibordan chetda qoladigan ko‘nikma bo‘lib, sabab sifatida

talabalar grammatika, lug‘at va o‘qishga etiborni ko‘p qaratilganligidandir. Shunisi e’tiborga loyiqliki, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) kurslari, agar kommunikativ tilni o’rgatish yondashuvi (CLT) dan foydalanishga ko‘rsatma berilsa, muammoni bartaraf etishi mumkin.

Keyingi qism turistik gidlar ish joyida turistlar bilan suhbatda duch keladigan muammolarga bag’ishlangan.

No	Suhbatda duch keladigan muammolarga	(M) Ishtirokchilar	(SD) Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	So‘z va iboralar talafuz qilish muammosi	3.30	1.27	66	O’rtacha
2	Suhbatda nomunosib so‘zlardan foydalanish muammosi	3.80	1.06	76	Yuqori
3	Grammatika va so‘z tartibidagi muammolar	3.60	1.18	72	Yuqori
4	Gapirishga ishonchsizlik muammosi	3.41	1.42	68.2	O’rtacha
	Total score	3.57	1.03	71.4	Yuqori

4-jadval Gapirish/suhbatning o‘rtachalarini, SDlari va foizlari



4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nutqda o‘rinsiz so‘z va iboralarni qo‘llash ($M=3.80$, 76%), grammatika va gap tuzilishi qoidalarini bilmaslik ($M=3.60$, 72%) Farg‘ona shahridagi turistik gidlar uchun o‘tkir muammo hisoblanadi. Umuman olganda, yuqoridagi umumiyl balldan ($M = 3,57$, 71,4%) ko‘rinib

turibdiki, turistik gidlar diqqatga sazovor joylar/dam olish joylarida chet elliklar bilan gaplashish va suhbatlashishda katta muammoga duch kelishadi.

Turistik gidlar duch keladigan o‘qish muammolariga kelsak, quyidagi jadvalda javoblar ko‘rsatilgan.

No	O‘qishda duch keladigan muammolar	(M) Ishtirokchilar	(SD) Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	Juda uzun parchalarni o‘qish	3.30	1.17	66	O‘rtacha
2	Notanish parchalarni o‘qish	3.41	1.20	68.2	O‘rtacha
3	O‘qishda lug‘atning etarli emasligi	3.67	1.09	73.4	Yuqori
4	Lug‘atni tushunish qiyinligi	3.80	1.00	76	Yuqori
5	Turistlar hujjatidagi leksik elementlarni tushunib bo‘lmasligi	3.50	1.27	70	Yuqori
	Umumiyl natija	3.53	096	70.6	Yuqori

Jadval 5. O‘qish mahoratining o‘rtacha, SD va foiz nisbati

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘qishdagi muammolar turistik gidlar ingliz tilidan foydalanishda duch keladigan boshqa ko‘nikmalar kabi jiddiydir, chunki umumiyl ball ($M = 3,53$, 70,6%). 5-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, turistik gidlar o‘qishda lug‘at etishmasligi ($M = 3,67$, 73,4%), lug‘atni tushunish ($M = 3,80$, 76%) va rasmiy hujjatlardagi leksik elementlarni tushunishda ($M = 3,50$, 70%). muammolarga duch kelishlari aniq. Bu turistik gidlar tugatgan maktablarda o‘qitish usullari bilan

bog‘liq bo‘lishi mumkin. Lug‘atni kontekstda va hamkorlikda o‘rgatish eslab qolishni samaraliroq qiladi. Respondentlarning ko‘pchiligi o‘qish va yozish ko‘nikmalarini muammoli deb bilishlarini, ammo ular bilan muloqotda tinglash va gapirish qobiliyatlariga qaraganda kamroq muammoli deb hisoblashlarini aniqladilar.

Sayyohlik gidlar ish joyida yozish mahorati bilan bog‘liq qanday muammolarga duch kelishini aniqlash so‘ralganda, ularning javoblari 6-jadvalda ko‘rsatilgan.

No	Yozishda duch keladigan muammolar	(M) Ishtirokchilar	(SD) Standard alfa	Foiz	Darajasi
1	Grammatik bilimning etishmasligi	3.63	1.30	72.6	Yuqori
2	So‘z boyligining etarli emasligi	3.52	1.26	70.4	Yuqori
3	Yozish imkoniyati yo‘q	3.71	1.08	74.2	Yuqori
4	Yozish qobiliyatları etarli emas	3.04	1.41	68	O‘rtacha
	Umumiyl natija	3.47	1.64	69.4	O‘rtacha

6-jadval. Yozish malakasi o‘rtacha, SD va foizlar

Ushbu jadval turistik gidlarning eng jiddiy muammosi yozish imkoniyatining yo'qligi ($M = 3,71, 74,2\%$), yozish uchun grammatikaning etarli emasligi ($M = 3,63, 72,6\%$), keyin esa lug'atning etarli emasligi ($3,52, 70,4\%$) natijani ko'rsatdi. Boshqa tomondan, yozish qobiliyatining etarli emasligi eng jiddiy muammo deb hisoblangan ($M = 3,04, 68\%$). Umumiy ball shuni ko'rsatdiki, yozish mahorati muammolari o'rtacha ($3,47, 69,4\%$)

deb baholangan. Turistik gidlar kamdan-kam hollarda yozishdan foydalanadilar, chunki ular gapirish va tinglash qobiliyatlariga tayanadi.

To'rtinchidan: To'rtinchi savol bilan bog'liq natijalar.


Umuman turistik gidlar ish joyida qanday muammolarga duch kelishadi? Natijalar quyidagi 7-jadvalda tushuntirilgan.

No	Umumiy ingliz til ko'nikmalarini muammolari	M Ishtirokchilar	SD Standard Alfa	Foiz	Daraja
1	Tinglash muammolari	3.72	0.91	74.4	Yuqori
2	Gapirish muammolari	3.57	1.03	71.4	Yuqori
3	O'qish muammolari	3.53	0.98	70.6	Yuqori
4	Yozish muammolari	3.47	1.16	69.4	O'rtacha
	Umumiy natija	3.57	0.91	71.4	Yuqori

Jadval 7. Turistik yo'riqnomalarning o'rtacha, SD va foizlari umumiy ingliz tili muammolari

7-jadvaldan ko'rinish turibdiki, turistik yo'l-yo'riqlar ingliz tilini bilishdagi eng jiddiy muammolar tinglashda bo'lgan ($M = 3,72, 74,4\%$); bunday foiz qolganlar orasida eng yuqori hisoblanadi. Keyin suhbat bilan bog'liq muammolar ($M = 3,57, 71,4\%$), keyin o'qish ($M = 3,53, 70,6\%$). Oxirgi o'ren yozish bilan bog'liq muammolar uchun ($M = 3,47, 69,4\%$) va umumiy ball o'rtacha $3,57 (71,4\%)$. Umuman olganda, yuqoridagi jadvaldan

ko'rinish turibdiki, ingliz tilini bilishda, ayniqsa tinglash, gapirish va o'qishda o'tkir muammolar bor, chunki ularni turistik gidlar qabul qiladi. Bu turistik gidlarning xizmatdan oldingi malakasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni, turistik gidlar o'zlarining haqiqiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tegishli tayyorgarlikdan o'tmaydilar. 1-rasm yuqoridagi natijalarni ko'rsatadi.



1-rasm. Turistik gidlar duch kelgan til muammolari darajalari

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turistik gidlar o'rtasida ingliz tilidan foydalanish va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj va muammolar aniq. Farg'onlik sayyohlik gidlarining eng jiddiy muammolari xorijlik sayyohlarning nutqini kuzatib borishi, chunki ular juda tez gapiradi, nutqda tushunarsiz so'z va iboralarni ishlataadi, grammatic bilimga ega emasligi, lug'at boyligi yetarli emasligi, yozish imkoniyati yo'qligida.

5. Xulosa

Ushbu tadqiqot Farg'onlik sayyohlik gidlarining ingliz tilini bilish va funktsiyalariga bo'lgan ehtiyojlari hamda ularning ish jarayonlarida duch keladigan muammolarni o'rganib chiqdi. Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatdiki, turistik gidlar o'zlarini ishlayotgan joyda ingliz tilida jiddiy muammolarga duch kelishgan. Farg'onada turizm rivojlanmoqda; 2023-yilning oxirigacha Farg'onaning turistik diqqatga sazovor joylariga taxminan 5000 sayyohlik guruhi tashrif buyurdi. Agar ushbu soha muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, turistik gidlar uchun ingliz tilida muloqot qilish bo'yicha ESP o'quv dasturlarini ishlab chiqishlari

kerak. Buning sababi shundaki, turistik gidlar xodimlarining asosiy roli turistlarning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash, asosan ingliz tilida gaplashishdir.

6. Pedagogik tavsiyalar

1) Turistik gidlar safiga qo'shilishni xohlovchilar ro'yxatga olinishidan oldin ESP, ayniqsa turizm maqsadlari uchun ingliz tilini tanishtirishlari kerak.

2) Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turistik gidlar o'zlarini sezganlaridek, ayniqsa tinglash va gapirishda jiddiy muammolarga duch kelishgan. Shunga ko'ra, bunday muammolarni hal qilish uchun tilning kommunikativ dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

3) Muloqotko'nikmalarini rivojlantirgancha rag'batlantirish kerak.

4) Turistlarning turistik gidlarning muloqot qobiliyatlari haqidagi tasavvurlarini o'rganish uchun replika tadqiqotlari o'tkazilishi mumkin.

5) Keyingi o'rganishni boshqa sohalar, masalan, tibbiyot banki, media, biznes va boshqalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



- Chang, T. Y., & Hsu, J. M. (2010). Development framework for tourism and hospitality in higher vocational education in Taiwan. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport, and Tourism Education*, 9(1), 101-109. <http://dx.doi.org/10.3794/johlste.91.246..> DOI:10.3794/johlste.91.246
- Harding, K. (2011). Introduction to Hospitality and Tourism: The Language of Hospitality and Tourism. Retrieved from <http://www.onestopenglish.com/esp/hospitality-and-tourism/introduction-to-hospitality-and-tourism/>
- Lin, C. H., Wu, W. C., & Huang, Y. T. (2013). English for Specific Purposes (ESP) for hospitality college students and hotel employees in Taiwan. *International Journal of Education and Research*, 1(8), 2201-6333.
- Meemark, M. (2002). An Analysis of Needs and Problems of English for Tourist Guides (Master thesis M.A. Language and Culture for Communication and Development, Graduate School Mahidol University, Bangkok).
- Widowson, H. G. (1981). English for specific purposes: Criteria for course design. Oxford: Oxford University Press.
- Chen, P. C., Chiu, W. Y., & Lin, T. Y. (2011). A study constructing a holistic English for specific purposes (ESP) curriculum model for tourism and hospitality English. *Education Research Journal*, 1(5), 84-93.
- Chen, W. (2009). A pilot study of some ROCMA cadets' difficulties in English speaking. WHAMPOA-An Interdisciplinary Journal, 58, 119-126.
- Clarvie, M., Charles, S., & Hassan, F. (2013). "I doesn't know English": Beliefs and practices in the teaching of speaking in ESL classroom. *Journal of Social Sciences & Humanities*, 21(2), 449-460.
- Coskun, A. (2009). An ESP course for tourism students. *ESP World*, 4(25), 1-15. Retrieved from http://www.espworld.info/Articles_25/An_ESP_Course_for_Tourism_Students.pdf
- Bobanovic, M. K., & Grzinic, J. (2011). The importance of English language skills in the tourism sector: A comparative study of students/employees perceptions in Croatia. *Almatourism-Journal of Tourism, Culture and Territorial Development*, 2(4), 10-23.
- Brindley, G. (1989). The role of needs analysis in adult ESL programme design. In adult ESL programme design. In R. K. Johnson (Ed.), *The Second Language Curriculum*. Cambridge: Cambridge University Press

FIZIKADAN ALGEBRAIK VA GEOMETRIK MASALALARINI YECHISH METODIKASI TAKOMILLASHTIRISH

RAIMOV G‘AYRAT FAYZULLAYEVICH
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolaning ahamiyati shundaki, unda fizika darslarida optika bo‘limiga doir masalalarini bir yoki bir necha usulda oson usulda yechish metodikalari noan'anaviy, kreativ usullari ko‘rsatilgan. Bu usullarni o‘rganish orqali o‘quvchilar mexanika bo‘limiga doir masalalarini tezkor fikrlash orqali bir yoki bir necha usulda yechishni o‘rganadilar.

Kalit so‘zlar: linza, optik kuchi, hosila, differsial, balandlik, vaqt, tezlik, erkin tushish tezlanish, kuch, massa.

“Mexanika bo‘limiga oid masalalarini bir yoki bir necha usulda yechish” maqolasi muallif tomonidan murakkab mavzularni va masalalarни sodda va tushunarli bayon etilgani bilan alohida ajralib turadi. Ushbu maqolada nafaqat o‘quvchilarga, balki fizika faniga qiziquvchilar hamda abituriyentlarga kerak bo‘ladigan ma’lumotlarga ega. Ushbu maqolada mexanika bo‘limiga oid masalalarini bir yoki bir necha usulda yechishga doir murakkab mavzular masalalar yechish namunasi yordamida tushuntirilgani mavzuni yaxshi o‘zlashtirish uchun qulay va samarali uslub hisoblanadi. Maqolada BMBA tomonidan turli yillarda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida foydalanilgan abituriyentlarga

Yechim:

$$d+f=0,25 \text{ bundan: } d + \frac{Fd}{d-F} = 0,25 \quad (1)$$

$$\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f} \text{ bundan: } f = \frac{Fd}{d-F} \quad (2)$$

Bu yerda d-maksimumga erishish uchun uning hosilasi nolga teng bo‘lishi kerak:

$$\frac{2d(d-F)-d^2(1-0)}{(d-F)^2} = 0 \text{ bundan: } \frac{d^2-2dF}{(d-F)^2} = 0 \text{ bundan: } d = 2F \quad (3)$$

(3) ni (2) ni keltirib qo’ysak:

$$f = \frac{F \cdot 2F}{F} = 2F \text{ bundan:}$$

$$4F = 0,25 \text{ bundan: } F = \frac{1}{16}$$

murakkab tuyuladigan masalalar yechimlari joy olgani abituriyentlarga ham qo‘l keladi. Maqoladan fizika fani o‘qituvchilari ham ushbu mavzularni darslarining samaradorligini oshirishda foydalana maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fizikaning optika va boshqa bo‘limilaridan masala yechish o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi, ularni olimlarning ishlari, fan va texnikaning yutuqlari bilan tanishtirib boradi.

1-Masala. Linza oldidagi buyum bilan uning haqiqiy tasviri orasidagi eng qisqa masofa 25 sm ga teng bo’lsa, linzaning optik kuchinin (D) toping.



U holda:

$$D = \frac{1}{F} = \frac{1}{\frac{1}{16}} = 16 \text{ dptr}$$

2-usul:

$$\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f} \quad \text{bundan: } f = \frac{Fd}{d-F}$$

$$d + f = l \quad \text{bundan: } l = \frac{d^2}{d-F}$$

$$l = \frac{d^2 - F^2 + F^2}{d-F} = \frac{d^2 - F^2}{d-F} + \frac{F^2}{d-F} = d + F + \frac{F^2}{d-F} = d - F + 2F + \frac{F^2}{d-F} = (d - F + \frac{F^2}{d-F}) + 2F$$

Koshi tengsizligidan:

$$((d - F) + \frac{F^2}{d-F})_{min} = 2 \sqrt{(d - F) \frac{F^2}{d-F}} = 2F$$

demak:

$$l_{min} = 2F + 2F = 4F = 0,25 \quad \text{bundan: } F = \frac{1}{16}$$

$$U \text{ holda: } D = \frac{1}{F} = 16 \text{ dptr}$$

Masala yechish ko‘p hollarda fizika darslarining tarkibiy qismi bo‘lib keladi.

O‘qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda va uni mustahkamlashda, o‘tilganlarni takrorlashda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko‘rishda masala yechishdan foydalanadi. Fizikaga qiziquvchi o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham masalalar yechiladi, ular olimpiadaga tayyorlanadi.

Olimpiadaga yechilishi qiyin va yangilik elementlarini o‘z ichiga olgan masalalar tanlanadi.


Masala yechish – olingen nazariy bilimni amaliyatga qo‘llashdir. Bu esa o‘quvchilarning fizik tafakkurini (fikrlashini) rivojlantirishda, jumladan hodisalarini tahlil qilishda, ular haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirishda, o‘xshash tomonlarini va farqini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki

eksperiment yordamida yechiladigan muammo fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo‘yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

Masala yechish orqali talabalar bilimlarini kengaytiradilar. Qonun va formulalarini chuqurroq bilishni o‘rganadilar, ularni qo‘llanish chegaralarini ko‘rib chiqadilar. Umumiyligida qonuniyatlarni aniq bir vaziyatlarga qo‘llash malakasini egallaydilar. Masala yechish jarayonida hisoblash, adabiyotlar va ma’lumotnomalar bilan ishlash malakalari hosil bo‘ladi. Masala yechish aqliy faoliyatni, fizik hodisalariga maxsus yondashish yo’llarini shakllantiradi. Masalan, kinematikani o‘rganishda masala yechish orqali o‘quvchilar berilgan nuqtalar sistemasi uchun harakat qonunlarini bilish orqali harakatning hamma xarakteristikalarini aniqlash mumkinligiga ishonch hosil qiladilar (tezlik, tezlanish, impuls, energiya). “Nuqta dinamikasi” ni o‘rganishda o‘qituvchi Nyutonning ikkinchi

qonuni kuch, massa va tezlanish orasidagi bog'lanish bo'lmasdan, u harakat tenglamasi ekaniga alohida e'tibor berishi lozim. Uni differensial tenglama ekani ko'rsatib o'tiladi. O'quvchilar hali differensial tenglamalarni yechishni bilmasalar ham uni to'g'ri tasavvur qila oladilar.

2-masala. Massasi $m=2\text{kg}$ bo'lgan M jism (m) qonunga ko'ra kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli harakat qilmoqda. kuch modulining eng katta qiymati aniqlansin (1-rasm).



1-rasm

Yechish. Masala shartiga ko'ra M jism to'g'ri chiziqli harakat qiladi. Jismni moddiy nuqta deb qarab, sanoq sistemasi uchun Ox o'qni olamiz (1-rasm). M jismga faqat kuchi ta'sir qiladi.

M jism harakatining differensial tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$m \frac{d^2x}{dt^2} = F_x. \quad (1)$$

Jismning harakat qonunidan vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli hisoblaymiz:

$$\frac{dx}{dt} = 20 \cos 2t, \quad \frac{d^2x}{dt^2} = -40 \sin 2t.$$

(2) ni (1) ga qo'ysak:

$$F_x = -40m \sin 2t,$$

bu yerda F_x kuch miqdori bo'lganda eng katta qiymatga erishadi.

Demak, $F_x = 80\text{N}$ bo'ladi.

Masala yechish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda hisoblash malakasini oshirishga mashq-masalalar, u yoki bu qonunlarning qo'llanishlarini namoyish qiluvchi masalalar, bilimni mustahkamlash va nazorat qilish masalalari va bilimni orttirishga xizmat qiladigan masalalar ko'rib boriladi.

Bilimni mustahkamlash va nazorat qilishga oid masalalar va mashq-masalalar ma'ruzadan va kitobdan olingan tayyor bilimni qo'llashga mo'ljallanadi. Bu masalalar asosan xotira va

diqqat mexanizmiga asoslanadi. Masalan, berilgan sharoitda (haroratda) molekulalarning o'rtacha kvadratik tezligini hisoblashga oid mashq-masala yechish orqali talaba molekula tezligining juda kattaligiga ishonch hosil qiladi, formulalar takrorlanadi. Bularning hammasi molekular fizikani o'rganishda foydalidir. Avval ma'lum bo'lganlar bilan yangi noma'lumlar orasida bog'lanishlar o'rnatuvchi masalalar aqliy faoliyatni qo'zg'atuvchi bo'lib xizmat qiladi. Bunday masalalar bilimni orttirishga xizmat qiluvchi masalalardir. Ularni yechish orqali o'quvchilar yangi bilimlar oladilar. Agar o'quvchi nazariy jihatdan bo'sh bo'lsa, bunday masalalarni yecha olmasligi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nazariy tayyorgarligiga e'tibor qilish lozim, aks holda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Texnik sabablarga ko'ra (integral ololmaydi, tenglamani yechish yo'lini unutgan) o'quvchi masalani yecha olmasa, u bundan qo'rqmaydi. Lekin masalaning mohiyatiga tushunmasa, uni yechish uchun ko'p ishlash lozimligini anglasa, mustaqil ishlashga xohishi kamayishi mumkin. Shuning uchun mashq-masalalardan sekin asta bilimni orttirishga xizmat qiluvchi masalalarga o'tib borish lozim, bunda o'quvchilarning ko'pchiligi ularni yecha oladigan bo'ladi.

Sifat masalalari. Mantiqiy muhokama qilish orqali yechiladi. Hisoblash masalalarini yechishda tenglamalar tuzilib, ular matematik usulda yechiladi. Ba'zi bir masalalar geometrik shakllar chizish orqali yechiladi.

Masalani quyidagi reja asosida yechish mumkin (ba'zi masalalarni yechishda

ayrim bandlari tushib qolishi mumkin):

- 1) masala sharli diqqat bilan o'qiladi;
- 2) masaladagi hamma so'zlarning ma'nosi tushunarlimi? Noma'lum so'z ma'nosi kitobdan yoki o'qituvchidan aniqlanadi;
- 3) masala sharti yoziladi (hammasi bir o'lchov birliklar sistemasidagi aniqlanadi);
- 4) chizmasi chiziladi (agar u zarur bo'lsa);
- 5) masalani tahlil qilib, fizik ma'nosi ochiladi;
- 6) bu masalani yechishda qanday qonuniyatlardan foydalanishi aniqlanadi.
- 7) fizik kattaliklarni bog'lovchi tenglama tuziladi;



8) tenglamani yechib, noma'lum kattalik topiladi va umumiylar ko'rishda javob olinadi;

9) kattaliklarning qiymatlarini SI sistemasiga keltirib, o'rniqa qo'yib, hisoblab, son qiymati topiladi;

10) olingan javob tahlil qilinadi, berilganlarning o'zgarishi bilan no'malum qanday o'zgarishi ko'rib chiqiladi.

Masala doim shu reja asosida yechib borilsa, o'quvchilar ko'nikib qoladilar.

Berilgan:

$$D = 50 \text{ sm} = 0,5 \text{ m}$$

$$d = 1 \text{ sm} = 0,01 \text{ m}$$

$$\rho_s = 1000 \text{ kg/m}^3$$

$$h = 45 \text{ sm} = 0,45 \text{ m}$$

$$x_1 = ? \quad v(h) = ?$$

Yechish: Idishning va teshikning ko'ndalang kesim yuz mos ravishda S_1 va S_2 ; Suyuqlikning pasayish va teshikd oqib chiqish tezligini v_1 va v_2 deb belgilab olam Suyuqlik oqimining uzluksizlik ta'rifiga ko'

$$S_1 \cdot v_1 = S_2 \cdot v_2 \text{ bundan}$$

$$X_2 = \frac{S_1 \cdot x_1}{S_2} \quad (1)$$

va Bernulli tenglamariga ko'ra, $\frac{\rho \cdot v_1^2}{2} + \rho \cdot g \cdot h = \frac{\rho \cdot v_2^2}{2}$ dan $v_1^2 + 2 \cdot g \cdot h = v_2^2 \quad (2)$ ega

bo'lamiz.(1) va (2) ifodalar asosida $v_1^2 + 2g \cdot h = \frac{S_1^2 \cdot v_1^2}{S_2^2}$ va bundan

$$x_1 = \frac{S_2 \cdot \sqrt{2g \cdot h}}{\sqrt{S_1^2 - S_2^2}} \quad (3)$$

Idish ko'ndalang kesim yuzasini ularning diametrлari orqali $S_1 = \frac{\pi \cdot D^2}{2}$ va

$$S_2 = \frac{\rho \cdot d^2}{2} \text{ ifodalab}$$

(3) ifodani quyidagicha yozamiz: $v_1 = \frac{d^2 \cdot \sqrt{2g \cdot h}}{\sqrt{d^4 - d^4}}$ Jumladan, $D^4 \gg d^4$ ekanligini

e'tiborga olsak, suyuqlikning pasayish tezligi

$$x_1 = \frac{d^2 \cdot \sqrt{2gh}}{D^2} = \frac{0,01^2 \cdot \sqrt{2 \cdot 9,81 \cdot 0,45}}{0,5^2} \approx 0,12 \cdot 10^{-2} \frac{m}{c}$$

Biror bosqich qolib ketsa, masala to'g'ri chiqmasligi mumkin. O'qituvchi uni ko'rsatib borishi lozim.

3-masala. Diametri 50 sm bo'lgan silindr simon idish tubida diametri 1 sm bo'lgan kichik teshik bor. Idishdagi suyuqlikning pasayish tezligining suyuqlik ustunining balandligiga bog'liqlik tenglamasi keltirib chiqaring. Idishdagi suv sathi 45 sm balandlikda bo'lgan hol uchun suyuqlikning pasayish tezligini baholang.

4- masala. Sovuqda qolgan chelak tubidagi suv muzlab qoldi. Chelakka vodoprovod suvidan biroz quyildi Muz erigach, suv sathi qanday o‘zgaradi. (ρ_0 - suvning zichligi, ρ_1 - muzning zichligi)

Yechilishi.

«1»-dastlabki muz erimagan paytdagi holat,

«2» – keyingi muz erigan paytdagi holat.

Suv va muzning umumiyligi hajmi «1» V_1 :

$$V_1 = V_s + V \quad (1)$$

$$V_1 = Sh_1 \quad (2)$$

h – idish asosining balandligi,

h_1 -suv sathining dastlabki balandligi

V – muzning hajmi: $V = \frac{m}{\rho_1}$ (3), m -muzning massasi, ρ_1 - muzning zichligi

V_s – suvning hajmi.

m massali muz eriganda, uning massasi o‘zgarmaydi ya’ni m massali suv hosil bo‘ladi.

Muz erigandan keyingi suyuqlikning va suvning umumiyligi hajmi:

«2» – V_2 :

$$V_2 = V_s + V \quad (4)$$

$$V_2 = Sh_2 \quad (5)$$

V - muz eriganda hosil bo‘lgan suvning hajmi: $V = \frac{m}{\rho_0}$ (6) ρ_0 -suvning zichligi

(1) va (4) ifodalarni hadma-had ayiramiz:

O'quvchilarning yuqori sinflarga ko'chganida matematik tushunchalarni o'zlashtirishlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu ayniqsa, fizika darsiga qiziqtirishni uyg'otish, o'quvchilarga fizika darsiga qiziqarli o'tishi uchun o'qituvchi o'z kasbining mohir bilimdoni, izlanuvchisi, yetuk ustozni bo'lishi lozim. Fizika masalalar va ularning yechish usullarini o'rgatishda turli

innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib tashkil qilingan darslar o'quvchilar o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Ularning yechish usullari mavzusi fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib uni 6-11-sinflarda chuqur va mukammal o'rganish kelajakda ushbu fanning fidoisi bo'lib yetishishlari uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raimov G. F. Maktab fizika darslarida nostandart masalalar yechish metodikasi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi –Namangan, -2020.
-7 son. -B.300-304. (13.00.00, №30). ISSN-2181-0427.

2. Raimov G. F. Improving the solution of non-standard problems in school physics lessons // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. –Namangan, -2021. -9 – son. -B.-423-429. (13.00.00, №30). ISSN-2181-0427.

3. Raimov G'. F. Methodology of selection, construction and solution of non-standard graphics, drawings, pictures of the department of physics "mechanics"
// European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 5, may 2021 y, ISSN: 2660-5562 142 | Page 142-146.

4. Raimov G. F. Principles of didactics in computer solution of non-standard problems from physics in general secondary schools. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102), (2021). 759-761. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-102-79> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304.

PEDAGOG XODIMLAR KASBIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM MUASSASASI MENEJERINING VAZIFALARI

MAMATKULOVA KIMYOXON ABDUJALILOVNA
Nizomiy nomidan Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Pedagogika"
kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lif pedagog xodimlar kasbiy faolligini oshirishda ta'lif muassasasi menejerining vazifalari, maktablarda pedagogik mahoratini va kasbiy malakasini oshirib borish, zamona viy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini boshqarish va dars jarayonlariga tatbiq etish yo'llari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Menejer, zamona viy ta'lif strategiyalari, ta'lif sifati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, boshqaruv.

Аннотация. В статье освещаются задачи руководителя образовательного учреждения по повышению статуса образованных, образованных и высококомпетентных людей в обществе, повышению профессиональной активности педагогических работников общего среднего образования, совершенствованию педагогического мастерства и профессиональной квалификации в школах, внедрению в учебно-воспитательные процессы и управление передовыми методами обучения с широким использованием современных педагогических и информационно-коммуникативных технологий.

Ключевые слова: Менеджеры, современные стратегии обучения, качество обучения, информационно-коммуникативные технологии, образование.

Abstract. The article covers the tasks of the manager of the educational institution, improving the professional activity of pedagogical staff in general secondary education, improving pedagogical skills and professional skills in schools, managing and applying advanced teaching methods to lesson processes, using modern pedagogical and information and communication technologies extensively

Key words: Manager, modern educational strategies, quality of education, information and communication technologies, management.

Ma'lumki, inson har doim o'sishda va rivojlanishdadir. Shunday ekan inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa menejerlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir pedagog o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoa tashkilotchilari bo'lgan insonlar ta'sirida amalgalashadi.

Menejerlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning hulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir.

Menejer boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalarini

va usullarini innovatsion g'oyalar asosida belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Shuning uchun ham menejer yosh pedagogning o'zi tanlagan kasbga mehr qo'yishiga, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishiga va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi, deyishimiz mumkin.

O'z navbatida menejer jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, pedagogik xodimlar bilan o'zaro munosabatlar, maqsadga intilish, ijtimoiy xulq va boshqalarda na'muna bo'lishi zarur, bundan jamoaning har bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Menejer boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, pedagogning jamoaga va jamoaning pedagogga ta'sirini va bu o'zaro

ta'sir ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Ijobjiy ta'sirni vujudga keltirishda menejer pedagogik jamoa va ta'lim muassasaning manfatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, qo'l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyat hamda kayfiyatlar bilan qiziqish, tabassum bilan muomala qilish, xodimlarni ismini hurmat bilan aytib murojaat qilish (har kimga o'z nomini boshliq og'zidan eshitish yoqimli bo'lishini esda tutishi), mutaxassislarga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lish, suhbatdoshini o'zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho'chimaslik, xodimga uning ish uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir xodimning kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etish kabi menejerlikni eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi lozim. Jumladan, bugungi ta'lim muassasasining zamonaviy menejeri o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlar asosida tashkil etishi uchun davr talab etayotgan boshqaruv kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. (1-rasm)

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh pedagoglar ancha vaqtgacha ta'lim muassasasi sharoitiga psixologik jixatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin.

Yana bir sababi, ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh mutaxassis etarli tajriba, ko'nikma va malakaga ega bo'lmanligi uchun jamoaga tez kirishib ketishga qiynaladi. Menejer yoki o'qituvchilar tomonidan o'z vaqtida metodik yordam ko'rsatilmasligi, unga berilgan o'quv yuklamalarini kamaytirilishi yoki olib qo'yilishi hamda berilishi zarur bo'lgan metodik yordamlar o'rniغا tez-tez berilgan tanbehtar yosh pedagogning o'z fani bo'yicha etarli bilimga ega bo'lsada, o'zi tanlagan kasbga nisbatan ko'ngli sovib ketishiga olib keladi.

Har bir yosh pedagog ma'lum kasbiy ijodiy imkoniyatlar potensialiga ega bo'lib, u yoki bu aniq bir mehnat jamoasi sharoitida, pedagogik faoliyatini boshlaydi. Shuning uchun ham menejerlar har bir xodimning shaxsiy fazilati, kasbiy layoqati, ishga munosabatini hisobga olib turlicha yondashishi, jamoa bilan yosh mutaxassislarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri taxlil qilgan holda, mukammal tuzilgan, pedagoglar bilan ishslash rejasiga ega bo'lishlari va shu reja asosida muntazam faoliyat olib borishlari shart. Buni boshqaruv prinsipi ham taqozo etadi. Bir qator tadqiqotlarga asoslangan holda, menejerlarning pedagoglar bilan ishslash rejalarini tuzishlarida quyidagilarni inobatga olishlari zarur:¹

yosh mutaxassislarning ta'lim muassasasi sharoitiga psixologik moslashuvini tezlashtirish uchun seminar va uchrashuvlar tashkil etish;

o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'quv yuklamalari bilan ta'minlashga erishish;

darslarga tayyorgarligi va dars o'tish metodlarini kuzatib, alohida tahlil qilib borish;

ilmiy-metodik jurnal va gazetalarda maqolalar bilan ishtirot etishlarini;

yosh mutaxassislarni yo'nalishlari bo'yicha ilg'or pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga biriktirish;


barcha pedagogik xodimlarni ilmiy-amaliy konferensiya va o'quv seminarlariga muntazam ravishda ishtirot etishlarini nazoratga olish;

darslarni ilmiy asosda tashkil etishlari uchun dars jarayonida zarur bo'ladigan texnik vositalar bilan ta'minlash;

darslarga tayyorgarligi va dars o'tish metodlarini kuzatib, alohida tahlil qilib borish.

Darhaqiqat, ushbu vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirishda xorijiy davlatlarning ta'lim yo'nalishidagi ilg'or innovatsion tajribalari orqali mamlakatimizdagi ta'lim

¹ Тұрғунов С.Т., Максудова Л.А. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш. – Т.: «Фан», 2008.



1- rasm. Maktab direktorining funksional faoliyat yo‘nalishlari va kompetentligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar

muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetentligi va mahoratlarini yanada oshirish bo‘yicha ta’lim tashkiloti menejeri tomonidan bir qator samara beradigan ishlarni oldiga maqsad qilib olinishi zarur.

Bugungi kunda ta’lim muassasalaridagi mutaxassislarning salohiyati mazkur muassasa menejerlarining reytingini belgilovchi eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bilimli, etarli tajriba va ko‘nikmaga ega bo‘lgan, o‘z fanini yaxshi biladigan, ijodkor

va tashkilotchi pedagoglarni qo'llash, ularga etarli sharoitlar yaratib berish, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun yaqindan

yordam berish kabi dolzARB vazifalar menejerlar faoliyatining mazmuniga aylanishi maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. .B.Shamsiyev, N.Raxmankulova, Z.Kim, R.Matkurbanov. Ta'lIM tizimini muassasalar rahbarlariga: o'qing, urganing, amal qiling». -T.:2018.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lIM menejmenti. – T.: «Voris», 2006.
3. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: «Fan», 2008.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IFODALI VA IZOHLI O'QISHGA O'RGATISH KOMPONENTLARI

ABDULLAEVA GULMIRA ABDULLAEVNA
**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif
kafedrasи assistant o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ifodali o'qish malakalarini shakllantirishning turli-tuman yo'llari bor. Buning uchun o'quvchining yosh xususiyatlariga ham alohida diqqat qilish kerak. Bu muammo kichik-kichik maqolalarda bir tomonlama o'rganilgan bo'lsa ham atroficha monografik tadqiq qilingan emas. Mazkur maqolada 1-sinf o'quvchilari misolida ifodali o'qishga o'rgatish komponentlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: o'qish, komponent, tushunish, 1-sinf, ifodali o'qish, idrok qilish, tahlil qilish.

Аннотация. Существуют разные способы развития навыков выразительного чтения. Для этого необходимо обратить особое внимание на возрастные особенности ученика. Хотя эта проблема изучена однобоко в небольших статьях, в монографическом плане она не исследована всесторонне. В данной статье рассматриваются компоненты обучения выразительному чтению на примере учащихся 1 класса.

Ключевые слова: чтение, компонент, понимание, 1 класс, выразительное чтение, восприятие, анализ.

Abstract. There are different ways to develop expressive reading skills. For this, it is necessary to pay special attention to the age characteristics of the student. Although this problem has been studied one-sidedly in small articles, it has not been comprehensively researched monographically. This article discusses the components of teaching expressive reading on the example of 1st grade students.

Key words: reading, component, understanding, 1st grade, expressive reading, perception, analysis.

KIRISH

Badiiy asarlarni ifodali qish harakati ko'p ilgari boshlangan. Fikrimizni bir necha misol yordamida dalillash mumkin. Xalq dostonlari baxshilar ijrosida tinglovchilarga yetkazilgan. Dostonning she'riy qismi kuy jo'rligida kuylansa, nasriy qismi chiroyli ovozda o'ziga xos ohang bilan ifodali yod aytilgan. Baxshilar yoki xalfalar ifodali o'qish bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lganlar deyish o'rinni. Bu holat xalq orasida ifodali o'qishning keng yoyilishiga asos bo'lgan. Ikkinchi xil holatga qarang: to'y marosimida turli hududlarda turlicha aytimlar bo'lgan. Kelinsalom, she'riy aytishuv, masalan, Buxoroda "muxammasxonlik". Muxammasxonlikni hamma ham uddalamagan. Muxammas aytuvchi kelin yoki kuyovning qarindoshlarini ta'riflab she'r aytgan. Bunday

aytim aytuvchining repertuari boy bo'lishi, o'zida badihago'ylik qobiliyati mavjud bo'lishi, ya'ni har xil holatda ham vaziyatga mos she'r aytish uchun o'zining ta'bi nazmi bo'lishi shart bo'lgan. Nikoh to'ylari jarayonida kelinsalomga chiqarilar ekan, yoshi ulug', tajribali, ayni damda, qobiliyatli ayollar kelinsalom aytganlar. Ularning aytgan kelinsalomlariga bog'liq holda kelin kuyovning qarindoshlariga, qo'nishnilariga salom bergan. Kelinsalomning qiziqarli, chiroyli chiqishi uni o'qigan ayol qobiliyatiga, ovoziga bog'liq bo'lgan. Yoshlar baxshilarni, folklor asarlarini turli marosimlarda ijro qiluvchilarni, aytaylik, afsona, ertak, qissa aytuvchilarni tinglab, ulardan ta'lif-tarbiya olish bilan bir qatorda badiiy asarlarni ifodali o'qishni o'rganishgan. Folklor namunalarini ijro qiluvchilar o'zlariga



voris tayyorlar ekanlar, ular ifodali o‘qish qonun-qoidalarini ham o‘rgatganlar. Boshqa misolga murojaat qilaylik: “Qur’oni Karim” qiroati alohida tayyorgarlikni talab qilgan. Qiroati yoqimli bo‘lgan qorilar alohida e’zozlangan. Demakki, ifodali o‘qish negizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ko‘rinadiki, ifodali o‘qish xalqimiz tabiatiga singib ketgan. Ammo badiiy adabiyotning barcha turdag'i asarlariga tegishli asarlarni ifodali o‘qilishiga birday e’tibor qilinmaydi. Shu sababdan ifodali o‘qishning o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qilinishi shart.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugunga kelib badiiy asarlarni ifodali o‘qishga etibor, ayniqsa, boshlang’ich sinflarda susayganday ko‘rinadi. Bunday kamchilikning ildizlaridan biri boshlang’ich ta’lim ixtisosliklarida ifodali o‘qish asoslarining o‘tilmasligidir. Ayni chog‘da, o‘quvchilarda ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatuvchi ilmiy manbalar barmoq bilan sanarli. XX asrning 60-yillarigacha ifodali o‘qish masalasiga alohida e’tibor berilmadi. 70-yillarga kelib qo‘llanma, risola, darsliklar paydo bo‘ldi. Misol sifatida aytish kerakki, M. Inomxo‘jayeva, A. Zununovlarning “Ifodali o‘qish asoslari”, K.Oripov, M.Obidovalarning “Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish”, R. Ubayxo‘jayevaning “O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish” nomli boshlang’ich sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanmasi va shu kabi qo‘llanma va darsliklari ifodali o‘qishning o‘ziga xos jihatlarini yoritish maqsadida yuzaga keldi [9].

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini ifodali o‘qishgao‘rgatishmasalasibilanmetodistolimlar oldindan qiziqib kelganlar. O‘quvchilarning ifodali o‘qishga o‘rgatish sinfdan tashqari o‘qish darslarining asosiy vazifasi ekanligi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Boshlang’ich ta’limda mazkur soha bo‘yicha rus metodist olimlari N.N.Svetlovskaya, O.V.Djejeley V.I.Ionovalarning ilmiy ishlari,

darslik va qo‘llanmalari nashr etilgan. “Ona tili o‘qitish metodikasi”, X.G’ulomova va U. Shermatovalarning “Kitob o‘qishni sevamiz” qo‘llanmalarida ham o‘quvchilarda ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan, o‘qish uchun asarlar tavsiya etilgan. Hozirgi davr talabi bu ishlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshlang’ich sinfbosqichida o‘quvchilarni mustaqil va ifodali o‘qishga o‘rgatishda sinfdan tashqari o‘qish darslari muhim ta’limiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham yangi tahrirdagi DTSning tushuntirish xatida «Ona tili ta’lim sohasiga nafaqat o‘quv predmeti, balki butun ta’lim tizimini uyuştiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash»⁶ lozimligi uqtiriladi. Davlat dasturi talablariga ko‘ra boshlang’ich sinfdan o‘quvchilar savod o‘rgatish davridan mustaqil o‘qishga jalb qilinadi. Savod o‘rgatish davrida haftada bir marta, 1-2-sinflarda ham haftada bir marta, 3-4-sinflarga ikki haftada bir marta sinfdan tashqari o‘qish darslari rejalashtiriladi. Xuddi shu darslar ifodali o‘qishni mustahkamlovchi darslardir. Bola maktabga kelgach avval o‘qish, yozishni o‘rganadi.Asta-sekin unga mustaqil kitob tanlay olish, o‘qigan kitobini to‘g’ri baholay olish kabi ko‘nikmalar ham shakllantirib boriladi.

Sinfdan tashqari o‘qishning jahon ta’limidagi ilg’or usullar asosida yaratilgan tizimi o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish, ularning fikrlash qobiliyatini o‘sirish, kitob bilan ishlash usullarini o‘rgatish, og‘zaki nutqini o‘sirish, muntazam ravishda kitob o‘qib borishga rag’bat uyg’otish – ma’naviy madaniyatini yuksaltira borish kelajak avlodni o‘qitish va tarbiyalash jarayonidagi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu masalalarni ijobjiy hal etish uchun biz sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishning qulay usullarini aniqlashimiz va amaliyotga tadbiq qilishimiz zarur. Ammo shunisi e’tiborga loyiqliki, R.Mallayev, M.Qodirova, O.Roziqov,

T. Niyozmetovlarning ilmiy ishlarida o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish omili bo‘lgan sinfdan tashqari o‘qishga ta’limning o‘ziga xos shakli emas, balki mustaqil ishlarning bir turi sifatida yondashilgan. Bunday yondashish ta’lim tizimining bugungi taraqqiyoti talablariga javob bermaydi.

Boshlang’ich sinflar ona tili dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1.Savod o‘rgatish, sinfdan tashqari o‘qish va nutq o‘stirish.

2.Sinfda va sinfdan tashqari o‘qish va nutq o‘stirish.

3.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish.

Ona tili o‘quv dasturining ikki bo‘limida sinfdan tashqari o‘qish atamasi qo‘llangan. Nafaqat 1-4 sinflarda,balki yuqori sinflarda ham ifodali o‘qish atamasi qo‘llangan. Demak, 1-4 sinflarda ifodali o‘qish va sinfdan tashqari o‘qish darslari uyushtiriladi.

Sinfda o‘qish darslarida barcha o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida ayni bir asarni o‘rganadilar: asar mazmuni, qurilishi, badiiy til vositalari ustida ish olib boradilar Sinfdan tashqari o‘qish darslarda esa o‘quvchilar bir mavzuga oid bir necha asarni o‘qib o‘rganadilar. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qigan kitobini to‘g’ri baholay oladigan ongli kitobxонни tarbiyalashdir.12

Albatta, sinfda o‘qish darslarida ham mustaqil o‘qish ishlari uyushtiriladi, o‘quvchilarda ma’lum ko‘nikmalar hosil qilinadi. Biroq sinfdan tashqari o‘qish atamasining ma’nosi ancha keng bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalari ayni shu darslarda shakllantirib boriladi.

Amaldagi sinfdan tashqari o‘qish dasturining mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘lim ajratiladi:

- Birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularning qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan

o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi.

- Ikkinci bosqichda shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

1- sinfda sinfdan tashqari o‘qish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1) tayyorgarlik bosqichi;

2) boshlang’ich bosqich;

Tayyorgarlik davrida sinfdan tashqari o‘qish uchun maxsus soat ajratiladi. Haftada

1 marta savod o‘rgatish darsidan 15-20 daqiqa ajratiladi. Ikkinci bosqichda sinfdan tashqari o‘qish darslari hajmi ko‘rsatilmagan. O‘qish materiali, mavzular vazifalari yuzasidan ko‘rsatmalar berilgan..

2-sinflarda sinfdan tashqari o‘qish uchun 17 soat ajratilgan. O‘qish materiali, o‘qish mavzulari, hosil qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatilgan.

3-sinfda ham sinfdan tashqari o‘qish uchun 17 soat ajratilgan. O‘qish doirasi, o‘quv materiali, o‘qish mavzulari aniq ko‘rsatilgan.

4-sinfda ham sinfdan tashqari o‘qish uchun 17 soat ajratilgan.Bu sinf dasturida sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil qilish yuzasidan qisqacha umumiyl tavsiya beriladi. Ammo o‘quv materiali, o‘qish mavzulari ko‘rsatilmaydi.

Boshlang’ich ta’limda sinfda o‘qish va sinfdan tashqari o‘qish darslari uyg‘un holda tashkil etiladi. Sinfda o‘qish darslari amalga oshiradigan quyidagi vazifalar sinfdan tashqari o‘qish uchun ham taalluqlidir. Ular:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g’ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.

3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mustaqillik tufayli ta'lim tizimidagi amalgamoshirilayotgan islohotlar, ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar bevosita sinfdan tashqai o'qish darslarini tashkil etishni takomillashtirishga turki bo'ldi. Boshlang'ich sinfda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish usullariga yangicha yondashishni talab etdi. Bu boshlang'ich sinf o'quv dasturlari va darsliklari, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish zaruriyatini yazaga keltirdi. Ana shu ehtiyoj bilan 1-3- sinflar uchun "Kitobim - oftobim" qo'llanmalarining qayta ishlangan nashri chop etildi. "Kitobim - oftobim" qo'llanmasi yangi yaratilgan badiiy adabiyot namunalari bilan doimiy ravishda boyib borilishi lozim. "Kitobim - oftobim" qo'llanmasida va ularga ishlangan metodik qo'llanmalarda o'quvchilarning mustaqil o'qishga va mustaqil fikrlashga, badiiy asar matni ustida izlanishga undaydigan savol- topshiriqlar, ularni tashkil etish usullari ishlab chiqilishi lozim. Sinfdan tashqari o'qish uchun nashr qilingan metodik adabiyotlarda matn ustida ishslash talab darajasida deb bo'lmaydi. "Kitobim - oftobim" qo'llanmasidagi barcha savollarning tuzilishi va mazmuni DTS talablariga to'liq mos kelishidan qat'i nazar ularni mukammallashtira borish hayotiy zaruratlardir. Darsliklarda berilgan savol va topshiriqlar o'qituvchilarning va o'quvchilarning qo'shimcha savollar- topshiriqlari asosida to'ldirilib borilsa, ta'limning yana ham mukammalligiga erishilgan bo'lardi [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun tez aytish ayttirish o'ta qiziqrli mashg'ulot. Ular bir-birlariga qiziqib, qayta-qayta aytishni, har safar kim o'zarga aytishni yaxshi ko'radilar. 2-sinf o'quvchilari uchun osonroq tez aytishlar berilgani darslikda bilinib turibdi:

Turg'un to'rtta to'rg'ayni to'rga tushirdi.

Tez aytish mashqlari ham ma'lum tovushlarni to'gri talaffuz etish ko'nikmasini hosil qiladi. Quyidagi mashqda berilgan misollarni oldin yakka, so'ngra birgalikda o'qing. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor bering:


To'ra to'rni to'satdan tashladi.

Xalq ijodining ma'naviy (so'z) o'yinlari sirasida qayd etiluvchi tez aytish ma'lum so'zni, so'z birikmasi yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa so'z va tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlash, nutqni o'stirishga yordam beradigan janrdir. Tez aytishlardan, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda foydalilaniladi. Tez aytishlarda tavze' san'atini qo'llash asosiy belgi hisoblanadi:

Tohir tog'aning traktori Tyanshan tog'ining tagida tarillab turibdi. Yoki

Tohir tandirning tagidan tanga topdi.

Bu janrdagi asarlarni tez o'qish foydaliroq. Aynan shu janr bolalardagi ifodali o'qish qobiliyati rivojlantirishdagi eng foydali janrlardan bo'la oladi. Tez aytishni ifodali ayttirish 2-sinf o'quvchilari uchun quyidagicha ahamiyat kasb etadi [9]:



1-sinf o'quvchilari folkloarning maxsus turiga tegishli maqol, topishmoq, tez aytish janrlariga oid namunalar bilan har darsdan so'ng tanishadi. Maqol (ar. "so'zlamoq", "demoq") – xalqning ko'p asrlik turmush tajribalari va kuzatishlari asosida chiqargan xulosalarini

o‘zida mujassamlashtirgan og‘zaki ijod janri.

NATIJALAR

Maqollar she’riy shaklda ham, nasriy shaklda ham bo‘lishi mumkin. Ular mavzu jihatdan chegaralanmagan. Maqollarning eng qadimgi namunalari “Devonu lug’otit turk” orqali yetib kelgan: “Ash tativ’i – tuz” (oshning ta’mi tuz bilan), “Uma kelsa, qut kelur” (mehmon kelsa, baraka keladi) [5]:

Daraxtni yer ko‘kartiradi, Odamni el ko‘kartiradi.

Bu maqol she’riy bo‘lgani uchun ohangga solib aytildi. Donishmandona fikr bo‘lgani uchun bosiq, vazmin, ammo ko‘tarinki ohangda o‘qilishi lozim. Maqollarni muallimning o‘zi bir necha bor ifodali o‘qishi, keyinchalik, har safar, o‘quvchining o‘zidan ifodali o‘qishni talab qilish lozim.

Maqollar kabi topishmoq ham alohida ifodaga ega janr. Narsa-hodisaga xos belgini yashirish, shu orqali tinglovchining zukkoligini sinab ko‘rish xususiyatiga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janri topishmoq deyiladi. Yozma adabiyotdagi muammo, chiston, lug’z, ta’rix kabi janrlar topishmoq negizida yuzaga kelgan janrlar hisoblanadi.

Xalq orasida "topishmoq" atamasi o‘rnida "jumboq", "jummoq" "top-top", "ushuk" atamalari ham qo‘llaniladi. Bu janr 1-sinf o‘quvchilarini har tomonlama tarbiyalshi, ularning fahm-farosatini oshirishi, topqirligini rivojlantirishi bilan birga bolalardagi ifodali o‘qish qobiliyatini o‘stiradi [7]:

U yog‘ganda dala, qir Kuladi qiqir-qiqir.

Ammo she’riy asarlardan ko‘ra nasriy asarlarni tez o‘qish qulayroq. Negaki she’r ritmi tez o‘qish imkoniyatini kamaytiradi.

O‘qish tezligi to‘rt yil davomida to‘g’ri va ongli o‘qish bilan bog‘liq holda asta ortib boradi. O‘qish tezligini tekshirganda o‘qituvchi o‘qiladigan materialning xarakterini, ya’ni g’oyaviy-mavzuviy murakkabligini, so‘z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o‘qishning to‘g’ri va ongli bo‘lishini hisobga oladi. O‘quvchilarining o‘qish tezligi har xil bo‘ladi, albatta.

O‘qituvchining vazifasi barcha o‘quvchilarning o‘qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O‘qish sur’atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o‘qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi. Ayni damda, 1-sinfga kelib bolalarda ovoz chiqarmay tez o‘qish ko‘nikmalarini shakllantira boshlash zarur. Vaqt o‘tib bu ko‘nikmalar shakllanib, rivojlanib, malaka darajasiga ko‘tarilishi, ovozsiz o‘qiyotganda ham ifodali o‘qish qoidalariga amal qilish mumkin bo‘ladi.

Ongli o‘qish yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g’oyaviy yo‘nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o‘qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqealari hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay olishdir. Bunday o‘qish ifodali o‘qish uchun assosiy poydevor sanaladi.

Ifodali o‘qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g’oyasi va jozibasini to‘g’ri, aniq, ijodkor niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o‘qish boshlang‘ich ta’lim tizimida mantiqiy o‘qish (matnni to‘g’ri, tushunib, tez (me’yorida) o‘qish) va adabiy o‘qish mukammal o‘zlashtirilganidan so‘ng yuz beradigan jarayondir. 1-sinf o‘quvchilarini ifodali o‘qish jarayoniga to‘la tayyor holga kelgan bo‘lishi kerak.

Asrdan asrga, og‘izdan og‘izga, xalqdan xalqqa o‘tib kelayotgan og‘zaki adabiyot namunalarining mohir ijrochilari ham bor. Aytaylik rivoyatni roviylar, lofni lofchilar, askiyani qiziqchilar, ya’ni askiyachilar aytadi. Folklor asarlarining bir qismini ifodali aytish mumkin bo‘lsa, bir qismi musiqa jo‘rligida aytigani uchun ifodali aytib bo‘lmaydi. Folklorning epik turiga mansub yirik hajmli, keng tarqalgan janrlaridan biri dostondir.

XULOSA VA MUNOZARA

Ifodali o‘qish xalq san‘atidir. Chunki adabiyot dastavval xalq og‘zaki ijodi sifatida paydo bo‘lganidek, uning ijrosi ham ana shukeng mehnatkash omma ijodi sifatida shakllangan. Mehnat jarayonida, ona allasida, ota duosida

ham, to‘y-tantanalarda ham o‘z o‘rniga va mavqesiga ega ekanligi tabiiy holdir. Demak, folklor janrlari qadim-qadimdan kattalarni ham, bolalarni ham ifodali o‘qishga o‘rgatib kelgan. Badiiy asar so‘zлari to‘g’ri, ma’nosini anglab talaffuz qilish, uning mazmunini atrofdagilarga yetkazish yo‘lida folklor va uning ijrochilar yetarlicha xizmat qilib keldilar. Baxshilar xalqni nafaqat ma’nан boyitdilar, balki go‘zal ohanglar, xalqona ritm, betakror ifodali o‘qish bilan ruhiyatini tarbiya etdilar. Qissaxonlar, lofchilar, aksiyachilar, qiziqchilar yosh avlodning ma’naviy barkamolligini

ta’minashda muhim rol o‘ynaydilar. Bu ulug` maqsadlarning amalga oshivuda ifodali o‘qish muhim rol o‘ynaydi. Sinfdan tashqari tadbirlar ko‘mag’ida 1-sinf o‘quvchilarida ifodali o‘qish konikma va malakalarini shakllantirish eng samarali usuldir. Bu tadbirlarni texnik vositalar ko‘magida yozib olib, uni muhokama qilish, bolalarning ifodali o‘qishidagi yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib berish orqali ifodali o‘qishga o‘rgatish mumkin. Sinfdan tashqari o‘qishda texnik vositalar yordamida ifodali o‘qishga e’tiborni kuchaytirishning ahamiyati ham beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti va folklori. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2016. – 216 b.
 2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik-majmua. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 368 b.
 3. Jo‘rayev K. Ifodali o‘qish va hikoya qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 160 b.
 4. Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari, Toshkent: O‘qituvchi, 2013.110 b
 5. Imomxo‘jayev S., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari, Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 236 b.
 6. Irisxo‘jaeva S. Bolalar adabiyotida didaktika. – Toshkent: Fan, 2017. – Toshkent, 2016. – B. 109-110.
 7. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2011. – 120 b.
 8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – Toshkent: Akadem nashr, 2010.
- 295 b.
9. Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish, Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
 10. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 318 b.
 11. Safo Matjon, Sariyev Sh. O‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 2017. – B. 37.
 12. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2010. – 168 b.
 13. Ubayxo‘jayeva R. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. Toshkent: Ko‘hinur, 2019.180 b.
 14. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. Umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B. 81.
 15. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.2017 yil. 464 b.

“MAKTAB – KASB-HUNAR MAK TABI – KORXONA” TA’LIM INTEGRATSIYASI BOSQICHLARI

MAMAJONOVA KAMOLA AKRAMOVNA
Jizzax dalat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo‘ljallangan¹. Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi: boshlang‘ich professional ta’lim, o‘rta professional ta’lim, o‘rta maxsus professional ta’lim. Shundan boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Bizga ma’lumki, ta’limning integratsiyasi ta’lim mazmunining turli tarkibiy qismlari, ta’lim sohalari va muassasalari, shuningdek, ta’lim jarayoni subyektlarining yaqinlashishi va birlashishi jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

“Integratsiya” - fransuz tilida qo’shish, jalgilish, o’sish; lotin tilida tiklash, to’ldirish degan ma’nolarni anglatib, umumiyligini va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi hamda axborot, bilim, fanlar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish, ularning yaxlitligi va yagona tuzilmasini ta’minkaydigan

1 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-хуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш түғрисида”ги 07.08.2020 йилдаги 466-сон Қарори

barcha komponentlarni dialektik birlikda qamrab oladi.


Ta’limdagagi integratsiya bir-biridan farq qiladigan ko‘plab bir xil va bir qancha tarkibiy qismlardan (maqsadlar, mazmun, usullar, vositalar, shakllar, mavzular, uslublar, g‘oyalilar va boshqalar) o‘zaro ta’siri va o‘zaro aloqasini, yaxlitlikni shakllantirish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishdagi kasb tanlashga yo‘naltirish, agar u yagona, barqaror va dinamik tizim bo‘lsa, samarali natijalarga erishish mumkin. Bunda ta’lim integratsiyasini tashkil etish bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich integratsiyani tashkil etuvchi subyektlar o‘rtasidagi tarmoq o‘zaro ta’sirining paydo bo‘lishi va ishlashi uchun axborot, tashkiliy, kadrlar, texnik shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi. "Maktab - kasb-hunar maktabi - korxona" ta’lim integratsiyasida tarmoqning o‘zaro ta’siri har bir subyektning resurslarini oddiy almashish bilan emas, balki axborot, uslubiy, moddiy-texnikaviy integratsiyaga asoslangan sheriklarning maqsadli, uzoq muddatli o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Va tarmoq miqyosidagi kadrlar resurslari, bu ta’lim mazmuniga, tashkiliy o‘zgarishlarga va amaliy pedagogik texnologiyalarga yagona yondashuvlar amalga oshiriladigan ta’lim va kasbga yo‘naltirish muhitini yaratishga hamda butun ta’lim integratsiyasining samarali ishlashiga yordam beradi.

Ikkinci bosqichda ta’lim integratsiyasi tuzilmasini ishlab chiqish amalga oshiriladi, bunda asosiy e’tibor integratsiyaning har bir subyektining samarali faoliyat yuritishi uchun

shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi. Bizning tadqiqotimizdagi ta'lim integratsiyasi - bu muayyan muammolarni hal qilish va natijalarga erishish uchun innovatsion ta'lim faoliyatining yadrosi - kasb-hunar maktabi (kichik mutaxassis tayyorlash) atrofida birlashtirilgan o'zaro bog'langan obyektlar (umumiy o'rta ta'lim maktablari va ishlab chiqarish korxonasi) majmuasidan iborat moslashuvchan tarmoq tuzilmasi etib belgilandi. 1-rasmda ta'lim integratsiyasini shakllantirish sxemasi ko'rsatilgan, bu yerda maktab yashil va kasb-hunar maktabi siyoh ranglarda ta'lim tashkiloti sifatida, korxona esa sanoat tashkiloti sifatida sariq rangda tasvirlangan.



1.-rasmda ta'lim integratsiyasini shakllantirish sxemasi.

Ularning kesishadigan chorrahasida ta'lim integratsiyasi uchburchak shaklida shakllantirildi.

"Maktab – kasb-hunar maktabi – korxona" ta'lim integratsiyasini ikki darajadan iborat deb hisobladik: asosiy va ixtisoslashtirilgan. Asosiy daraja umumiy o'rta va kasb-hunar maktablari ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan darajasi esa kasb-hunar maktabi va korxona (sanoat tashkiloti) dan iborat. Ushbu turdagи tashkilotlar "maktab – kasb-hunar maktabi – korxona" ta'lim integratsiyasining tarkibiy elementlari vazifasini bajaradi, ularning o'zaro hamkorligi davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Ko'rib chiqilayotgan ta'lim integratsiyasining tuzilishi bir qator afzallikkarga ega:

- ta'lim materiallari, laboratoriya va korxona resurslari, o'qituvchilar va boshqa kadrlar, infratuzilma va texnologiyalar, ma'muriyat va moliyaviy imkoniyatlarni samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda bir nechta ta'lim muassasalari yoki tashkilotlar orasidagi resurslarni biriktirishga imkon beradi;

- o'quvchilarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq integratsiyalashgan fanlarda rivojlantirishga imkon beradi. Bu, o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirgan sohalarda o'rganish, birlashtirilgan fanlarni amaliyotga o'tkazish va rivojlanishlarini oshirishga yordam beradi;

- integratsiyalashgan tizim, guruhlardagi ta'lim muvofiqligini, o'quvchilarning fanlardan o'zlashtiradigan bilimlarini va ko'rsatkichlarini yanada yuqori darajada oshiradi;

- o'quvchi toifasini bir xil shakllantiradi va jamoaviy ishlarni o'rnatishga imkon beradi. Bu o'quvchilarning guruhlarda ishlash, bir-biriga yordam berish, hamkorlik qilish va jamoaviy tadbirlarda qatnashish orqali ularning ijtimoiy tashkilot qobiliyatini va ishbilarmonliklarini rivojlanadiradi;

- o'quvchilarni kasbiy ta'lim va ish bilan bog'liq tajribalar olish uchun korxonalar va tegishli tashkilotlarga olib borish, ishga joylashish imkonini berib, ta'lim muassasalari va korxonalar bilan hamkorlikni ta'minlaydi;

- korxonalarda ish bilan bog'liq bilimlarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar, internshipler, ish dasturlari va sohalardagi amaliy tajribalar orqali o'quvchilarni ishbilarmonlikka tayyorlaydi;

- o'quvchilarning kompetensiya va innovatsiya qobiliyatlarini rivojlanirishga xizmat qiladi hamda analitik fikrlash, muammolarni yechish, ijtimoiy munosabatlar, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasidagi rivojlanishlarga yordam beradi;

- mahalliy hududlarda, sohalarda va iqtisodiy taraqqiyotda muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'limning sohaga moslashtirilishi, kasb-hunar sohasida ishchi kadrlarni tayyorlash, sifatli ishchi jamiyatini shakllantirish va

iqtisodiy taraqqiyotni yuqori darajaga olib chiqishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi bosqich - tashkiliy-boshqaruv xarakterdagi masalalarni ishlab chiqish va ta'lim integratsiyasining har bir subyekti

vazifalarini butun integratsiya samaradorligini oshiradigan tarzda taqsimlash. Ta'lim integratsiyasi subyektlari vazifalarining umumiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval Ta'lim integratsiyasi subyektlarining vazifalari

№	Vazifalar	Ta'lim integratsiyasining predmeti		
		«MAKTAB»	«KHM»	«KORXONA»
1	Tashkiliy va boshqaruv	- kasb tanlashga yo'naltirishi shakllanirish uchun chora-tadbirlar rejasini, platformalarni yaratish	- umumiyo'rta ta'lim maktablari va korxonalar bilan tarmoq aloqalarini o'rnatish	- kichik mutaxassislar tayyorlash uchun kasb-hunar maktabiga murojaat qilish
		- o'quv jarayonini rejalashtirish		- o'quvchilar uchun yozgi ta'til va amaliyot vaqtida vaqtinchalik ish o'rinalarini tashkil etish
		- ta'lim integratsiyasi subyektlari tomonidan hamkorlik shartnomasida belgilangan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish;		- mutaxassislik bo'yicha bitiruvchilarning bandligini ta'minlash;
		Ta'limning turli shakl, metod va vositalarining oqilona uyg'unligini ta'minlash		
2	Ta'limiy	- o'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish		- bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazishda va tanlagan kasbi bo'yicha malaka berishda bevosita ishtirok etish;
		- ta'limda mayjud intellektual, moddiy va axborot resurslaridan samarali foydalanish		
		- Tegishla mutaxassislik bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish		
		- qo'shimcha ta'lim doirasida o'quvchilarning qisqartirilgan muddatlarda professional ta'limni olishlarini ta'minlash		- korxona xodimlarining o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari sifatidagi faoliyati
		- bitiruvchilarning bandligini monitoring qilish		
		- ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik elementlarini mifik ustaxonasiga kiritish	- fanlarning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish: ish dasturlari, ishlab chiqarish va tadqiqot xarakteridagi seminarlarni o'tkazish	

“Maktab-kasb-hunar maktabi-korxona” ta’lim integratsiyasining vazifalarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, maktab va kasb-hunar maktabining tashkiliy, boshqaruv va tarbiyaviy vazifalari integratsiya faoliyat sohasini gorizontal ravishda kengaytirishga yordam beradi va shunga o‘xshash vazifalar korxona o‘z faoliyatini maqsadli ravishda toraytiradi, shu bilan integratsiyaning ixtisoslashtirilgan darajasini shakllantirishni yakunlaydi.

Kasb tanlashga yo‘naltirish ishlarini tashkil qilishdagi barcha yondashuvlar shaxsning individual fazilatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Lekin, integrativ yondashuv asosida kasbga yo‘naltirish uzliksiz ta’lim o‘quv jarayonini optimallashtirish, o‘quv va kognitiv faoliyatni tizimlashtirish, asosiy kompetensiyalarni shakllantirish professional ta’limning muhim, istiqbolli uslubiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- Choriyev R.K. Kasb-hunar ta’limi mazmunini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muammolari. Kasb-hunar ta’lim ilmiy-metodik jurnal №1 -2000. 15-6.
- Sharipov SH., Aripov M., Begimqulov U., Yo’ldoshev U., Muslimov N. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chikish nazariyasasi va amaliyoti. MonografiY. - Toshkent: Fan, 2011 .-240 6.
- Ahmedova Nodira Muxtorjonovna. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Dis., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., Toshkent – 2020 yil, 64- bet.
- M.J.Toshov Pedagogika kollejлari ta’limi jarayonida pedagogik integratsiyaning mazmuni va tuzilmasini ta’minlash. DissertatsiY. T.: 2012. – 14 b.
- Mamajonova K.A. “O‘qituvchilarni kasbiy shakllantirishning pedagogik-psixologik masalalari”. phys-tech.jspi.uz Jizzax davlat pedagogika instituti Fizika va texnologik ta’lim fakulteti internet jurnali. 2020 yil avgust.

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHISIDA KASB MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

MO‘YDINOVA DURDONAXON QAHRAMONJON QIZI
Farg‘ona davlat universiteti zedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqlada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisining kasb madaniyatini rivojlanirish hamda uning mazmun mohiyati haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqlada kasbiy madaniyatni rivojlanirish uchun pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, uni takomillashtirishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb madaniyati, pedagogik mahorat, kasb kompetensiyasi, bilim, ko‘nikma, malaka, etika, estetika, nutq madaniyati, tarbiya, kinematografiya va boshqalar.

Аннотация: В данной статье рассказывается о развитии профессиональной культуры будущего учителя педагогических наук и сути ее содержания. В статье также подчеркивается важность ее совершенствования, выявления педагогических условий для развития профессиональной культуры.

Ключевые слова: профессиональная культура, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность, знания, умения, этика, эстетика, культура речи, образование, кинематография и другие.

Abstract: This article talks about the development of the professional culture of the future teacher of educational science and the essence of its content. The article also highlights the importance of improving it, identifying pedagogical conditions for the development of professional culture.

Key words: professional culture, pedagogical skills, professional competence, knowledge, skills, competence, ethics, aesthetics, speech culture, education, cinematography, etc.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlanirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi (11.05.2022 yil, PF-134-son) farmonida “maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, o‘qituvchilarining yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish” ta’kidlab o‘tilgan.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatida kasb madaniyatini rivojlanirishi, kasb madaniyatiga doir bo‘lgan nutq madaniyati, kiyinish uslub madaniyati, ma’naviy-axloqiy madaniyati, kreativ qobiliyati, shu bilan birga o‘z fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqlik darajasini bilishi, hamda tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish jarayonida ular bilan estetik madaniyati orqali munosabatda bo‘lishi kasbiy madaniyatning rivojlanirishda muhim sanaladi. Albatta, har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kasbiy madaniyati orqali o‘z pedagogik faoliyatida yosh avlodga ta’lim, tarbiya beradi. Kasbiy madaniyatni yuksak darajada rivojlanirishi, uni o‘quv jarayonida mohirona qo‘llay olishi esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA

METODOLOGIYA

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi kasbiy madanyatini rivojlantirish "o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlarini ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'limgan shaxs, ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlarini negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi. jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayot mavjudligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi"[1]. Masalan, E.A. Grishin o'z tadqiqotlari orqali pedagogik madaniyatni ushbu usullarini foydali deb hisoblaydi: umumiy bilimdonlik, o'z fanini bilish, pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib borish, pedagogik kasbini sevish, odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik, kuzatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik. Grishinning ushbu tadqiqotlari bo'lg'usi tarbiya fani o'qituvchilari uchun foydali, samarali bo'lib, o'z kasbining mohir egasiga aylanishiga ko'maklashadi.

Pedagog olimalarimizdan biri bo'lmish Jumayeva o'z maqolalaridan birida madaniyatga shunday ta'rif beradi "madaniyat - bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalananadi". Shu bois ham bo'lg'usi o'qituvchi kasbiy madaniyatini

rivojlantirishini ko'zda tutishi kerak, hamda uni pedagogik faoliyatida tarbiyalanuvchilarga saboq berishda yanada uyg'unlashtirishi darkor. Shuningdek, tahliliy tafakkur qilish esa muammolarni yechish va o'zlarining fikrini ifodalashlari uchun kasbiy madaniyatini rivojlantirish muhimdir. Bu ularning muammolarni analiz qilish va yechishda, muhokama qilish qobiliyatlarini oshirishga imkon yaratadi.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb mutaxassislik sharifi va g'ururini his etish, jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi hisoblab, o'zining tadqiqotlarida o'qituvchilarning kasbiy madaniyati muhim ekanligiga to'xtalib o'tadi. Bu integral ko'rsatkichlar kasb madaniyatining rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini yaratish uchun muhimdir.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kasb madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi jadvalda aks etgan manbalar foydali hisoblanadi (1-jadval).

Ushbu manbalar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari uchun kasb madaniyatini rivojlantirishida muhim bo'lib, kasbiga doir yangi madaniy tajribalarni o'rganishi, uni qo'llay olishi, tarbiyalanuvchilarga (o'quvchi, talaba) tarbiyani samarali yo'l bilan berish imkonini yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"O'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg'usining mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylilik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, olivjanoblilik, xolislik;

- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik,

1-jadval.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kasb madaniyatini rivojlantirish manbalari

Ilmiy adabiyotlar	Bo‘lajak tarbiya sohasidagi o‘qituvchi yangi ilmiy izlanishlarni kuzatib boradigan va o‘qituvchilarning kasb madaniyatini oshirishga yordam bera olayotgan adabiyotlarni izlash juda muhimdir.
O‘qituvchilar o‘rtasidagi ta’lim-metodik hamkorlik	O‘qituvchilar o‘rtasida tajribalar almashish, yangi ta’lim-usullarini o‘rganish va ularga qo‘llanishga imkoniyat yaratish uchun ta’lim-metodik anjumanlar, seminarlar va hamkorliklar muhimdir.
Ilmiy jurnalar va maqolalar	So‘z qilayotgan mavzularda ilmiy jurnallar va maqolalar orqali o‘qituvchilar o‘zlarini rivojlantirish va yangi kasb madaniyatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari samarali aks etadi.
O‘quvchilar bilan ishslash va o‘quv yilida tadqiqotlar	O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan amaliy ishslash, so‘rovnomalar tashkil qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali o‘zlarining kasb madaniyatini oshirishlari e’tiborda holi emas.
Xalqaro konferensiylar va tanlovlар	Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchi sohasida xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, tanlovlar qo‘yish o‘qituvchilarning kasb madaniyatini oshirish va ularda tanishuvni oshirishga yordam beradi.

berilib ishlay olish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma’naviy ehtiyojlarning ko‘pqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo‘lishi, tashqi ko‘rinish va nutq madaniyati” [2].

Ushbu omillar sabab bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi kasbiy madaniyati samarali rivojanib, maqsadning kutilganidek natija berishini ta’minlaydi.

Bilamizki, o‘qituvchining kasbiy madaniyati uning nutq madaniyatida asoslanadi. Nutq madaniyati orqali tarbiyachi etik-estetik madaniyati ham aks ettirib, o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya jarayonini olib boradi. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

- a) nutqning to‘g‘riliqi;
- b) nutqning aniqligi;
- c) nutqning ifodaviylici;
- d) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jarayon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarni noo‘rin qollanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rnii bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarii bo‘lishi kerak;
- f) nutqning ravonligi;
- g) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibonj va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish) [3].


Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisining

nutq madaniyatini rivojlantirish uchun bir qancha foydali usullari mavjud bo'lib, u quyidagi chizmada ko'rsatilgan:

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining nutq madaniyatini rivojlantirish uchun asosiy usullarni umumlashtirilgan o'zi bilan bog'liq barcha qadriyat va ko'nikmalar to'plami hisoblanadi. Bu usullar o'quvchilarni adolat, hurmat, insonparvarlik, fe'l-e'tibor, ilmiy-ma'naviy fazilatlar bilan tanishtirish, ularning jamiyatda qatnashish va muloqotlarini rivojlantirish, o'z fikrini ifodalash va

faoliyatga chaqirishga yo'naltiradi.

Albatta, nutq madaniyati bilan birgalikda estetik madaniyatni ham shakllaontirishi va rivojlantirishi hamda kasb kompetensiyasida qo'llay olishi har tomonlama foydali hisoblanadi. "Estetik madaniyatni rivojlantirish vositalari - talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san'at estetikasi va yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd



1-rasm. Tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy madaniyatini rivojlantirish usullari

etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi" [4]. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'zining kasb

estetik madaniyatini rivojlantirishi ta'lim samaradorligi oshirishga, o'quvchilarning ham estetik tarbiya olishiga ko'maklashadi. Estetik madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi usullarni amalda qo'llash va foydalanish maqsadga muvofiq:

1. San'at asarlari tanishtirish: O'qituvchi, bolalarga turli janrlardagi san'at asarlari tanishtirishi kerak. Rassomlik,

musiqa, kinematografiya, adabiyot, va boshqa san'at turlaridan namunalar bilan tanishtirib, ularni bu sohada rivojlantirish uchun yo'l qo'yish.

2. Tajribali faoliyatlar: O'qituvchi, bolalarga estetik madaniyatni shakllantirish uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etishi, ularni tajribali faoliyatlar orqali o'rgatib, ularning o'zlashtirishi, izlanishi va rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak.

3. Izohlar va muloqotlar: O'qituvchi bolalarga san'at asarlarini izlash, ular haqida gaplashish va o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar yaratishi kerak. Bu, ularning tushunchalarini o'zlashtirish va o'z fikrlarini boshqa insonlar bilan baham ko'rish uchun muhimdir.

4. Estetik tahlil qilish: O'qituvchi, bolalarga san'at asarlarini tahlil qilishni o'rgatishi kerak. Ular bilan birga asarlarni yaxshi tahlil qilish, uning ichki tuzilishi va ma'nosini tushuntirish, estetik qiyofalarini tushuntirish uchun muhimdir.

5. Muvofiqlik: Bo'lajak o'qituvchi, bolalarni o'zlarining estetik hissiyotlarini rivojlantirish, ularning o'z fikrlarini ifodalash, o'zlarini yaratish va qo'llashda ozuvchi bo'lishga yo'naltirish uchun muvofiqlikni o'rgatishi kerak.

Bu usullar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining estetik madaniyatini rivojlantirish uchun bo'libgina qolmay, o'quvchilarga san'at bilimlari va estetik madaniyat sohasida mustahkam qilishga yo'naltiradi. Kasb madaniyatini rivojlantirishda estetik madaniyat ham

e'tiborga olinib, o'quvchilarga tarbiya beriladi. Bu esa pedagogik jarayonni takomillashtiradi.

XULOSA

Kasbiy madaniyat o'qituvchining asosiy kasbiy xususiyati hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy motivatsiyani hosil qiluvchi metodlardan foydalanish orqali, madaniyatini yaqqol namoyon etadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, shavqlantirish metodlarini qo'llaydigan vaziyatlarda tarbiyachi o'zining kasbiy madaniyatiga yondashadi. O'qituvchi tushuntirish metodini qo'llab, o'quv jarayonini olib borayotganida, u asosan nutq madaniyatini ishga soladi. Nutqining ravonligi, nutqidagi tushuntirish tabiiy va emotsiyal bo'lmog'i lozim. Bu orqali esa o'quvchilarni diqqat e'tiborini jalb etishilishida samarali usul bo'ladi. Buyuk pedagog hisoblangan A.S.Makarenko Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishiga katta hissa qo'shgan bo'lib, tarbiyachiga shunday ta'rif beradi "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilmog'i lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin" deya, ta'kidlab o'tadi. Albatta, bu mohironalik kasb madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, intellektual tomondan ham rivojlanish imkoniyatlarini oshirishda foydalidir. Bo'lg'usi tarbiyachi kasb madaniyatini rivojlantirishi, har tomonlama yetuk bo'lishi, fanini chuqr mutaxasisi sifatida pedagogik jarayonlarini olib borishi maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. M.X.To'xtaxodjayeva. "Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Peagogika nazariyasi" darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashiryoti. Toshkent-2010 yil 26-bet.
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti." Darslik. – T.: "Sano-standart" nashiryoti Toshkent-2017 yil, 322-333 bet.
3. M.X.To'xtaxodjayeva. "Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Peagogika nazariyasi" darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashiryoti. Toshkent-2010 yil 23-bet.
4. Jahongir Umidjon o'g'li Tojiboyev. "Talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" nomli ilmiy maqola, Academic Research in Educational Sciences 2022-yil. 585-594 bet.

FIKRNI YOZMA IFODALASHDA PRAGMATIK YONDASHUV

PARPIYEV ODIL OLIMOVICH
Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abstract. The article contains information about pragmatics and its essence, pragmatic approaches to the development of written speech in elementary school students. The author proved the ideas he is putting forward by citing the opinions of experts in the field and giving examples from the educational process.

Key words: pragmatics, pragmatic approach, primary education, oral, written, speech, interactive, method.

Аннотация. В статье содержатся сведения о прагматике и ее сущности, прагматических подходах к развитию письменной речи учащихся младших классов. Автор обосновал выдвигаемые идеи, приведя мнения экспертов в данной области и приведя примеры из образовательного процесса.

Ключевые слова: прагматика, прагматический подход, начальное образование, устное, письменное, речевое, интерактивное, метод.

Annotatsiya. Maqlada pragmatika va uning mohiyati, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishda pragmatik yondashuvlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muallif ilgari surayotgan g‘oyalarni soha mutaxassislari fikrlarini keltirish va ta’lim jarayonidan misollar keltirish orqali isbotlab bergen.

Kalit so‘zlar: pragmatika, pragmatik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, og‘zaki, yozma, nutq, interaktiv, metod.

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi mazmunida Davos ‘da ilgari surilgan malakalar 4 K modelida ifodalanib, moslashuvchan ko‘nikmalar deb yuritila boshlandi. So‘nggi bir necha yil ichida butun dunyoda maktab ta’limi fan bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan an‘anaviy usullardan voz kechib, XXI asrning zamonaviy asosiy kompetensiyalari yoki ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilmoqda.

2023/2024-o‘quv yilidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 K tamoyili asosida yaratilgan darsliklar asosida ta’lim olmoqda. Xo‘sish, 4 K modeli nima? Uni qanday tushunish mumkin? Bir qator xorijiy olimlar

4 K modelini quyidagicha ta’riflaganlar. D.Goleman fikricha, insonning kasbiy faoliyatdagi samaradorligi bevosita uning “yumshoq” qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, “muvaqqiyatli mutaxassislarni muvaqqiyatsizlardan, samarali tashkilotlarni samarasizlaridan ajratib turadi”². T.Ya.Yarkova XXI asr shaxsining yetakchi mahoratini “tanqidiy fikrlash va faollik; hamma narsaga ochiqlik va uni boshqarish qobiliyati; aloqa mahorati; ma’lumotni topish va qayta ishlash qobiliyati; doimiy ravishda o‘zini yaxshilash istagi va boshqalar”da ko‘radi³.

2 Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: ACT, 2009. – 480 с

3 Яркова Т. А., Черкасова И. И. Указ. соч.

1 Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.

Softskills ingliztilidan tarjima qilinganda yumshoq qobiliyatlar yoki moslashuvchan qibiliyatlar ma’nosini anglatadi. “Moslashuvchan” ko‘nikmalar (ing. soft skills) – “ish jarayonida muvaffaqiyatlari ishtirok etish, yuqori mahsuldarlik uchun mas’ul bo‘lgan va o‘zaro bog‘liq kasbiy ahamiyatga ega bo‘lmagan, o‘zaro faoliyat jarayonidagi ko‘nikmalar to‘plamidir”⁴.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrni yozma ifodalashdagi pragmatik yondashuvlar bolalarni XXI asr hayotiy ko‘nikmalariga tayyorlashda eng yaxshi vositadir. Ushbu maqolada pragmatikaning mohiyati, ta’limda pragmatik yondashuvning ilg‘or va samarali usullari haqida kuzatish va tajribalarimizga asoslanib fikr yuritamiz.

Adabiyotlar tahlil. Inson tirik ekan, o‘ylaydi. Uning fikrlari dunyoqarashining ifodasi bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni inson boshdan kechirishi kerak bo‘lgan histuyg‘ulari xilma-xilligi, ko‘rgan, eshitgan, his qilgan hamma narsani boshqa odamlar bilan baham ko‘rishi kerak. Bu esa uning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini bildiradi. Bu ehtiyojni amalga oshirish uchun vosita kerak, ya’ni til. Ammo maqsadga erishish uchun bitta vosita yetarli emas: siz uni qanday ishlatischni bilishingiz kerak. Shuning uchun, muloqot qilish uchun tilning tuzilishini bilish yetarli emas, muloqot amalga oshiriladigan qonunlar va qoidalarni bilish ham talab qilinadi. Ularning yordami bilan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalay olishi mumkin. Binobarin, tilshunoslar faylasuf va psixologlarga ergashib, tilning tuzilishi va tarixining barcha jihatlarini yetarlichka

4 Lippman L.H., Ryberg R., Carney R., Kristin A. Workforce connections: key “soft skills” that foster youth workforce success: toward a consensus across fields. – Child Trends Publication, 2015. – 56 p.

o‘rganib chiqqandan so‘ng samarali muloqot muammolari bilan shug‘ullana boshlaganlari mantiqan to‘g‘ri. Pragmatika shunday tug‘ildi. S.S.Kotovskaya pragmatikaga shunday ta’rif beradi: “Pragmatika – fikr almashishning eng samarali lingvistik vositalardan foydalanish qoidalari va qonuniyatlarini o‘rganadigan lingvistik fan.”⁵

Pragmatika atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, pragma “harakat” degan ma’noni anglatadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda pragmatika, lingvistik pragmatika, lingvistik pragmatika va pragmalingvistika kabi atamalar ham mavjud. Hozirgi vaqtida pragmatika atamasi tizimga murojaat qilish uchun ishlataladi. Pragmatikaning asoschilari 30-yillarning oxirlarida amerikalik tilshunoslar C. Morris va C. Pirs hisoblanadi. O‘tgan asrda pragmatizm falsafasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra bayonotning ma’nosini muloqot muvaffaqiyatiga olib keladigan harakatlarni tanlash nuqtai nazaridan mumkin bo‘lgan natijalarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqilishi kerak. Ular o‘z ta’limotini lingvosemiotika – tilning belgilarni sifatidagi nazariyasi asosida qurdilar. C. Morris semiotikani uch qismga ajratdi: sintaktik (sintaksis), semantika (ma’no) va pragmatika (ta’sir).⁶

Sohaga doir adabiyotlar bilan tanishish orqali pragmatika atamasi aynan Ch.Morrisga borib taqalishini, Morris pragmatikani belgilarning muloqot jarayonida ifodalanishi

5 Котовская, С. С. Прагматика : электронный учебно-методический комплекс с креативным компонентом для специальности: 1-21 05 06 «Романо-германская (немецкая) филология». – Минск : БГУ, 2021. – 139 с.

6 Котовская, С. С. Прагматика : электронный учебно-методический комплекс с креативным компонентом для специальности: 1-21 05 06 «Романо-германская (немецкая) филология». – Минск : БГУ, 2021. – 139 с.

sifatida talqin qilganining guvohi bo‘ldik.

Pragmatika bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olim E.Saidov Morris qarashlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Dastlabki tadqiqotlari yuzasidan kelib chiqqan ta’riflar natijasida Morris pragmatikani yanada izchilroq tavsiflashga harakat qiladi hamda buning samarasini o‘laroq, olim pragmatikani ma’nuning qay tarzda yaralishi va qay shaklda muloqotga ko‘chishini ta’minlovchi mexanizm sifatida semiotikaning tub tarkibiy qismiga joylashtiradi.”⁷

Haqiqatan ham, Morris pragmatika tushunchasi va uning birinchi ta’riflari mantiq sohasida, mantiqiylar semiotika doirasida paydo bo‘lib, u yerdan tilshunoslikka o‘tgan deb ta’kidlaydi.⁸

Pragmatikani T.V.Buligina, Yu.S.Stepanov kabi rus tilshunos olimlari ham alohida fan deb biladilar. Yu.S.Stepanovning fikricha, pragmatika maxsus masalalar bilan shug‘ullanadi: qulay muloqotni tanlash insonning fikr va his-tuyg‘ularini eng yaxshi ifodalash demakdir. Yu.S.Stepanov shunday deydi: “Agar sintaksis belgilari tizimi tuzilishining ob‘ektiv qonuniyatlarini ochib bersa, semantika ma’no qonuniyatlarini o‘rgansa, pragmatika kuzatuvchining pozitsiyasiga bog‘liq bo‘lgan qonunlarni izlaydi, nutqdagi sub‘ektiv omilni o‘rganadi”⁹.

7 E.Sadikov. Til o‘qitishda pragmatika masalalari: ta’riflar, tanqidlar, tahlillar va talqinlar. O‘zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, 2022, [1/4/1].

8 Morris, Charles W. 1938. Foundations of the theory of signs. In Otto Neurath et al. (eds.). International encyclopedia of unified science, Vol. I, 1-59. Chicago, Illinois: The University of Chicago Press.

9 Степанов, Ю. С. В поисках прагматики / Ю. С. Степанов // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. — 1981. — Т. 40, № 4. — С. 325 — 332

Materiallar va usullar. Nutqni rivojlantirish - bu lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarni egallash jarayoni, ya’ni nutqni idrok etish, grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, lingvistik ishlab chiqarish, lingvistik so‘zlarni va pragmatikani tushunish ya’ni turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqdan foydalanish qobiliyati. Biz ushbu maqolani yoritish uchun pedagogik kuzatish, taqqoslash, so‘rovnama, empirik metodlardan foydalandik va Qo‘qon shahridagi 1-, 6-, 14-umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida tadqiqotni amalga oshirdik. Shuni alohida qayd qilish lozimki, 2023/2024-o‘quv yildidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 K modeli asosida tayyorlangan yangi ona tili darsliklaridan foydalanyapti. Ona tili darsliklarida berilgan o‘quv materiallarini kuzatishda, asosan, e’tiborni o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, ularni bajarish usullari va bunda o‘quvchilarning berilayotgan o‘quv materialining o‘zlashtirishlariga qaratdik. 1-4-sinf ona tili darsliklarida fikrni yozma ifodalashga oid “Harflarni top”, “Guruhlarda ishlash”, “Adashgan bo‘g‘inni o‘rniga qo‘y”, “So‘zdan so‘z top”, “O‘yla, izla, top”, “Rasmlarni so‘zga almashtir”, “Davom ettir” qabilidagi mashqlar mavjud bo‘lib, mashqlarni bajarish orqali o‘quvchilarda kollaboratsiya, fikrni yozma ifodalash, muloqotchanlik, kreativ fikrash fazilatlari shakllanadi. Tadqiqotga 2-, 3-, 4-sinflarning 70 nafar o‘quvchilari ishtirot etdi. Masalan: 4-sinf 1-qism ona tili darsligida berilgan quyidagi mashq juftlikda ishslash orqali bajarildi va eng ko‘p so‘zlar juftligini topgan o‘quvchilar rag‘batlantirildi.



82-mashq. Zid ma'noli so'zlar yozilgan jadvalni davom ettiring.

qalin	ingichka
kulish	yig'lash
nam	quruq
g'am	quvonch

Shu so'zlarni qatnashdirib, uchta gap tuzing.

¹⁰Yuqoridagi maktablarda faoliyat

yuritayotgan 12 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma "O'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda interaktiv usullar" mavzusidagi savollarga javob berdilar. Savollar quyidagicha:

t/r	Savollar mazmuni	Ha	Yo'q
1	Ona tili darsliklaridan foydalanishda qiyalmaysizmi?		
2	Darslikdagi o'quv materiallari lingistik kompetensiyalarni rivojlantira oladimi?		
3	Mashqlarning interaktivligini yoqlaysizmi?		
4	Bolalar yozma fikrini ifodalashda darslikdagi topshiriqlar yetarlimi?		
5	Yozma nutqni rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanasizmi?		
6	Yozma fikrlarni rivojlantirish uchun darsga yangi ko'rgazmali qurollar tayyorlaysizmi?		

10 M.E.Tirova. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning: "O'z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"¹¹, – degan fikrlari kichik yoshli

11 I.A.Karimov.Barkamol avlod-O'zbekiston tarraqiyoti poydevori._ Toshkent:1997.9-bet.

Muallif ishlansmasi.

maktab o'quvchilarining nutqiga alohida e'tibor bilan yondashishga chorlaydi. O'quvchilarini o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Kichik yoshli maktab o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqi parallel ravishda rivojlantiriladi. Maqolada yozma nutqni shakllantirishdagi yondashuvlarni tadqiq qilayotganimiz bois olib borilgan tadqiqot natijalarini keltirib o'tamiz.

“O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda interaktiv usullar” mavzusida 12 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining javoblari quyidagicha bo‘ldi.¹²


12 Muallif ishlanmasi.

t/r	Savollar mazmuni	Ha	Foiz	Yo‘q	Foiz
1	Ona tili darsliklaridan foydalanishda qiyalmaysizmi?	1	8%	11	92%
2	Darslikdagi o‘quv materiallari lingistik kompetensiyalarni rivojlantira oladimi?	10	83%	2	7%
3	Mashqlarning interaktivligini yoqlaysizmi?	12	100%	0	0
4	Bolalar yozma fikrini ifodalashda darslikdagi topshiriqlar yetarlimi?	9	75%	3	25%
5	Yozma nutqni rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanasizmi?	12	100%	0	0
6	Yozma fikrlarni rivojlantirish uchun darsga yangi ko‘rgazmali qurollar tayyorlaysizmi?	11	92%	1	8%

1-jadval

So‘rovnoma natijalarini tahlil qilar ekanmiz, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bugungi internet zamonida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda interaktiv usullarni qo‘llab quvvatlagan.

Qo‘qon shahar 6-umumiyl o‘rta ta’lim maktab 4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan pedagogik kuzatuv natijalari quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi.



¹³Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar yozma nutqini rivojlantirishda interaktiv usullarning ahamiyati katta. Chunki ko‘rgazmalilik, jamoada ishslash ta’lim sifatini oshirishdagи eng samarali metodlardir.

Muhokama. Professor S.Matchonov va bir guruh olimlar jamoasi bolalarga so‘z, ibora, gap ustida ishslashda “Ortiqchasini top”, “Zanjir”, “Skanerdan ma’nodosh so‘zlarni top”, “Iztopar”, “Harflardan ma’nodosh so‘zlar tuz”, “Aql charxi”, “Charxpalak”, “Ruchka stol ustida”, “Meni tushun”, “Sirli so‘z”, “O‘z uyalariga joyla”, “Munozara daqiqasi”, “Kim chaqqon”, “Topqirlar

bellashuvi”, “Kimligingni top” kabi interaktiv usullarni taklif qiladi.¹⁴ Biz ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Haqiqatan ham, dars jarayonida bunday faollashtiruvchi usullardan foydalanish o‘quvchilarga taklif etilayotgan o‘quv materialining oson o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Tadqiqotchi D.Abduraxmonova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda turli xil interaktiv metodlar va ulardan foydalanish yo‘llari haqida fikr bildirib, “Rasmlar

14 S.Matchonov va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Ishonchli hamkor”, 2021. 740 b.

13 Muallif ishlanmasi

orasidagi bog'liqlik metodi", "Kuchli xotira 3-2-1" metodlarini tavsiya qiladi. Bu metodlar ham samarali ta'limi faoliyat uchun muhim vositalardan ekanligi amaliyotda isbotlandi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, o'quvchi qiziqishi va o'zlashtirishidan kelib chiqib qo'llanadigan har qanday interaktiv metod ta'lim oluvchilarda yozma nutq bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam beradi.

Xulosa. Olib borilgan kuzatishlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqlarini shakllantirish bo'yicha quyidgi

xulosalarga kelish mumkin: 1.Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrni yozma ifodalashlarida pragmatik yondashuv ta'lim sifatini kafolatlaydi.

2.Darsjarayonida bolalardamuloqotchanlikni rivojlantirish uchun qulay ta'limi vaziyat yarata olish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ijodiy va kreativ fikrlashni talab qiladi.

3.Doimiy ravishda o'quvchilarning so'z boyligi va badiiy tafakkurini o'stirishda sinfdan tashqari o'tkaziladigan ishlardan unumli foydalanish yaxshi natija beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.
- 2.Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: ACT, 2009. – 480 с
- 3.Яркова Т. А., Черкасова И. И. Указ. соч.
- 4.Lippman L.H., Ryberg R., Carney R., Kristin A. Workforce connections: key "soft skills" that foster youth workforce success: toward a consensus across fields. – Child Trends Publication, 2015. – 56 р.
- 5.Котовская, С. С. Прагматика : электронный учебно-методический комплекс с креативным компонентом для специальности: 1-21 05 06 «Романо-германская (немецкая) филология». – Минск : БГУ, 2021. – 139 с.
- 6.E.Sadikov. Til o'qitishda pragmatika masalalari: ta'riflar, tanqidlar, tahlillar va talqinlar. O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, 2022, [1/4/1].
- 7.Morris, Charles W. 1938. Foundations of the theory of signs. In Otto Neurath et al. (eds.). International encyclopedia of unified science, Vol. I, 1-59. Chicago, Illinois: The University of Chicago Press.
- 8.Степанов, Ю. С. В поисках прагматики / Ю. С. Степанов // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. — 1981. — Т. 40, № 4. — С. 325 — 332
- 9.M.E.Tairova. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.
- 10.A.Karimov.Barkamol avlod- O'zbekiston tarraqiyoti poydevori.. Toshkent:1997.9-bet.
- 11.S.Matchonov va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 740 b.

MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINING INTERFAOL METODLARI VA UNING NATIJALARINI INFORMATIKA FANI MISOLIDA O'RGANISH

QURBONOV PAHLAVON SIROJIDDIN O'G'LI
Farg'onə jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lismi va masofaviy ta'limga qo'llash usullari yaratish texnologiyalari ta'lismi soxalarida tashklillashtirish tamoyillari keltirilgan hamda Informatika fanini o'rgatish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar, unga tegishli bo'lgan xulosalar va natijalar olingan.

Аннотация: В данной статье представлены принципы дистанционного образования и технологии создания методов его применения в областях образования, а также методические указания по преподаванию информатики, выводы и результаты, связанные с этим

Annotation: In this article, distance education and distance education application methods, principles of organization in the field of creation technologies are presented, as well as methodological manuals for teaching computer science conclusions and manuals related to it.

Kalit so'zlar: Masofadan o'qitish, masofaviy ta'lismi, masofaviy ta'limga texnologiyasi, interfaol metodlar, interfaol texnologiyalar.

Ключевые слова: дистанционное образование, дистанционное образование, технология дистанционного обучения, интерактивные методы, интерактивные технологии.

Key words: Distance education, distance education, distance education technology, interactive methods, interactive technologies.

Masofaviy ta'limga tashkil etish modellari bo'lib bular quyidagi guruhlarga bo'linadi va har biri alohida mohiyat kasb etadi:

Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o'quvvchilarga biriktirilgan bo'lishadi.

Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'limga o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhdagi bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud.

Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'limga turlarini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. O'quvchilar o'quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o'qiysi. Shu bilan birga bu ta'limga turiga virtual seminar, prezentsiyalar va lektsiyalar o'tkazish ham kiradi.

Konsortsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir-biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o'quv kurslarni tashkil qilib ishini ta'minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o'quvchilarni ta'minlaydi.

Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir-biri bilan o'zlarini yaratgan o'quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta'limga sohasida etakchi bo'lgan o'quv muassasa bu sohada ilk qadam qo'yadigan muassasaga o'zining o'quv kurslarni takdim qiladi.

Uzoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda axborot va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalilaniladi. Bitta o'quv muassasada bo'lib o'tgan o'quv kurslar videokonferentsiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekomunifikatsion kanallar orqali sinxron teleko'rsatuvlari ko'rinishida boshqa auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan model

bilan farqi shundaki, bu modelda o'quvchilar kunduzgi ta'limdi qatnashmaydi. Bu modelga misol qilib AQSHning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning markaziy radio va televiedenie Universitetidagi ta'limdi olish mumkin.

Loyihalar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta'lim mutaxassislari va pedagoglar to'plangan ilmiy-metodik markazga tushadi.

O'quv jarayonida masofadan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish sifati o'quv materiallari va o'quvchilarga ularni yetkazish tizimi va vositalari kabi komponentalardan iborat omillar bilan aniqlanadi.

Masofadan o'qitish jarayonini sifat va samaradorligini oshiruvchi axborot ta'lim muhiti sifatli hisoblanadi, agar u axborotlashgan ta'lim tizimi maqsadi va me'yoriga mos kelsa, ya'ni u quyidagilarni ta'minlasa:

elektron axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati;

axborot resurslarining shakli va sifati talab darajasida ekanligi;

olinadigan axborotlarning to'liqligi, tezkorligi va ishonchliligi;

axborot olishning qulayligi.

axborot resurslarni yig'uvchi, saqlovchi va xizmat ko'rsatuvchi

tashkiliy tuzilmaning mavjud bo'lishi;

ta'lim sifatini boshqarish jarayonining baholash tizimi yaratilganligi va faoliyat ko'rsatayotganligi;

masofadan o'qitish jarayonini ta'minlash va o'qituvchilar malakasini oshirish uchun axborot muhiti boshqa mintaqaviy va chet el resurslari bilan integrallashganligi;

o'qituvchilar va talabalarning axborot savodxonligini masofadan o'qitish texnologiyalarni zamonaviy rivojlanish darajasiga moslashtirish maqsadida maxsus

kurslar tashkil etilganligi;

turli darajadagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan va turli ko'rinishidagi elektron axborot resurslari mavjud bo'lishi;

axborot muhitni tashkillashtiruvchi va o'tkazuvchi lokal tarmoqlar va zamonaviy dasturiy vositalar bilan ta'minlanganligi.


Masofaviy o'qitish texnologiyalari quyidagilarni amalga oshiradi: ma'ruzaning axborotliligin oshiradi, o'quv materialini har xil formalarda foydalanish evaziga mativatsiyani oshishiga va darsning ko'rgazmaliligin oshishiga sabab bo'ladi va yana ma'ruzaning qiyin o'zlashtiriladigan ma'lumotlarini qaytarish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitishli ma'ruzalarning asosiy ustunligi quyidagilardan iborat: interfaol muloqotni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy va apparat vositalari orqali bir vaqtning o'zida auditoriya bilan muloqotda savol javob berish va emotsiyonal qayta aloqasini boshqarish imkonini beradi [29].

Har bir ma'ruza prezintatsiyasi 15-20 slayddan iborat bo'ladi. Ushbu ma'ruza quyidagilardan tashkil topgan: ma'ruzani mavzusi, rejasi, asosiy ko'rildigan savollar va asosiy materialning illyustratsiya ko'rinishida taqdim etilishi, sxema, jadval va matn bloklaridan iborat bo'ladi.

Informatika fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini masofaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llashdagi effektivligini aniqlash va ularni bilishga oid faoliyatini faollashtirishga ta'sir etish, o'rganuvchilarning psixofiziologik holati nazorat guruhlarida ajratilgan, bir xil tarkib va o'zlashtirishiga ega.

Informatika fanini masofa uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:



An'anaviy ta'lim bilan interfaol ta'limni taqqoslaganda interfaol ta'limda o'qituvchi va talabaning o'zaro aloqasi o'zgaradi: o'qituvchining aktivligi o'rnini talaba egallaydi, pedagogning vazifasi ularga sharoit yaratib berishga sababchi bo'ladi. Interfaol ta'lim intensiv ta'limda keng qo'llaniladi.


Ushbu metodlarni ish jarayonida qo'llash uchun pedagog guruxli muloqot usulini bilishi kerak. Interfaol o'qitish o'zaro tushunish, o'zaro aloqa va o'zaro muloqotni ta'minlaydi. Interfaol metodlar ma'ruza darsini o'rnini bosa olmaydi, lekin ma'ruza matnini tushunishini oshiradi va nima asosan kerak, fikrlarni jamlaydi, muloqotda o'zini tutishni o'rganadi. Interfaol formalardan foydalanganda o'qituvchining roli o'zgaradi, asosiy vazifasi o'zgarib faqat o'quv jarayoni va umumiy tashkiliy ishlar bilan shug'ullanadi, oldindan kerakli topshiriqlarni tayyorlaydi va savollarni yoki guruhlarda muhokama qilish uchun mavzularni aniq ifoda qiladi, maslahatlar beradi, vaqt ni va

belgilangan rejani bajarilishini tartiblaydi. Qatnashchilar ijtimoiy tajribada o'zi va bashqa odamlarga murojaat etadilar, bu bilan ular bir - birlari bilan muloqot qilishlariga to'g'ri keladi, birgalikda qo'yilgan masalani hal qilishadi, e'tirozlarga bardosh berishadi, umumiyluq nuqtalarni topib o'zaro yaqinlashish kelishuvga kelishadi. Psixologlar tomonidan o'quv sharoitida muloqot aniqligining oshishini o'zlashtirilganligi, ishning natijaviylik xotirasi o'sishi, shiddat bilan intelektual va emotsiyonal shaxsiy xususiyatlari rivojlanishi, diqqatning barqarorligi va uni taqsimlanishini bilishi kabilar o'rnatildi; sheriklarning ish faoliyatini analiz qilish uni sabablarini va maqsadlarini ko'rish

Masofadan o'qitish tizimida «Informatika» kursining mazmuni va tuzilmasi asosiy o'quv masalalarini yechishda hosil bo'ladigan uslubiy problemalar quyidagicha bo'ladi:

- kompyuter uchun dasturlash asoslarini o'rganish,


- kompyuterlarning qo'llash va undan foydalanishni o'rganish;



Masofalita'limga tinglovchisi fandasturlari, chop etilgan yoki elektron ko'rinishdagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar (darslik, mashqlar to'plami, vosita ishlarini bajarish uchun qo'llanma va b.) ni, shuningdek, har bir ko'rinishdagi mashg'ulotlar bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmualarga ega bo'lishi kerak.

Masofaviy ta'limga o'quv kursining eng to'la varianti quyidagilardan iborat bo'ladi:

- fanni o'rganish bo'yicha uslubiy tavsiyalar;
- nazariy materiallar;
- nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqish uchun topshiriqlarni bajarish misollari va eng ko'p uchraydigan xatoliklarni tahlili ko'rsatilgan mashqlar to'plami;
- virtual vosita ishlari;
- ma'lumotnomalar va glossariylar



Informatika fanidan masofaviy ta'limga axborot resurslaridan mustaqil foydalanish bo'yicha yaratilgan uslubiy qo'llanmaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

FJSTI "Biofizika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti
PAHLAVON QURBONOVNING

Informatika fanidan masofaviy ta'limga axborot resurslari

Interfaol uslubiy qo'llanma

Kirish **Tuzuvchi**
Qurbanov Pahlovon

Yo'riqnomalar:

- Ma'ruba
- Amaliyat
- Taqdimot
- Keyslar
- Interfaol testlar
- Nazorat savollar
- Adabiyotlar

Assalomu alaykum! Hurmatli foydalanuvchil! Chap tomonagi bo'limlardan ixtiyoriy bittasini tanlang!

keyingi slaydga o'tish

oldingi slaydga qaytish

Chiqib ketish uchun «Esc» tugmachasini bosing.

Har bir samaradorlik darajasining xususiyatidan kelib chiqib quyidagi me'zonlar shakllantirildi:

Yuqori darja – mustaqil ta'limga olishga yo'nalganlik, moslashuvchanlik, fikrlashning ravonligi, ratsionalizatorlik ko'nikmasining mavjudligi, mantiqiy fikrlash qobilyatlarining rivojlanganlik sifatlarini shakllanganligi, sifat masalalarini yechish malakasining shakllanganligi


O'rta daraja – mustaqil ta'limga olishga nisbatan ongli munosabatning tarkib topganligi, mustaqil ta'limga olishga oid nazariy bilimlarning o'zlashtirilganligi, faoliik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik ko'nikmalarining shakllanganligi:

Quyi daraja – mustaqil ta'limga olishga moyillikning yo'qligi, passiv ishtirotning mavjudligi, o'z – o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqning pastligi

**O'quvchilarda masofadan o'qitish tizimida mustaqil ta'lif
olishning rivojlanganlik darajasi (miqdor ko'rsatkichlarida) samaradorligi**

Guruhlari	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Quyi
Tajriba sinfi	55	38	12	5
Nazorat sinfi	55	28	18	9

Nazorat sinfi 55 28 18 9 samaradorligini ko'rsatuvchi N1 gipoteza va
 Yuqoridagi jadvallar asosida o'qituvchilar unga zid bo'lgan N0 gipoteza
 tajribadan keyingi va tajribadan tanlandi. Bu ko'rsatkichlarga mos
 oldingi hamda o'quvchilarning tajriba va diagrammalar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi
 nazorat sinflaridagi o'zlashtirishlari



Olingan natijalarga asoslangan holda o'quvchilarda informatika fanini masofadan o'qitish tizimi orqali mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi matematik statistika asosida tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya,

Styudentning tanlanma mezoni, Pirsonning muvofiqlik kriteriysi va ishonchli

**chetlanishlar asosida o'quvchilarda informatika fanini masofadan o'qitish tizimi
orqali mustaqil o'rganish qibiliyatlarini rivojlantirish tahlili**

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,44	2,02	0,4064	0,6596	1	1	12,35	1870,13	185,3	0,04	0,05
2,44	2,02	0,04664	0,669	3	5	3,31	122,45	9,99	0,17	0,2

Natijalardan tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatkichlar Neyman g'oyasi asosida ishonchli intervallar topildi:

$$\bar{X} - t_{kp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{kp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \quad \bar{Y} - t_{kp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{kp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

Informatika darslarida o'quvchilarning tajriba o'quvchilarda informatika fanini masofadan o'qitish tizimi orqali mustaqil o'rganish shakllanganlik ko'rsatkichlari:

$$2,44-0,04 \leq a_x \leq 2,44+0,04 \quad 2,40 \leq a_x \leq 2,48$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$2,02-0,05 \leq a_y \leq 2,02+0,05 \quad 1,97 \leq a_y \leq 2,07$$

O'quvchilarda tajriba yakunida:

$$2,44-0,17 \leq a_x \leq 2,44+0,17 \quad 2,27 \leq a_x \leq 2,61$$

Tajriba boshi uchun ishonchli interval:

$$2,01-0,2 \leq a_y \leq 2,01+0,2 \quad 1,81 \leq a_y \leq 2,21$$

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

O'quvchilarda: Bizga ma'lum

$$\bar{x}=2,44; \quad \bar{y}=2,02; \quad \Delta_x = 0,04; \quad \Delta_y = 0,05; \quad ga teng.$$

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yec} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,44 - 0,04}{2,02 + 0,05} = \frac{2,4}{2,07} = 1,16 > 1;$$

Olingan natijalardan o'quvchilarda informatika fanini masofadan o'qitish tizimi orqali mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mukin. Bundan ma'lumki, tajriba yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichidan yuqori. Statistik tahlil natijasida baholar normal taqsimotga ega, deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinnlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari soda bo'lib, ular bajarildi. Shunday qilib tajriba guruhidagi o'zlashtirishlar nazorat guruhidagi o'zlashtirishlardan yuqori ekan. Demak informatika darslarida o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Pahlavon Q. TIBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 24-28.
2. Qurbonov P., Xoldarova G., Rasulova F. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 35-39
3. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 43-47.
4. Qurbonov P., Xoldarova G., Rasulova F. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 35-39.
5. Qurbonov , P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O'QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTC/ article/view/11562>
6. www.fjsti.uz
7. <https://tktishf.edu.uz/>
8. <https://dist.edu.uz>

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

ADILOV PULAT ADILOVICH

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

ISOQJONOVA MALIKA MURODJON QIZI

Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada muhandislik grafikasi fanlarni o'qitishdagi ba'zi muammolar va ularning yechimida zamonaviy innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur maqolada ta'lif jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kreativlik, zamonaviy pedagogika, pedagogik mahorat, interaktiv darsliklar, elektron o'yin metodi.

Abstract: The article discusses some of the problems of teaching engineering graphics and the importance of using modern innovative technologies in solving them. Also, this article discusses the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the educational process and offers suggestions for a new approach to the educational process in higher education institutions.

Key words: innovation, creativity, modern pedagogy, pedagogical skill, interactive textbooks, electronic game method.

Аннотация: В статье рассматриваются о некоторых проблемах преподавания инженерной графики и о важности использования современных инновационных технологий в их решении. Также в данной статье рассматривается эффективность использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе и предлагаются предложения по новому подходу к образовательному процессу в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: инновация, творчество, современная педагогика, педагогическое мастерство, интерактивные учебники, электронно-игровой метод.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'lifda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini

bajaradi.

Ayniqsa, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari malakali kadrlar tayyorlashda zamonaviy o'qitish usullari interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish doirasi kengayib bormoqda. Talabalarga dars o'tish jarayonida pedagogik texnologiyalar, pedagogik maxorat asosida bilim, tajriba va interfaol usullarni qo'llash ularga fanlarni chuqur o'zlashtirishlariga va etuk malakaga ega bo'lishlariga olib keladi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallahgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘sishchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiya tushunchasi bilan birgalikda “pedagogik texnologiya” tushunchasini ham birga qo‘llash keng foydalanilmoqda va rivojlanmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallahgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini

optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO). Bundan tashqari pedagogik texnologiya, texnologik imkoniyatlardan foydalanib o‘quv jarayonini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik usullar va qurilmalar birligi hisoblanadi. Bu, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonlarini yanada qulaylashtirish, motivatsiyani oshirish va o‘quv materiallarini qiziqarliroq va samaradorroq qilish maqsadida texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni sodda talabga yo‘naltirish va ularni o‘rganishni osonroq, samaraliroq qilishga yordam beradi. Quyidagi zamonaviy metodalardan bir necha misollar orqali ko‘rib chiqish mumkin:

1. Interaktiv dars texnologiyalari: Smart doskalar, interaktiv ta’lim o‘yinlari va elektron darsliklar: o‘quvchilarga texnikaviy muhit orqali yangi bilimlarni o‘rgatish imkoniyatini yaratadi.

2. Mashqiy darslar va laboratoriylar: O‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyatda mustahkam qilish uchun mashqiy darslar va laboratoriyalardan foydalanish.

3. Virtual darslar va vebinarlar: Video darslar, vebinarlar va onlayn platformalardan foydalanish, o‘quvchilarning o‘qituvchisi bilan, boshqa o‘quvchilar bilan yoki global onlayn jamoat bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish.

4. Hamkorlikda o‘qitish: Guruh ishlari, qo‘llab-quvvatlash va jamoaviy proyektlar orqali o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda harakat qilishni o‘rgatish.

5. Ilova asosida o‘rganish: O‘quvchilarga ilova yordamida, masalan, ta’lim o‘yinlari yoki ta’lim ilovalari orqali mavzuni o‘rgatish.

6. Shaxsiy o‘rganish yo‘llari: O‘quvchilarni o‘z fikrlarini ifodalash, shaxsiy fikrlarini bayon etish kabi xususiyatlarini rivojlantirish.

7. Qiziqarli o‘yinlar orqali o‘qitish: Talabalarni turli elektron o‘yinlar orqali fanga

qiziqtirish va o‘z ustida ishlashni kuchaytirish.

Shuni aytib o‘tish kerakki, zamon o‘zgarishi, ta’limning rivojlanishiga qarab, yangidan yangi texnologiyalar yaratiladi. Yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalardan ko‘proq foydalanish yaxshi, lekin eski texnologiyalarni yoddan chiqarmasligimiz kerak, ya’ni ular (eski texnologiyalar)ni yaxshi, sifatli, o‘tkir metodlarini dars jarayonida qo‘llab turishimiz kerak.

Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Bu, talabalarga muhandislik grafikasini o‘rganishning interaktiv va amaliy usullarini ta’minlaydi. Quyidagi innovatsion texnologiyalar muhandislik grafikasini o‘qitishda keng foydalanilishi mumkin:

1. Kompyuter tasvir dasturlari: Muhandislik grafikasi darslarida, kompyuter tasvir dasturlaridan, masalan, AutoCAD, SolidWorks, CATIA, Inventor, ProEngineer, Vectorworks, Rhino va hokazo foydalanish mumkin. Bu dasturlar talabalarga tasvir yaratish, 3D model yaratish, texnik chizmalar tayyorlash va dizaynning boshqa ko‘rinishlarini o‘rganish imkonini beradi. 2. San’atiy tasvir dasturlari: Bu texnologiyalar talabalarga muhandislik grafikasini amaliy ko‘rinishda o‘rganish imkonini beradi. Photoshop, Illustrator, CorelDRAW kabi dasturlar tasvir tahrirlash, ranglarni tahrirlash, tasvir yaratish va dizaynning boshqa aspektlarini o‘rganishga yordam beradi. 3. Virtual qo‘llanma dasturlari: Virtual tasvir dasturlari talabalarga tasvirni virtual ravishda yaratish imkonini beradi. Virtual tasvir muhandislik grafikasini o‘rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Misol uchun, Blender, SketchUp, Unity va Unreal Engine kabi dasturlar virtual tasvir yaratish va muhandislik modellarini o‘rganishga yordam beradi. 4. Online ta’lim platformalari: Online ta’lim platformalari talabalar uchun interaktiv ta’lim imkoniyatlarini ta’minlaydi. Bu platformalar orqali muhandislik grafikasi

darslarini videoedarslar, interaktiv testlar, amaliy mashqlar va alohida ta’lim materiallari bilan ta’minlash mumkin. 5. 3D printerlar: 3D printerlar muhandislik grafikasi sohasidagi modellarni haqiqiy 3D obyektlarga aylantirish imkonini beradi. Talabalar tasvir yaratishning natijasini real asosli modellarga aylantirish va mutaxassisliklarini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu innovatsion texnologiyalar, muhandislik grafikasini o‘qitishda amaliyatga yo‘naltirish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun bu sohadagi rivojlangan usullarning bir qismidir.

Yuqorida metodlardan kelib chiqib ta’lim jarayoniga turli o‘yin ko‘rinishidagi metodlardan foydalanishning samarasini ko‘rib chiqamiz. Zamonaviy metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni ilg‘or va faol qilish, o‘rganishni oson va qiziqarli qilish, shuningdek, ularning o‘zarota’limsifatinioshirishuchunkataahamiyat kasb etadi. O‘yinli texnologiyalar, chizmachilik darslarida foydalanishning ahamiyatini va o‘quv jarayoniga olib kelgan foydalarning bir qismidir. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘rganish jarayonini o‘zlashtirish va o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish imkonini beradi.

Bilamizki, o‘quvchilarorasidachizmachilik darslariga bo‘lgan qiziqishning susayishiga sabablardan biri, bazi o‘quvchilarda fazoviy tasavvurning yaxshi rivojlanmaganligidir, bizga ma’lumki, muhandislik grafikasi fanining asosi fazoviy tasavvur qilish bilan bog‘liqidir. Bu esa barcha o‘quvchilarda bir xilda rivojlanmaganligi sabab bolalarda yangi mavzuni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari kuzatiladi. Shunga o‘xshash muammolarni bartaraf etish uchun esa o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va izlanish talab etiladi. Buning uchun eng avvalo, o‘quvchini darsga qiziqtirish lozim, agar bolada fanga qiziqish yuksala boshlasa, o‘qituvchidan ma’lumotni qabul qilishi osonlashadi, eng asosiysi o‘qituvchining ham metodik tayyorgarligi hamda pedagogik maxorati rivojlanadi.

Shuningdek, o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida rivojlanishlarini kuzatib borish va ularga moslashtirilgan individual yordam berishning asosiy qismlarini taqdim etadi. Bu usul, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida

xatoliklarini aniqlash va ularga moslashtirilgan yordamlarni taklif qilishga imkon beradi.

Quyida guruh bilan birgalikda darsni “Qiziqarli chizmachilik” o‘yini orqali o‘tkazishning samarasi ketma-ketligi (1-rasm):



1-rasm

Guruhdan o‘rtacha 5 tadan kam bo‘limgan o‘quvchi tanlab olinadi va o‘yin shartlari tushuntiriladi;

Bu viktorinada 5 xil yo‘nalishda va turli ballar sistemasida savollar joylashtiriladi;

Savollar ketma-ketligi osondan murakkabga qarab yuksaladi va shundan kelib

chiqib har bir savol uchun berilgan javoblar uchun ham qo‘yiladigan ballar yuqorilashadi;

Javob berish uchun esa ma’lum bir vaqt belgilanadi (10 soniya) va har bir o‘quvchi istalgan mavzuda, istalgan darajadagi savollar yashiringan raqamlarni tanlab javob berishlari mumkin bo‘ladi (2-rasm).

Uchinchisi ortiqcha	10	20	30	40	50
Ta’riflar	10	20	30	40	50
Test	10	20	30	40	50
Anagrammalar	10	20	30	40	50
Mantiqiy savollar	10	20	30	40	50

2-rasm

Javob berish vaqtin tugaganidan so‘ng esa, to‘g‘ri javob aniq ma’lumotlar va chizmalar bilan ko‘rsatib boriladi, bu esa javobni topa bila olmagan o‘quvchilar uchun ancha foydali va manfaatlidir. Eng yuqori ball to‘plagan o‘quvchi esa viktorina oxirida rag‘batlantiriladi.

Bu metoddan vaqtin vaqtin bilan ochiq darslar, tadbirlar hamda talabalabalar turar joylarida o‘quvchilarning vaqtlarini samarali o‘tkazish maqsadida foydalanish o‘quvchilarda ilg‘orlikni yuksaltirishga, darsga qatnashishini kuchaytirishga yordam beradi, bunday texnologiyalar orqali talaba-o‘quvchilar nazariy bilimlarni amalda mustahkamlash, kritik fikrlash, tahlil qilish va muhokamalarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Qo‘sishma o‘rnida talabalarga ta’lim jarayonida avval qiziqish uyg‘otib, motivatsiya berib, so‘ngra raqobat muhitini yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg‘onishi va albatta rag‘batlantirish amalga oshirilsa ko‘zlangan

maqsadga oson erishish mumkin. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo‘lsa ulardan birini o‘rnak bo‘luvchi inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga sayohat qilishni yanada kengaytirish yo‘lga qo‘yilsa maqsadga erishishni tezlashtirishga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida o‘qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma’naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’limni sifatini ko‘tarsa, innovatsion texnologiyalar ta’lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. INTERFAOL USULLAR: MOHIYATI VA QO‘LLANILISHI/MET. – T.: NIZOMIY NOMIDAGI DTPU, 2013 y.
2. T.Rixsiboyev. MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISH METODOLOGIYASI.- TOSHKENT “TAFAKKUR QANOТИ” 2011.
3. Erpolatovich, T. N., & Qizi, J. S. P. (2023). INDIVIDUALIZATION OF STUDENTS’EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 34-40.
4. Erpolatovich, T. N., & Kyzy, T. Z. B. (2023). SPATIAL DEVELOPMENT OF STUDENTS’IMAGINATION IN ENGINEERING GRAPHICS BY SOLVING PROBLEMS RELATED TO DESIGN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 30-33.
5. Turdimovich, A. S. (2023). WAYS TO DEVELOP STUDENTS’DESIGN ABILITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(04), 6-10.
6. Tashimov, N., & Samandar, Z. (2021). IMPROVING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF TEACHING DESCRIPTIVE GEOMETRY IN A CREDIT-MODULAR SYSTEM. ACADEMIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 730-733.
7. Adilov, P. (2023). USE OF THE AUXILIARY PROJECTION METHOD IN IMPROVING THE QUALITY OF ENGINEERING GRAPHICS EDUCATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(2), 160-165.
8. Erpolatovich, T. N., & Kyzy, T. Z. B. (2023). SPATIAL DEVELOPMENT OF STUDENTS’IMAGINATION IN ENGINEERING GRAPHICS BY SOLVING PROBLEMS RELATED TO DESIGN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 30-33.
9. Adilovich, A. P. (2022). IKKINCHI TARTIBLI CHIZQLARNI AVVALDAN BERILGAN PARAMETRLAR ASOSIDA YASASH ORQALI TALABALARNING KONSTRUKTORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.
10. Adilov, S. T. (2022). PROYEKTIV MOSLIKLARNI YASASH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 1186-1192.
11. Tashimov, N. E., & Tuxtaqulova, Z. B. Q. (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASIDA LOYIHALASHGA OID MASALALARНИ YECHISH ORQALI TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 445-451.

INFORMATIKA TA'LIMIDA SAMR TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

MADRAXIMOV SHUXRATJON SHUKUROVICH
Qo'qon davlat pedagogika instituti assistent-o'qituvchisi
MADRAXIMOVA MAXFUZA AXMEDOVNA
Qo'qon davlat pedagogika instituti assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika ta'limalda zamonaviy hamda xorijiy texnologiyalardan foydalanish haqida yoritilgan. Xususan, informatika ta'limalda SAMR texnologiyasidan foydalanishning bosqichlari ko'rib chiqilgan. Amaliy mashg'ulotlarda texnologiyalarni ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ko'rsatilgan. SAMR texnologiyasining o'qituvchilarga texnologiyalarni o'rganish va ularni o'quv-uslubiy jarayonlarga integratsiya qilishlaridagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan "Matn protsessorlari yordamida kasbiy faoliyatga doir hujjatlarni yaratish, formatlash va tahrirlash" mavzusi uchun SAMR modeli qo'llangan laboratoriya mashg'uloti uchun topshiriqlar keltirilgan.

Kalitso'zlar: informatika ta'limi, amaliy mashg'ulot, xorijiy texnologiyalar, SAMR texnologiyasi, Substitution (Almashtirish), Augmentation (Qo'shish), Modification (O'zgartirish), Redefinition (Qayta Aniqlash), samarali natijalar.

Аннотация: В данной статье описано использование современных и зарубежных технологий в обучении информатике. В частности, рассмотрены этапы использования технологии SAMR в образовании в области информатики. Поэтапная интеграция технологий в учебный процесс показана на практических занятиях. Раскрыто значение технологии SAMR для учителей в технологиях обучения и интеграции их в процессы преподавания и обучения. В статье представлены задания к лабораторному занятию с использованием модели SAMR по теме «Создание, форматирование и редактирование документов, связанных с профессиональной деятельностью, с использованием текстовых процессоров» по предмету «Применение информационных технологий в профессиональной деятельности».

Ключевые слова: преподавание информатики, практические занятия, зарубежные технологии, технология SAMR, Substitution (Замена), Augmentation (Дополнение), Modification (Модификация), Redefinition (Переопределение), эффективные результаты.

KIRISH

Informatika ta'limalda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quv jarayonini yanada samarali qilish uchun muhim hisoblanib, o'qituvchilarga so'nggi texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanish, ularni o'zlashtirish, talabalarga moslashtirish, hamda mashg'ulotlarda samarali natjalarga olib kelish imkoniyatini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi aloqani kuchaytib o'qituvchilarga o'qitish usullarini tuzish va ularni o'quvchilarga moslashtirish uchun

yordam beradi. Informatika ta'limalda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, informatika ta'limini rivojlantiradi va o'quvchi-talabalarga innovatsion va samarali o'rganish imkonini beradi. Bu esa talabalarning kreativliklarini oshirish, muammolarni yechish va kasbiy rivojlanishlarini ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

SAMR modeli doktor Ruben Puentedura tomonidan yaratilgan, u Hippasus ta'lim konsalting firmasining asoschisi va amaldagi prezidenti hamda Meyn Learning

Technology Initiative qo'llab-quvvatlash jamoasi a'zosi hisoblanadi. SAMR modeli o'qituvchilarga o'quv muhitida texnologiya integratsiyasi darajasini aniqlashda yordam beradi. Maqsad – ta'lim maydonini qayta belgilovchi texnologik vositalarini joriy etish, bu esa pirovardida an'anaviy o'qitish usullarini nisbatan samarali bo'lgan muqobil o'quv muhitlari bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. SAMR modeli va undan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha ko'plab xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarida ma'lumotlar keltirib o'tganlar. ScienceDirect bazasida 2009-2021 yillar oralig'ida SAMR bilan bog'liq 230 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Dana Romrell va boshqalar ushbu modeldag'i to'rtta tasnifining har biriga to'g'ri keladigan faoliyat misollarini taqdim etgan bo'lsa, Erica Hamilton, Joshua Rosenberg va Mete Akcaoglu SAMR modelini faoliyatga integratsiya qilish bo'yicha talkiflar berib o'tgan. Linda Pfaffe SAMR modelidan mLearning faoliyatini baholash va o'rganishni o'zgartirishni qo'llab-quvvatlash uchun asos sifatida foydalanish haqida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsa, Jude Lubega va boshqalar pedagogik jarayonda AKT qo'llash darajasini baholash uchun SAMR modelidan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Janine Arantes esa SAMR modelini zamonaviy tadqiqotlarning eng qiziqarli mavzusi ekanligini ta'kidlaydi. [3,4]

NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda ularning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan meyoruy hujjalarga asoslangan holda tizimli tashkil etilgan. Ta'lim-tarbiyaning maqsadlaridan biri muayyan ma'noda yoshlarni amaliy faoliyatga tayyorlashdir. Ushbu SAMR texnologiyasi o'quvchi-yoshlarni amaliy

faoliyatga tayyorlashda, ayniqsa ularda informatikadan amaliy ko'nikma va malakalarni oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.



SAMR - texnologiyalar integratsiyasi va ta'lim texnologiyalarining eng yaxshi qo'llanilishi bo'yicha kuchli vosita bo'lib, 2010-yilda ta'lim bo'yicha tadqiqotchi Ruben Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan. [1,100]

SAMRNi qo'llash natijasida - texnologiyalarni va ta'lim vositalarini o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish amalga oshiriladi. Asosan amaliy darslarda qo'llaniladi. Uning bosqichlari quyidagilardan iborat:

- I. Substitution (Almashtirish).
- II. Augmentation (Qo'shish).
- III. Modification (O'zgartirish).
- IV. Redefinition (Qayta Aniqlash).

[4]

I va II (Substitution va Augmentation) bosqichlar o'qituvchilarga texnologiyalarini o'quv jarayonlarida qulay va sodda usulda qo'llash imkoniyatini beradi. Mavjud vositalarni yangilari bilan almashtirilib ta'lim jarayonlarini yanada interaktiv va yanada qiziqarli qiladi.

III va IV (Modification va Redefinition) bosqichi o'qituvchilarga virtual hamkorlik va ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu o'quvchilarga boshqa o'quvchilar bilan hamkorlik qilish, ma'lumot almashish va bir-biriga yordam berish imkoniyatini yaratadi.

SAMR modelini qo'llash natijasida, o'quvchilar va o'qituvchilar ta'lim vositalari texnologiyalarini o'quv jarayoniga mohiyatl

va samarali qo'llash orqali ta'lim jarayonlarini yanada rivojlantirish va yuqori natijalarni olishlari mumkin.[5]

MUHOKAMA

Quyida Pedagogika oliy o'quv yurtlari barcha ta'lim yo'nalishlarida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan "Matn protsessorlari yordamida kasbiy faoliyatga doir hujjatlarni yaratish, formatlash va tahrirlash" mavzusi uchun SAMR modeli qo'llangan laboratoriya mashg'uloti uchun topshiriqlar keltirilgan.

"SAMR" modeliga mos topshiriqlar:

I bocqich:

S

Substitution (Almashtirish)

Substitution (Almashtirish): O'qituvchi talabalarga ma'lum bir matn protsessor (masalan, Microsoft Word) yordamida matn (kasbiy faoliyatga oid mavzuga doir) yozish va uni saqlashni o'rgatadi. Matn protsessorlarini tarixi haqida ma'lumotlarni beradi. Masalan: kompyuterlardan oldin kompyuter texnologiyalarini o'rnini bosuvchi va xuddi shunday vazifalarni – matnlar bilan ishslashni bajarish uchun mo'ljallangan texnologiyalar – qalam, ruchka, yozuv mashinkasi, doska va ular yordamida matn terish haqida ma'lumotlarni talabalarga yetkazadi.

Topshiriq 1. Kitobdan (internetdan) mutaxassisligingizga oid tanlangan mavzudan foydalangan holda matn protsessorida hujjat yaratishing.

(Talabalar mavjud matnlarni shaklini almashtiradilar: Matnlar kitob shaklidan Word hujjatiga almashadi. O'qituvchi talabalarni ma'lum bir dastur yoki onlayn xizmatdan (masalan, Microsoft Word) foydalanishga chaqiradi.)

II bocqich:

A

Augmentation (Qo'shish)

Augmentation (Qo'shish): Bu bosqichda mavjud kontentni saqlagan holda talabalar

matn protsessorlarda shakllantirilgan ma'lumotlarni qo'shishadi. Ta'limning diqqat markazi o'qituvchidan talabaga o'ta boshlaydi. Bundagi tezkor fikr-mulohazalar talabalarning o'quv jarayonida faolroq ishtirok etishi natijasidir. O'qituvchi talabalarga matn protsessorda rasmlarni joylashtirish, ranglarni o'zgartirish va matnni formatlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni o'rgatadi. O'qituvchi talabalarga matn protsessorda bog'liq qo'shimcha funksiyalardan foydalanishni va matn protsessordagi imkoniyatlardan foydalanib, matnni qo'shimcha o'zgartirishlar bilan sifatli ko'rinishda tahrirlashni o'rgatadi. [2,154]

Topshiriq 2. Topshiriq 1 da yaratilgan hujjatda quyidagicha qo'shishlarni bajaring:

1. Bstabka bo'limidan foydalanib hujjatga mavzuga doir rasm joylashtiring.
2. Matn mazmunidan kelib chiqib hujjatga jadval qo'shing va uni to'ldiring.
3. Hujjatga SmartArt grafik obyektini qo'shing va uni ma'lumotlar bilan to'ldiring.
4. Hujjatga yuqori kolontitul qo'shing.
5. Hujjatga sahifalarini raqamlang.
6. Hujjat sahifalarini rangini o'zgartiring.
7. Word Art-dan foydalanib sarlavhalarni qo'shing.

(Talabalar o'zları yaratgan mavjud hujjatlari mazmunini saqlagan holda unga qo'shimcha ma'lumotlar kiritadilar.)

III bocqich:

M

Modification (O'zgartirish)

Modification (O'zgartirish): Texnologiyalarni o'zgartirish, asosiy kontent mazmun o'zgarmagan holda uslab o'zgaradi. Natijada, talabalarning tajribasi ortadi. Masalan: Google Docs orqali birgalikda hamkorlikda ishslash. Bu bosqich an'anaviy tizimdan uzoqlashish yo'lidagi harakatlardir. Auditoriya miqyosidagi topshiriqlar kompyuter texnologiyalari

yordamida bajariladi. Talabalar bir nechta matn protsessorda yaratilgan hujjatlarni muvaffaqiyatli tuzishadi va ulardan foydalanishadi.

Topshiriq 3. Google Docs orqali yagona hujjatni birgalikda tahrirlang.

Qo'shon DPI Maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishi 02/22 (surdo) guruhi talabalari haqida ma'lumot				
Nº	Ism, familiya	Manzil	Telefon raqam	Qiziqishi
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				
16				
17				
18				
19				
20				
21				
22				
23				
24				
25				
26				
27				
28				
29				
30				
31				
32				
33				
34				
35				
36				
37				
38				
39				
40				
41				
42				
43				
44				
45				
46				
47				
48				
49				
50				
51				
52				
53				
54				
55				
56				
57				
58				
59				
60				
61				
62				
63				
64				
65				
66				
67				
68				
69				
70				
71				
72				
73				
74				
75				
76				
77				
78				
79				
80				
81				
82				
83				
84				
85				
86				
87				
88				
89				
90				
91				
92				
93				
94				
95				
96				
97				
98				
99				
100				
101				
102				
103				
104				
105				
106				
107				
108				
109				
110				
111				
112				
113				
114				
115				
116				
117				
118				
119				
120				
121				
122				
123				
124				
125				
126				
127				
128				
129				
130				
131				
132				
133				
134				
135				
136				
137				
138				
139				
140				
141				
142				
143				
144				
145				
146				
147				
148				
149				
150				
151				
152				
153				
154				
155				
156				
157				
158				
159				
160				
161				
162				
163				
164				
165				
166				
167				
168				
169				
170				
171				
172				
173				
174				
175				
176				
177				
178				
179				
180				
181				
182				
183				
184				
185				
186				
187				
188				
189				
190				
191				
192				
193				
194				
195				
196				
197				
198				
199				
200				
201				
202				
203				
204				
205				
206				
207				
208				
209				
210				
211				
212				
213				
214				
215				
216				
217				
218				
219				
220				
221				
222				
223				
224				
225				
226				
227				
228				
229				
230				
231				
232				
233				
234				
235				
236				
237				
238				
239				
240				
241				
242				
243				
244				
245				
246				
247				
248				
249				
250				
251				
252				
253				
254				
255				
256				
257				
258				
259				
260				
261				
262				
263				
264				
265				
266				
267				
268				
269				
270				
271				
272				
273				
274				
275				
276				
277				
278				
279				
280				
281				
282				
283				
284				
285				
286				
287				
288				
289				
290				
291				
292				
293				
294				
295				
296				
297				
298				
299				
300				
301				
302				
303				
304				
305				
306				
307				
308				
309				
310				
311				
312				
313				
314				
315				
316				
317				
318				
319				
320				
321				
322				
323				
324				
325				
326				
327				
328				
329				
330				
331				
332				
333				
334				
335				
336				
337				
338				
339				
340				
341				
342				
343				
344				
345				
346				
347				
348				
349				
350				
351				
352				
353				
354				
355				
356				
357				
358				
359				
360				
361				
362				
363				
364				
365				
366				
367				
368				
369				
370				
371				
372				
373				
374				
375				
376				
377				
378				
379				
380				
381				

KO'PHADLAR MAVZUSINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIK -TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

**UMMATOVA MAXBUBA AXMEDOVNA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti matematika kafedrasi katta o'qituvchisi
SULAYMONOV MIRSAID
Qo'qon davlat pedagogika instituti matematika kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika institutlarining 60110600-matematika va informatika, 5110100-matematika o'qitish metodikasi yo'nalishlari o'quv rejasi majburiy blogidagi "Algebra va sonlar nazariyasi" fanining "Bir o'zgaruvchili ko'phadlar" modulidagi "Ko'phadlar va ular ustida amallar", "Bezu teoremasi va Gorner sxemasi", "Algebraning asosiy teoremasi", "Ko'phadlar uchun Yevklid algoritmi" mavzularini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida, matematik analiz fani bilan aloqadorligi misolida, to'liq va sifatlari o'zlashtirishlari uchun zarur bo'ladigan nazariy materiallar, ularni o'qitishda keng foydalanish mumkin bo'lgan materiallar bilan batafsil yoritib berish maqsad etib qo'yilgan.

Kalit so'zlar: ko'phad, Bezu teoremasi, Gorner sxemasi, asosiy teorema, Yevklid algoritmi, Teylor qatori, chiziqli ko'phadning darajalari bo'yicha yoyilma.

Аннотация. В данной статье подробно объясняются теоретические материалы, необходимые для полного и качественного усвоения, принципы междисциплинарной связи, на примере математического анализа который можно широко использовать в обучении, по темам "Полиномы и над ними", "Теорема Безу и схема Горнера", "Основная теорема алгебры", "Алгоритм Евклида для многочленов", в модуле "Полиномы с одной переменной" курса "Алгебра и теория чисел" в обязательном блоке учебных программ 60110600-Математика и информатика, 5110100- методика преподавания математики педагогических институтов.

Ключевые слова: многочлен, теорема Безу, схема Горнера, основная теорема, алгоритм Евклида, ряд Тейлора, разложение по степени линейного многочлена.

KIRISH

Pedagogika institutlarining 60110600-matematika va informatika, 5110100-matematika o'qitish metodikasi yo'nalishlari o'quv rejasi majburiy blogidagi "Algebra va sonlar nazariyasi" fani o'qitiladi. Unda "Bir o'zgaruvchili ko'phadlar" modulidagi "Ko'phadlar va ular ustida amallar", "Bezu teoremasi va Gorner sxemasi", "Algebraning asosiy teoremasi", "Ko'phadlar uchun Yevklid algoritmi" mavzularini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida, xususan, matematik analiz fani bilan aloqadorligi misolida o'qitish mamlakatimiz kelajagi uchun sifatlari kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab ko'phadlar va ular ustida amallar,

Bezu teoremasi, Gorner sxemasi, algebraning asosiy teoremasi, ko'phadlar uchun Yevklid algoritmi mavzularining asosiy mazmuni ma'ruza mashg'ulotlarida o'qtiladi. Berilgan ko'phadni chiziqli ko'phadning darajalari bo'yicha yoyilmasini algebraik nuqtai nazaridan yondoshib, Gorner sxemasi yordamida va matematik analiz nuqtai nazaridan yondoshib Teylor qatoriga yoyilmasi yordamida topish muammosini ijobiy hal etish bu fanni o'qitishda ta'lif samaradorligini oshirish omili sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amaldagi namunaviy o'quv dasturida "Algebra va sonlar nazariyasi" fanining "Bir o'zgaruvchili ko'phadlar"



modulidagi “Ko‘phadlar va ular ustida amallar”, “Bezu teoremasi va Gorner sxemasi”, “Algebraning asosiy teoremasi”, “Ko‘phadlar uchun Yevklid algoritmi” mavzulari dasturda keltirilgan ingliz tilidagi D.S.Malik, John N.Mordeson, M.K.Senning “Fundamentals of Abstract Algebra”, Martyn

R. Dixon, Leonid A. Kurdachenko, Igor Ya. Subbotin, “Algebra and number theory” kitoblarida va Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, F.H.Haydarovlarning, “Algebra va sonlar nazariyasi” o‘quv qo‘llanmasida yoritilgan.

Ko‘phadlar ustida amallar. $f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n$, $a_i \in \mathbf{C}$, $i=0,1,2,\dots$, $a_n \neq 0$, ko‘rinishdagi funksiya bir o‘zgaruvchili ko‘phad, $a_i \in \mathbf{C}$, $i=0,\dots,n$, sonlar shu ko‘phad koeffitsientlari, n soni esa shu ko‘phad darajasi deyiladi. a_0 koeffitsient ozod had deb yuritiladi. a_n koeffitsient bosh koeffitsient, bosh koeffitsienti esa 1ga teng bo‘lgan ko‘phad normallangan ko‘phad deyiladi. $f(x)$ ko‘phadning darajasi deg f orqali belgilanadi. Barcha koeffitsientlari nol’ ga teng bo‘lgan ko‘phad nol’-ko‘phad deyiladi va uning darajasi $-\infty$ ga teng deb qabul qilingan. Ko‘phad koeffitsientlari haqiqiy, ratsional yoki butun sonlar ham deb qaralishi mumkin.

Ikkita $f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n$, $g(x) = b_0x^m + b_1x^{m-1} + \dots + b_{m-1}x + b_m$, ko‘phadlar teng deyiladi, agar ularning darajalari teng bo‘lib (ya’ni $n=m$) , $a_i = b_i$, $i=0,1,2,\dots$ tengliklar bajarilsa. Ixtiyoriy $f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n$, $g(x) = b_0x^m + b_1x^{m-1} + \dots + b_{m-1}x + b_m$, ko‘phadlar uchun qo‘shish va ko‘paytirish amallarini qo‘yidagicha kiritamiz :

$$f(x) + g(x) = h(x) = c_0x^k + c_1x^{k-1} + \dots + c_{k-1}x + c_k$$

$$f(x)g(x) = r(x) = d_0x^p + d_1x^{p-1} + \dots + d_{p-1}x + d_p$$

$$\text{bu yerda } c_i = a_i + b_i, d_j = a_0 b_j + a_1 b_{j-1} + \dots + a_j b_0, i, j=0,1,2,\dots$$

Ravshanki, $\deg(f+g) = \max\{\deg f, \deg g\}$, $\deg(fg) = \deg f + \deg g$ tengliklar bajariladi.

Ta’rif. Agar $f(x)$, $g(x)$ ko‘phadlar uchun $f(x) = g(x)q(x)$ tenglikni qanoatlaniruvchi $q(x)$ ko‘phad mavjud bo‘lsa, u holda $f(x)$ ko‘phad $g(x)$ ko‘phadga bo‘linadi deyiladi va ushbu munosabat $f(x)/g(x)$ orqali yoziladi. $f(x) = g(x)q(x)$ tenglikdagi $f(x)$ ko‘phad bo‘linuvchi yoki $g(x)$ ko‘phadga karrali ko‘phad, $g(x)$ ko‘phad $f(x)$ ko‘phadning bo‘luvchisi, $q(x)$ ko‘phad esa bo‘linma deb yuritiladi.

Ravshanki, agar ikkita ko‘phad umumiy bo‘luvchiga ega bo‘lsa, u holda ularning yilindisi, ko‘paytmasi va karralilari ham shu bo‘luvchiga ega.

Teorema (qoldiqli bo'linish haqida teorema). $f(x)$, $g(x)$ ($g(x) \neq 0$) ko'phadlar uchun $f(x)=g(x)q(x)+r(x)$ tenglikni qanoatlantiradigan $q(x)$ va $r(x)$ ($\deg r < \deg g$) ko'phadlar mavjud (q(x) to'liqsiz bo'linma, $r(x)$ esa $f(x)$ ni $g(x)$ ga bo'lganda hosil bo'lgan qoldiq deb yuritiladi)

Ispot. M orqali $f(x) - g(x)u(x)$ ko'rinishdagi ko'phadlar to'plamini belgilaymiz.

Qo'yidagi ikki hol ro'y berishi mumkin:

1) $0 \in M$; 2) $0 \notin M$

1- holda shunday $u(x)$ mavjudki, u uchun $f(x) - g(x)u(x)=0$ tenglik bajariladi. $r(x)=0$, $q(x)=u(x)$ deb olsak teorema isbotlanadi.

2- holda shunday $r(x) \in M$ mavjudki, uning darajasi eng kichik bo'ladi va u $f(x)=g(x)q(x)+r(x)$ tenglikni qanoatlantiradi.

Endi biz $\deg r < \deg g$ tengsizlik bajarishini ko'rsatamiz.

Agar $r(x)=ax^n+\dots$, $q(x)=bx^m+\dots$, $n=\deg r$, $m=\deg g$ bo'lsa, u holda $g(x) \neq 0$ bo'lgani uchun $b \neq 0$ bo'ladi.

$r_0(x)=r(x)-a b^{-1} x^{n-m} q(x)$ ko'rinishdagi ko'phad uchun $r_0(x) \in M$, $\deg r_0 < \deg r$ munosabatlari o'rinni. Bu esa $r(x)$ ni ta'rifiga zid.

$f(x)=g(x)q(x)+r(x)=g(x)q_1(x)+r_1(x)$ bo'lsa, u holda $g(x)(q(x)-q_1(x))=r(x)-r_1(x)$ tenglik bajariladi. $\deg r_i < \deg g$ bo'lgani uchun $\deg(r-r_1) < \deg g$ tenglik bajariladi. Bu esa $\deg(m-m_1) > \deg g$ tengsizlikka zid. Demak, $f(x)=g(x)q(x)+r(x)$ tenglikni qanoatlantiradigan yagona $q(x)$ va $r(x)$ ($\deg r < \deg g$) ko'phadlar mavjud.

Ta'rif. $r(x)$ ko'phad berilgan bo'lsin. Agar $f(x)$ ko'phad $r^k(x)$ ko'phadga bo'linib, $r^{k+1}(x)$ ko'phadga bo'linmasa ($k \geq 0$), u holda $r(x)$ ko'phad $f(x)$ ko'phadning k -karrali bo'luvchisi, k esa $r(x)$ bo'luvchining karrallik belgisi deyiladi.

Ravshanki, $r(x)$ ko'phad $f(x)$ ko'phadning k -karrali bo'luvchisi bo'lishi uchun $f(x)=r^k(x) h(x)$ bo'lishi zarur va etarli, bu yerda $h(x)$ ko'phad $r(x)$ ko'phadga bo'linmaydi.

Ta'rif. $f(x)=a_n x^n + \dots + a_1 x + a_0 \in$ ko'phadning $x=c$ nuqtada qiymati deb

$f(c) = a_n c^n + \dots + a_1 c + a_0 \in \mathbf{C}$ songa aytildi.

Ta’rif. $f(x) = a_n x^n + \dots + a_1 x + a_0$ ko`phadning $c \in \mathbf{C}$ nuqtada qiymati nolga teng bo`lsa, u holda c son $f(x)$ ko`phadning ildizi deyiladi.

Ta’rif. Agar $r(x) = x - \alpha$ ($\alpha \in \mathbf{C}$) ikkihad f ko`phadning $k -$ karrali bo`luvchisi bo`lsa, u holda α son f ko`phadning $k -$ karrali ildizi, k esa α ildizning karrallik belgisi deyiladi.

Teorema. (Bezu teoremasi) $f(x)$ ko`phad $x - c$ ikkihadga bo`linishi uchun $f(c) = 0$ zarur va etarli.

Isbot. Etarligi. $f(x) = (x - c)q(x)$ bo`lsin. U holda $f(c) = (c - c)q(x) = 0q(x) = 0$.

Zarurligi. $f(c) = 0$ bo`lsin. Qoldiqli bo`linish xaqida teoremaga ko`ra $f(x) = (x - c)q(x) + r(x)$, $\deg r(x) < \deg (x - c) = 1$.

Demak, $\deg r(x) = 0$ va $r(x) = r \in \mathbf{C}$. Bundan $r = f(c) = (c - c)q(c) = 0$ tenglik kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

Natija. $\alpha \in \mathbf{C}$ son f ko`phadning $k -$ karrali ildizi bo`lishi uchun $f(x) = (x - \alpha)^k g(x)$, $g(\alpha) \neq 0$ munosabatlari o`rinli bo`lishi zarur va etarli.
 $a_0 x^n + \dots + a_{n-1} x + a_n = (x - \alpha)(A_0 x^{n-1} + \dots + A_{n-2} x + A_{n-1}) + R$ tenglikidan $a_0 = A_0$, $a_1 = A_1 - c A_0$, ..., $a_k = A_k - c A_{k-1}$, ..., $a_n = R - c A_{n-1}$ tengliklar kelib chiqadi. Bundan $A_0 = a_0$, $A_1 = a_1 + c A_0$, ..., $A_k = a_k + c A_{k-1}$, ..., $R = a_n + c A_{n-1} = f(c)$ tengliklarni hosil qilamiz.

Bunday tengliklar majmuasi Gorner sxemasi deyiladi. Gorner sxemasi bo`yicha hisob-kitoblarni qo`yidagi jadval yordamida olib borilishi maqsadga muvofiq:

	a_0	a_1	a_k	a_n
c	A_0	$A_1 = a_1 + c A_0$		$a_k + c$ A_{k-1}		$R = a_n + c A_{n-1}$

1-misol. $x^3 + 2x - 5$ ko`phadni $(x - 2)$ ikki hadga bo`ling.

Teorema. a) Agar $f(x)$ ko'phad berilgan $p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadga bo'linmasa, u holda $f(x), p(x)$ ko'phadlar o'zaro tub bo'ladi; b) Agar bir nechta ko'phad ko'paytmasi $p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadga bo'linsa, u holda uni tashkil qilgan ko'paytuvchilardan kamida bittasi $p(x)$ ga bo'linadi.

Isbot. a) Teskarisini faraz qilamiz, ya'ni $f(x)$ ko'phad berilgan $p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadga bo'linmasin. U holda $f(x)$ va $p(x)$ ko'phadlar darajas i noldan farqli umumiy bo'luvchiga ega bo'ladi. Bu esa $p(x)$ ko'phadning keltirilmaydigan bo'lishiga zid.

b) Agar $ko'paytma p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadga bo'linib, $ko'paytuvchilar barchasi p(x)$ ga bo'linmasa, ular a) hossaga ko'ra ular $p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadi bilan o'zaro tub bo'ladi. Demak, berilgan $ko'paytma ham p(x)$ keltirilmaydigan ko'phadi bilan o'zaro tubdir. Ziddiyat.

Teorema. Darajasi noldan farqli har qanday $f(x)$ ko'phad uchun shunday keltirilmaydigan $p_1(x), p_2(x), \dots, p_k(x)$ ko'phadlar mavjudki $f(x) = p_1(x)p_2(x) \dots p_k(x)$ ko'rinishdagi $ko'paytmaga$ yoyiladi va bu yoyilma $ko'paytuvchilarning assotsiirlanganligi$ va $ko'paytuvchilari yozilish tartibini$ inobatga olmasa, yagonadir.

Isbot. Yoyilmaning mavjudligini isbotlashni $n=\deg f(x)$ daraja bo'yicha induktiv tarzda beramiz. Agar $n=1$ bo'lsa, u holda $f(x) - keltirilmaydigan ko'phad$. Darajasi n dan kichik bo'lgan barcha ko'phadlar uchun teorema o'rinli bo'lsin. $n+1=\deg f(x)$ bo'lsin. Qo'yidagi ikki hol ro'y berishi mumkin:

- a) $f(x) - keltirilmaydigan ko'phad;$
- b) $f(x) - keltirilmaydigan ko'phad emas.$

Teoremani b) hol uchun isbotlash kifoya, aks holda $f(x)=p_1(x)$ o'rinli bo'ladi.

Agar $f(x) - keltirilmaydigan ko'phad bo'lmasa, u holda f(x)=g(x)h(x)$ $\deg(g(x)>1, \deg(h(x)>1)$ munosabatlarni qanoatlantiradigan $g(x) \in F[x], h(x) \in F[x]$ ko'phadlar mavjud. Ravshanki, $\deg(g(x)<n, \deg(h(x)<n)$ bo'ladi. Induktsiya faraziga ko'ra, $g(x)=p_1(x)p_2(x) \dots p_l(x)$ va $h(x)=p_{l+1}(x)p_{l+2}(x) \dots p_k(x)$ tengliklar bajariladi. Demak, $f(x)=g(x)h(x) = p_1(x)p_2(x) \dots p_l(x) p_{l+1}(x)p_{l+2}(x) \dots p_k(x)$ bo'ladi. Yagonalikni isbotlash maqsadida $f(x)=p_1(x)p_2(x) \dots p_n(x)$,

$f(x) = q_1(x) q_2(x) \dots q_k(x)$ ikkita to'rlı yoyılma mavjudligini faraz qilamiz. Bu yerdan $p_1(x)p_2(x) \dots p_n(x) = q_1(x) q_2(x) \dots q_k(x)$ kelib chiqadi. Demak, $p_1(x)$ ko'phad $q_1(x) q_2(x) \dots q_k(x)$ ko'paytmani bo'lувchisi.

Teoremagaga ko'ra, $q_1(x), q_2(x), \dots, q_k(x)$ lardan birortasi (masalan $q_1(x)$) $p_1(x)$ ga bo'linadi. Bundan $cq_1(x) = p_1(x)$ kelib chiqadi, ya'ni $p_2(x) \dots p_n(x) = cq_2(x) \dots q_k(x) = m(x)$. Ravshanki, $\deg m(x) < \deg f(x)$ bo'ladi. Induktsiya faraziga ko'ra ko'ra $n=k$ va $p_2(x) = c_2 q_2(x), \dots, p_n(x) = c_n q_n(x)$.

Misol. $x^6 - 1$ ko'phadni ratsional koeffitsientli keltirilmaydigan ko'phadlar ko'paytmasiga yoying.

Yechim. $x^6 - 1 = (x^3 - 1)(x^3 + 1) = (x - 1)(x^2 + x + 1)(x + 1)(x^2 - x + 1)$.

Algebraning asosiy teoremasi va uning natijalari. $f(z)$ – kompleks

Koeffitsientli musbat darajali ko'phad bo'lsin.

1–lemma (Dalamber lemması). Agar $f(z_0) \neq 0$, $z_0 \in C$, bajarilsa, u holda $|f(z_0+h)| < |f(z_0)|$ tengsizlikni qanoatlantiradigan $h \in C$ mavjud.

2–lemma (Veyershtrass lemması). $|f(z_0)| = \min\{|f(z)| / z \in C\}$ tenglikni qanoatlantiradigan $z_0 \in C$ mavjud. Bu lemmalar sof algebraik isbotga ega bo'lmadan, kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi usullari yordamida isbotlanadi.

Teorema (algebraning asosiy teoremasi). Ixtiyoriy $f(z) \in C[z]$ musbat darajali ko'phad albatta kompleks ildizga ega bo'ladi.

Isbot. Veyershtrass lemmasiga ko'ra, ixtiyoriy $f(z) \in C[z]$, $\deg f > 0$ uchun $|f(z_0)| = \min\{|f(z)| / z \in C\}$ tenglikni qanoatlantiradigan $z_0 \in C$ mavjud. Agar shu z_0 nuqta $f(z)$ ko'phadning ildizi bo'lmasa, u holda (Dalamber lemması) $|f(z_0+h)| < |f(z_0)|$ tengsizlikni qanoatlantiradigan $h \in C$ mavjud. Bu esa $z_0 \in C$ ta'rifiga zid. Demak, z_0 nuqta $f(z)$ ko'phadning ildizi bo'ladi. Teorema isbotlandi.

Teorema. Ixtiyoriy $f(z) \in C[z]$ n–darajali ko'phad n–ta kompleks ildizga ega.

Isbot. Algebraning asosiy teoremasiga ko'ra, ixtiyoriy $f(z)$ ($\deg f = n$) ko'phadning $z_1 \in C$ ildizi mavjud. Demak $f(z) = (z - z_1)f_1(z)$, bu yerda $\deg f_1 = n -$

1. Agar $n=1$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda teorema isbotlandi. Aks holda f_1 ko'phadning $z_2 \in C$ ildizi mavjud. Demak $f_1(z) = (z - z_2) f_2(z)$, bu yerda $\deg f_2 = n-2$. Bu jarayonni davom ettirsak, natijada $f_{n-1}(z) = (z - z_n) r_0$, tenglikni hosil qilamiz, bu yerda $r_0 \in C$.

$$\text{Demak, } f(z) = r_0 (z - z_1) (z - z_2) \dots (z - z_n), r_0, z_1, z_2, \dots, z_n \in C. \quad (1)$$

tenglik o'rinli. (1) yoyilmada ko'paytuvchilar keltirilmaydigan bo'lgani uchun u yagona bo'ladi. Demak, $f(z)$ ko'phadning z_1, z_2, \dots, z_n dan farqli ildizlari yo'q. 1-natija. $f(z) = a_n z^n + \dots + a_1 z + a_0$ kompleks koeffitsientli n -darajali ko'phad $f(z) = a_n (z - z_1) (z - z_2) \dots (z - z_n), z_1, z_2, \dots, z_n \in C$. (2)

ko'rinishdagi ko'paytmaga yoyiladi va bu yoyirma ko'paytuvchilarning yozilish tartibini inobatga olmasa, yagonadir.

2-natija. n -darajali kompleks koeffitsientli f ko'phad

$$f(z) = c(z - z_1)^{\alpha_1} (z - z_2)^{\alpha_2} \dots (z - z_k)^{\alpha_k}, \alpha_i \geq 0, c \in C, z_1, z_2, \dots, z_k \in C \quad (3)$$

$\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_k$ sonlar mos ravishda z_1, z_2, \dots, z_k ko'rinishdagi ko'paytmaga yoyiladi va bu yoyirma ko'paytuvchilarning yozilish tartibini inobatga olmasa, yagonadir. [4,271]

3-natija (Viyet formulalari). $f(z) = a_n z^n + a_{n-1} z^{n-1} + \dots + a_1 z + a_0$ n -darajali kompleks koeffitsientli ko'phadning ildizlari z_1, z_2, \dots, z_n bo'lsa, u holda qo'yidagi tengliklar o'rini:

$$z_1 + z_2 + \dots + z_n = -\left(a_{n-1} / a_n\right);$$

$$z_1 z_2 + z_1 z_3 + \dots + z_{n-1} z_n = \left(a_{n-2} / a_n\right);$$

.....

$$z_1 z_2 \dots z_n = (-1)^n \left(a_0 / a_n\right)$$

$f(x) = a_n x^n + \dots + a_1 x + a_0$ ko'rinishdagi musbat darajali ko'phad berilgan bo'lsin, bu yerda $a_n, \dots, a_1, a_0 \in C$. Bu ko'phad albatta kompleks ildizga ega.

Teorema. Agar $\alpha \in C$ soni $f(x)$ ildizi bo'lsa, u holda $\bar{\alpha} \in C$ soni ham $f(x)$ ildizi bo'ladi. Teoremaning to'g'rililigi

$$\overline{f(x)} = a_n \overline{x^n} + \dots + a_1 \overline{x} + a_0 = a_n \overline{x}^n + \dots + a_1 \overline{x} + a_0 = f(\bar{x}), \forall x \in C,$$

tenglikdan kelib chiqadi.

Teorema. Ixtiyoriy haqiqiy koeffitsientli $f(x)$ ko'phad uchun qo'yidani formula o'rinni:

$$f(x) = a(x-x_1)\dots(x-x_k)(x^2+p_1x+q_1)\dots(x^2+p_mx+q_m) \quad (2)$$

bu yerda a – bosh koeffitsient, x_1, \dots, x_k ko'phadning haqiqiy ildizlari,

$$p_i, q_i \in R, (p_i)^2 - 4q_i < 0, i=1, \dots, m, k+2m=n.$$

Isbot. Berilgan ko'phadning x_1, \dots, x_n kompleks ildizi mavjud (shulardan, x_1, \dots, x_k ($k \leq n$) - haqiqiy sonlar deb faraz qilamiz).

Teoremaga ko'ra, agar $\alpha \in \{x_{k+1}, \dots, x_n\}$ ixtiyoriy ildiz bo'lsa, u holda

$\bar{\alpha} \in \{x_{k+1}, \dots, x_n\}$ bo'ladi. Demak,

$$(x-\alpha)(x-\bar{\alpha}) = x^2 - (\alpha + \bar{\alpha})x + \alpha\bar{\alpha} = x^2 + px + q, p, q \in R, (p)^2 - 4q = (\alpha - \bar{\alpha})^2 < 0.$$

$$f(x) = a(x - x_1)(x - x_2)\dots(x - x_n), \quad (3)$$

tenglik o'rinnidir. (3) da barcha haqiqiy bo'lmagan ildizlarga mos ikkihadlarni juft-juftilarini ko'paytirib chiqsak, natijada (2) formulani hosil qilamiz.

Teorema isbotlandi.

1-natija. Toq darajali haqiqiy koeffitsientli ko'phad albatta haqiqiy ildizga ega. [2,132]

Gorner sxemasi

$$f(x) = (x - c)h(x) + r$$

berilgan bo'lsin.

$f(x)$ ko'phadni $(x - c)$ ga bo'lingandan keyin hosil bo'lgan bo'linma $h(x)$ ning koeffitsiyentlarini hisoblashda ko'pusullardan biri gorner usulidir.

$$a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_n = (x - \alpha)(A_0x^{n-1} + A_1x^{n-2} + \dots + A_n) + r$$

ko'rinishdagi qoldiqli bo'lish ifodasini yozib olamiz.

Ko'phadlarning tengligining ta'rifidan quyidagilarni yozish mumkin:

$$a_0 = A_0, a_1 = A_1 - \alpha A_0, a_2 = A_2 - \alpha A_1, \dots, a_n = A_n - \alpha A_{n-1}$$

Bu tengliklardan A larni topamiz. $A_0 = a_0, A_1 = a_1 + \alpha A_0, A_2 = a_2 + \alpha A_1$

$$\dots, A_{n-1} = a_{n-1} + \alpha A_{n-2}, A_n = r = a_n + \alpha A_{n-1}$$

Bu hisoblashlarni quyidagi jadvalga solamiz: [1,96]

	a_0	a_1	a_2	a_n
α	A_0	A_1	A_2	$A_n = r$

- I. Gorner sxemasi $f(x)$ ko‘phadni $(x - \alpha)$ ikkihadga bo‘ladi;
- II. Berilgan α – element ko‘phadning ildizi yoki ildizi emasligini aniqlaydi;
- III. α element ildiz bo‘lsa, uning necha karrali ildiz ekanligini aniqlaydi;
- IV. Berilgan $f(x)$ ko‘phadning $(x - \alpha)$ ikkihadning darajalari bo‘yicha yoyishni bildiradi;

$$f(x) = A(x - \alpha)^n + B(x - \alpha)^{n-1} + \dots + C(x - \alpha) + \dots + D$$

- V. Ihtiyoriy ko‘phad uchun $f(\alpha)$ ($\forall \alpha \in R$) ni hisoblaydi.

Endi funksiyaning Teylor qatoriga to‘xtalib o‘taylik. Aytaylik, $f(x)$ funksiya $x_0 \in R$ nuqtaning biror $U_\delta(x_0) = \{x \in R : x_0 - \delta < x < x_0 + \delta; \delta > 0\}$ atrofida istalgan tartibdagi hosilaga ega bo‘lsin. Bu hol $f(x)$ funksiyaning Teylor formulasini yozish imkonini beradi

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n + r_n(x)$$

bunda $r_n(x)$ -qoldiq had. Bu darajali qatorning koeffitsiyentlari sonlar bo‘lib, ular $f(x)$ funksiya va uning hosilalarining x_0 nuqtadagi qiymatlari orqali ifodalangan. Mana shu darajali qator $f(x)$ funksiyaning Teylor qatori deyiladi. Endi funksiyaning, xususan, ko‘phadning Teylor formulasini Gorner sxemasi yordamida ham topish mumkinligini bayon qilamiz. [3,216]

NATIJA:Buning uchun $f(x)$ n-darajali ko‘phadni olamiz. $x_0 \in R$ nuqtani olib, ko‘phadning darajasiga qarab bir necha marotaba unga Gorner sxemasini qo‘llaymiz, yani chiziqli $(x - x_0)$ ko‘phadga shuncha marta bo‘lamiz. Natijada ko‘phadning $(x - x_0)$ ning darajalari bo‘yicha yoyilmasini hosil qilamiz:

$$f(x) = A(x - \alpha)^n + B(x - \alpha)^{n-1} + \dots + C(x - \alpha) + \dots + D$$

Ko‘phadning $(x - x_0)$ ning darajalari bo‘yicha yoyilmasidagi A, B, \dots, C, D koeffisiyentlarni mos ravishda

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n +$$

shu ko‘phad uchun Teylor formulasidagi mos koeffisiyentlarga tenglasak,

$f(x_0)$, $f'(x_0)$, $f''(x_0)$, $f'''(x_0)$, ...larni hisoblamasdan ham topsa bo‘ladi, degan xulosaga kelamiz.

XULOSA: Berilgan ko‘phadni chiziqli ko‘phadning darajalari bo‘yicha yoyilmasini algebraik nuqtai nazardan yondoshib, Gorner sxemasi yordamida va matematik

analiz kursida o‘rganilgan Teylor qatoriga yoyilmasini ham topish mumkin ekan, bu fanlar o‘zaro bog‘liq ekan, degan muhim xulosalarni olamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiev, F.H.Haydarov, Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent “Tafakkur bo’stoni” 2019, 295 b. (o‘quv qo’llanma)
2. R. Iskandarov, R.Nazarov. Algebra va sonlar nazariyasi.T., O’qituvchi. II – qism, 1995 y. (o‘quv qo’llanma)
3. T.Azlarov, H. Mansurov, Matematik analiz, T., O’qituvchi. I – qism, 1994 y., 2 - qism, 1994 y. (o‘quv qo’llanma)
4. Yunusova D., Yunusov A. Algebra va sonlar nazariyasi. Modul texnologiyasi asosida tuzilgan misol va mashqlar to’plami. O‘quv qo’llanma. T., “Ilm Ziyo”. 2009.
5. А.С. Соловьевников, М. А. Родина. Задачник-практикум по алгебре. Учебное пособие. Москва. Просвещение. 1985.

IMPLEMENTING AN AUTOMATIC QUESTION GENERATION SYSTEM FOR LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) AND NATURAL LANGUAGE PROCESSING (NLP)

YULDASHEV NODIRBEK ABDUMANNOB O'G'LI,

Andijan Machine Building Institute, An independent researcher specializing in the “Automation and management of technological processes and production”.

Abstract. In modern educational systems, there is a need for a proficient tool to effectively evaluate students' comprehension of the key principles they have absorbed from their study materials. Crafting a set of assessment queries can be time-intensive for educators, and resorting to external sources like assessment guidebooks or question repositories might not offer pertinent content that aligns with students' learning. Automatic Question Generation (AQG) represents a method aimed at producing an appropriate series of questions from provided content, often in textual form. The automatic creation of questions stands as a significant yet formidable challenge within the realm of Natural Language Processing (NLP). This task involves generating questions that are both grammatically accurate and semantically meaningful, while also being relevant, drawing from diverse input formats such as text, structured databases, or knowledge bases. The application potential of question generation spans domains like Massive Open Online Courses (MOOCs), automated assistance systems, search engines, chatbot systems (used for customer interactions), and even mental health analysis within the healthcare sector. AQG has captured substantial interest among researchers in the computational linguistics field. This review article centers on the latest ongoing research in NLP pertaining to the automated generation of questions from text, employing a variety of methodologies.

Key words: Automatic Question Generation, Natural Language Processing and AI

Introduction

Natural language processing (NLP) is harnessed to empower machines with the ability to grasp human language and decipher the conveyed messages. This process involves dissecting the content into smaller segments, comprehending the essence of the language, deducing suitable actions, and subsequently furnishing a response in a comprehensible manner. Natural Language Understanding (NLU) constitutes a subset of NLP that zeroes in on the comprehension and transformation of disorganized inputs into a structured configuration.

Conversely, Natural Language Generation (NLG) pertains to the process by which computers generate written text. NLG algorithms convert pre-established

data into textual representation. The core objective of the AQGS system revolves around assimilating input in text form using natural language processing techniques and generating diverse categories of questions as the outcome. This system aims to formulate questions that extract insights from the text, spanning sentences, paragraphs, or the comprehensive content – insights that students have imbibed from their reading materials.

The Word2Vec model, which utilizes distributed word representations, marked a significant milestone in the advancement of advanced algorithms in text analytics. It paved the way for the development of various solutions in natural language processing, including information retrieval,

topic modeling, web search, spam filtering, sentiment analysis, and other forms of text classification. However, this model relied on a bag-of-words approach without considering word sequence and semantic relationships, making it inadequate for analyzing paragraphs or entire documents. To address this limitation, Thomas Mikolov introduced the Paragraph Vector model. These text representations, combined with deep neural networks, greatly propelled the field of natural language processing. These approaches have laid the foundation for numerous computational linguistics and NLP applications. Previous approaches based on hidden Markov models (HMMs) did not achieve the same level of success as the aforementioned approaches have demonstrated in recent times.

Question answering systems represent a crucial domain within NLP. IBM Watson's triumph over human champions in the "Jeopardy!" game showcased the most prominent implementation of such a system. It's worth noting that the approaches employed by IBM may differ from those highlighted earlier, and IBM achieved this feat before many of the NLP approaches mentioned above became publicly available as research publications. Nonetheless, Watson's success brought question answering systems into the spotlight, sparking a surge of research activities in this field.

Question generation has numerous practical applications across various domains, such as Massive Open Online Courses (MOOCs), automated help systems, search engines, chatbot systems for customer interactions, and even in healthcare for analyzing mental health. However, manually creating meaningful and relevant questions can be a time-consuming and challenging task. For instance, when assessing students' reading comprehension, teachers often struggle to generate questions,

find the answers, and evaluate the responses. Traditional approaches have utilized sets of transformation rules or manually created templates with placeholders to generate questions. In recent times, neural network-based techniques, particularly sequence-to-sequence (Seq2Seq) learning, have achieved remarkable success in various NLP tasks, including question generation. Deep learning methods are now being employed to generate questions, as demonstrated by the proposed approach outlined by the author. The author explores the use of a sequence-to-sequence prototype with attention, leveraging pointer networks to generate questions and answers from a given corpus.

Literature Review:

NLP encompasses various techniques, including topic modeling, which is employed to identify important information from text. This extracted information is then utilized for question generation. Question generation systems typically focus on generating factual questions, such as who, when, where, why, and what. Yao et al. categorized question generation approaches into three main categories: template-based, syntax-based, and semantic-based.

1. The syntax-based approach, being the most popular, primarily generates factual questions from text. The goal of this approach is to convert a declarative sentence into an interrogative sentence by manipulating the derived syntactic tree, often parsed using a Context-Free Grammar parser. Tregex, a syntactic tree search language, is utilized to identify syntactic elements and facilitate wh-movement generation.

2. The semantic-based approach in question generation focuses on utilizing semantic parsing to generate questions from text. This approach involves a more in-depth level of analysis compared to the syntactic-based approach. Its main objective is to

parse the declarative semantic structure into a question format. However, this approach may not generate high-quality questions and primarily focuses on factoid-based questions.

3. On the other hand, the template-based approach differs from the syntax-based and semantic-based approaches as it does not employ transformation rules to convert text content into questions. Instead, this approach extracts informative sentences or content from the text or paragraph, makes inferences when possible, and utilizes question templates. The template-based approach often generates more profound questions compared to the syntax-based and semantic-based approaches, but these questions tend to be less specific in nature.

Comparative Study

Question generation can be categorized according to Bloom's taxonomy, which provides a hierarchical framework for educational objectives and questioning. Bloom's taxonomy consists of six levels, progressing from lower-order thinking to higher-order thinking: Knowledge, Comprehension, Application, Analysis, Synthesis, and Evaluation.

Moving to the Comprehension level, students are asked to demonstrate understanding by making connections and constructing meaning. Questions at this level prompt students to interpret, summarize, infer, compare, explain, or classify.

The Application level requires students to apply their knowledge to solve problems and make decisions. Questions starting with words like "Use," "Execute," "Implement," "Show," or "Display" ask students to utilize their acquired knowledge in practical scenarios.

In the Analysis level, students are prompted to break down information into smaller parts and make connections to draw implications. Analytical questions often

begin with words like "Analyze," "Explore," "Infer," "Diagram," or "Examine."

Evaluation questions, at the Evaluation level, ask students to assess, judge, reflect, predict, or justify. Students are expected to critically evaluate information and make informed judgments.

Finally, the Creation level involves a higher-order thinking approach, requiring students to generate original ideas, propose alternative solutions, or design novel products. Questions at this level often start with words like "Compose," "Combine," "Create," "Design," "Invent," or "Develop."

By aligning question generation with Bloom's taxonomy, educators can ensure a comprehensive and progressive approach to assessing students' understanding and higher-order thinking skills.

Conclusion

The paper provides a comprehensive review of various approaches for automatically generating questions from textual content, with a focus on utilizing natural language processing (NLP) techniques. Article presents a comparison of these different approaches used for question generation. The main objective of these approaches is to generate syntactically and semantically correct questions of high quality from the given text.

NLP techniques such as Named Entity Recognition (NER) and Semantic Role Labeling (SRL) are employed in the process. NER is used as an initial step to extract relevant information from the text by classifying named entities into predetermined categories like person names, places, organizations, and time expressions. SRL involves multiple stages, starting with the production of a parse tree. It then identifies which nodes in the parse tree represent the arguments of a given verb and classifies them to determine the final labels.

The existing work in this field has primarily focused on generating questions in the English language, categorized as Factoid, Multiple Choice, and Gap-fill questions. However, there is still room for improvement

and expansion, such as generating True/False, Analytical, and Experimental types of Questions and Answers (Q&A). Future advancements in this area are eagerly anticipated.



References:



1. Skory, Adam, and Maxine Eskenazi. "Predicting cloze task quality for vocabulary training." In Proceedings of the NAACL HLT 2010 Fifth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, pp. 49-56. Association for Computational Linguistics, 2010.
2. Agarwal, Manish, Rakshit Shah, and Prashanth Mannem. "Automatic question generation using discourse cues." In Proceedings of the 6th Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, pp. 1-9. Association for Computational Linguistics, 2011.
3. Skalban, Yvonne, Lucia Specia, and Ruslan Mitkov. "Automatic question generation in multimedia-based learning." Proceedings of COLING 2012: Posters (2012):1151-1160.
4. Gupta, Pankaj, Ashish Goel, Jimmy Lin, Aneesh Sharma, Dong Wang, and Reza Zadeh. "Wtf: The who to follow service at twitter." In Proceedings of the 22nd international conference on World Wide Web, pp. 505-514. ACM, 2013.
5. Fattoh, Ibrahim Eldesoky. "Automatic Multiple Choice Question Generation System for Semantic Attributes Using String Similarity Measures." 2014.
6. Awad, Ahmed Ezz, and Mohamed Yehia Dahab. "Automatic Generation of Question Bank Based on Pre-defined Templates." (2014).
7. Lai, Siwei, Liheng Xu, Kang Liu, and Jun Zhao. "Recurrent Convolutional Neural Networks for Text Classification." In AAAI, vol. 333, pp. 2267-2273. 2015.

TALABALARING O'QITISH STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISHDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR (GEOGRAFIYA SOHASIGA OID TERMINLAR MISOLIDA)

ZARIPOVA AZIZA SHAXOBIDDINOVNA
SamDCHTI tayanch doktoranti

Annotatsiyasi. Mazkur maqolada talabalarning chet tillarni o'rgatishda, o'qitish strategiyasini rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar geografiya sohasiga oid terminlar misolida tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: o'qitish strategiyalari, o'qishni tushunishning nazariyalari, o'qishga o'rgatish komponentlari, o'qituvchining vazifalari, tushuntirish berilishi bilan o'qituvchi terminni tanishtiradi, terminning semantikasi va etimologiyasini aniqlash, yangi materialni o'rganish paytida yoki sinflar tizimidagi boshqa bosqichlarda turli xil ta'lif holatlarda bir xil terminlar qo'llaniladi, talabalar bilimini mustahkamlash bosqichida terminlar bilan ishlashning samarali usuli Klaster tuzish, qiyosiy jadvallar terminlarni tizimlashtirish.

Аннотация. В данной статье трудности, с которыми сталкиваются студенты при обучении иностранным языкам и разработке стратегии обучения, анализируются на примере терминов, связанных с географией.

Ключевые слова: стратегии обучения, теории понимания прочитанного, компоненты обучения чтению, задачи учителя, учитель вводит термин, давая пояснение, определяя семантику и этимологию термина, при изучении нового материала или на других этапах. В классной системе одни и те же термины используются в разных учебных ситуациях, эффективным методом работы с терминами на этапе закрепления знаний учащихся является создание кластера, сравнительных таблиц для систематизации терминов.

Annotation. In this article, the difficulties faced by students in teaching foreign languages and developing teaching strategies are analyzed on the example of terms related to geography.

Key words: teaching strategies, theories of reading comprehension, components of teaching to read, tasks of the teacher, the teacher introduces the term by giving an explanation, determining the semantics and etymology of the term, while learning new material. or at other stages in the class system, the same terms are used in different educational situations, an effective method of working with terms at the stage of strengthening students' knowledge is to create a cluster, comparative tables to systematize terms.

KIRISH. Ingliz tilini o'rganishda o'qishni tushunish juda muhim jarayon va u o'z navbatida ko'p komponentli, o'ta murakkab jaarayon, u talabalar va ular matnga olib keladigan (oldingi bilimlar, strategiyadan foydalanish), shuningdek, matnning o'zi bilan bog'liq (matnga qiziqish, matnni tushunish). Yuqoridagi muhokamani hisobga olgan holda, quyidagicha xulosaga kelish mumkin, tushunish – bu talaba bir vaqtning o'zida jarayon bilan matndan

ma'lumotni tushunish va uni olish faoliyatidir. U uchta komponentdan iborat: talaba, matn va faoliyat. Ushbu uch komponent o'qishni tushunishning turli bosqichlarida bir-biri bilan bog'liq ya'ni o'qishdan oldin, o'qish paytida va keyingi harakatlar. Shunday qilib, talabaning tushunishi darajalari (so'zmaso'z, xulosa va tanqidiy) aniqlanadi. Bu komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ham ko'rib chiqamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

TAHLILI.Samarali va qiziqarli o'quv jarayonlarini tashkil qilish hozirgi kungacha har dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, M.Djusupov, D.Djumanova,D.U.Xoshimovalar,ingliztilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.Gulyamova, F.Ikromxonova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, T.Madraximov X.Mamatqulov, K.Riskulovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

TADIQIQT METODOLOGIYASI.
O'qishga o'rgatish komponenti quyidagilardan iborat:

a) Ta'lif maqsadi – talabalar ikkita maqsadga erishishlari mumkin, ular uzoq va qisqa muddatli maqsadlardir. Braun fikriga ko'ra, uzoq muddatli maqsadlar ingliz tilini o'zlashtirish o'z ichiga olishi mumkin, imtihon (yil oxirida), kelajakda yaxshiroq ish topish imkoniyati va hokazo. Boshqa tomondan, qisqa muddatli maqsadlar oz miqdordagi yangi tilni o'rganish, muvaffaqiyatli tilni o'rganish bo'lishi mumkin, insho yozish, munozaralarda qatnashish qobiliyati, hafta oxirida bo'ladigan progress testidan o'tish. O'qituvchi talabalarni ingliz tilini o'rganishga uzoq muddatli maqsadlarni ta'kidlab undashi, uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun o'qish sinfida faol bo'lishlari ular uchun muhimligini uqtirishda aynan o'qituvchilar roli beqiyos bunda talabalarni ingliz tilini o'rganishga rag'batlantirish uchun o'qituvchi ularga ba'zi fikrlarni berib, qisqa muddatli maqsadlardan foydalanishi mumkin. Agar ular ingliz tilini o'rgatish va o'rganishga jalb qila olsalar, ular o'qish darsida faol bo'lishadi va ular yuqori darajaga ko'tarilishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'qish sinfida ball bilan baholashi yoki ba'zi mukofotlar berishi mumkin;

b) O'qituvchi-o'qituvchilar haqida

gapiргanda e'tibor berish kerak bo'lган ба'зи jihatlar va ularning ta'limdagi roli mavjud. Allenning fikriga ko'ra, yaxshi til o'qituvchilarining ba'зи xususiyatlari bor. Birinchidan, o'qituvchilar tinglash, gapirish, o'qish va yozish bilan birga ingliz tilini o'zini yaxshi ko'rishlari va tushunishlari kerak. Ikkinchidan, ular turli xil texnikalarni tushunishlari va foydalanishlari kerak, sinfni boshqarishning tegishli tamoyillaridan, darslik materiallari va boshqa audio moslamalaridan foydalana olishlari, ijodkorlik va g'ayratli bo'lishlari kerak. Auditoriyada o'qituvchilarning roli ta'lim faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

O'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi nazoratchi sifatida – o'qituvchi dars o'tayotganda har doim sinf faoliyatida nazoratchi sifatida kerak bo'ladi. Nazoratchi, talabalar nima qilishlari, qachon gapirishlari va qaysi til shakllaridan foydalanishlari kerakligini aniqlab turadi. Nazoratchi talabalarga ma'lumotlarni aytib beradi, mashqlarni tashkil qiladi va ovoz chiqarib o'qiydi.

2. O'qituvchi tashkilotchi sifatida – o'qituvchilar yaxshi tashkilotchi bo'lishi kerak. Bunda ular talabalarni turli tadbirlarini tashkil qilishlari kerak, talabalarga ma'lumot berishni, qanday qilib aytishlarini, talabalar mashg'ulotni bajaradilar, ularni juft yoki guruhlarga joylashlari lozim. O'qituvchilar talabalarni jalb qilish uchun o'qituvchilar qiziqarli mashg'ulotlarni yaratishlari mumkin. Bunda o'qituvchilar kerakli ko'rsatmalar beradi, talabalar ta'lim jarayonida nima qilish kerakligini bilishlari, faoliyatni aniq bajarish uchun o'qituvchilar ko'rsatma yoki misol keltirishi kerak.

3. O'qituvchi kuzatuvchi sifatida auditoriyada o'qituvchi nafaqat talabalarga dars beradi, balki ularni foydali fikr bildirishga qaratilgan o'quv jarayonida kuzatadilar deb

Harmer ta'kidlab o'tadi.

TAHLIL VA NATIJALAR Geografiya juda qadimgi fan hisoblanadi. Qadimgi yunon olimi Eratosfen kitob yozib, uni «Geografika» deb atagan. Yunoncha «ge» - Yer, «grafo» - yozaman degan m'a'noni bildiradi. Binobarin, «Geografiya» so'zi «Yerni tasvirlab yozaman», «Yerning tasviri» degan ma'nolarni anglatadi. Geografiya Yer yuzining tabiat, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini o'rganadigan fandir. Geografiya bilan shug'ullanadigan kishilarni geograflar deb ataymiz. Uzoq vaqtgacha geograflar Yer yuzi tabiatini, aholisi va mamlakatlarning xo'jaligini tasvirlab yozish bilan shug'ullanib kelishdi. Geograf-sayyoohlar yangi yerlarni, dengiz va okeanlarni kashf qilishdi. Biroq Yer yuzini tasvirlash, sayyoram izning kattaligini aniqlash, xaritasini tuzish uchun bir necha ming yillar kerak bo'ldi [1, 3].

Ta'lif jarayonida quyidagi terminlarni o'qitish usullari tavsiya etiladi:

1. Tushuntirish berilishi bilan o'qituvchi terminni tanishtiradi, doskaga yozadi yoki ekranda ko'rsatadi, o'quvchilar esa daftarlarga tuzatadilar, terminga og'zaki yoki yozma izoh beriladi (buning uchun ta'lif oluvchilarga maxsus lug'at-daftar taklif etiladi). Terminni bir necha marta ovoz chiqarib talaffuz qilish texnikasi uning to'g'ri talaffuzida mashq qilish imkonini beradi.

2. Terminning semantikasi va etimologiyasini aniqlash usuli chet tilida kelib chiqishi atamasini o'rganishda ayniqsa muhimdir. Terminning kelib chiqishini bilib, uning semantik ma'nosini ona tiliga tarjima qilish bilan bog'lash kerak. Masalan, "biosentrizm" va "antroposentrizm" terminlarini mustaqil tahlil qilganda ta'lif oluvchilar bu yunon va lotin so'zlaridan tashkil topgan murakkab so'zlar ekanligini aniqlaydilar: birinchi holda, bu bios (hayot) va centrum (markaz), ikkinchisi – antropos

(shaxs) va centrum (markaz). Bundan tashqari o'quvchilar "ekologiya" tushunchasini terminlar bilan mustaqil taqqoslaysilar, bu esa nafaqat terminlarni, balki tushunchalarni ham yodlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu terminologik ishlarning analistik va sintetik usuli.

3. Yangi materialni o'rganish paytida yoki sinflar tizimidagi boshqa bosqichlarda turli xil ta'lif holatlarida bir xil terminlar qo'llaniladi: o'qituvchi tomonidan e'lon qilingan, qayd etilgan, amaliy ish jarayonida ishlatiladigan, talabalar tomonidan mustaqil ravishda aytilgan muammoli masalalarni ko'tarish.

Bu metoddan ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat xorijiy terminlar bilan ishlashda, masalan, amaliy mashg'ulotlarda muammoli masalalar va vaziyatlarni yuzaga keltirishda foydalanish mumkin. Masalan, ta'lif oluvchilarga "ekologik inqiroz" va "ekologik falokat" tushunchalari beriladi. "Ekologiya" (yunon tilidan tarjima qilingan "uy, turar joy, yashash joyi" degan ma'noni anglatadi), "inqiroz" (biosfera va insonga tahdid soladigan atrof-muhit holati) va "falokat" (yunon tilidan tarjima qilingan "to'ntarish, ag'darish, o'lim"- tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyat natijasida paydo bo'lgan voqe, odamlarning o'limiga yoki obyekt tarixidagi tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib keldi). Terminlarni muhokama qilib, o'zlashtirgandan so'ng o'qituvchi terminlar asosida "ekologik inqiroz" va "ekologik falokat" tushunchalarini o'zaro bog'lashni taklif qiladi. Shuningdek, ta'lif oluvchilarga muhokama uchun savol beriladi: jahon hamjamiyatining qanday harakatlari insoniyatni ekologik inqirozdan olib chiqishga qodir?

XULOSA VA TAKLIFLAR Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilini o'rganishda so'z boyligi xususan, terminlarning o'rni beqiyos. Terminlar bilan ishslash esa ko'pchilik

o'rganuvchilarga muammolar yaratadi va shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun terminlar bila ishlashning samarali usullarini bilish muhim hisoblanadi va talabalarning

o'qitish strategiyasini rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar geografiya sohasiga oid terminlar misolida tahlil etilishi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi.



Foydalilanigan adabiyotlar:



1. Velde Ch. Crossing borders: an alternative conception of competence / 27 Annual SCIJTREA conference, 1997. – P. 27-35.
2. 5 эффективных приемов терминологической работы. Электронный ресурс: 5 эффективных приемов терминологической работы - EduNeo Дата обращения: 17.11.2021.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». – М., 2004. – 40 с.
4. Парначев В.П., Вылсан И.А., Танзыбаев М.Г., Рудой А.Н., Котельникова И.В. Словарь геологических терминов и понятий. Правительственная информация по странам мира. Электронный ресурс: <http://dir.yahoo.com/Government/countries/>. Дата обращения: 13.10.2021.
5. Сафарова Н., Имомов М. География фанларининг тараққиёт тенденциялари ва инновациялари. УМК. – Тошкент, 2017. – 147 б.

ИНТЕРНЕТ ВА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИ

ИНДИРА ИХЛАСОВА

Аннотация. Ушбу мақолада ижтимоий тармоқларнинг оиладаги ўзаро муносабатларга (эр-хотин, ота-она ва фарзанд, қариндошлар) таъсири ёритилган. Ижтимоий тармоқларнинг оила ҳаётига ижобий ва салбий таъсирлари, мамлакатимизда юз берган оилавий мажароларнинг ижтимоий тармоқларга тарқалиши мисолида кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: оила, ижтимоий тармоқ, Telegram гурухлари, интернет

Мавзунинг долзарблиги. Замон шиддат билан ривожланиб борар экан ижтимоий тармоқлар шахснинг ва шу билан беихтиёр оила вакилларининг ўзаро муносабатларга киришишида асосий воситага айланиб улгурди. Ҳар бир воситадан оқилюна фойдаланилмаса ушбу восита оила мустаҳкамлигига эмас, балки оиланинг пароканда бўлишига сабаб бўлади. Ижтимоий тармоқларнинг оилага ижобий ва салбий таъсири ўрганилиши ортидан келиб чиқиши мумкин бўлган муаммоларни илмий ўрганиб чиқиш ва муаммога бошқа муқобил ечим таклиф қилишдан иборат.

Тадқиқотнинг мақсади Интернет ва ижтимоий тармоқларнинг оилавий муҳитга таъсири ва унинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилиш.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси. Ижтимоий тармоқлар, платформалар ва оммавий коммуникация воситалари инсон ҳаётининг муҳим омили ва воситасида айланиб улгурди. Ижтимоий педагогика ўзгараётган муҳит шахс шакланишига қандай таъсир қилиши, янги жамиятда ўсиб келаётган авлод таълими ижтимоий муаммоси қандай ҳал қилиниши таҳлил қилишини инобатга олсак, ижтимоий тармоқларнинг оила ижтимоий

муҳитига таъсирини ўрганиш зарур экани келиб чиқади. Шарқ мамлакатларида инсон ҳаётида оиланинг ўрни ўта муҳим экани ҳаммага маълум, шундай экан ижтимоий тармоқларнинг оилага таъсирини қандай баҳолаш мумкин деган савол ўз-ўзидан пайдо бўлади. Қуйида оммавий коммуникация воситаларининг оилага салбий ва ижобий таъсирлари ёритилган.

Ўзбекистонда бир қанча ижтимоий тармоқлардан (TikTok, Facebook, WhatsApp, Instagram) кенг фойдаланилади. Ушбу ижтимоий тармоқлар нафақат ёшлар, балки ота-оналар, мактаб ўқитувчилари, ўқувчилари ҳамда оиладаги қариндошлар томонидан ҳам фойдаланиб келинмоқда. Албатта ижтимоий тармоқлар ва платформалардан фойдаланишнинг бир қанча ижобий томонлари мавжуд. Масалан, ота-оналарнинг мактаб ёшидаги ёки боғча ёшидаги фарзанди бўлса, ҳозирги кунда маълум бир гурухларга тегишли Telegram гурухлар мавжуд бўлиб, бунда ота-оналар фарзандининг синф раҳбари, бошқа ўқувчиларнинг ота-онаси, турли фан ўқитувчилари билан ўзаро муносабатга киришиш имкониятига эга. Telegram гурухлари орқали ўқитувчилар кутилаётган оралиқ ва якуний назоратлар куни,

ташкил этиладиган тадбирлар, берилган уй вазифалар ҳақида маълумот беришлири мумкин. Шу билан бирга Telegram гурухлар орқали она-онага фарзандининг мактабдаги ўзлаштириши, мактабдаги одоб-ахлоқ, сўровномалар ўтказиш орқали кўпчилик ота-оналарнинг фикрини билиш ҳамда мактабда содир этилган ноҳу什 воқеа-ҳодисалар ҳақида ота-оналарни зудлик билан хабардор қилиш имконияти мавжуд. Ота-оналар билан онлайн йиғилшлар ташкил этиш имконияти ҳам мавжуд бўлиб, бу орқали куннинг ҳаммага маъқул келадиган вақтини белгилаш, баъзи ота-оналарнинг иш сабабли мактабда ташкил этиладиган ота-оналар мажлисларига қатнаша олмасликлари олдини олиш мумкин бўлади. Ота-оналар ҳам ўқитувчини фарзандини мактабга касаллик туфайли кела олмаслиги ҳақида дарс бошланмасидан олдин огоҳлантириши мумкин бўлиб, бу орқали, ўқитувчи ва ота-она ўртасида тезкор ва тўғридан-тўғри мулоқот ташкил этиш имконияти мавжуд. Яна бир оммавий коммуникация воситаларига emaktab.uz рақамли таълим платформасини мисол қилиб олишимиз мумкин. Агар emaktab.uz рақамли таълим платформасидан олдинги ҳолатни таққосласак, кўпчилик ота-оналар бир йилда бир ёки икки маротаба мактабга борганида чораклик баҳоларидан тўлиқ маълумот олиш, аммо оралиқ ва якуний назорат баҳоларидан бехабар бўлишган бўлса, ушбу платформа орқали ота-она фарзандининг ўзлаштиришини дарс тугаши билан билиш, оралиқ ва якуний назорат баҳоларини платформага қўйилиши билан билиши мумкин бўлмоқда. Айниқса, платформада “мактаб сахифаси” орқали мактаб маъмурияти ва ўқитувчилари, дарс жадвалини, электрон журнал, уй вазифасини бошқариш каби имкониятлар ҳам бир қатор қулайликларни келтириб чиқармоқда.

Ҳозирги кунда қариндошлар Telegram гурухлари ҳам кўплаб ташкил қилинган, унда бир-бири билан узоқ масофа сабаб кўришмай кетган қариндошлар йиғилган бўлиб, бу гурухларда қариндошлар бир-биrlари билан сұхбатлашишлари, ўзларининг ҳаётида содир бўлаётган воқеа-ҳодиса ҳақида ўртоқлашишлари, тўй-маросимларга қариндоши бошқа шаҳарда яшаса онлайн таклиф қилишлари, оила аъзолари суратлари билан ўртоқлашишлари ва шу орқали қариндошлик ришталарини ушлаб туришлари мумкин бўлмоқда. Албатта юқоридаги имкониятлар кўплаб ижтимоий тармоқларда мавжуд бўлиб, Telegram мессенжери Ўзбекистонда кенг фойдаланаётганларидан бири ҳисобланади. Ҳозирги кунда кўплаб ота-оналар рўзгор ташвишида хорижий давлатларга ишга кетишишмоқда, фарзандларини чет давлатларида таълим олиши учун юборишишмоқда, бундай вазиятларда ижтимоий тармоқлар фарзандлар билан мулоқотни йўлга қўйишда асосий восита бўлиб хизмат қилмоқда. Ижтимоий тармоқлар орқали оила аъзолари билан тўғридан-тўғри видео ва аудио орқали боғланиш, уларнинг ҳолидан хабардор бўлиш имкони мавжуд. Ижтимоий тармоқлар бўлмаган вақтда, ҳафтада бир-икки марта телефонлашиш имконияти бўлган бўлса, ҳозирги кунда ҳар дақиқа боғланиш имконияти мавжуд. Албатта, ижтимоий тармоқларнинг имконият ва қулайликлари чексиз.

Ижтимоий педагогика бола шахси ва унинг болалигини ҳимоя қилишини иnobатга олсан, ота-она, яқин қариндош ёки васийларнинг, мактаб ўқитувчилари, мактабгача таълим педагогларининг болага нисбатан кўпол, ахлоқ нормаларига тўғри келмайдиган хатти-ҳаракатининг содир этилиши ва бу маълумотларнинг ижтимоий тармоқларга тарқалиши натижаси, кенг жамоатчилик эътиборига тушиши,

шу орқали бола ҳукуқларини бузилишига сабабчи бўлган шахсларга нисбатан ўз вақтида керакли чора тадбирларини амалга ошириш имконияти пайдо бўлмоқда. Мисол учун, 2023 йил Қашқадарё вилояти Кўкдала туманида 7-синф ўқувчиси унаштирилаётгани видеосининг тарқалиши; 2023 йил 15 декабрь куни Наманган вилояти Чуст тумани "Гулистон" МФЙ ҳудудидаги 2-сон касб-хунар мактабида мактаб директори ўринбосари А.Н. дарс вақтида сабабсиз ўқув машғулотларига қатнашмаётганлиги важи билан мактаб ўқувчилари 2007 йилда туғилган М.С., М.А. ва 2006 йилда туғилган Ю.Д., Ф.А ларни калтакланлик видеосининг тарқалиши; 2023 йил август ойида пойтахт Тошкентнинг Мирзо Улуғбек туманида 63 ёшли эркак 8 яшар қизнинг қаршилигига қарамай, уни ўпид, уятсиз-бузуқ ҳаракат содир этгани ҳақида хабарлар ва тасвирлар. Афсуски, ижтимоий тармоқларда бу каби тарқалган видео ва хабарлар рўйхати 2023 йилнинг ўзида анчагина узун ва ачинарлидир.

Ҳар-бир мавжуд имкониятдан меъёрдан ошиш ёки четлашиш бўлса, у албатта салбий оқибатларни олиб келиши аниқ. Ҳозирги кундаги ахборот асрида тармоқларда тарқалаётган баъзи хабарлар инсонни даҳшатга солмай иложи йўқ, буларга оилавий низоларнинг кенг жамоатчиликка ёйилиши, фарзандларга оиласда қилинаётган ёмон муносабат, ота ёки онанинг бир-бирига жаҳл устида фарзандига қилаётган зулми, фарзанднинг ота-онага зулми ва ҳ.з. Мисол учун, эри ёки аёли бошқа шаҳар ёки давлатда ишлаётганда тўғридан-тўғри боғланиш ва суҳбатлашиш каби ижобий тарафлар саналган бўлса, эндиликда онлайн суҳбатлар натижасида эр ёки хотин бир-бирига нисбатан жаҳл қилишлари ҳамда фарзандларига зулм қилиб эри ёки хотинидан ўч олиш ниятида фарзандларига қилинаётган ёмон муносабат-

ни видеога олиш ва видеоларнинг интернетда кенг тарқалиши ҳам кузатилмоқда. Масалан, 2023 йил декабрь ойида Жиззах шаҳрида яшовчи, боланинг отаси деб айтилаётган шахс А.Б гўдак болани турли шаклда кийнаётгани, уни ҳаёти ва соғлигини хавфга солувчи хатти-ҳаракатлар қилаётгани тасвирланган видео тарқалди; 2022 йил 24 декабрь куни Ургут тумани Ватақ маҳалласида яшовчи фуқаро Г.О. Россия Федерациясига ишлаш мақсадида кетган турмуш ўртоғи билан телефон орқали мулоқот қилиш жараёнида, ўрталарида келиб чиқсан ўзаро келишмовчиликдан сўнг, турмуш ўртоғига жаҳл қилиб, ўзининг вояга етмаган фарзандини урган, ҳолатни телефон аппаратида видеотасвирга олиб, видеони турмуш ўртоғига юбориб, вояга етмаган фарзандларини ўлдириш билан қўрқитган; 2023 йил ноябрь ойида ижтимоий тармоқларда Хоразм вилояти, Урганч туманида аёл тахминан 2-6 ёшлар оралиғидаги 3 нафар фарзандини ёқиб юбориш билан таҳдид қилгани акс этган видео тарқалиши; 2023 йил Самарқандда 36 ёшли эркак Исроил давлатида ишлаб келаётган турмуш ўртоғи билан телефон орқали келиб чиқсан ўзаро келишмовчилиги натижасида жаҳл қилиб, ундан ўч олиш мақсадида 3 нафар вояга етмаган фарзандини (2 та қиз ва 1 та ўғил) ошхона пичоги билан қасдан ўлдирган.

Ижтимоий тармоқларда гиёҳванд ва кучли таъсир қилувчи моддалар сотувига оид каналларнинг мавжудлиги оиласда фарзандлар тарбиясига таъсири; фирибгарлик орқали оилавий бюджетга зарар берилиши ва оила аъзоларининг ижтимоий тармоқлар орқали танишган инсонларига шахсий расм ва маълумотларни ўйламай юбориши натижасида оила шаънинг инқирозга юз тутиши; оила аъзоларидан бирининг онлайн қимор ўйинларига муккасидан кетиши натижасида бир оила аъ-



зосининг ўз жонига қасд қилиши ва на-тижада болалар етим бўлиб қолаётгани; эр-хотин бошқа-бошқа шаҳарларда бўлиб ўз хиссиётларини назорат қила олмасли-клари туфайли фарзандларига тан-жа-роҳат етказишлари каби бир катор ижти-моий муаммоларни пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ҳар бир жамиятда ижтимоий тармоқлардан фойдаланишинг маълум ижтимоий, ўзини тутиш, одоб-ахлоқ нормаларига риоя қилинmas ва бу борада таълим-тар-бия оиласдан бошланmas экан, янгидан янги ижтимоий ёрдамга муҳтоҷ шахслар пайдо бўлиб боради. Бу борада қуйидаги

таклифларни амалга ошириш зарур:

1. ота-онанинг фарзандлари билан ижтимоий тармоқдан фойдаланиш одоб-ахлоқ нормалари ҳақида сұхбатлар олиб боришлари, бу сұхбатларни ташкил этиш учун ота-оналарга ижтимоий педагогик кўмак беришни ташкил этиш,

2. маҳаллаларда ижтимоий тар-моқлардан фойдаланиш нормаларига риоя қилмаслик заарлари ҳақида сұхбатлар олиб бориш,

3. emaktab.uz платформаси орқали ўқувчилар учун ҳар йили ижтимоий тар-моқлардан фойдаланиш бўйича мажбурий онлайн курсларни ташкил этиш каби бир қанча чора тадбирлар ташкил этилиши.



Фойдаланилган адабиётлар:



- Нодира Эгамбердиева // Ижтимоий педагогика: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонида дарслик сифатида чоп этишга тавсия этилган// Тошкент: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхонаси нашриёти-2009
- Мавлонова Р.А., Воҳидова Н.Ҳ. // Ижтимоий педагогика// “Истиқпол”, 2009
- Муҳаммад Амин Яҳё. // Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя:Ёрдамчи ўқув қўлланма// – Тошкент:Movarounnahr, 2016.-408 б.
- Самарқандда ота уч фарзандининг бошига етди, 17.06.2023, <https://www.xabar.uz/hodisa/samarqandda-ota-uch-farzandinining-boshiga-etdi>
- Фарангиз Салимова, Qalampir.uz, 25.12.2023 й, <https://qalampir.uz/news/k-ashk-adareda-zhinsiy-k-ullikda-sak-langan-k-izning-a%D2%B3voli-ma-lum-k-ilindi-95089>
- Феруза Нажмидинова, Qalampir.uz, 2.01.2024 й, <https://qalampir.uz/news/-2500-95291>
- Qalampir.uz, 06.12.2023, <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-63-yashar-pedofil-5-yilga-k-amaldi-94275>